

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI**

**SANATSHUNOSLIK KAFEDRASI
OLIV TA'LIMDA MUTAXASSISLIK FANLARINI
O'QITISH METODIKASI
FANIDAN**

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

Shahrisabz - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI**

**SANATSHUNOSLIK KAFEDRASI
OLIV TA'LIMDA MUTAXASSISLIK FANLARINI
O'QITISH METODIKASI
FANIDAN**

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Magistratura mutaxassisligi:	7011130 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta'lim)

Shahrisabz - 2025

O'UM ning Kelishilgan varaqasi


Fanning o'quv uslubiy majmuasi Shahrizabz davlat pedagogika instituti kengashining 2025-yil "30" avgustdagi 1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan, (Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi) fanidan namunaviy dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi: J.X.Xayitov. Shahrizabz davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" kafedrasida v/b dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar: Turdiyev E. Qar.DU "Texnologik ta'lim" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
Ismoilova M. Shahrizabz davlat pedagogika instituti, "San'atshunoslik" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Fanning o'quv uslubiy majmua Shahrizabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" fakulteti "Sanatshunoslik" kafedrasining 2025 yil "26" avgustdagi 1-sonli majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri:



J.X.Xayitov

Fanning o'quv uslubiy majmua Shahrizabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" fakultetining ilmiy kengashida tasdiqlangan (Bayonnoma № 1 2025 yil 27 avgust)

Fakultet dekani:



I.N.Achilov

MUNDARIJA

№	BO‘LIMLAR	Betlar
1	O‘MMning kelishilgan varag‘i	
2	O‘MM ning mundarijasi	
3	Ma’ruza mashg‘ulotlar mazmuni	
1	Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiy tamoyillari “Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.	
2	Mutaxassislik fanlarini o‘qitishning didaktik tamoyillari. Davlat ta’lim standartlari. Maxsus fanlar o‘quv rejalarini va ishchi o‘quv rejalarini ishlab chiqish.	
3	O‘quv dasturlarining mazmuni va tuzulmasi. Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodlari va tashkiliy shakllari.	
4	Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlaridan mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasi.	
5	Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda baholash mezonlari. Talabalar bilim darajasini aniqlashning amaliy tomonlari va taxnologik asoslari.	
6	Mutaxassislik ta’limi yo‘nalishida magistrnlarni tayyorlashda ilmiy tadqiqotchilik ishlarini mazmuni.	
7	Tarbiya jarayonini tashkil etish mohiyati. Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish.	
8	Aniq mavzu asosida pedagogic texnologiyani loyihalash bosqichlarini ishlab chiqish. Maxsus fanlar bo‘yicha aniq mavzu asosida loyihaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash metodikasi.	
9	Mutaxassisliklar bo‘yicha Davlat ta’lim standartlarini tahlil qilish.	
10	Mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv rejaları hamda dasturlarini tahlil qilish.	
11	Maxsus fanlarni o‘qitishda ta’lim metodlarini tanlash.	
12	Maxsus fanlarni o‘qitishda tarbiyaviy ishlar mazmunini ishlab chiqish.	
13	Maxsus fanlarni o‘qitish sohasida ilmiy tadqiqotlarning rejasi va mazmunini ishlab chiqish.	
14	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, professional ta’lim muassasalari sifatini boshqarish tizimining mazmuni va tuzulmasi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish tizimining mazmuni va tuzulmasi. Malaka oshirish muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish tizimini yaratish imkoniyatlarini o‘rganish.	
15	Ta’lim sifatini boshqarish tizimi holatini o‘rganish va tashxis qilishga oid materiallar ishlab chiqish.	
4	Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari.	
1	Kasb tiplarini aniqlash. Qiziqishlar xaritasi metodikasi.	
2	O‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash metodikasi.	

3	Ayznekning shaxs so'rovnomasi.	
4	O'quv motivatsiyasining yo'nalganligi diagnostika qilish metodikasi. Kasbiy moyillik so'rovnomasi.	
5	Shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasi. Kasbiy ustunovkalarni aniqlash.	
6	Kasbiy indentifikatsiyani aniqlash.	
7	Shaxsning muloqatchilik va tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash.	
8	Kasbiy qobiliyatlarni aniqlash metodikasi. Kasbiy sifatlarni tashxis qilish metodikasi.	
9	O'smirlarning kasbiy qiziqishlari dinamikasi. Shaxsning kasb tanlashida ta'sir etuvchi omillar.	
10	Shaxsning kasb tanlashida ta'sir etuvchi omillar. Kasbga yo'naltirish diagnostikasini tashkil etishda kommunikatsion texnologiyalaridan (AKT) foydalanish.	
11	Kasbga yo'naltirish diagnostikasi jarayonini loyihalashtirish.	
12	O'qituvchini o'z-o'zini baholash metodikasi.	
13	Diferensial diagnostik so'rovnoma o'tkazish metodikasi.	
14	Kasbiy moyilliklarni aniqlash metodikasi.	
15	O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi.	
5.	Fan dasturi va sillabusga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar	
6.	Ilovalar	
7.	Fan dasturi	
8.	Sillabus	
9	Glossariy	
10	Nazorat uchun savollari	
11	Foydalanilgan adabiyotlar	

1-Mavzu: Ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiy tamoyillari. "Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Reja:

1. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, tadqiqot metodlari.
2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.
3. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida.

***Tayanch so'z va iboralar:** "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish, oliy ta'lim tizimi, fanning maqsadi va vazifalari, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, didaktika, metodika, metod, kasbiy pedagogika, o'qitish metodikasi, kasb, mahorat, tadqiqot metodlari, kuzatish usuli, suhbat usuli, pedagogik so'rov usuli, test, so'rovnomalar, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli, ijtimoiy tadqiqot usuli, biomexanik usullar, psixofiziologik usullar.*

1.1. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, tadqiqot metodlari

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da oliy ta'limga qo'yilgan talablar. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", davlat ta'limi standarti va o'quv rejasi kabi me'yoriy hujjatlarda bugungi kunda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishga qo'yilgan talablar o'z aksini topgan. Ushbu

hujjatlarda chuqur bilimli, erkin fikrlovchi, o'zida yuksak insoniy fazilatlarini mujassam etgan barkamol shaxsni tarbiyalash birinchi galdagi vazifa etib belgilangan.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi; davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi; ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

1.2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.

Oliy ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning joriy etilishi yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni va tadbik etishni takozo qildi. Shu nuqtai nazardan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim jarayoni,

mazmunini islox qilish asosan, me'yoriy xujjatlar majmuasi (davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari va dasturlari) asosida, kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqlol g'oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan Uzlüksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi hamda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor sohadir.

Uzlüksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta'minlanadi.

Ta'limning uzluksizligi shunday ma'no beradiki, inson tug'ilgandan boshlab to umrining oxirigacha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lsin. Bunday tizim O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida o'z aksini topgan. **Oliy ta'lim** – uzluksiz ta'lim tizimining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. U oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rtamaksus kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat – o'rta-maxsus kasb-hanvr ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim;

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Bakalavr, magistr – oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladjigan akademik darajalardir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, bakalavriat va magistratura bosqichiga bo'linadi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asoslarda amalga oshiriladi.

Bakalavriat mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim hisoblanadi.

Bakalavrlilik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim hisoblanadi.

«**Magistr**» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining yakunlovchi bosqichidir. Magistrarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi. Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

oliy ta'lim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan xorijiy davlatlardagi etakchi o'quv va ilmiy markazlarda tayyorlash; oliy ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgartishlar o'tkazish;

oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish hamda o'zlashtirish;
pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish;
xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash.

1.3. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanini predmeti, maqsad va vazifalari. Bugungi kunda magistratura mutaxassisliklaridagi "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani tanlov fani hisoblanib, fanning o'quv dasturi har bir oliy ta'lim muassasasidagi shu fanni o'qitishga ma'sul bo'lgan professor – o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilmoqda.

"Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha o'quv dasturini tuzishda uning quyidagi maqsad va vazifalarini hisobga olish dastur mukammalligini oshiradi.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari.

Fanning ma'ruza mashg'ulotlarida oliy ta'limning me'yoriy-huquqiy xujjatlari, ta'lim tamoillari, maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari va amalga oshirish metodlari, maxsus fanlardan ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi, talabalar bilan kunikma va malakalarini nazorat qilish va baholash kabi mavzular o'rin olgan.

Amaliy mashg'ulotlarda esa, fanga oid quyidagi mavzularga o'rin ajratilgan: oliy ta'lim muassasalarining tuzilmasi va mazmuni, oliy ta'limning me'yoriy – huquqiy xujjatlarini tuzilishi va ularni rasmiylashtirish, ta'lim metodlari va ularni amalga oshirish metodikasi, maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, maxsus fanlardan ma'ruza, amaliy va tajriba

mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi, darsni tahlil qilish metodikasi bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining tadqiqot metodlari.

Maxsus fanlarni o'qitish muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad o'qitish va o'rgatishning, samarali metodlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash, axborot-texnik vositalarni qo'llashga doir masalalarni yechishni o'rganishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o'qituvchida fanning mazmunini chuqur bilishni talab etiladi. Ko'pchilik bo'lajak pedagoglar talabalik vaqtlaridayoq pedagogik izlanishlar bilan shug'ullanadilar. Fan bo'yicha metodik ko'rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalari bilan qatnashib, o'zlarining pedagogik mahoratlarini oshirib boradilar. Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlarni o'rganish va amaliy ishlar asosida muammolarni aniqlashi.

O'qituvchi adabiyotlarni o'rganish davomida quyidagilarni aniqlashi kerak:

- ✓ o'rganilayotgan muammo to'g'risida adabiyot muallifining fikr mulohazasi;
- ✓ o'rganilayotgan muammo to'g'risida usullardan farqli ravish kiritg
- ✓ adabiyotlarda qaysi asosiy masalalar yoritilmagani;
- ✓ muammoni yechish uchun olib boriladigan izlanishlar.

Quyidagilar o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolar hisoblanadi:

- ✓ o'qituvchi dars jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar;
- ✓ kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

2. O'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish.

- ✓ Dalillarni taqqoslash orqali asoslangan takliflar beriladi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayonida qo'llash.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumiy va maxsus usullari qo'llaniladi. Umumilmiy usullarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat, pedagogik so'rov, test, so'rovnomalar, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqalar kiradi.

Nazariy izlanish usuli –adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish hamda pedagogik tajribalar asosida olib borilgan izlanishlar. Adabiyotlar ustida ishlashda

- ✓ adabiyotlarda qaysi asosiy masalalar yoritilmagani;
- ✓ muammoni yechish uchun olib boriladigan izlanishlar.

Quyidagilar o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolar hisoblanadi:

- ✓ o'qituvchi dars jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar;
- ✓ kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

2. O'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish.

- ✓ Dalillarni taqqoslash orqali asoslangan takliflar beriladi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayonida qo'llash.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumiy va maxsus usullari qo'llaniladi.

Umumilmiy usullarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat, pedagogik so'rov, test, so'rovnomalar, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqalar kiradi.

Nazariy izlanish usuli –adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish hamda pedagogik tajribalar asosida olib borilgan izlanishlar. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlar, to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi

Kuzatish usuli- odatda, tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori muomalasidan o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'lim-tarbiya t'siri ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi/ Bu usul tadqiqotchining pedagogik tajribani muayyan bir tomoni va hodisalarni biror maqsadni ko'zda tutib idrok etishi tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, Vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratilgan tavsif va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatishlar turlarga bo'linadi. Bevosita va bevosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayonda kuzatuvchining xattixarakatlari kabilarni yozib qo'yish imkoini beradi. Bevosita qayd qilish usuli birorbir hodisalarning oqibati haqidagi daliliy materialnin boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning visual usullari xilma-hil texnika vositalari (kinofilm, videotasvir, teleko'rsatuv)dan foydalanish oprqali tobora ko'p qo'llanilmoqda.

Suhbat usuli-so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rastishni talab etadi. Chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshning javoblarini yozmasdan, erkin muomala shaklida qo'llaniladi.

Suhbat usulida-o'qituvchilar va talabalar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan yakka va guruh tarzidaish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat usulida farqli ravishda intervvu olish usuli oldindan belgilangan savollarni izchillik bilan bayon qilishni nazarda tutadi.Bunda javoblar magnit tasmaiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotda intervvyu olishning ko'p usullari mavjud

Bular:

- guruhlar tarzida;
- jadal;
- sinov va h.k

Talabalar ijodini o'rganishda-ularning o'ziga hos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi. Pedagogik so'rov usuli- tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalar haqida axborot olish jarayoni bu usulning asosini tashkil qiladi. So'rash usulida savollarning mantiqiy o'ylangan tizimini, uning aniq foydalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5 ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy shakildagi javobni(“ha”,”yo'q”) ham taqazo etish mumkin. Test, so'rovnomalar-so'rovnoma, ya'ni anketa usuli ilmiy farazning

yangiligini aniqlash, yakka yoki guruh holdagi talabalarning fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida takabalarining bilimlarini yoppasiga baholashdir. Mutaxasislarning bilimini va dunyoqarashini aniqlash uslublaridan biri-bu test yordamidagi sinovdir. Test yordamida sinov talaba yoki mutahasisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutahasislikka layoqati borligini, iqtidorini zudlik bilan aniqlash va baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimlarni baholashning pedagogik nuqtaviy nazaridan yutuqlari va kamchiliklari keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi takidlangan. Test savollari va masalalarning aniqligiga sabab, uning qisqa va lo'ndaligi, umumiy javoblar ivhida to'g'ri javobning borligi va ularning talabalarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, uning topishmoqli o'yingga o'xshashligi va javobni topishda xotira, ichki tuyg'u va topqirliklar qo'l kelishidir. Test savollarini chop etish talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Tajriba-sinov eksperiment usuli-ushbu tajriba ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli – ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarining qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lab statistika usuli orqali aniqlanadi.

Matematik va kibernetik usullar – o'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashnalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, tabaqalashgan va individual ta'lim berish kabi jarayonlardir.

Ijtimoiy tadqiqot usuli – anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talabayoshlarning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini, o'quv yurtidagi shart-sharoitlarini bilish, yutuq va kamchiliklarni, dinga, xususan tasavvuf ilmiga qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlarini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, o'qituvchilarning bilim berish darajasi, o'quv qo'llanmalarining sifati, kompyuterda mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish, ilmiy va kasbiy mahoratni oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalar talabalarning qanchalik qoplashi, talabalarning haq to'lanadigan ishlarda qatnashishi, otaonalarining yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalar qo'p boradigan jamoat joylari, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir etuvchi, mutaxasssi bo'lib yetishishida hal qiluvchi omillar, talabalarning onglilik darajasi, komil inson bo'lish uchun kerak bo'lgan ma'naviy sifatlar, o'zlashtirganlik darajasi haqida savollar anketaga kiritiladi. Savol-javolarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xuldosalar chiqariladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullardan tashqari kasb ta'limida maxsus usullardan ham foydalaniladi.

Kasb ta'limida tadqiqotning maxsus usullari keng tarqalib, unda hodisa va jarayonlarni o'rganishga yo'naltirilgan asbob-uskunalar va apparatlar ob'ektiv miqdoriy kattaliklarni olish maqsadida qo'llaniladi.

Tadqiqotning maxsus usullari shartli ravishda uch guruhga bo'linadi:

- Ish-harakatlarining natijaviy tafsilotini o'rganish (harakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi) ga bog'liq bo'lgan usullar;
- Biomexanik usullar;
- Psixofiziologik usullar.

Ish-harakatlarining natijaviy ko'rsatkichlari bilan bog'liq tadqiqotlarda, shu jumladan, ularni o'zlashtirish jarayonida xronometraj kata rol o'ynaydi. Ish me'yori, maqbul vaqt, shu jumladan, ishlab chiqarish ta'limining turli davrlarida talabalar vaqt me'yori, tartibotini aniqlash maqsadida, shuningdek, harakatlarning

vaqtinchalik tuzilmasini o'rganish talablari yoki ishchilarning tayyorgarlik darajasini baholash uchun xrometrajdan foydalaniladi.

Biomexanik usullar - bu ish-harakatining fazoviy vaqt va kuch parametrlarini o'rganishdir. Bunda ularning mukammalilik darajasi, ishchining asbob, dastgoh va hokazolar bilan o'zaro kuch ta'sirida, asbob va qo'l harakatining kinematikasi va boshqalar aniqlanadi.

Psixologik usullar o'quv va mehnat faoliyati jarayonida inson organizmining turli a'zolarining funksional holatini o'rganishda foydalaniladi. Bulardan elektromiografiya, elektrokardiografiya, elektrodermografiya usullari keng qo'llaniladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da oliy ta'limga qanday talablar qo'yilgan?
2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanini maqsad va vazifalari nimalardan iborat?.
3. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining asosiy tushunchalari haqida fikr bildiring?
4. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining umumiy metodlarini tushuntiring?
5. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining maxsus metodlarini tushuntiring?

2-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitishning didaktik tamoyillari. Davlat ta'lim standartlari. Maxsus fanlar o'quv rejalarini va ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqish.

Reja:

1. "Mutaxassislikfanlarini o'qitish metodikasi" fanidan ta'lim berishning didaktik tamoyillari to'g'risidagi tushunchalar.

2. Ta'lim va tarbiyaning birligi; onglik va faollik; ilmiylik va tizimlilik; nazariya va amaliyotning bog'liqligi; ko'rgazmalilik; yosh va individual xususiyatlarning e'tiborga olinishi; bilimlarni o'zlashtirishni puxtaligi va mustahkamlab borilishi.

3. Shaxs bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonining xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: Ta'lim tamoyillari, faollik tamoyili, namunalardan foydalanish tamoyili, ta'lim oluvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili, o'qitishda nazariya bilan va amaliyotni bog'liqligi tamoyili, ko'rgazmalilik tamoyili, ilmiylik tamoyili, o'qitishda tizimlilik va izchillilik tamoyili, o'qitishda talabalarning onglik va faolligi tamoyili, o'qitishning tarbiyalovchi xarakterliligi tamoyili.

2.1“Mutaxassislikfanlarini o'qitish metodikasi” fanidan ta'lim berishning didaktik tamoyillari to'g'risidagi tushunchalar.

Ta'lim tamoyillari to'g'risida tushuncha. Ta'lim tamoyillari tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonining xarakteri, yo'nalishi, ta'lim oluvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga ta'lim tamoyili ikkita faoliyatni, ya'ni ta'lim oluvchi va ta'lim oluvchining faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, o'qitish tamoyili ta'limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Buyuk pedagoglar YA.A.Komenskiy, J.J.Russo, CH.R.Pestalotssi, V.Disterverg, K.D.Ushinskiy va boshqalar o'z asarlarida ta'lim (didaktika) tamoyillarini asoslab bergan edilar. Ta'lim tamoyilari tizimi o'qitish jarayoni qonuniyatlarini ifodalaydi va tarbiya maqsadlari bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qitish tamoyili ta'limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi. M.N.Skatkin ta'lim tamoyillarini quyidagicha belgilaydi: ilmiylik, har

tomonlamalik, hayot bilan aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, o'quv fanlari orasidagi o'zaro aloqadorlik, joriylilik .

M.G.Ogorodnikov esa o'z tadqiqotlarida ilmiylilik, g'oyaviylik, tarixiylik, tizimlilik, nazariya va amaliyotning birligi, ta'limning hayot bilan aloqasi kabilarni tamoyillar sifatida ajratib ko'rsatgan.

S.Ya.Batishev - kasb ta'limi mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bog'langan holda tasavvur etish kerak deb hisoblaydi va ta'limning quyidagi tamoyillarini qayd etgan: ilmiylik, tizimlilik va joriylilik, nazariy ta'lim bilan ishlab chiqarish mehnatining birligi.

V.A.Skakun - kasb ta'limi tamoyillarini ilmiylik va g'oyaviylik; ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligi; ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta'limning bog'liqligi, politexnizm: malakali ishchilarni tayyorlash barcha tomonlarining birbiriga aloqasi; ta'limning tabaqalashtirish deb biladi.

Ta'lim tamoyillari deb - o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga o'quv rejasi va o'quv dasturlari talablari asosida u yoki bu fandan bilim berish, malaka hosil qildirish hamda iqtidorli qilishga qo'yiladigan asosiy qoidalar majmuiga aytiladi.

A.P.Belyayeva ta'limda xalqchillilik, ilmiylik, politexnikaviylik, tizimlilik, muqobillik, politexnik va kasbiy ta'limning birligi hamda o'zaro aloqasi; fanlararo va majmuaviy o'zaro aloqadorlik, kasbiy safarbarlik, ta'limning moslashuvchanligi va turg'unligi, mujassamlangan hamda tabaqalashganligini asosiy tamoyil sifatida talqin etadi.

Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda didaktik tamoyil (printsip) talablarini hisobga olish zarur. Bunda maxsus fan o'qituvchisining o'qitish qonuniyatlarini bilishligini emas balki, ulrni amalga oshirish (tushuntira olish) uchun qulay sharoitlar yaratishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga esa o'quv jarayonini tashkil etishda o'qitishning asosiy tamoyillariga tayanish kerakligini anglagan taqdirdagina erishish mumkin. Bu tamoyillar didaktikada ta'lim tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb ataladi.

Didaktika (yunoncha didaktikos — o‘rgatuvchi, ta‘lim beruvchi) — pedagogikaning tarmog‘i hisoblanib, u ta‘lim nazariyasi bilan shug‘ullanadi. “Didaktika” atamasi ilk bor Evropada 17-asrda o‘qitish va ta‘lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. CHex pedagogi Ya.A.Komenskiy o‘zining «Buyuk didaktika» asari (1657 yil)da bolalar va o‘smirlarni ma‘lumotli qilish va ularga ta‘lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi A.Disterveg o‘zining “Nemis ta‘lim beruvchilarini ma‘lumotli qilishga rahbarlik” (1834-1835 yy.) asarida didaktikaning pedagogikada ta‘lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta‘kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta‘lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta‘lim va ma‘rifat berish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta‘lim mazmunini aniqlash, ta‘lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o‘qitishning eng samarador usul va yo‘llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo‘nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o‘rni katta. Didaktika umumiy psixologiya, o‘qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog‘liq. Bu fanlarning har biri ta‘lim oluvchining bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to‘g‘risida alohida bilim beradi. Ta‘lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o‘qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta‘lim va ma‘rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o‘qitish metodikasi ta‘lim amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktikaning tamoyillari ta‘lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi.

O‘zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag‘ishlangan ko‘pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan

bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al Farg'oniy, Marg'inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis, Abdulla Avloniy singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pededagogikasi taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi ta'lim oluvchilarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, ta'lim oluvchilarda bunday xislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'inoniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni ta'lim oluvchilar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan. O'zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shukuriy, A.Ibodiev, M.Behbudiy, A.Avloniy, S.Saidazizov, R. YUsofbeckov kabi ma'rifatparvar pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi. 20-asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik turkiy xalqlarning qadimiy shonu shuhratini tiklash uchun uni ma'rifatli qilishdan o'zga yo'l yo'qligini to'g'ri belgiladi. Jahon pedagogikasining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan, ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda ko'p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, didaktikaning metodologik asosi sifatida islomiy e'tiqodni belgilagan jadidlar o'qitish borasida yuksak natijalarga erishdilar. Jadid mutafakkirlar ta'limni uyushtirishning amaliy jihatlari bilangina shug'ullanib qolmay, uning nazariy masalalarini ham tadqiq etganliklari diqqatga sazovordir. Jadidlarning didaktik qarashlari ularning ko'plab pedagogik asarlari, darslik va qo'llanmalarida aks etgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbek pedagogika fani va amaliyoti milliy asoslarga tayangan holda didaktikaning tamomila yangicha yo'nalishda taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ongning o'zgarishi

pedagogik tafakkurning sog'lomlashuviga, u esa, o'z navbatida, didaktikaning milliy asoslarda rivojlana boshlashiga olib keldi. Bunda milliy didaktikaning asosiy tamoyillarini to'g'ri belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ta'limning insoniylashuvidir. Mazkur tamoyil ta'lim jarayoni uchun bilim emas, balki ta'lim oluvchi shaxsi asosiy qadriyat ekanligini anglatadi. Bunda ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirishga ustuvor o'rin beriladi. Ta'limning insonparvarlashuvi tamoyili o'zbek didaktikasining asosiy talablaridan bo'lib, ta'lim mazmunini belgilash va pedagogik amaliyotni tashkil etishda shaxs ma'naviyatini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlariga ustuvor ahamiyat berilishini kuzda tutadi. Estetik, badiiy turkumdagi predmetlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish yo'li bilan bolalarning hissiyotini shakllantirishga erishish, ularda iroda xususiyatlarini tarkib toptirish muhimdir. Ta'lim oluvchi ma'naviyati bilan uning o'zlashtirishi o'rtasida uzviy aloqa borligi zamonaviy psixologiya fani tomonidan asoslab berilgan. Bu holatni hisobga olmay ish ko'rgan pedagog muvaffaqiyatsizlikka mahkumdur. Milliy didaktika taraqqiyotini ta'minlaydigan tamoyillardan yana biri ta'limning yaxlitligidir. Dunyodagi narsa-hodisalar yaxlit va bir-biridan ajralmagan holda mavjud ekan, uni o'rganish ham imkon qadar yaxlit tarzda amalga oshirilishi kerak. Ta'lim jarayonida o'quv predmetlari miqdorini ko'paytirish emas, balki olamni bilish vositasi bo'lmish o'quv fanlarini imkon qadar umumlashtirish yo'lidan borish lozim. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonning yangilangan o'quv rejalarida ta'limning asosiy etti tarmog'i belgilangan bo'lib, o'quv fanlari miqdorini zaruratga qarab o'zgarib turishi ko'zda tutilgan. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning alohida jihatlarini hisobga olish ham didaktikaning asosiy tamoyillaridan sanaladi. U o'qitish jarayonini har bir ta'lim oluvchiga xos xususiyatlarni ko'zda tutgan holda tashkil qilishni taqozo etadi. Ma'lumki, har qanday shaxs muayyan geografik muhitda shakllanadi. Uning tabiatida o'sha muhitga xos jihatlar muhrlangan bo'ladi. Shuning uchun ham o'qitish jarayonida mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyili ham didaktikaning zarur

talablaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da mazkur tamoyilga alohida e'tibor qaratilgan. Tarbiyaning ustuvorligi ham bugungi o'zbek didaktikasining asosiy tamoyillaridan sanaladi. Komil shaxsni tarbiyalash har qanday ta'lim muassasasining asosiy vazifasiga aylandi. Ma'naviyatni shakllantirish maqsad darajasiga ko'tarilgan sharoitda tarbiyaga ustuvor maqom berilishi tabiiydir. Milliy didaktika ta'lim oluvchilarni ta'lim jarayonining ishtirokchilarigina emas, balki ijrochilari deb qarashni ham ko'zda tutadi. Ta'lim ta'lim oluvchilarning ichki ehtiyojiga aylanmasa, ular bu jarayonda faol ishtirok etmasalar, hech qanday ijobiy samaraga erishib bo'lmaydi. Didaktika ta'lim usullari muammosini ham qamrab oladi. Ta'lim beruvchi biror predmet bo'yicha ta'lim oluvchilarning tizimli bilim olishini ta'minlash maqsadi sari intilar ekan, ma'lum ishlarning bajarilish namunasini ko'rsatadi. Ayni vaqtda, u ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim oluvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlaydi. Ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o'zlashtirishlari, o'rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo'llashlari uchun maxsus topshiriqlar beriladi.

Didaktika o'qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi. Pedagogik nazariyaning ta'limotiga ko'ra didaktika va metodika bir-biri bilan uzviy bog'liq. Metodika ilmiy usullar haqidagi fandır. Bunda didaktika "nima o'qitish" va "nima uchun o'qitish" kerak degansavollar bilan shug'ullansa, metodika esa u bilan uzviy bog'liq holda "qay tarzda" va "nimalar yordamida" o'qitish masalalari bilan shug'ullanadi. Bunda amaliy usullar tizimi maxsus sohaning mazmuniga bog'liqligini hisobga olish zarur.

O'qitish metodikasi –turli yo'llar va metodlar tizimi bo'lib, o'quv didaktik materiallardan foydalangan holda belgilangan maqsadlarga erishish uchun nazariy dars jarayonida qo'llaniladigan usullar yig'indisini anglatadi. Didaktika xususiy metodikalar bilan bog'langan holda barcha o'quv fanlari uchun umumiy qonun va qoidalarni belgilab beradi, ya'ni tarbiya bilan

chambarchas bog'liq ta'lim jarayonini tashkil etishga asos bo'ladigan etakchi qoidalar didaktik qoidalar deyiladi. Bu o'qituvchilarning faoliyatini, ta'lim oluvchilarni bilim faoliyatini, xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalar hisoblanadi. Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasi bayon etiladigan muhim qismidir. Unda ta'limning ilmiy asoslangan mazmuni o'qitishning metodlari va tashkiliy shakllari (qanday o'rgatish) beriladi.

2.2. Ta'lim va tarbiyaning birligi; onglilik va faollik; ilmiylik va tizimlilik; nazariya va amaliyotning bog'liqligi; ko'rgazmalilik; yosh va individual xususiyatlarning e'tiborga olinishi; bilimlarni o'zlashtirishni puxtaligi va mustahkamlab borilishi.

Ta'lim tamoyillari. O'qituvchi faqat o'qitishning qonuniyatlarini bilishgina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib bera olishi ham muhim. Bunga ayrim etakchi boshlang'ich qonuniyatlarni chuqur tushunish va ularni o'quv jarayonida qo'llash orqali erishiladi. Bunday qonuniyatlar didaktikada ta'lim tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb nom olgan. Ta'lim tamoyillarining majmuasi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi. **Ta'limda onglilik va faollik tamoyili** - talaba o'zi harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ilm olishga ongli munosabatda bo'lsin. Talabalar har bir darsga faol qatnashishi kerak. Chunki talaba qandaydir ish bajarishda u ishni ongli ravishda o'zlashtiradi va bu bilim xotirasida chuqurroq o'rnashib qoladi. Natijada talabalar darslarni yaxshiroq va chuqurroq o'zlashtirgani uchun mukammal bilimga ega bo'lish bilan birga, ularning bu sohada qiziqishi ortadi. Mustaqillik va individual ravishda o'rganish kabilarga faqat shu tarzda erishish mumkin. Buning uchun, o'qituvchi juda yaxshi uslubiy qobiliyatlarga va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Ta'limni ongli o'zlashtirish tamoyili, bir tomondan ta'lim oluvchilarning mustaqil, faol fikr yuritishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, aynan shu

jarayon davomida ta'lim oluvchilarning mustaqillik va faolliklarining hamda, mantiqiy, erkin fikrlash faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishni o'z ichiga oladi. O'qitishda onglilik va faollik dastavval, aqliy fikrlash faoliyatidagi aniqlikka bog'liqdir. Tafakkur qilishdagi faollik esa, bayon qilingan o'quv materiallari yoki tevarak – atrofni o'rab olgan ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisalar, voqealar ustida fikr yuritishdir. Faol fikrlash operatsiyalarida, ya'ni taqqoslash, solishtirish, tahlil – sintez qilish, abstraksiya va umumlashtirishda namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, ongli va faol o'zlashtirishga erishish uchun ta'lim jarayoni (har bir dars) ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'qitishda onglilik va faollik tamoyili - o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin. O'qitishdagi onglilik tamoyili talabalardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatad.

Talabalarning faolligi ularning nazariy materialni egallab olishida va sinfda, laboratoriyada, ustaxona hamda ishlab chiqarish sharoitlarida o'quv-mehnat topshiriqlarini bajarishida namoyon bo'ladi. Faollik talabalarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'liq. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqlik tamoyili - dars jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda nazariya bilan amaliyotni birgalikda qo'shib olib borishni taqozo etadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo'llar bilan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan:

✓ta'limni karxonadagi unumli mehnat bilan, shu jumladan ishlab chiqarish

amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo'shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

✓kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

✓ta'lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash);

✓ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

✓pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

✓ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta'lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

✓ishlab chiqarish amaliyotini o'tish uchun ta'lim oluvchilarni ish joylari bilan ta'minlash;

✓o'zaro integratsiyalangan ta'lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblardan jihozlash.

Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llay bilish ham kerak.

Talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda talabalar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarini tekshiradilar, mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar. Ularni amalda qo'llanish ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar.

Ishlab chiqarish ta'limi talabalar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallagan nazariy bilimlari asosida tanlagan kasblariga doir mehnat

ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar. Shu bilan birga, nazariy bilim ham to'ldirilib, aniqlashtirilib boriladi.

Bu tamoyil ta'lim beruvchi o'quv materialini bayon qilishda fanning birorta qoidasi va qonunini tushuntirilayotganda, shu qonun – qoidalardan amaliyotda qanday va qaysi holatlarda foydalanilishi ham ko'rsatib berishni talab etadi. Ta'lim beruvchi nazariyani – amaliyot bilan bog'lashda ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini misollar echishda, masalalar hal qilishda, o'quv laboratoriyasi, o'quv ustaxonalari va har xil fan to'garaklarida amalda qo'llashga o'rgatishni unutmash kerak. Chunki amaliyot – bilishning mezoni, etalonidir.

2.3. Shaxs bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonining xususiyatlari.

Ta'limda ko'rgazmalilik tamoyili. Ta'limning ko'rsatmalilik tamoyili o'quv materiallarini konkret obrazlar orqali bevosita ta'lim oluvchilarning idrok qilishlarini ta'minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zotan ko'rsatib, anglatib, tahlil va sintez qilib, amaliy sur'atda ishlatib berilgan bilim, malaka va ko'nikmalar ta'lim oluvchilar ongiga tezroq singadi, xotirasida uzoq saqlanadi.

O'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar talabalarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy - amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. Buyum qanchalik har tomonlama idrok qilinsa, talabalarning shu buyum haqidagi bilimi ham shunchalik to'la va chuqur bo'ladi.

Ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish maqsadlariga mos bo'lib, materialning mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o'rganish esa talabalarni chinakam ilmiy va hayotiy bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Ko'rsatmalilik bu bilimlarni

yaxshiroq o'zlashtirib olishga hamda uining hayot bilan, mehnat amaliyoti bilan bog'lanishiga yordam beradi. Mashg'ulotlarda turli xil ko'rsatmali qurollarni qo'llash talabalarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, ularning diqqatini aynan o'tilayotgan mavzuga jalb etadi. Shuning uchun ko'rsatmalilik vositalari o'qitishning hamma bosqichlarida talabalarning yangi mavzuni tushunishlarida, bilimlarini mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatida va ishda qo'llashlarida, mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qilishda tatbiq etiladi. Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin qilib tatbiq etish bir tomondan tilning tushunarligini va o'qitish jarayonida audio-vizual vositalardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchidan, u bevosita ish jarayonida va real holatda o'qitishni talab etadi.

Ko'rgazmali qurollar darsning maqsadi, mavzuning xarakteri va mazmunini hamda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib qo'llaniladi. O'qitishning tushunarli bo'lishlilik tamoyili o'rganilayotgan material mazmunini, hajmi va o'qitish usullariga ko'ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jismoniy kuchi va bilish imkoniyatlariga mos bo'lishini talab etadi. O'qitishning tushunarli bo'lishi deganda uni oson o'zlashtiriladigan bo'lishi tushunilmaydi. Haddan tashqari oson materialni talabalar ortiqcha kuch-g'ayrat sarflamay o'zlashtirib oladilar. Bunday o'qitish talabalarning aqliy bilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam bermaydi. O'qitishni tushunarligi talaba imkoniyatlarining eng yuqori chegarasi va uni asta-sekin oshirib borish bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonining borishida talabalar oldiga qo'yiladigan o'quv va mehnat topshiriqlarini izchillik bilan murakkablashtirib borish ularning aqliy imkoniyatlari va jismoniy kuchlarini rivojlantiradi. O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, talabalar uni o'zlarining avval olgan bilimlari bilan bog'lay olishlari va uni tushunishda qiynalmasligi lozim. Namunalardan foydalanish tamoyiliga ko'ra o'qituvchi o'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim yaxshi namunalar tanlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi model, amaliyotdan tipik misollar, yaxshi yoki yomon mahsulotlar

ham kutilgan darajadagi natijaning sifati qanday bo'lishi yoki bo'lmasligini aniq ko'rsatadi.

Didaktik reduksiya tamoyilida talabning bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishi uchun bu o'quv material kerakli miqdorgacha qisqartirilishi lozim. Agar o'quv materialining hajmi juda katta bo'lsa, undan kerakli qismlar tanlab olinishi kerak. Majmuaviy va murakkab topshiriqlar osonlashtirilishi lozim, lekin ma'nosi o'zgarmasligi shart. Shuning uchun, agar faqat boshlang'ich bilimlar berish kerak bo'lsa. o'quv materialini iloji boricha oddiyroq tushuntirishga va nihoyatda ko'p va keng o'quv material bilan talabani qiynamaslikka harakat qilish kerak. Tajribali o'qituvchi murakkab jarayonlarni oson so'zlar bilan tushuntira oladi. Ilmiylik tamoyili talabalarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi va talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Talaba o'rganayotgan bilimlar, albatta, nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

Tarbiya bilan ta'limning birligi tamoyili. Mustaqillik tufayli O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishni amalga oshirilmoqda. Bunda ta'limtarbiya tizimi ham tubdan isloh etilmoqda. A.Avloniy ta'lim bilan tarbiyani uzviy ravishda olib qaraydi va dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurg'on, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur - deb ta'kidlaydi. I.Kariimovning "YUksak ma'naviyat – engilmas kuch asarida" ta'limni

tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi – deb ta'kidalanadi.

O'qitish va tarbiyalash jarayonlari bir-biriga uzviy bog'liq bo'ladi. O'qitish bilim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. U talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat faoliyatidagi faolligi va mustaqilligini, bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Biroq o'qitish jarayonidagi tarbiyaning maqsadi, mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va talabalarga ta'sir etish samaradorligi bir qator shartlarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiylari: o'rganilayotgan fanning mazmuni, o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi va metodikasi hamda bu mashg'ulotlarni o'tkazayotgan pedagogning shaxsiy fazilatidir. O'quv mashg'ulotlarining to'g'ri tashkil etilishi va ularni o'tkazish metodikasi talabalarga juda qattiq tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlarda talabalarning bilim, ko'rtikma va malakalarni egallashga doir individual ishlari ham, bu ishlarning guruhli ko'rinishlari ham qo'llaniladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyaviy yo'nalishning ustuvorligini ta'minlash asosiy mezon hisoblanadi. Tarbiya orqaligina inson o'z shaxsini anglaydi. O'z-o'zini anglagan kishigina o'z qobiliyatlari va imkoniyatini bilgan holda ehtiyojini shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi.

Ta'lim jarayonida o'tilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash ham uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda muhimdir. Ta'lim va tarbiyaning birligi:

- ✓ o'zlashtirilayotgan ilmiy bilimlar orqali ta'lim oluvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish;

- ✓ shu jarayonda ta'lim oluvchilarga muayyan ma'naviy sifatlar, ahloq normalarini singdirish;

- ✓ ta'lim oluvchilarning aqliy kamoloti, qobiliyatlarini yanada rivojlantirib borish va hokazo.

O'qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili- tizimlilik va izchillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. Talabalar bilim, ko'nikma hamda malakalarni izchillik bilan egallab boradilar va ayni zamonda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar. Tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo'g'mlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. Ulardagi material bir qator didaktik talablar bo'yicha joylashtiriladi. O'quv dasturida nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir-biriga uzviy bog'lanishi saqlanishi kerak. Har bir darsda o'quv maqsadini aniq belgilash va belgilangan maqsadga muvofiq keluvchi mazmun tarkib toptirish kerak. Har bir kasbiy fan uchun o'quv dasturi talabiga mos holda dastavval tayanch tushunchalarni aniq belgilab olib, ularning darajasi va me'yorini aniqlash kerak. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan usullarni aniq belgilab, yuqori samara beruvchi usullardan foydalanish, mashg'ulotlar davomida berilayotgan bilim va ko'nikmalarning talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi nazorat va tekshirishning turli usullari hamda testlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ma'lumot darajasi oshib borishiga va rivojlanishiga qarab predmetni bayon qilishning didaktik tizimi fan tizimiga tobora yaqinlashib boradi. Mashg'ulotlarni o'tkazishda dasturga aniq rioya qilish va talabalarning darslik bilan ishlashi ularning bilimlarni muayyan tizimda o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida tizimlilik va izchillik tamoyilini amalga oshirishda ta'lim beruvchi o'quv materiallarini oldingisini keyingisi uchun asos bo'lishi, keyingisi esa, oldingisining davomi va oldingisi bilan mustahkam bog'liq bo'lishini ta'minlashi lozim. Darsning tizimli va izchil bo'lishida quyidagilarga e'tibor berish, ya'ni ma'lumdan – noma'lumga, osondan – qiyinga, oddiydan – murakkabga, yaqindan – uzoqqa, yakkadan – umumiyga, umumiydan – juz'iyga, konkretan – abstraktga, misollardan – qoidalarga o'tish tavsiya etiladi. Amaldagi qo'llanib kelayotgan DTS talablari asosidagi o'quv rejalari va dasturlari ham ta'limning tizimli va izchil

bo'lishiga amal qilingan holda tuzilmoqda. Xullas, ta'limning ilmiy, tizimli va izchil bo'lishi tamoyili ta'lim jarayonida bir – biriga mustahkam bog'langan holda umumiy birlikni tashkil etadi. O'qitishda talabalarning yoshi va individual imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili. Har bir talaba o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va hisobga olishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va har bir talabaning ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Talabaning bunday xususiyatlarini o'rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog talabalarning mashg'ulotlardagi va ishlab chiqarish ta'limi vaqtida ustaxonalardagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari va tayyorlagan buyumlarini tekshiradi, darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan suhbatlashadi. Talabaning kuchli va oqiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri va iroda sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, hayotiy va mehnat tajribalarini, ularning o'qishga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi.

Ta'limda ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish – jonli va samarali dars o'tish garovlaridan biridir. Ta'lim beruvchi o'quv materialini ta'lim oluvchilar uchun tushunarli qilib o'tishi uchun, ularning yoshi va individual xususiyatlarini diqqat markazida saqlashi shart. O'quv materiallari ta'lim oluvchilarning yoshi va ma'lumotiga qanchalik loyiq, mos bo'lsa, bu o'quv materialini ta'lim oluvchiga yaxshi tushunarli bo'ladi va uzoq vaqt xotirasida saqlanadi. O'quv materialini ta'lim oluvchining yoshiga va individual xususiyatiga mos holda o'tish uchun ta'lim beruvchi quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

- ✓ ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarining anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi;
- ✓ ta'lim beruvchining o'quv rejasi, o'quv dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va zarur qo'shimcha adabiyotlarni qunt bilan o'rganib chiqishi;

✓guruhdagi ta'lim oluvchilar tarkibi, fan va mavzuning maqsadi hamda xarakteriga, darsning maqsadiga qarab o'qitishning yangi – yangi usullarini qo'llashi;

✓dars jarayonida o'z nutqini izchil, tizimli va emotsional, ta'sirli bo'lishiga erishish;

✓dars jarayonida ta'lim oluvchilar diqqatini markazlashtira olishi vazifa. Bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili. Nazariy va amaliy ta'lim jarayonida talabalar o'zlarining bo'lajak kasbiy faoliyatlari uchun kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar. Bundan tashqari, avvalgi mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalar ancha murakkabroq materialni o'zlashtirib olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy bilimlarni egallash talabalarning xotirasi, mantiqiy tafakkuri, xilma-xil faoliyat turlaridagi ijodiy faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Lekin hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarning kelgusida ilmiy bilimlar tizimini o'zlashtirishda asos bo'lishi uchun ular puxta o'zlashtirilgan bo'lishi va talabalarning xotirasida saqlanishi kerak. Mustahkamlik tamoyilining talablari shulardan iborat bo'lib, bularga rioya qilmaslik talabalarning sust o'zlashtirishiga, o'qishda ulgurmasligiga sabab bo'ladi.

Ta'lim oluvchilarga har bir fandan beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar, ular tomonidan ongli, puxta va mustahkam o'zlashtirilgan bo'lishi shartdir. Buning uchun esa har bir fan ta'lim beruvchisi o'zi beradigan o'quv materialini o'quv rejasi, o'quv dasturi va ta'lim oluvchilarning individual yosh xususiyatlariga mos qilib tushuntirish, ta'lim oluvchilarning sezgi a'zolarini ko'proq ishtirok etishiga erishish, ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalardan samarali foydalanish, darsda ta'lim oluvchilarni amaliy faoliyatini tashkil etish, ularni mustaqil ishlashga, mustaqil tafakkur qilishga, mantiqiy xulosalar chiqarishga erishishi katta ahamiyatga ega. Darsni ta'lim oluvchilarning yoshlariga mos qilib o'tish, dars davomida turli xil usullardan, vositalardan mohirona foydalanish, dars jarayonida hamma ta'lim oluvchilarni ongli – faol ishtirok

etishini ta'minlash, o'quv materialini ilmiy, izimli, izchil, jonli va obrazli bayon qilish, konkret dalillarni ko'rsatish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ta'limda qanday tamoyillar mavjud?
2. Didaktika tushunchasini izohlang?
3. Faollik tamoyilini tushuntirib bering?
4. O'qitishda ta'lim oluvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyilini tushuntirib bering?
5. Ko'rgazmalilik tamoyilini tushuntirib bering?
6. O'qitishda tizimlilik va izchillilik tamoyili tushuntirib bering?
7. O'qitishda talabalarning onglilik va faolligi tamoyilini tushuntirib bering?
8. O'qitishning tarbiyalovchi xarakteriligi tamoyilini tushuntirib bering?
9. O'qitishning tarbiyalovchi xarakteriligi tamoyiliga oid buyuk mutaffakkirlar qarashlarini aytib bering?

Davlat ta'lim standartlari. Maxsus fanlar o'quv rejalarini va ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqish.

Reja.

1. Davlat ta'lim standartlari va ularga qo'yilgan talablar.
2. Tayyorlov yo'nalishi namunaviy va ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqish metodikasi
3. Fanlar uchun ajratilgan kreditlarni belgilash tartibi. Dars jadvallarini tuzish metodikasi.

Tayanch so'z va iboralar: Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, mutaxassisliklar klassifikatori, o'quv reja, namunaviy va ishchi o'quv reja, o'quv dasturi, namunaviy va ishchi o'quv dastur, taqvimiy mavzular rejasi.

3.1. Davlat ta'lim standartlari va ularga qo'yilgan talablar.

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga, Kadrlar tayyovlash milliy dasturi qoidalariga muvofiq respublikada idopaviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

Bakalariat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli hamda 2013 yil 10 iyuldagi 199-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan “Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar” talablariga qat'iy rioya etgan holda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqariladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim mazmunini belgilash va uning asosida ta'lim jarayonini tashkil etish davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dasturi, metodik materiallar banki, ya'ni darslik yoki o'quv qo'llanmalarda ifodalanadi.

Oliy ta'limning me'yoriy-huquqiy xujjatlari. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan DTSlarga uzluksiz ta'limni standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning “Ekspert xulosasi”, turdosh Oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari bilan kelishilganligi to'g'risidagi “Kelishuv bayonnomasi” va “Kelishuv dalolatnomasi”, Fanlar akademiyasining tarmoq ilmiy tadqiqot institutlaridan olingan taqrizlar, Muvofiqlashtiruvchi kengash qoshidagi tegishli o'quv-uslubiy birlashma bayonnomasidan ko'chirma, Davlat test markazi ekspert xulosasi ilova qilinadi. DTS va o'quv rejalar tayanch OTM rektori tomonidan imzolangan rasmiy xat bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Rivojlantirish markaziga takdim etiladi. Xatga ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining amaldagi Klassifikatorga moslashtirilgan ro'yxati ilova qilinadi. DTS - standartlashtirish ob'ektiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilaydi hamda O'zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to'g'risida”gi

Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi va quyidagilarni belgilab beradi:

- ✓ kadrlar tayyovlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni;
- ✓ ta'lim oluvchilar tayyovgavligining zapuv va etaplicha dapajasini hamda ta'lim muassasalari bitipuvchilariga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini;
- ✓ o'quv yuklamasining zapuv hajmini;
- ✓ ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyovlash sifatini baholash taptibi va mexanizmini belgilaydi.

DTS ta'lim japayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni taptibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yapatish uchun asos hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlari jopiy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ✓ ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshipilayotgan chuqup iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, pivojlangan demokpatik davlat bappo etish talablariga javob bepuvchi kadrlar tayyovlanishini ta'minlash;
- ✓ mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy tapaqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyovlash mazmunini taptibga solish;
- ✓ ta'limning demokpatiyalashuvi, insonpapvavlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari dapajasini, shuningdek, ta'lim japayoni samapadopligini oshipish;
- ✓ sifatli ta'lim xizmatlari ko'psatish, ta'lim va kadrlar tayyovlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- ✓ kadrlar tayyovlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va taptibini belgilash;
- ✓ ta'lim japayoni va kadrlar tayyovlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning bapcha tuplari va bosqichlarida o'quv-tapbiya japayonini maqbullashtirish;

- ✓ mehnat va ta'lim xizmatlari bozopida paqobatbapdoshlilikni ta'minlash.
- Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:
- ✓ ta'lim sifatiga va kadplar tayyoplashga, ko'psatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklatupasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
 - ✓ ta'limga va uning pipovapd natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb-kop malakasi dapajasini vaqti-vaqti bilan baholash taptibi va taptibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazopat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yapatish;
 - ✓ xalqning boy intellektual meposi va umuminsoniy qadpiyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tapbiyalashning samapali shakllari va usullarini jopiy etish;
 - ✓ ta'limning bapcha tuplari mazmunini, ta'lim va tapbiyani kelishish va ularning o'zapo bog'liqligi, uzluksiz ta'lim tizimida va kadplar tayyoplashda izchillikni ta'minlash;
 - ✓ o'quv-tapbiya va ta'lim japayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axbopot bilan ta'minlanishiga, ta'lim dapajasini nazopat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitipuvchilarining malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;
 - ✓ ta'lim va kadplar tayyoplash sifatiga baho bepishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkpeditatsiya qilishni jopiy etish;
 - ✓ kadplarni maqsadli va sifatli tayyoplash uchun ta'lim, fan va ishlab chihapishning samapali integpatsiyasini ta'minlash;
 - ✓ milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadplar tayyoplashga nisbatan xalqapo talablarga muvofiqligini ta'minlash.
- DTS ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:
- ✓ umumiy o'pta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim;
 - ✓ o'pta maxsus, kasb-hunap ta'limi;
 - ✓ oliy ta'lim (bakalaviat, magistratura).

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yuqtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini bajarish yuzasidan va oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'limning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash, jahon ta'lim tizimiga qo'shilish, shuningdek, oliy ta'limning o'quv-metodik va me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan. DTS o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli me'yoriy hujjatlar (ta'lim sohalarining davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari, o'quv fanlari dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi. OT DTS oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. DTSga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlarini amalga oshirish jarayonida, shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqqan holda tuzatishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim standartlari quyidagi toifalarga bo'linadi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari:
- Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar;
- Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

- Oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari-ta'lim sohasining davlat ta'lim standartlari. Davlat ta'lim standarti (DTS) – muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon daraja.

Oliy ta'lim standartlari toifalari. Muayyan ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- ✓ zarvaraq (titul);
- ✓ mundarija;
- ✓ muayyan ta'lim sohasi (soha tarkibi)ning umumiy tasnifi;
- ✓ bitiruvchilarning soha bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ o'quv reja tuzilmasi;
- ✓ kadrlar tayyorlash sifatini baholash.

Ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti ikkita (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) qismdan iborat bo'ladi. Me'yoriy hujjat turlari. Quyidagilar oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari hisoblanadi:

- ✓ oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlari;
- ✓ oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim muassasalarining muayyan ish faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar.

Me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish. Oliy ta'limning ta'lim sohalari davlat ta'lim standartlari va me'yoriy hujjatlari «OT DTS. Asosiy qoidalar» va Oz DSt 1.0:1998, O'zRST 1.8-94, Oz DSt 1.9-1995. standartlariga muvofiq holda ishlab chiqiladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq o'quv jarayoni o'qitishning modul tizimiga asoslangan oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mustaqil ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarga alohida e'tibor berish lozim:

- ✓ Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida kadrlarni ildam tayyorlash, jahon tajribalari, mamlakat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini tegashli sohalarga muvofiqlik nuqtai nazaridan imkon darajasida unifikatsiyalash;
- ✓ bakalavriat ta'lim yo'nalishi va ularning negizidagi magistratura mutaxassisliklarining DTSlari bir vaqtda ishlab chiqilishi va birgalikda ekspertizadan o'tkazilishiga amal qilish;
- ✓ DTSlarni ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilish;
- ✓ har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha malakaviy talablar mamlakatda va xorijda mavjud tajribalarni inobatga olgan holda diqqat bilan qayta ishlab chiqilishi, hamda uni tegishli sohalar bo'yicha amaliyotchi mutaxassislar bilan muhokamadan o'tkazish;
- ✓ malakaviy talablarda keltirilgan sifatlarni shakllantiruvchi eng zarur fanlarning kiritilishi, ularning hajmlari va ketma-ketligi uzluksiz ta'lim turlari bilan uzviylikini inobatga olgan holda ilmiy asoslash;
- ✓ bakalavriat va magistratura DTSlaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish;
- ✓ bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar hamda

tabiiy-ilmiy fanlar tarkibi va mazmunini shakllantirishda o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi fanlari bilan uzviilikni ta'minlash;

✓ fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratish;

✓ o'quv rejalariga kiritilgan fanlar sonini bir semestrda 5-7 tadan ortmaslik shartini inobatga olib belgilash;

✓ ajratilgan auditoriya o'quv yuklamalarini semestr haftalariga qoldiqsiz taqsimlanishiga rioya etish;

✓ kichik hajmli fan auditoriya soatlarini bir semestr davomida mumkin qadar haftasiga kamida ikki akademik soatdan belgilash;

✓ DTSlarda belgilangan attestatsiya va nazoratlarga muvofiq bir fan yoki mavzu bo'yicha takroriy sinovlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik;

✓ malakaviy amaliyotlar soni, muddatlari va belgilanish davri ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanayotgan sohadagi ishlab chiqarish jarayoni va texnologiyalarining o'ziga xosligini inobatga olish, DTSlarda malakaviy amaliyot sifati va nufuzini oshirish hamda ishlab chiqarish va ularning mazmunini byurtmachilar talablari bilan muvofiqlashtirish;

✓ DTSlar, o'qitiladigan fanlar tarkibi va ularning mazmuniga qo'yiladigan talablar muayyan yo'nalish, mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning asosiy buyurtmachi va iste'molchisi bo'lgan vazirlik, idora, korxonalar va tashkilotlar bilan kelishish nazarda tutilgan.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori-oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlash va tasniflash yagona tizimining (KTYAT) tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» 1998 yil 5 yanvardagi 5-con qarorini bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan.

Klassifikator «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning davlat dasturi haqida» 1998 yil 10 noyabridagi PF-2107-son Farmoniga asosan tuzilgan.

Klassifikator YUNESKO tomonidan 1997 yil mart oyida qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (TXSK) prinsiplari asosida tuzilgan. Unda quyidagi bilim sohalari ko'zda tutilgan.

Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining klassifikatori Klassifikatorida ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ettita raqamli kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichlari bakalavriat yo'nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida — 5A (raqam va harf) bilan belgilangan. Masalan: bakalavrlar kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hakozi; magistrlar 5A140101, 5A211301, 5A520403 va hakozi. Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi. Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kadrlar iste'molchilari tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasalari tomonidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda tegishli qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

Yo'nalish va mutaxassisliklar klassifikatorini o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

✓ yo'nalish yoki mutaxassislikning ilmiy va amaliy ahamiyatini hamda mehnat bozorida mutaxassislarga bo'lgan istiqbol ehtiyojini asoslash;

- ✓ bakalavriat yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o‘quv rejasi loyihalari va boshqa o‘ziga xos belgilari;
- ✓ yangi yo‘nalish yoki mutaxassislikning ilmiy-pedagogik va moddiytexnik ta‘minoti mavjudligini asoslash.

Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorining etalonini O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi olib boradi. Mazkur klassifikator tayyorlov yo‘nalashlarining nomlari va kodlari, oliy ta‘lim muassasalarida kasblar va ixtisosliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni belgilaydi. Amaldagi Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida 182 ta ta‘lim yo‘nalishlari va 434 ta mutaxassisliklar mavjud bo‘lib, ular bilim sohalari bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan.

Oliy ta‘limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat klassifikatori respublikaning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish istiqbollari mutaxassis tayyorlashda iqtisodiyot tarmoqlarining talab va ehtiyojlarini xisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqildi va takomillashtirildi.

Oliy ta‘limning bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari - ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli bakalavrlar tayyorlash, o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta‘lim muassasasi muayyan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda malaka talab asosida o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

- ✓ mazkur ta‘lim yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas‘ul oliy ta‘lim muassasalarining professor - o‘qituvchilari;
- ✓ ta‘lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va

talabalari;

✓ o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

✓ bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

✓ oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

✓ oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

✓ ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

Muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

✓ ilmiy-tadqiqot;

✓ tashkiliy-boshqaruv;

✓ loyiha – izlanish;

✓ ishlab chiqarish, texnologik;

✓ umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

✓ turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni o'z ichiga oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'nalishi uchun malaka talablarida quyidagilar o'z aksini topgan:

✓ bakalavriyat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi;

✓ qo'llanish sohasi;

✓ ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi;

✓ ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;

- ✓ bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari;
- ✓ ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ ta'lim yo'nalishi o'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ malakaviy amaliyotga qo'yiladigan talablar;
- ✓ ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi;
- ✓ malaka talablarining amal qilish muddati.

Magistratura mutaxassisligining malaka talablari. Oliy ta'limning malaka talablari magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash, o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda ushbu malaka talablari asosida tayyorlangan o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

- ✓ mazkur ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklari bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;
- ✓ ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklarning o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;
- ✓ o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- ✓ bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ✓ oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- ✓ oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- ✓ ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklardan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar, ota-onalar va boshqa manfaatdorlar.

Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ✓ ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- ✓ ishlab chiqarish faoliyati;
- ✓ tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ✓ oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiypedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- ✓ konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

3.2. Tayyorlov yo'nalishi namunaviy va ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqish metodikasi

O'quv reja va ishchi o'quv reja. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy xujjat - o'quv rejalarini hisoblanadi.

O'quv rejasi - ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fan, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv rejasi tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Bir tipdagi ta'lim muassasalari uchun o'quv rejasi yagona va majburiydir. Shu bilan birga, har bir ta'lim muassasasi o'quv rejasini belgilangan

miqdorda o'zgartirishi mumkin. o'quv rejasi O'quv rejasining umumiy va majburiyligi ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejasida ta'limning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan. O'quv rejasi muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda ta'lim muassasasi talabasi, talabasi yoki tinglovchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan. O'quv rejaları ikki turga bo'linadi: namunaviy va ishchi o'quv rejalar. **Namunaviy o'quv reja** – oliy ta'lim muassasalarining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun o'rnatilgan tartibda Davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedrasining yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan turdosh oliy ta'lim muassasalarining shu soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarini hamda kadrlarni buyurtmachilarini jalb etgan holda ishlab chiqiladigan me'yoriy huquqiy xujjatdir.

Ishchi o'quv reja - oliy ta'lim muassasasining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun namunaviy o'quv reja asosida har o'quv yili uchun ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda OTMning rektori tomonidan tasdiqlanadigan o'quv jarayonining asosiy me'yoriy hujjatidir.

O'quv rejada quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalishi (ixtisoslik) 5 kodi va uning nomlanishi, o'qish muddati, o'qishni tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.

O'quv reja - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me'yoriy xujjatdir.

2. Ta'lim shakli.

3. O'quv davrining taqsimoti (jadvali).

4. O'quv jarayonining rejasi.

5.1. O'rganiladigan o'quv predmetlari.

5.2. Har bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.

5.3. O'rganish uchun ajratilgan vaqtni – nazariy, amaliy va tajriba mashg'ulotlari, seminarlar, kurs ishlari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.

5.4. O'quv predmetini qaysi kurs, semestrlarda, haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi.

6. Davlat Attestatsiyasi.

7. Tanlov fanlarinig ro'yxati

8. Izohlar

O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborda tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxasislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma – bosqich chuqur o'rganishlari, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

O'quv rejasini ishlab chiqishdagi eng muhim masalalardan biri o'rganilishi lozim bo'lgan fanlarni aniqlashdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish mazmunini aniqlash, odatda, amaliy tajribalar asosida hal qilinadi. O'qitish mazmunini aniqlashda, asosan, oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifaga - doimo o'sib borayotgan ishlab chiqarish sharoitida faoliyat olib borishga qobil malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash vazifasiga asoslaniladi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalariga qo'yiladigan umumiy talablar:

Bakalavriatda o'quv rejalarini va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga

olgan holda ishlab chiqilishi va talabning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va matematik hamda tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy fanlar
- umumkasbiy fanlar;
- ixtisoslik fanlari;
- qo'shimcha fanlar.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga muvofiq ayrim oliy ta'lim muassasalari yoki ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha boshqa fanlar bloklari belgilanishi mumkin.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejalarini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

Bakalavriat o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.

Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va matematik hamda tabiiy-ilmiy fanlar bloki:

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida olingan bilimlarni to'ldirishi va rivojlantirishi; milliy istiqlol g'oyasi va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida ilmiy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e'tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi;
- ta'limning tarix, falsafa, xalq an'analari, urf-odatlari bilan uzviy birligini, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va

- madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'minlashi;
- insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhini rivojlantirishi;
 - ta'lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligini ta'minlashi;
 - umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to'plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida oliy darajadagi tasavvurlarni shakllantirishi;
 - koinotning tabiiy ob'ekt ekanligi va uning evolyusiyasi; tabiiy fanlarning o'zaro fundamental birligi; zamonaviy tabiiy hodisalarni tadqiq etish konsepsiyasi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur etkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;
 - muayyan bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim.

Umumkasbiy fanlar bloki:

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;
- maxsus fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;
- modelli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi lozim.

Ixtisoslik fanlari bloki:

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;
- talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

Qo'shimcha fanlar bloki:

- talabalarning bakalavriat ta'lim fanlari bo'yicha qo'shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi;
- ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kon'yunkturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fanlar dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlashi lozim. Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejaları va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko'zda tutgan holda shakllantiriladi. Magistratura mutaxassisliklari o'quv rejaları va fanlar dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejaları va fanlar dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:
 - umummetodologik fanlar;
 - mutaxassislik fanlari;
 - ilmiy faoliyat.
 - ilmiy faoliyat.

O'quv rejalar va fanlar dasturlari majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi lozim. Talabalarning o'quv rejalar va fanlar dasturlarini o'zlashtirishida o'quv

fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

Magistratura mutaxassisliklari uning o'quv rejalariга muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.

Umummetodologik fanlar bloki:

- milliy istiqlol g'oyasi va gumanitar, texnik va tabiiy fanlarning falsafiy masalalari bo'yicha bilimlar berilishi;
- insoniyatning global muammolari, ma'naviy hayot, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, ta'limning insonparvarlik ruhi, zamonaviy sivilizatsiya va uning taraqqiyot yo'nalishlari, axborot tizimlari va bilimlarni taqdim qilish usullari to'g'risidagi tasavvurlar shakllantirishi;
- ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan ishlash ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi, tadqiq etiladigan mavzular bo'yicha muntazam ravishda mustaqil tahlil va xulosani tayyorlashi;
- ilmiy ijod metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlar asoslari, bilishning umumiy usullari, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar va qoidalar mantig'i, asoslash va inkor qilish usullariga, shuningdek nutq madaniyati asoslari bilimlariga, pedagogik texnologiyalar, mutaxassisliklar bo'yicha menejment va iqtisodiyotga doir bilimlarni ta'minlashi;
- amaliy xorijiy tilni, mutaxassislikka yo'naltirilgan axborot texnologiyalari va tizimlarini o'zlashtirishni ta'minlashi;

Mutaxassislik fanlari bloki:

- muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi;

- mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi;
- magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy uquv va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak.

Ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiytadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishlari:

- mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiytadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishi;
- talabalarga fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy-pedagogik ishlar:

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Stajirovka ilmiy tadqiqot ishlari taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Stajirovka:

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- iqtisod, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;
- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;
- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda stajirovkaga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarishi ko'zda tutiladi. Bakalavriatda barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanishi lozim.

O'qishning me'yoriy muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

- nazariy ta'lim — 63 — 70%;
- attestatsiya — 8 — 10 %;
- ta'til — 12 — 16 %;
- malaka amaliyoti — 6 — 12 %;
- bitiruv malakaviy ishi — 2-3%.

Nazariy ta'lim hajmi bilim sohalariga qarab fanlar bloklari bo'yicha quyidagi jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

O'quv yilida ta'til davrining umumiy hajmi 6-10 hafta qilib belgilanadi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Magistratura ham haftalik barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi bakalavriatdagi kabi belgilangan.

Magistraturada o'qishning me'yoriy muddati 2 yil bo'lganda o'quv jarayoni 100 haftani tashkil etishi zarur.

O'qish davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanishi zarur:

✓ nazariy ta'lim – 25-30%;

✓ attestatsiya – 4-7%;

✓ ta'tillar – 13-16%;

✓ ilmiy faoliyat – 50-55%.

Ilmiy faoliyat magistratura talabasining yakka tartibdagi kalendar ish rejasi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarga bo'linadi:

✓ ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash – 70-75%;

✓ ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti – 25-30%.

Nazariy ta'lim hajmi magistratura mutaxassisligiga qarab quyidagi tarzda fanlar bloklari bo'yicha taqsimlanadi:

✓ umummetodologik fanlar – 30-35%;

✓ mutaxassislik fanlari – 40-50%;

✓ tanlov fanlari – 13-30%.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti(stajirovka)ni o'tash tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejalarini tuzishda fanlarni o'rganishning quyidagi uch usuli hisobga olinadi:

parallel o'rganish - barcha fanlar bir vaqtda o'rganiladi; bu usul pedagogika jihatidan hamma vaqt ham to'g'ri bo'lavermaydi, chunki fanlararo mazmunli

bog'lanishlar o'rgatish imkoniyatini cheklab qo'yadi; asosan, bir yillik o'quv rejalari tuzishda qo'llaniladi;

ketma-ket o'rganish - o'zaro bog'langan fanlar ketma-ket o'rganiladi; bu usul fanlararo bog'lanish uchun eng yaxshi sharoit yaratadi; o'qitish muddati uzoq (3-4 yil) bo'lganda o'quv fanlari soni cheklangan o'quv rejalarda qo'llaniladi; *aralash o'rganish* - fanlar o'quv rejasiga ham parallel, ham ketma-ket kiritiladi; bu usul o'qitish muddati 2-3 yil bo'lgan o'quv rejalari tuzishda eng ko'p tarqalgan.

Fanlararo bog'lanishlarni ta'minlash uchun umumkasbiy va asosiy umumta'lim fanlari, odatda, o'qitishning birinchi bosqichida o'rganiladi, bu davrda ishlab chiqarish ta'limiga va maxsus fanlarni o'rganishga ajratiladigan vaqt bir oz qisqartiriladi.

3.3. Fanlar uchun ajratilgan kreditlarni belgilash tartibi. Dars jadvallarini tuzish metodikasi.

O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturi. O'quv dasturi - ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi. Har bir o'quv dasturi so'z boshi, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari

3 qismdan iborat. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisidir.

Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Namunaviy o'quv dastur - o'quv rejadagi aniq fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli

kafedralari tomonidan ishlab chiqiladigan, o'quv materiallarni o'zlashtirishga va o'qitish mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablarni o'z ichiga oladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan, oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun tavsiya etiladigan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Namunaviy o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tayanch etib belgilangan oliy ta'lim muassasalari kafedralarida tegishli fan sohasidagi etuk olimlar, mutaxassislar va tajribali professor-o'qituvchilardan tashkil topgan ijodiy guruh tomonidan tuziladi.

Namunaviy o'quv dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Kirish;
- ✓ asosiy qism;
- ✓ amaliy mashg'ulot mavzulari;
- ✓ seminar mavzulari;
- ✓ mustaqil ta'lim mavzulari;
- ✓ tavsiya etiladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati.

Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib, ma'lum fanlardan chizma-hisob, kurs ishlari, loyihalari va ularning mavzu va yo'nalishlari ham keltirilishi mumkin.

O'quv fani dasturi – ta'lim mazmuni, ularning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'yoriy hujjat.

Dastur fan, texnika, texnologiyaning so'nggi yutuqlari, oliy ta'lim rivojlanishining jahon tendensiyasini hisobga olish, Respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashi, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limda uzluksiz o'qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiyan umumiylikka o'tib borish tamoyillariga amal

qilishi shart. Dasturda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim izlash va uni o'zlashtirish, o'qitish jarayonini interaktiv pedagogika asosida tashkil etishga mavzularning bir xil talqinida takrorlanmasligiga e'tibor berilishi zarur. Namunaviy o'quv dasturi tayanch oliy ta'lim muassasasining tegishli kafedrası, fakultet yoki OTM uslubiy kengashida muhokama qilinadi. Ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlar bo'yicha tuzilgan namunaviy o'quv dasturlari maxsus metodologik komissiyasiga muhokama qilish uchun topshiriladi. Barcha fanlar bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari oliy ta'lim muassasalariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash ekspertizasidan o'tishi shart va uning tavsiyasi bilan vazirlik tomonidan ro'yxatga olinadi va amalga kiritiladi.

Namunaviy o'quv dasturlari vazirlikning tegishli boshqarmasi tomonidan tasdiqqa tavsiya etiladi va ro'yxatga olinadi. Bu haqda o'quv dasturning bosh varog'iga belgi qo'yiladi. Namunaviy o'quv dasturning etalon nusxasi vazirlikda saqlanadi. O'quv dasturi tasdiqlangan va ro'yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi. Namunaviy o'quv dastur davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda yoki o'zga xollarda 5 yilda bir marta qayta ishlab chiqilishi va ushbu tartibga asosan qayta ekspertiza va tasdiqdan o'tishi zarur.

Ishchi o'quv dasturi - OTMning aniq bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi talabalari uchun o'quv rejadagi aniq bir fan bo'yicha o'quv dasturiga asosan professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan, fanning mazmuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan, mavzularning o'qitish ketma-ketligiga rioya qilingan holda fanga ajratilgan soatlar aniq ko'rsatilgan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Ishchi o'quv dasturi tegishli ta'lim standartlarini konkretlashtiradi, o'quv jarayonini uslubiy, informatsion va texnik jihatidan ta'minlanishini nazarda tutadi. OTMlarda talabalarni tayyorlash va o'qitish xususiyatlarini aks ettiradi. O'quv dasturi asosida tuzilgan ishchi o'quv dasturida aniq mavzular, ularga ajratilgan soatlar, mavzular bo'yicha qo'llaniluvchi didaktik va texnik vositalar,

mavzular va bo'limlar bo'yicha bilimni nazorat qilish turlari hamda tegishli uslubiy tavsiyalar aniq ko'rsatiladi shuning uchun uning hajmi cheklanmaydi. Ishchi o'quv dasturida quyidagilar o'z aksini topishi lozim:

- ✓ DTS talablari;
- ✓ o'quv dasturlarini mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablar;
- ✓ talabalar uchun beriladigan o'quv materiallarining maksimal hajmi;
- ✓ bitiruvchilarni tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
- ✓ OTM tomonidan o'quv rejaga asosan belgilangan o'quv yuklamasining hajmi;
- ✓ ta'lim dasturlarining maqsadi va vazifalari.

Yuqorida keltirilganlar asosida ishchi o'quv dasturining tuzilishi ishlab chiqiladi va uning tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ titul varag'i;
- ✓ kirish so'zi;
- ✓ fanning maqsadi va vazifalari;
- ✓ fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar;
- ✓ talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar;
- ✓ fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi;
- ✓ fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni;
- ✓ fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar;
- ✓ fan bo'yicha soatlar taqsimoti;
- ✓ nazariy mashg'ulotlar mavzulari mazmuni;
- ✓ amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari va rejalari;
- ✓ mustaqil ta'lim mavzulari;
- ✓ foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

Ishchi o'quv dasturlarini tuzish va tasdiqqa kiritish tartibi:

1. Ishchi o'quv dasturlari OTMlarining tegishli kafedralarining professoro'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi.

2. Ishchi o'quv dasturlarini DTS talablari va o'quv dasturlarga mos holda ishlab chiqilishiga tegishli kafedra mudiri va professor-o'qituvchilar mas'ul hisoblanadi.
3. Ishchi o'quv dasturining kirish qismida o'qitiladigan fanning dolzarbligi, sohaning tarixi, jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib beriladi. Shuningdek, fanni o'qitishning asosiy maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatiladi.
4. Ishchi o'quv dasturida uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketlikligi hamda o'qitish turlari o'qitishning interaktiv uslublari va vositalari hamda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun omil bo'ladigan mexanizmlar ko'rsatiladi.
5. Ishchi o'quv dasturlarida o'quv jarayoni uchun zarur texnik vositalar, axborot-resurs markazidagi tegishli o'quv adabiyotlari, didaktik vositalar, ashyolar va boshqa moddiy-texnik baza to'g'risida ma'lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiq.
6. Ishchi o'quv dasturining titulida amaldagi Klassifikator bo'yicha tegishli bilim, ta'lim sohalari va ta'lim yo'nalish (mutaxassislik) larning shifri va nomlari hamda ishchi o'quv rejaga muvofiq fanning to'la nomi ko'rsatiladi.
7. Ishchi o'quv dasturining yaratilishiga mas'ul kafedraning nomi, mualliflar va taqrizchilar to'g'risida ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni), tasdiqqa tavsiya etuvchi uslubiy Kengashlarning bayonnomasi raqami va sanasi ko'rsatiladi.
8. Ishchi o'quv dasturining foydalaniladigan manbalar ro'yxatiga asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar kiritiladi.
9. Ishchi o'quv dasturining matni A-4 format, Times New Roman shriftida, 14-chi o'lchamda, chap tomonidan - 3 sm, pastidan - 2 sm, yuqoridan - 2 sm, o'ng tomonidan - 1,5 sm o'lchamida xoshiyalanadi. Betlarni raqamlash - pastki qismining markazida joylashtiriladi.

10. Ishchi o'quv dasturi har o'quv yili kafedra yig'ilishida ko'rib chiqib muhokama qilinadi va tegishli o'quv – uslubiy kengashida ko'rib chiqib ma'qullanadi hamda OTMning ruxsat etilgan kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

11. OTM o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi. Mutaxassislar tayyorlashga qo'yilgan talablarning hujjatli asosini tasvirlaydigan o'quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to'liq va aniq belgilanishini talab qilinadi. **To'liqlik** deganda mazmunning barcha zaruriy va qo'yilgan maqsadga erishish uchun etarli elementlari kiritish tushuniladi. **Aniqlik** deganda esa real o'quv jarayonida berilgan mazmunda joriy qilish yo'lini ko'rsatadigan elementlar va belgilar tasavvur etiladi.

O'quv dasturlarida talabalar o'quv rejasiga kiritilgan har qaysi fandan nimani va qanday izchillikda o'rganish kerakligi, shuningdek, talabalar bilib olishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi belgilab beriladi. O'quv dasturlarining mazmuni kasb tavsifnomalarning talablari asosida aniqlanadi. Dasturlarni ishlab chiqishda didaktik tamoyillarga va malakali mutaxassislar tayyorlash mazmuniga qo'yiladigan talablarga amal qilinadi. O'quv materialini tanlashda mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt va talabalarining materialni o'zlashtira olish-olmasligi hisobga olinadi. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari dasturlarida shunday o'quv materiali bo'ladiki, talabalar bu materialni o'rganib, ishlab chiqarishning hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasi asoslarini o'rganilayotgan kasbni ongli ravishda, puxta va chuqur egallash hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda o'zlashtiradilar.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari dasturlarida o'quv materialini mazmunini aniqlashda avvalo ilmiylik tamoyiliga asoslaniladi. Bu tamoyilga muvofiq, o'rganish uchun ilmiy tadqiqotlar bilan asoslab berilgan va tajribada tekshirib ko'rilgan jarayon, hodisa va faktlar, fan hamda texnikada qabul qilingan tushuncha, atama, qoida va belgilar tanlab olinadi. Ilmiylik tamoyili o'quv materialini mantiqiy izchillik bilan bayon etishni, har bir yangi hodisa yoki narsani

har tomonlama o'rganishni, mazkur ob'ektning o'ziga o'xshash boshqa ob'ektlar bilan ham, o'zidan farq qiladigan ob'ektlar bilan ham bog'lanishidagi xilmaxillikni aniqlashni talab etadi.

Umumkasbiy fanlari dasturlarida o'quv materialining mazmunini va uni o'rganish ketma-ketligini aniqlashda, asosi ochib berilayotgan fanning mazmuni, mantiqiga asoslaniladi. Masalan, elektrotexnika, gidravlika va pnevmoyuritmalar, amaliy mexanika, issiqlik texnikasi, ekologiya kabi fanlarning dasturlari mazmuni jihatidan eng barqaror dasturlardir.

Dasturlardagi o'quv materialiniig mazmunini aniqlash tamoyillaridan biri uniig talabalarga tushunarli bo'lishidir. O'quv materialining tushunarli bo'lishi deganda, uni soddalashtirish yoki engillashtirish tushunilmasligi kerak. O'quv materialining tushunarlilik deganda, uning talabalar uncha qiynalmay o'zlashtira oladigan darajada ochib berilishi tushuniladi. Shunday qilinganda talabalarning tafakkuri, xotirasi, irodasi rivojlanadi. O'quv materialini tushunadigan qilib tanlashda bilimlar hajmini va o'quv materialinint ochib berilish chuqurligini aniqlash ko'zda tutiladi.

Dasturning har bir mavzusi bo'yicha bilimlar hajmini belgilashda zarur bo'ladigan asosiy materialga, shuningdek, ko'rgazmali va ma'lumotnoma materialga asoslaniladi hamda uning hajmi bilan talabalarning fikrlash va xotirada saqlab qolish imkoniyatlariga taqqoslab ko'riladi. Bunda o'qitish davri, mavzuga ajratilgan vaqt, o'quv materialining muhimligi, talabalarning tayyorgarlik darajasi, fanlararo bog'lanishlar hisobga olinadi.

Ochib berilish chuqurligi jihatidan olganda o'quv materialini shartli ravishda uch guruhga: oson, o'rtacha va qiyin o'zlashtiriladigan materiallarga bo'lish mumkin. Ma'lumki, faktlar eng oson material; faktlar tizimi - o'zlashtirilishi qiyin material; o'rganiladigan mashina, jihoz, mexanizm, materiallar sifati, texnologik jarayonning muhim alomatlarini aniqlash yanada qiyin. Tushunish va o'zlashtirish eng qiyin material - sabab-natijali bog'lanishlarni topish, chunki ular tarkibida ancha murakkab o'quv material bo'ladi. Sabab-natijali bog'lanishlarni aniqlash

zarurati, ko'pincha, mashinalarni sozlovchilarda, dastgohda ishlovchilarda, yig'uvchi-chilangarlarda, haydovchilarda, montajchilarda va ko'pgina boshqa kasb ishchilarida paydo bo'ladi. Bunda sabab ma'lum bo'lsa, natijani topish, aksincha - natijani bilaturib, sababni topishga qaraganda oson bo'ladi.

Talabalarni sababni qidirib topishga o'rgatish ularda texnologik tafakkurning rivojlantirilishini talab qiladigan juda qiyin jarayondir. Bu muhim talab dasturlar tuzishda hisobga olinadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'quv materialining qiyinlik darajasi o'rganiladigan tushunchaning ichki bog'lanishlariga bog'liq. Bog'lanishlar qanchalik kam bo'lsa, tushunchani o'zlashtirish shunchalik oson, bog'lanishlar qanchalik ko'p bo'lsa, tushunchani o'zlashtirish shunchalik murakkab bo'ladi. Bu ham dasturlardagi o'quv materialining ochib berilish chuqurligini aniqlashda e'tiborga olinadi.

Dasturlardagi o'quv materialining ochib berilishi chuqurligi ko'p jihatdan talabalarning umumiy o'rta ta'limdan olgan tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Dasturlarda mashina va jihozlarning tuzilishi, texnologik ish jarayoni hamda hisoblashga oid nazariy materiallarni chuqur asoslab berish, tipaviy texnologiya, jarayonlar qonuniyatlarining ilmiy asoslarini anglab olish ko'zda tutiladi. Yig'ish va ta'mirlash-rostlash ishlarining puxtaligi, aniqligi va sifatini oshirish masalalariga, ularni ob'ektiv tashxislash alomatlariga ko'ra asboblarni vositasida tekshirish sinashga alohida e'tibor beriladi. Fanni o'rganish uchun talabalardan turli tip, rusum va modifikatsiyadagi juda ko'p mashinaning tuzilishini bilish talab qilingan hollarda dasturlarda shunga o'xshash mashinalarning tuzilishiga, ishlashiga oid printsipial sxemalarni, tipaviy texnologik jarayonlarni o'rganish hamda shu asosda eng zamonaviy va xarakterli konkret konstruktsiyalarning xususiyatlarini o'rganish ko'zda tutiladi.

Dasturlar tuzishda o'quv materialiga nisbatan qo'yiladigan talablar bo'lgan amaliylik va zamonaviylik hisobga olinadi. Bunda talabalarning oliy ta'lim muassasalarida oladigan bilimlari ishlab chiqarishda va ijtimoiy tajribada tatbiq

etilgan taqdirdagina katta ahamiyatga ega bo'lishiga asoslaniladi. Shuning uchun o'quv materialini tanlashda dasturlarga ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalarining hozirgi darajasiga javob beradigan faoliyati bilan bevosita bog'langan materiallar kiritiladi. Shu nuqtai nazardan ixtisoslik fanlarining o'quv dasturlari mazmuni vaqt-vaqti bilan (3 yilda) qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi. Shu narsa an'anaga aylanib qoldiki, o'quv dasturlari faqat o'qitish mazmunini, ya'ni talabalarga nimani o'qitish kerakligini ochib beradi. O'qitish metodikasini, ya'ni qanday o'qitish kerakligini esa, odatda, o'qituvchining o'zi hal qiladi. OTMLar uchun umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bloki dasturlarini tuzishda dasturlarda o'qitish metodikasining ba'zi masalalarini ochib berishga harakat qilinadi. Chunonchi, amaliy mexanika, ekologiya, elektrotexnika, hayotiy faoliyat xavfsizligi, muhandislik va kompyuter grafikasi kabi fan dasturlarining har bir mavzusida o'qituvchi uchun qisqacha metodik tavsiyalar berilishi mumkin. Oliy ta'lim muassasalari ixtisoslik fanlar bloki fanlarining dasturlari uchun shu narsa xoski, talabalar bilimlarni ancha ongli va puxta o'zlashtirishi, ularning bilish faoliyatini faollashtirish hamda texnik tafakkurini rivojlantirish maqsadida bu dasturlarda anchagina hisoblash ishlari, texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqarish mashqlari, tajriba-amaliy ishlar, mustaqil ishlar, ma'lumotnoma adabiyotidan foydalanib mustaqil bajariladigan ishlar, shuningdek, o'quv ishining olingan bilimlarning hammasini amalda tadbiq qila bilishni talab etadigan boshqa shakllari ko'zda tutilgan. Tajriba-amaliy mashg'ulotlar, hisoblash ishlari va mashqlar ruknini aniqlashda quyidagi masalalarni hal qilish nazarda tutiladi: mashina, jihoz, agregat va qurilmalarining konstruktsiyasini o'rganish; texnologik jarayonlardagi fizikaviy va kimyoviy hodisalar mohiyatini hamda ularning qonuniyatlarni o'rganish; nuqsonlarni tashxislash va aniqlash, mashina, jihoz va agregatlarni asboblarni vositasida tekshirish hamda rostlash usullarini o'rganish; ish rejimlarini hisoblash, texnik xizmat ko'rsatish, yig'ish, ta'mirlash, sozlashga doir texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqish ko'nikmalarini hal qilishni nazarda tutadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Bakalavr va magistr tushunchalarini izohlab bering?
2. Oliy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standartiga tushuncha bering?
3. Ta'lim yo'nalishining malaka talablari nimalarni aks ettiradi?
4. O'quv reja qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
5. O'quv reja va ishchi o'quv rejani farqini tushuntiring?
6. O'quv dasturi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
7. O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturining farqini tushuntiring?
8. Ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish va rasmiylashtirish tartibini tushuntiring?

3-Mavzu: O'quv dasturlarining mazmuni va tuzilmasi. "Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari va tashkiliy shakllari.

Reja:

1. Namunaviy o'quv reja va dasturlarni tajriba-sinovdan o'tkazish va ekspert baholash ishlari.
2. O'quv dasturlarining mazmunini ishlab chiqishga qo'yilgan talablar. Ishchi o'quv dasturlarni ishlab chiqish metodikasi.
3. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan o'quv adabiyotlar va darsliklar. Mutaxassislik fanlar bo'yicha o'quv uslubiy majmualar tuzish metodikasi.

***Tayanch so'z va iboralar:** Nazariy ta'lim, ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlari, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya darsi, o'quv ustaxonasida o'qitish.*

4.1. Namunaviy o'quv reja va dasturlarni tajriba-sinovdan o'tkazish va ekspert baholash ishlari.

Fan-texnika taraqqiyoti ta'lim jarayoniga asosan yangicha yondashishni, ta'limning faol metodlari va texnologiyalarini qo'llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan an'anaviy ta'lim berish usuli ta'lim oluvchilarning fikr

yuritish va bilish faolligining o'sishiga ham yordam beradi. Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta'lim oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko'nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi. ***O'qitishning tashkiliy shakllari*** deganda, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi. O'qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o'qitishning har xil ko'rinishda qo'shib olib borilishi, o'qitishda ta'lim oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta'lim oluvchilarning o'qishga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi. O'qitishni tashkil etish shakllarini tanlash ta'lim-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o'quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog'liq bo'ladi.

Ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o'tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi. Maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari deganda o'quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun talabalarlar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarini tuzilish tarkibi tushuniladi. Ta'limni u yoki bu shaklini tanlashda, talabalarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari, mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko'rsatkich)larini u yoki bu shakllariga bog'liq.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish jarayonida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish usuli keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlariga ega bo'lganligi bois bu usul hozirgacha saqlanib qolgan. O'rta asrlarga kelib, ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan. Chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr hisoblangan. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A.Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Hozirgi paytda maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari tahsil oluvchilarning soni, o'qitish joyi va o'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi.

4.2. O'quv dasturlarining mazmunini ishlab chiqishga qo'yilgan talablar. Ishchi o'quv dasturlarni ishlab chiqish metodikasi.

Ijtimoiy talablar, maxsus fanlarning maqsad va vazifalari, ta'lim oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, tamoyillari kabilarga ko'ra maxsus fanlar mashg'ulotlariga quyidagi talablar qo'yilishi lozim:

- ✓ fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib, dars tuzilmasini maqbullashtirish;
- ✓ darsda barcha didaktik tamoyillarning maqbul nisbatini ta'minlash;
- ✓ ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda yuqori samarali o'quv-bilish faoliyati uchun shart-sharoit yaratish;
- ✓ o'quv materialini mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;
- ✓ ta'lim oluvchilar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish;
- ✓ ta'lim oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan rivojlantirishga erishish;
- ✓ darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va his-tuyg'ularga asoslanish;

- ✓ didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;
- ✓ nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish;
- ✓ zarur bilim, ish-harakat, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish;
- ✓ ta'lim oluvchilarda uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish;
- ✓ darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashxislash.

Maxsus fanlar bo'yicha zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi.

Maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

- ✓ har bir darsning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifasini aniq belgilab olish;
- ✓ ijtimoiy talab va tahsil oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini maqbullashtirish;
- ✓ o'quv-bilish faoliyatini samarali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;
- ✓ ta'limning turli shakl, metod va vositalarining uyg'unligini oqilona ta'minlash;
- ✓ dars tuzilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish;
- ✓ tahsil oluvchilarning turli o'quv-bilish faoliyatlarini uyg'unlashtirish;
- ✓ ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida tezkor-teskari aloqani ta'minlash, ta'sirchan boshqaruv mexanizmini ishlatish;
- ✓ darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli maxsus fanlarni o'qitishda ham sinf-dars ta'lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb hisoblanadi.

Oliy ta'limda ham ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sinf-dars shakli

Sinf – dars shaklining quyidagi o'ziga hos xususiyatlari mavjud:

- ✓ deyarli bir hil tarkib, yoshi va tayyorgarlik darajadagi ta'lim oluvchini ishtirok etishi;
- ✓ ta'lim tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida–alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'lishi;
- ✓ har bir darsning o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'lishi;
- ✓ darslarni jadval asosida muntazam ravishda almashinib turishi;
- ✓ darslarda ta'lim beruvchining rahbarlik qilishi
- ✓ ta'lim oluvchilarni turli ko'rinishdagi o'quv-bilish jarayonida ishtirok etishidir.

Sinf – dars shaklining quyidagi ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Ijobiy tomonlari Salbiy tomonlari

- ✓ qat'iy tashkiliy tizilmaga ega ekanligi;
 - ✓ bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilan faoliyat olib borganligi sababli iqtisodiy ko'rsatkichlarning nisbatan yuqoriligi;
 - ✓ o'qituvchi va ta'lim oluvchini o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratilganligi.
 - ✓ darsni sinfdagi o'rtacha ta'lim oluvchilarga mo'ljallanganligi;
 - ✓ har bir ta'lim oluvchi bilan individual shug'ullanish imkoniyatining yo'qligi.
- Har bir dars o'quv jarayonining bir qismi hamda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichi hisoblanadi. Dars muvaffaqiyatli o'tishi uchun uni tashkil etish bo'yicha o'qituvchi faoliyatining maqsadini aniqlash lozim.

Har qanday darsning uchta maqsadlari mavjud.

Darsning maqsadlari.

Darsning ta'limiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- ✓ yangi tushunchalarni shakllantirish;
- ✓ yangi qonun, qonuniyat, xususiyat va belgilarni uzlashtirishni ta'minlash;
- ✓ yangi harakat usullarini o'rgatish;
- ✓ bilimlardagi etishmovchiliklarni bartaraf etish;

- ✓ bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish;
- ✓ malakalarni shakllantirish;
- ✓ ma'lum harakat usullarini mustahkamlash;
- ✓ tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash bo'yicha talabalarda biror narsa to'g'risida tushunchalarni shakllantirish;
- ✓ dunyoqarash g'oyalari va muammolarini aniqlash;
- ✓ talabalarda u yoki bu harakatni, voqealarni baholash bo'yicha bilimlarni shakllantirish;
- ✓ xulosa chiqarishga tayyorlash, o'zlashtirishga erishish.

Darsning tarbiyaviy maqsadlari talabalarda quyidagi muayyan shaxs sifatleri va xarakterini tarkib toptirishdan iborat:

- ✓ dunyoqarashni va kasbga qiziqishni;
- ✓ o'z-o'zini tekshirish va o'zaro yordamni;
- ✓ voqeliklar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash va tahlil qilish ko'nikmalarini;
- ✓ bir sohadan ikkinchi sohaga bilimlarni ko'chirish ko'nikmalarini;
- ✓ fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini;
- ✓ nutq madaniyatini;
- ✓ vatanparvarlikni;
- ✓ mehnatga ongli munosabatni;
- ✓ ongli intizom va yaxshi xulqni;
- ✓ ta'lim olishga ijobiy munosabatni;
- ✓ estetik qarashlarni;
- ✓ ish o'rnini tashkil etish va o'z faoliyatini tekshirishni;
- ✓ e'tiqodni.

Rivojlantirish maqsadi — dars jarayonida talabalarning psixologik sifatlarini diqqat, xotira, texnik taffakkur va bilish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish talabalarda tafakkurni, politexnikmehnat, bilish (anglash) va aqliy ko'nikmalarni, iroda va mustaqillikni rivojlantirish, ularni kelgusi darslarga tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Agar bilimlarni shakllantirish va maqsadli tarbiyalash talabalarning bilish qobiliyatini takomillashtirsa, buni rivojlantiruvchi ta'lim deb tan olinadi. Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning quyidagi turlari mavjud: ***Yangi materialni bayon etish darsi.*** Yangi materialni bayon etish darslari suhbat o'tkazish, hikoya qilish, tushuntirish, turli ko'rgazmali vositalardan foydalangan holda muammoli vaziyatlar yuzaga keltirish usullari bilan o'tkaziladi. Bunday darsning asosiy maqsadi dastur materialini tushunarli ravishda bayon qilishdir. O'qituvchi darsning ayrim mavzularini tushuntirish jarayonida ta'lim oluvchilar yangi materialni qanday qabul qilayotganini tekshirib (ta'lim oluvchilarga birma-bir qisqa savol berish yo'li bilan), ta'lim oluvchilarni darsda faol ishtirok etishga jalb qiladi. Bu darslar, odatda, mavzuni bayon etish va darsdan ko'zlangan maqsadni ochib berishni, yangi materialni navbati bilan bayon etish yoki ta'lim oluvchilarning o'quv adabiyoti, texnika adabiyoti (jurnallar, byulletenlar, albomlar, chizmalar, sxemalar, texnologik jarayon kartalari va shu kabilar) yoki ma'lumotnoma adabiyot bilan mustaqil ishlashini tashkil etishni, ta'lim oluvchilarning savollariga javob qaytarishni, ta'lim oluvchilarning yangi materialni o'zlashtirish sifatini tekshirishni, qo'shimcha tushuntirishlarni, uyga vazifalar berishni o'z ichiga oladi. Bunday darslar, odatda, o'rganiladigan material tavsifiy xarakterda va o'zlashtirish uchun engil bo'lgan hollarda o'tkaziladi. ***Bilimlarni mustahkamlash darsi.*** Bunday darslarda oldin o'rganilgan materiallar yuzasidan ta'lim oluvchilar bilan suhbatlar, tajriba-amaliy ishlar o'tkaziladi, har xil masalalar echiladi, texnologik jarayonlar ishlab chiqish mashqlari, yozma grafik ishlar, ilgari o'rganilgan materialni mustahkamlash va tizimga solish yuzasidan turli mustaqil ishlar (sxemalar tuzish va ularni o'qish, jadvallar tuzish, texnikaviy hujjatlarni tahlil qilish va shu kabilar) o'tkaziladi, kinofilmlar ko'riladi, ta'lim oluvchilar ma'ruza va referatlar bilan chiqadilar. Bu ish davomida bilimlar esga solinadi, etarli dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar ta'lim oluvchilar ongi va xotirasida mustahkamlanadi. Buning natijasida bilimlar ancha puxta bo'ladi.

Takrorlash-umumlashtirish darslari. Bu darslardan ko‘zlangan maqsad – o‘rganilgan material yuzasidan olingan bilimlarni esga tushirish va tizimga solish, bu esa bilimlardagi kamchiliklarni to‘ldirishga, mavzuning, bo‘limning va butun fanning asosiy g‘oyalarini, masalalarini yanada chuqur ochib berishga yordam beradi. Bu turdagi darslar dasturdagi mavzuni yoki bo‘limini o‘rganish so‘nggida va o‘quv yilining oxirida o‘tkaziladi. Takrorlash-umumlashtirish darslariga nisbatan qo‘yiladigan asosiy talablardan biri ularning mundarijasiga albatta ta‘lim oluvchilar o‘quv faoliyatiga doir yangi ma‘lumotlar va metodlar kiritishdir. Takrorlash-umumlashtirish darslari ikki xil bo‘ladi: o‘qituvchi mavzuning, bo‘lim yoki kursning o‘rganilgan materiali yuzasidan umumlashtiruvchi sharhlovchi ma‘ruza o‘tkazadi yoki ta‘lim oluvchilar bilan kengaytirilgan suhbat tashkil qiladi. Suhbat vaqtida ta‘lim oluvchilar o‘qituvchi rahbarligida umumlashtiruvchi mashqlar, yozma ishlar va boshqa topshiriqlarni bajaradilar.

Sinash-tekshirish darsi. Bu darslarda mavzu, bo‘lim yoki butun kurs yuzasidan batafsil og‘zaki savol-javob, test sinovi, yozma yoki grafik nazorat ishlari o‘tkaziladi, nazorat qurilmalari, kartochka-topshiriqlar, sharhlash-takrorlash jadvallari yordamida ta‘lim oluvchilar bilimi tekshiriladi, amaliy xarakterdagi topshiriqlar bajariladi. Bunday darslardan ko‘zlangan asosiy maqsad har bir ta‘lim oluvchining tayyorganlik darajasini asosli baholash uchun ma‘lumotlar olish, bilimlarni qanchalik ongli va chuqur o‘zlashtirilganligini, olingan uquv hamda malakalarning qanchalik puxta ekanligini aniqlashdan iborat. Bundan tashqari, bunday darslarni o‘tkazishda o‘qituvchi ta‘lim oluvchilar bilimi hamda uquvidagi kamchiliklarni to‘ldiradi.

Muammoli dars. Bunday darslarda ko‘zlangan maqsad o‘quv jarayonini yanada takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ta‘lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqilligini rivojlantirish, o‘qitishning eng samarali shakl va metodlaridan foydalanishdir.

Muammoli vaziyatlar yaratish, ularni hal qilish yo‘llarini izlash va aniqlashmuammoni hal qilish jarayonining o‘zi, chiqarilgan xulosalarning qanchalik

to'g'ri ekanligini amalda tekshirib ko'rish o'quv jarayonining muhim elementlari bo'lib qolmoqda. Muammoli vaziyat hosil qilish ta'lim oluvchilar faol aqliy faoliyatining zarur shartidir. Ta'lim oluvchi oldiga muayn vazifa qo'yilgan, bu vazifa unda qiziqish uyg'otadi va u bu vazifani hal qilishga urinadi, ammo o'z bilimlari hamda tajribasining etarli darajada to'la va chuqur emasligini payqaydi, ya'ni muayyan qiyinchilikka duch keladi. Ta'lim oluvchida hosil bo'lgan vaziyatdan chiqish yo'lini topishdek ichki ehtiyoj paydo bo'ladi, qiyinchilikni his etish paydo bo'lgan shroitni tahlil qilishga va qo'yilgan masalani echish yo'llarini izlashga undaydi.

Shunday qilib, bilish lozim bo'lgan va amaliy vazifalar bilan ta'lim oluvchilarning bilimlari darajasi orasida ziddiyat hosil bo'ladi, bu ziddiyat yuzaga kelgan qiyinchilikni bartaraf etishga qaratilgan intensiv fikrlash faoliyatini uyg'otadi. Muammoli vaziyatni hal etish asosida tashkil qilingan o'quv jarayoni pedagogikada **muammoli o'qitish** deb ataladi. Muammoli o'qitish vaqtida hamma vaqt masala (muammo) qo'yiladi va hal qilinadi. Bu muammo savol, topshiriq, masala tarzida beriladi.

Muammoli vaziyatlar yaratishda pedagogika fani ishlab chiqqan hamda amalda tekshirib ko'rilgan quyidagi qoidalarga amal qilishi zarur:

1. Muammoli vaziyat yaratish shunday amaliy yoki nazariy vazifani nazarda tutadiki, bu vazifani bajarishda ta'lim oluvchi o'zlashtirilishi kerak bo'lgan yangi bilimlar yoki harakatlarni "kashf etishi" lozim.
2. Masala quyidagi shakllarda berilishi mumkin: savol shaklida, bunda ma'lumotlar so'roq gapga kiritilgan bo'ladi; bunda savolniig ta'rifi, uning mohiyati vazifani bajarishda ta'lim oluvchida paydo bo'ladigan real savolga mos kelishi kerak; topshirik shaklida, bunday masalada xulosa chiqarish, nimanidir tushuntirish, asoslash taklif etiladi.
3. Masala hamisha ta'lim oluvchining bilim va uquvlariga asoslanishi lozim. Ular savol yoki vazifaning mohiyatini, tub maqsadni va echish yo'llarini tushunish uchun etarli bo'lishi kerak.

4. Ta'lim oluvchiga taklif etiladigan muammoli vazifa ta'lim oluvchining intellektual imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Vazifaning qiyinlik darajasi ikkita asosiy ko'rsatkich: o'zlashtirilishi kerak bo'lgan o'quv materialining yangilik darajasi va uning umumlashtirilganlik darajasi bilan baholanadi.

5. Odatda, muammoli vazifa o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materialidan oldin berilishi darkor. Ammo ta'lim oluvchilarda muammoli vazifani hal qilish uchun etarli darajada bilim va uquvlar bo'lmasa, ularga zarur ma'lumotlarni bayon etish yoki ularni muayyan harakatlarga o'rgatish lozim. Bunday hollarda o'qituvchi jarayonlarni xususiyatlari, aniq ma'lumotlar va shu kabilarni aytib beradi, ta'lim oluvchilar esa ana shu ma'lumotlar asosida, o'rganiladigan harakatlarning umumiy qonuniyatlarini, bajarish usullari hamda shartlarini ijodiy o'zlashtiradilar.

6. Ta'lim oluvchilarning muammoli masalalar echish yo'li bilan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga o'qituvchi doimo bevosita rahbarlik qilishi kerak. O'qituvchi muammoli vaziyat yuzaga keltiradi, masalani ta'riflaydi, shundan keyin yordamchi savollar berish, aniqliklar kiritish, ba'zi narsalarni aytib berish yo'li bilan ta'lim oluvchilarga talab etiladigan qonuniyatni mustaqil tushunish hamda ta'riflashga, qilinadigan ish usuli yoki shartini topishga, zarur xulosa chiqarishga yordam beradi.

7. Bilim va harakatlarning ma'lum darajada murakkab tizimini muammoli o'zlashtirishni ta'minlash uchun muammoli vaziyatlar yaratishda muayyan muammoga rioya qilish kerak:

✓ murakkab topshiriqni ancha mayda, xususiy topshiriqlarga bo'lish zarur; ba'zi hollarda asosiy masala bir necha dars yoki, hatto, butun boshli mavzu doirasida yagona bo'ladi va xususiy vazifalar sifatida echiladi;

✓ har bir muammoli vaziyatda bitta noma'lum elementni (xossa, nisbat, harakat qonuniyati yoki uni bajarish shartini va shu kabilarni) izlanuvchi element sifatida belgilab olish lozim;

✓ har xil muammoli vaziyatlar uchun xos bo'lgan didaktik funksiyalarni farq qilish kerak: mavzuni o'rganish boshida hosil qilinadigan birinchi muammoli vaziyat ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan umumiy qonuniyatni o'zlashtirish uchun ehtiyoj uyg'otishi darkor; shundan keyingi aniq muammoli vaziyatlar tizimining hammasi shu asosiy masalani ochishga xizmat qiladi;

✓ muammoli vaziyatlar sharoitida o'qituvchi bayon etadigan o'quv materialini va ta'lim oluvchilar mustaqil o'zlashtiradigan materialni aniqlashga differensiallangan tarzda yondoshish kerak; bir darsning o'zida, odatda, ikkala tipdagi materialdan foydalaniladi.

Bu darslardan maqsad talabalar qo'yilgan muammolarni echa olish yoki echa olmasligini aniqlashdir. Bunday darslar talabalar maxsus fanlardan ma'lum bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lganlaridan keyin o'tkaziladi.

Umumiy yoki aralash dars. Bunday darslarda har xil didaktik masalalar hal etiladi - uy vazifalarini va talabalarniig bilimlarini tekshirish, yangi materialni bayon qilish va boshqalar amalga oshiriladi. Ular maxsus fanlarni o'rganishda eng ko'p tarqalgan. Aralash dars o'quv jarayonining bir-biriga eng yaqin zvenolarini o'z ichiga oladi, bu esa talabalar bilimlarni puxta va ongli o'zlashtirishini ta'minlash uchun muhimdir.

4.3. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan o'quv adabiyotlar va darsliklar.

Mutaxassislik fanlar bo'yicha o'quv uslubiy majmualar tuzish metodikasi.

Ishlab chiqarish korxonalarida ta'lim oluvchilarni o'qitishning samaradorligini oshirish masalalari ta'limni samarali tashkil etishdagi muhim vazifalardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Korxonalarda o'qitish vaqtida ta'lim oluvchilarda ishga bo'lgan talablarni to'g'ri tushunish, uning xususiyatlari va bajarilish shartlarini hisobga olish, o'z mehnatini tashkil qilish va rajalashtira bilish, kamchiliklarning oldini olish, texnologik jarayonlarni hamda mehnat unumdorligini oshirish uchun o'z bilimlaridan to'la foydalana bilishda o'z aksini topuvchi kasbga oid mustaqillik

to'liq tarkib topadi. Kasbga oid mustaqillik yosh mutaxassislarda tinimsiz tarbiyalanishi kerak bo'lgan mehnat natijalariga yuksak ma'naviy javobgarlikni his qilish, kasb sharafini his etish bilan birikib ketadi.

Ta'lim oluvchilar yuqori malakali mutaxassislar va ishlab chiqarish ilg'orlari bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularning tajribalarini o'zlashtiradilar, korxonalarining ijtimoiy va ishlab chiqarish hayoti bilan tanishadilar, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarish rejasi va korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini bajarish va oshirib bajarishdagi kurashda faol ishtirok etadilar. Har bir ixtisoslik yoki mutaxassislik bo'yicha bevosita korxonada o'qitish hajmi, mazmuni va muddatlari tegishli o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq belgilanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Maxsus fanlarni o'qitishning qanday shakllari mavjud?
2. Darsga qanday maqsadlar qo'yiladi?
3. O'qitishning sinf-dars shakli qanday afzallik va kamchiliklarga ega?
4. Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning qanday turlari mavjud?
5. Korxonalarda o'qitish qanday tashkil etiladi?
6. O'quv ustaxonalarida qanday mashg'ulotlar tashkil etiladi?
7. Ishlab chiqarish korxonalariga amaliy darslar qanday tashkil etiladi?

“Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodlari va tashkiliy shakllari.

Reja:

1. Ma'ruzani tashkil etish va ma'ruza o'qishga qo'yiladigan talablar. Mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish.
2. Amaliy mashg'ulotlar tashkiliy shakllari, tuzilishi hamda ilmiy-metodik omillari.
3. Mutaxassislik fanlaridan seminar mashg'ulotlarni o'tkazish metodlari va ilmiy-metodik omillari.
- 5.1. Ma'ruzani tashkil etish va ma'ruza o'qishga qo'yiladigan talablar. Mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish.

Tayanch soʻz va iboralar: *Taʼlim metodlari, ogʻzaki metodlar, maʼruza, xikoya, bahs-munozara, amaliy metodlar, koʻrgazmali metodlar, taʼlim metodlarini tanlash, interfaol metodlar.*

Taʼlim metodi deganda taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchilarning birgalikdagi faoliyat yoʻllari tushuniladi. Bularning yordamida taʼlim oluvchilar bilim, koʻnikma, malaka, kasbiy mahoratlarni egallashga erishadilar, aqliy va jismoniy kuch va ijodiy qobiliyat rivojlanadi.

Pedagogikada taʼlim metodlarini tasniflanishiga va belgilashga bir xil yondashuv mavjud emas. “Taʼlim metodi” tushunchasining mazmunini ochish toʻgʻrisida munozaralar hozirgi vaqtda ham davom etib kelmoqda. Baʼzi olimlar metodni belgilashda bilish manbalarining xususiyatlarini asosiy deb hisoblaydilar, boshqalari taʼlim oluvchilarning tafakkuridagi ijodiy faollik va mustaqillik, baʼzi olimlar esa taʼlim oluvchilar faoliyatida taʼlimning turli bosqichlaridagi tavsifini muhim deb hisoblaydilar.

Taʼlim berishda uning ikki tomoni: oʻqitish va oʻqish tomonlari hamma vaqt aniq ajralib turadi.

Oʻqitish – taʼlim beruvchining taʼlim oluvchilarga bilim, koʻnikma va malakalar tizimi berish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyati.

Oʻqish – taʼlim oluvchilarning oʻquv fani materialini oʻzlashtirish borasida qiladigan tizimli va ongli mehnatidir.

Oʻqitish jarayoni murakkab va koʻp qirrali boʻlib, nihoyatda xilma-xil va turli xarakterdagi omillarga bogʻliq. Oʻqituvchi oʻqitish metodlarining bitmastuganmas xazinasiga ega. Oʻqitish metodlarini quyidagicha tasniflanadi. Oʻqitish metodlarining tasniflanishi Oʻqitish metodlari oʻquv jarayonining amalga oshirish, yaʼni oʻqitish va oʻqish metodlari boʻlganligidan, har bir metodga oʻqituvchi faoliyati va talabalar faoliyati nuqtai nazaridan qarash lozim. Shuning uchun ham, taʼlim metodlarini oʻquv materiallarini uzatish va idrok etish manbalari boʻyicha

quyidagicha guruhlash mumkin.

Ta'lim metodlarini o'quv materiallarini uzatish va idrok etish manbalari bo'yicha guruhlari Og'zaki metodlar Ko'rgazmali metodlar Amaliy metodlar

- *suhbat: maqsadni tushuntirish talabalarga muammoli savot berish, talabalarning javoblarini*
- *o'quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash; maqsadni tushuntirish: topshiriqning mazmun va talabalarning ish tartibini aniqlash, talabalar ishiga rahbarlik qilish. yakun yasash.*
- *ovoz yozishdan va radio, televidiniedan, multimedia resurslaridan foydalanish: maqsadni tushuntirish axborot va multimedia vositalarini boshqarish; talabalarni Idrok etishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.*
- *ko'rgazmali o'quv adabiyotlari rasmlar va chizmalarni, videotasvirlar, multimedialar, tajribaviy mehnat usullarini namoyish qilish; maqsadni tushuntirish; topshiriqni aniqlashi texnika vositalarini boshqarish, tajribalarni amalda ko'rsatish,*
- *talabalarning ob'ekt va jarayonning mustaqil kuzatishlari; maqsadni tushuntirish, kuzatish ob'ektlarini aniqlash; talabalarning kuzatishlariga rahbarlik qilish, yakun yasash.*
- *tajriba va amaliy mashg'ulotlar; maqsadni tushuntirish, talabalar ishini, tartibini va mazmunini aniqlash hamda rahbarlik qilish; yakun yasash;*
- *Mashqlar: maqsadni tushuntirish talabalarning ishini tartibini va muzmunini tushuntirish; yakun yasash.*
- *talabalarning ijodiy ishlari; maqsadni tushuntirish, muammo qo'yish; talabalar ishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.*

Og'zaki metodlar.

Agar talabalar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining o'quv mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki darslik mavzulari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki metodlar jumlasiga kiradi (tushuntirish, hikoya, suhbat va h.k.). Og'zaki metodlarga o'quv materialining o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon qilinishiga, hikoya, tushuntirish, suhbat ta'lim oluvchilarning texnik adabiyoti bilan mustaqil

ishlashi yozma instruktsiya berish, ovoz yozuvchi televidenie kabilar kiradi. Talabalarga o'quv materialini bildirishning asosiy metodlaridan biri so'zlab berish, tushuntirish, ma'ruzani o'z ichiga oladigan og'zaki bayon etishdir. Bularning hammasida ta'lim berishning faqat bir vositasidan - o'qituvchi so'zidan foydalaniladi.

So'zlab berish o'quv materialini hikoya tarzida bayon etishni ko'zda tutadi. Bu metod o'quv materiali, asosan, tavsifiy xarakterda bo'lib, mantiqiy izchilligi bilan farq qiladigan hollarda qo'llaniladi. So'zlab berish yordamida, odatda, kirish mavzulari, mashina va mexanizmlarning umumiy tuzilishi, materiallarning xossalari va ishlatilishi, ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi masalalari va shu kabilar bayon etiladi.

Tushuntirish o'quv materialini og'zaki bayon etishni ko'zda tutadi. Tushuntirish jarayonida o'qituvchi solishtirish, taqqoslash, deduktsiya, induktsiya, asoslash, qonuniyatlar chiqarish, masalalar echish va shu kabilardan foydalanadi. Tushuntirish, asosan, xususiy va konkret ma'lumotlarni bildirishda qo'llaniladi. O'qituvchilarning ish tajribasidan so'zlab berish va tushuntirish sof holda kamdankam uchraydi, ular ko'pincha so'zlab berish-tushuntirishdan iborat bo'lgan kompleks metod tarzida qo'llaniladi.

Ma'ruza, so'zlab berish va tushuntirishdan farqli o'laroq, ancha aniq tuzilgan bo'ladi. Ma'ruzalar, odatda, o'quv dasturining yirik, muhim masalalari yuzasidan o'qiladi. Ma'ruzada o'quv materiali yaxlit va izchillik bilan bayon etiladi, o'zaro bog'langan tushunchalar, qonuniyatlar tizimi ochib beriladi, kursning turli mavzulari orasida ichki bog'lanishlar o'rnatiladi. Kirish ma'ruzalari, sharh ma'ruzalar, rukn ma'ruzalar va xotima ma'ruzalar bo'ladi. Ma'ruza so'zlab berishga qaraganda uzoq davom etadi (u, odatda, butun darsga mo'ljallanadi) va talabalarning yozib borishini (konspekt tuzishini) ko'zda tutadi. Ma'ruzani eshitish so'zlab berishni eshitishga qaraganda qiyinroq, chunki ko'proq diqqat-e'tiborni talab etadi. Ma'ruzalar, odatda, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida qo'llaniladi.

Og'zaki metodlarni qo'llash jarayonida ko'rgazmali qurollardan ham foydalanish mumkin. Ammo ular yordamchi rol o'ynaydilar. Og'zaki metodlardan foydalanishning muvaffaqiyat ko'rsatkichlari - talabalarning yangi bilimlarni eslab qolishlari va takror aytib bera olishlaridir. Og'zaki metodlarda talabalar o'qituvchi mulohazalari jarayonini takrorlaydilar, unga taqlid qiladilar.

Talaba o'qituvchining tushuntira olish mantiqiga qanchalik yaqinlashsa, materialni shunchalik muvaffaqiyatliroq o'zlashtiradi. Og'zaki metodlardan yangi materialni o'rganish paytida foydalaniladi va bu o'rganish fanlarni egallashning boshqa usullari bilan qo'shib olib borilsagina ular ta'limda yaxshi samara beradi. Ko'rgazmali metodlar Ko'rgazmali metodlar deganda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish shakllari tushuniladi.

Ta'limning ko'rgazmali vositalari bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish xarakterini belgilaydi. Masalan, tikuv mashinasi detallarining namunalari ko'rsatilganda, mexanizmlarning ishlashini virtual model orqali yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayonning videotasviri namoyish qilinishi orqali tushuntirish mumkin.

Ta'limning bunday usullaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyati ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazmali qurollar bilimlarni bir tizimga solish va boyitishda, shuningdek, talabalarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda yordam beradi.

Ta'limning ko'rgazmali usullari talabalarning bilish faoliyatida obrazli va mantiqiy, konkret va abstrakt, hissiy va aqliy jihatlarning nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

Ko'rgazmali vositalarni namoyish qilish (ko'rsatish) yordamida talabalarda mashina va mexanizmlar tuzilishini, texnologik jarayonlarni, mehnat harakatlarini muayyan va aniq obrazi shakllanadi. Ular unga taqlid qiladilar va o'z harakatlarini

qiyoslaydilar. Mazkur metodning qo'llanilishi maxsus fanlarni o'qitishda ko'rgazmalik tamoyilining yaqqol namunasi bo'lib hisoblanadi. Maxsus fanlar darslarida ko'rsatmali qurollarning turli xil va shakllaridan foydalanish o'qituvchining tushuntirishlarini yaxshi idrok qilish hamda o'zlashtirishlarga, malakalarning mustahkam shakllanishiga yordam beradi. Slaydlar, rllakatlar, sxemalar, modellar, maketlarni namoyish qilish bilan bir qatorda harakatdagi ish quroli, asboblari, moslamalar xom-ashyolar, buyumlarning haqiqiy namunalari va hokazolarni ko'rsatish ham katta ahamiyatga ega.

5.2. Amaliy mashg'ulotlar tashkiliy shakllari, tuzilishi hamda ilmiy-metodik omillari.

Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba-sinov ishlari asosida o'quv materialini egallash shakllari ta'limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bunday ko'nikmani shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'nikmalarni egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga bog'liq. **Birinchi shart**-ko'nikma nima maqsadda shakllantirilishini anglashdir. Har qanday ko'nikma-avtomatlashgan darajaga yetkazilgan harakatlari tizimidir. Agar talaba o'quv materialini o'zlashtirishda ularning ahamiyatini tushunmasa, bu harakatlarni shakllantirish qiyin bo'ladi. Masalan: tikuv mashinasi kiyimni qaysi qismlarini tikishga mo'ljallanganligini va buning uchun kiyim materialiga mos ravishda ip va ignalar tanlanishi tartibini bilmasa, shu ishlarni bajarishdagi harakatlarni shakllantirish qiyin bo'ladi.

Ikkinchi shart-mashqlarning tizimli bo'lishi. Odatda, ko'nikmalarni egallashdagi kamchiliklarga o'quv mashqlari tizimini tashkil etish va o'tkazishdagi kamchiliklar sabab bo'ladi, ya'ni mashqlarni o'tkazish uchun kerakli vositalar bilan ta'minlanmaganligi.

Uchinchi shart-amaliy harakatlarni anglagan holda bajarish. Talabalar harakatlarning muayyan fikriy rejasiga asoslanishlari, ish jarayonlarining

izchilligini yaxshi tushunishlari zarur. Ularni mexanik tarzda takrorlashga va yodlab olishga yo'l qo'ymaslik kerak.

To'rtinchi shart-dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayyorlanish. Ular ongli ravishda reja asosida bajarilsa, ko'nikma tezroq, muvaffaqiyatliroq shakllanadi. Buning uchun talabalar nazariy bilimlarni yaxshi egallashlari kerak.

Beshinchi shart-mashqlarni mustaqil bajarish va o'zini o'zi nazorat qilish. Talaba ko'nikmani mustaqil bajara boshlaganida u o'z harakatlarini nazorat qiladi. O'qituvchi talabaga o'z-o'zini nazorat qilish usullarini o'rgatishi zarur. Masalan, talaba kiyimni bironta detaliga bezak berish jarayonini amaliy o'rgangandan keyin, uyda o'zi mustaqil ravishda bajarishga va baho berishga o'rganadi.

Oltinchi shart-bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ularni baholash. O'quv ko'nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy jihatlar bo'ladi. Talabalar yo'l qo'yadigan tipik xatolar namoyon bo'ladi. Lekin o'quv xonasida yaxshi ishlarni namoyish qilish, rag'batlantirish kerak. Ijobiy namuna asosida o'qitish afzalroqdir. Agar ko'nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga olib keladi. Amaliy metodlarga mashqlar, instruktaj (yo'llanma)lar, o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, laboratoriya tajribalari, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish kiradi.

Mashqlar – ta'lim jarayonini tadqiq qilish har bir yangi operatsiyani qisqa muddatli (5-15 minut) mashqlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu mashqlarni shartli ravishda ta'limiy mashqlar deyiladi. Amaliy ishlarni bajarish jarayonida talabalar har xil buyumlar tayyorlar ekan, mehnat usullari va harakatlarini bajarish bo'yicha mashq qilishni davom ettiradilar. Bunday mashqlarni tayyorgarlik mashqlari deyiladi.

Amaliy metod hisoblangan mashq talabalarning ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadida muayyan amallarni ko'p marta va ma'lum maqsadni ko'zlab bajarilishini ko'zda tutadi. Umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishga tadbiquan

olganda, mashqlardan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarning bilimlarini mustahkamlash hamda takomillashtirish, ularda olingan bilimlarni har xil ishlab chiqarish masalalarini echishga tatbiq etish ko'nikmalari hosil qilishdan iborat. Mashqlar odatda, dars davomida o'tkaziladi, ular o'quv faoliyatining barcha bosqichlari uchun xos bo'lib, o'quv jarayonidagi o'rniga qarab har xil didaktik vazifalarga ega bo'ladi va muayyan pedagogik talablarga javob berishi kerak. Mashqlarga nisbatan qo'yiladigan zarur talablardan biri ularning **ma'lum maqsadga qaratilganligidir**. Talabalar o'zlaridan nima talab qilinishini va ular nimaga intilishlari kerakligini aniq tasavvur qilganlari taqdirdagina muvaffaqiyat qozonishlari mumkin. Maqsadga bunday intilish talabalarni faollashtiradi, topshiriqni bajarish uchun mavjud bilimlarni ijodiy tatbiq etishlariga yordam beradi.

Mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilarning ma'lum maqsadga intilishlari ularning yuqori darajada ongli bo'lishini nazarda tutadi. Ana shundagina o'zlari o'zlashtirgan qoidalarni yoki o'rgangan harakat usullarini o'z oldilariga qo'yilgan vazifani hal qilish uchun tatbiq etibgina qolmay, balki bu qoida va usullarni o'zlarining shaxsiy misollari bilan tasdiqlay oladilar, bu misollarni berilgandan farq qiladigan boshqa sharoitda bajara oladilar. Ular nima uchun boshqacha emas, ana shunday qilayotganlari sababini tushuntirib bera oladilar. Onglilik talabalarning aqliy kuchlarini faol zo'riqtirishlarini, amaliy ishlarda tashabbus ko'rsatishlarini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, mashqlar jarayonida talabalarning ongli ravishda maqsadga intilishlari to'g'risida gapirish mumkin. Mashqlardan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad, talabalarda olingan bilimlarni o'quv-ishlab chiqarish masalalarini hal qilishda tatbiq etish ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat. Bu hol, tabiiyki, **o'quv jarayoniga mashqlarni talabalar zarur bilimlar olganlaridan keyin kiritishni** talab etadi. Bu talab barcha mashqlarga avvalo, o'qitishning boshlang'ich bosqichlarida o'qtkaziladigan mashqlarga taalluqlidir. Ammo keyinroq, talabalar etarli darajada bilim va amaliy tajribaga ega bo'lganlaridan keyingina shunday mashqlar berish mumkinki, bu mashqlarni bajarish

uchun talabalarda zarur bilimlarning ba'zilari bo'lmaydi. Bunday hollarda mashqlar, mavjud bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish bilan bir qatorda, yangi bilimlarni o'zlashtirish vositasi bo'ladi. Fanni o'rganish vaqida o'tkaziladigan mashqlar majmui yaxshilab *o'ylangan, pedagogik asoslangan tizim* bo'lishi kerak. Mashqlar tizimi, avvalo, ularning qat'iy izchilligini ko'zda tutadi. Har bir yangi ko'nikma, yangi malaka mustahkam asosda rivojlanib, o'quv fani tizimiga kiritilgan taqdirdagina oson hosil qilinadi. Ishning har bir yangi turiga talabalar o'zlarining bundan oldingi faoliyati bilan tayyorgarlik ko'radi. Mashqlar tizimi murakkabligi va bu mashqlarni bajarishda talabalarning mustaqillik darajasi sekin-asta ortib boradigan qilib tuzilishi lozim.

Talabalarning mustaqillik darajasini sekin-asta oshirib boruvchi mashqlarni tanlashda, ularning xilma-xil bo'lishi kerakligini ham esdan chiqarmaslik zarur. Bu hol, bir tomondan, talabalarning qiziqishini so'ndirmaslik uchun, ikkinchi tomondan, talabalarni o'z bilimlarini har xil sharoitda tatbiq etish usullariga o'rgatish uchun muhimdir.

Bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirishning hamda mashqlar jarayonida uquv va malakalar hosil qilishning samaradorligi mashqlarning soniga, ularni o'kazish tizimliliigi va muntazamligiga, shuningdek, vaqt jihatidan taqsimlanishiga bog'liq. Vaqt jihatidan taqsimlanishi esa, o'z navbatida, o'rganiladigan materialning xarakteriga bog'liq. Tarkibida asosiy masalalar bo'lgan, mavzu yoki fanning asosiy qonun-qoidalarini aks ettiradigan material puxta mustahkamlanishi kerak, bu esa bilimlarni bundan keyingi o'zlashtirilishiga ishonchli asos bo'ladi. O'rganish vaqtida talabalar qiynaladigan va tipik xatolarga yo'l qo'yadigan materialga oid mashqlar tez-tez va ko'p o'tkazilishi darkor. Ammo boshqa hollarda ham, o'rganiladigan materialning muhimligi hamda murakkabligiga qaramay, mashqlar o'quv ishining majburiy elementi bo'lishi, tizimli va muntazam ravishda har qaysi darsda o'tkazilishi lozim. Bu esa talabalarning ish sohasidagi mehnatida muayyan uslub yaratadi, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta hamda tizimli o'zlashtirishiga yordam beradi. Bir tipdagi mashqlar o'tkazishda avval ularni tez-tez,

keyin siyrakroq takrorlash zarur. O'rganilgan material esdan chiqib qolishining oldini olish va uni yanada mustakamlash maqsadida, bundan keyingi mashqlarga uni tadbqiq etishga oid topshiriqlar kiritib turish zarurki, bu mashqlarda yangi topshiriqlar asosiy bo'lib qoladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, fanlararo bog'lanishlarning tiplaridan biri - talabalarda hosil qilinayotgan uquvlar bo'yicha bog'lanishdir. Shunga asoslanib, mashqlar o'tkazishda *talabalarda fanlararo xarakterdagi ko'nikmalar* - o'z ishini rejalashtirish ko'nikmalari, umumiy xarakterdagi intellektual va amaliy ko'nikmalar, kitob bilan ishlash ko'nikmalari, tashkil etish ko'nikmalari hosil qilishga alohida e'tibor berish zarur. Bu hol talabalarning bir fanni o'rganishda orttirgan bilim va ko'nikmalarini boshqa fanlardan qilinadigan ishga ko'chirishga yordam beradi.

5.3. Mutaxassislik fanlaridan seminar mashg'ulotlarni o'tkazish metodlari va ilmiy-metodik omillari.

Ta'lim metodlarini tanlash *birinchidan*, darsda ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, darsning maqsadi yangi bilimlarni o'rganishdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon etadi yoki talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Birinchi holda u turli xil narsalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladigan hikoya, tushuntirish, ma'ruza yoki suhbat usulidan foydalanishi mumkin. Agar darsda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'lsa, buning uchun mashq qilish usuli qo'llaniladi. *Ikkinchidan*, o'rganiladigan fanning mazmum va darsning aniq materialiga bog'liq bo'ladi. Masalan, «Tikuv buyumlari texnologiyasi» fanida o'rganish kiyimga ishlov berishda bir xil usullar, ishlab chiqarish ta'limi darslarida esa butunlay boshqa usullar qo'llaniladi. Ayrim hollarda o'rganilayotgan texnologik jarayonlarni talabalar bevosita kuzatishlari mumkin. Shuning uchun o'qituvchi bu kuzatishni tajribalarda yoki mehnat faoliyati jarayonida tashkil etadi. Agar ularni

bevosita kuzatish mumkin bo'lmasa, o'qituvchi turli xil ko'rsatmali qurollarni namoyish qilishdan foydalanadi.

Uchinchi, talabalarning ilgarigi tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi material talabalarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni ko'rsatmali qurollar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib o'zi bayon qiladi.

Nihoyat, **to'rtinchi**, ma'lum bir o'qitish usulini tanlash asbob-uskunalar, ko'rsatmali qurollar va o'quv jarayonining normal o'tishini ta'minlaydigan boshqa shart-sharoitlarning borligiga, shuningdek, o'qituvchining tajribasi, ish uslubi va shaxsiy sifatlariga bog'liq. O'qituvchining vazifasi-bu shart-sharoitlarni yaxshilash hamda o'zining pedagogik mahoratini doimo takomillashtirib borishdan iborat.

Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- ✓ zamonaviy didaktikaning etakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;
- ✓ o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;
- ✓ xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;
- ✓ muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- ✓ u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;
- ✓ ta'lim oluvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- ✓ ta'lim oluvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;
- ✓ o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- ✓ o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatleri;
- ✓ o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish

metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar qabul qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ta'lim metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. O'qish va o'qitish tushunchalarini izohlab bering?
3. Ta'lim metodlari qanday tasniflanadi?
4. Og'zaki ta'lim metodlarini qanday turlari mavjud?
5. Suhbat metodini o'ziga xos xususiyatlari nimada?
6. Og'zaki bayon etishda o'qituvchi nutq texnikasi qanday bo'lishi kerak?
7. Ko'rgazmali metodlarni afzalliklarini tushuntirib bering?
8. Mashq nima?

4-Mavzu: Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlaridan mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi.

Reja:

1. Mutaxassislik fanlar bo'yicha kurs ishlarini tashkil etish.
2. Bitiruv malakaviy ishlarining ilmiy-metodik ta'minoti, ularni takomillashtirish yo'llari va vositalari. Bitiruv ishlariga qo'yiladigan tashkiliy-metodik talablar.
3. Amaliyotlar va ularni tashkil etish: rejalashtirish hujjatlari; amaliyot yuzasidan hisobot tayyorlash.
4. Fan bo'yicha mustaqil ta'lim va tarbiya berish, fanni talaba tomonidan o'zi va mustaqil o'rganishi va ularni tashkil etishi. Mustaqil tarbiya va mustaqil ishlashning o'quv-metodik ta'minoti.

7.1 Mutaxassislik fanlar bo'yicha kurs ishlarini va tashkil etish.

Kurs ishidan ko'zlangan asosiy maqsad — Texnologiya ta'limi metodikasi kursini o'rganish jarayonida tegishli laboratoriya va amaliy ishlarni bajarganda shakllangan bilim xamda uquvlarni mustaxkamlash.

Shu maqsadning to'la-to'kis amalga oshishi uchun kurs ishidagi topshiriq shunday to'zilganki, uni bajarayotganda kurs dagi topshiriq shunday to'zilganki, uni bajarayotganda kursning barcha bo'limlariga, metodik adabiyotga, maktablarning amaliy ish tajribasiga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Kurs ishining birinchi qismida konkret topshiriqqa muvofiq metodika ishlab chiqiladi, ikkinchi qismida esa praktika o'tkaziladigan maktabdagi mehnat ta'limini moddiy bazasining taxlili keltiriladi va undan foydalanish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan takliflar kiritiladi.

Kurs ishi tushuntirish xati va chizmalarni o'z ichiga oladi. Tushuntirish xatining hajmi cheklanmaydi. U taxminan 35—45 betni tashkil etadi. Chizmalarning mazmuni konkret topshiriqlar bilan belgilanadi.

Kurs ishi birinchi va ikkinchi qismlarining mazmunini mufassalroq ko'rib chiqamiz.

Kurs ishlarining mavzusini tanlash

Dastlab mavzuning o'quv dasturidagi tutgang o'rni, uni o'rganishning kalendar muddatlarini aniqlash talab etadi, sababi busiz boshqa o'quv fanlari bilan didaktik aloqa o'rnatib bo'lmaydi.

Kurs ishi mavzusida quyidagilar aks ettiriladi

mavzu tavsifi, mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi.

mavzu bo'yicha adabiyotlar taxlili.

mavzuning o'quv - tarbiyaviy vazifalari.

mavzuni yoritishda foydalaniladigan ilmiy – tadqiqot metodlari.

mavzu materiallarining nazariy va metodik asoslarini ochib berish.

mavzuni yoritish metodikasi.

mavzuni yoritishda pedagogik texnologiyalar metodidan foydalanish.

O'quv ishlab chiqarish ishlari.

Kurs ishlarini mavzularini tanlash ularni tayyorlashga qo'yiladigan talablar

- Kurs ishni bajarishning maqsad va vazifalari
- Kurs ishlarining mavzusini tanlash

- Kurs ishlarini bajarish ketma – ketligi

Maqsad: Kurs ishlari mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablar va ularni bajarish ketma – ketligi haqida talabalarda tushuncha hosil qilish.

Natija: Kurs ishlari mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablar va ularni bajarish ketma – ketligi haqida talabalarda tushuncha hosil bo'ladi.

Kurs ishni bajarishning maqsad va vazifalari

Mehnat ta'limi va kasb ta'limi metodikasi fanidan kurs ishlari fan yuklamasi tugatilgandan so'ng, talabalar mehnat ta'limi va kasb ta'limi o'quv kurslari haqida to'liq ma'lumot shakllangandan keyin bajarilishini talab qiladi. Kurs ishlari talabanning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, mustahkamlash va boyitish, egallagan bilimlarini amalda qo'llay olish, mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish, adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish kabi maqsadlarni ko'zlaydi. Kurs ishi tushuntirish xati va chizmalarni o'z ichiga oladi. Tushuntirish xatining hajmi cheklanmaydi. U taxminan 25 – 30 betni tashkil etadi.

Kurs ishlarini bajarish ketma – ketligi

Kirish.

Masalaning dolzarbligi; mavzuga doir adabiyotlar tahlili, ilmiy tadqiqot metodlari.

1 – bo'lim. Mavzuning ilmiy – nazariy asoslari.

2 – bo'lim. Mavzuni yoritish metodikasi va pedagogik texnologiya metodlari asosida dars ishlanmasi.

3. – bo'lim. Tajriba sinov o'tkazish metodikasiva baholash mezonlari.

Xulosa. Ilmiy izlanishdan olingan natijalar yuzasidan fikr va mulohazalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kurs ishlarini bajarish ketma – ketligi

Malakaviy ish oliy ta'lim muassasasining, odatda, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabanning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba malakaviy ishning

bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri malakaviy ishning tayyorlik holatini belgilaydi.

Talaba-ish muallifi, tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, malakaviy ishda ko'chirmachilik holatining yo'qligiga javob beradi.

Kurs ishini bajarish bosqichlari va uni himoya etish tartibi.

Mavzuni tanlash. Kurs ishi rejasini tuzish va uni tasdiqlash.

Adabiyotlarni o'rganib tahlil qilish.

Kurs ishi mavzusi yuzasidan ilg'or pedagogik ishlarni o'rganish.

Olingan ma'lumotlarni jadval va sxemada ishlab chiqish.

Kurs ishi ximoyasida kafedra o'qituvchilari ishtiroq etish.

Kutsrs ishini baholashda har tomonlama bajargan ishlar hisobga olinadi.

Kurs ishi rahbari himoya qilingan ishni tahlil qilib, yakunlab beradi.

Kurs ishi himoyasi taqdimot shaklida namoyon qilinadi.

Muddatida ulgura olmagan yoki himoya qila olmagan talaba akdemik karzdor deb hisoblanadi.

Kurs ishini bajarish bosqichlari va uni himoya qilish.

1. Mavzuni tanlash. Kurs ishi rejasini tuzish va uni tasdiqlash.
2. Adabiyotlarni o'rganib tahlil qilish.
3. Ilmiy izlanish yuzasidan ilg'or pedagogik ishlarni o'rganish.
4. Ilmiy izlanishdan olingan ma'lumotlarni jadvalda, diagrammada va sxemada ishlab chiqish.
5. Kurs ishida belgilangan vazifalar hal etiladi.
6. Kurs ish mavzusidagi tayyorlanadigan mahsulotning texnologik xaritasi ishlab chiqiladi.
7. Kurs ish mavzusidagi mahsulot tayyorlanadi va taqdim etiladi.
8. Kurs ishi mavzusi bo'yicha taqdimot tayyorlanadi.
9. Kurs ishini himoya etish jarayonida kafedra o'qituvchilari ishtirok etadi.
10. Kurs ishini baholashda har tomonlama bajargan ishlar hisobga olinadi.
11. Kurs ishi rahbari himoya qilingan ishlarni tahlil qilib, yakunlab beradi.

12. Muddatida ulgura olmagan yoki himoya qila olmagan talaba akadem qarzdor deb hisoblanadi.

7.2. Bitiruv malakaviy ishlarining ilmiy-metodik ta'minoti, ularni takomillashtirish yo'llari va vositalari. Bitiruv ishlariga qo'yiladigan tashkiliy-metodik talablar.

Maqsad: Bitiruv malakaviy ishni bajarishning maqsad va vazifalarini tushuntirish, malakaviy ishlar mavzusi va unga rahbarlik qitlsh, bitiruv malakaviy ishni amalga oshirish metodlarini tushuntirish, rasmiylashtirish va unga rahbarlik qilish.

Natija: Bitiruv malakaviy ishni bajarishning maqsad va vazifalarini tushunadilar, malakaviy ishlar mavzusi va unga rahbarlik qilish tartibi bilan tanishadilar, bitiruv malakaviy ishni amalga oshirish metodlarini tushunadilar.

Tezkor savollar:

Bitiruv malakaviy ishini maqsadi?

BMI tadqiqot metodlari?

BMI ni rasmiylashtirish?

Bitiruv malakaviy ishni bajarishning maqsad va vazifalari

Bitiruv malakaviy ishni bajarish (keyingi satrlarda malakaviy ish) — oliy ta'lim muassasasi bakalavriyatida talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichidir.

Malakaviy ishni bajarish maqsadi:

Ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytarish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash;

Ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga etkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish;

Bitiruv malakaviy ishlarning mavzusi

Malakaviy ishlar mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak. Malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi

kafedra tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasi yoki fakultetning ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch yilda bir martadan ortiq qayta ko'rib chiqilmaydi.

Malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish

Malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliy ta'lim muassasasining professor va dotsentlari yoki ilmiy xodimlari boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassisleri safidan tayinlanadi.

Malakaviy ish rahbari:

- topshiriq beradi;
- malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularining qaytarilishiga yoki ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Bitiruv malakaviy ishining rasmiylashtirilishi

Tushuntirish xati davlat tili, rus tili va ingliz tillarida yozilishi mumkin. Tushuntirish xati jadval va rasmlar bilan 50-60 betdan iborat bo'lishi lozim.

BMI matni VORD redaktori matnida A4 formatli qog'ozda, 15 mm oraliqda bo'lishi kerak. Qog'oz chap tomondan 30 mm, tepa va pastdan 20 mm, o'ng tomondan 1,5 mm hoshiya qoldirilgan bo'lishi kerak.

Tushuntirish xatining mazmuni 2 bo'limdan (texnik hamda pedagogik) iborat bo'ladi. Bo'limlar kichik qismlarga bo'linishi mumkin. Har bir bo'lim va qismlar yangi sahifadan boshlanishi tavsiya etiladi. Bo'limlar arab raqamida belgilanadi. Shuningdek, bo'lim tartib raqami bilan ifodalanadi va nuqtalar bilan ajratilgan bob va bo'lim raqamlaridan tashkil topadi

7.3 Amaliyotlar va ularni tashkil etish: rejalashtirish hujjatlari; amaliyot yuzasidan hisobot tayyorlash.

Amaliy dars rejasini ishlab chiqish, yo'riqnomalar mazmunini yoritish.

Amaliy darsga tayyorgarlik. Joriy oraliq va yakuniy yo'riqnomalarni o'tkazish tartibi. Dars jarayonida o'qituvchining vazifasi. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga e'tibor. Darsni yakunlash.

Amaliy mashg'ulot - aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktik harakatga aytiladi.

Amaliy mashg'ulot mehnat ta'limining tarkibiy qismi bo'lib, o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o'quv poligonlarida ish o'rnida joylashgan real vositalardan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Mehnat ta'limi tizimining xususiyati shuki, nazariya va amaliyot bir biridan alohida, ya'ni nazariy ta'lim o'quv auditoriyada, amaliy mashg'ulotlar ustaxona va laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Nazariy darsda kerakli maxsus bilimlar amaliy darsga nisbatan ilgariroq berilishi ta'minlanishi kerak. Amaliy mashg'ulotlarda ta'lim beruvchi ish o'rnida faqat ish topshiriqlariga tegishli qo'shimcha bilimlarni

Darsni rejalashtirish - kutilayotgan o'quv natijalariga yerishish maqsadida o'quv jarayoniga tayyorgarlik ko'rish: ta'lim metodlarini tanlash, tarqatma materiallar va o'quv-didaktik vositalar tayyorlash.

Barcha imkoniyatlarni inobatga olgan holda, bir marta tuzilgan rejada o'zgarishlar bo'lmasligiga harakat qilish kerak. Ta'lim beruvchi uchun rejalashtirish o'quv jarayonini boshqarishda xatolarga yo'l qo'ymaslik deganidir. Ta'lim oluvchi uchun rejalashtirish, u bo'lajak o'quv jarayoni to'g'risida va ta'limdan nimalarni kutishi mumkinligi haqidagi aniq tasavvurga yega bo'lishi deganidir.

O'qituvchi navbatdagi mavzu bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik jarayonida mehnat topshiriqlarini bajarish protsessida o'quvchilar mehnatini rejalashtirish va uyushtirish shuningdek mehnat jarayonini borishini kuzatish, unga tuzatishlar kiritish hamda ro'y beradigan xatolarni bartaraf qilishga jalb yetiladi.

O'quvchilarni aqliy faoliyatida amaliy darslarda ishtirok yetish alohida

ahamiyatga loyiqdir. O'quvchilar ustaxonalarida amaliy darslarda hal qilinadigan texnik masalalarni ikki tipga: konstruktorlik va texnologik masalalarga ajratish mumkin. Konstruktorlik masalalarini turlarini ko'rib chiqamiz.

O'quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari

Mehnat ta'limining moddiy bazasini tubdan yaxshilash uchun barcha shart-sharoitlarni inobatga olish zarur.

O'quv ustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko'ra, 70-90 m² ni tashkil yetadi. Ustaxonalar bir qavatli alohida binoga joylashgan bo'ladi. Ular ta'lim muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasligi uchun kollejning asosiy binosidan bir oz nariroqda quriladi.

O'quv ustaxonalari materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek asboblardan va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga yega bo'ladi. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamollatiladigan bo'lishi meyorda tabiiy va sun'iy yoritilgan ish o'rni bo'lishi, havo temperaturasi qishda 14-16⁰S, yoz davrida yesa 20⁰S dan oshmasligi kerak. Yoritish uchun tabiiy yorug'likdan yoki sharoitga qarab kunduzgi yorug'lik lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv ustaxona devorlari silliq bo'lib, yorqin bo'yoqlar bilan shipi oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham ye'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo'yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi obyektlar bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi.

Ustaxonalardagi shovqin va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo'qotuvchi jihozlardan, yeng to'g'ri mehnat usullaridan foydalanish yo'li bilan yerishilishi mumkin.

O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalarini joylashtirish vaqtida yong'inga qarshi choralarga, mehnatni muhofaza qilish va sanoat sanitariyasi talablariga rioya qilish zarur, ustaxonalar asbob-uskunalar bilan to'ldirilib yubormasligi kerak. Tikuv

mashinalar va ularning orasidagi o'tish yo'llari belgilangan meyorlar darajasida bo'lishi lozim. Dastgohlar, tikuv mashinalarning oxirgi qatorlari bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa kamida 0,5 m bo'lishi kerak.

Ustaxonada qo'l yuvish, ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun sanitariya-gigiyenik talablariga rioya qilgan holda shart-sharot yaratilgan bo'lishi kerak.

Ustaxonalarning maydonidan oqilona foydalanish, ularning toza bo'lishi, asbob-uskunalarining to'g'ri turishi, yestetika talablariga rioya qilish va namunali tartib – bularning hammasi o'quvchilarni intizomlilik va davlat mulkini yehtiyot qilish ruhida tarbiyalash uchun katta ahamiyatga yegadir.

Amaliy metodlarga mashqlar, instruktaj (yo'llanma)lar, o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, laboratoriya tajribalari, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish kiradi.

Mashqlar – mehnat ta'limi jarayonini tadqiq qilish har bir yangi operatsiyani qisqa muddatli (5-15 minutli) mashqlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu mashqlarni shartli ravishda ta'limiy mashqlar deyiladi. Amaliy ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilar har xil buyumlar tayyorlar yekan, mehnat usullari va harakatlarini bajarish bo'yicha mashq qilishni davom yettiradilar. Bunday mashqlarni tayyorgarlik mashqlari deyiladi.

Mashqlarga bir qancha didaktik talablar qo'yiladi:

Mashqlar uchun moddiy o'quv sharoiti yaratilishi kerak.

Mashqlar o'quvchining ongli faoliyatiga asoslanishi kerak.

Mashqlar va ularning yelementlari qiyinligi ortib boradigan tartibda joylashtiriladi.

Mashqlar davomida o'quvchilar o'z mehnat harakatlarini nazorat qilishlari kerak.

Mashqlar davomida o'quvchilar yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tezda bartaraf yetish yo'llarini topish kerak.

Yo'llanma – mehnat faoliyati usullarini tushuntirish va ko'rsatish hamda mehnat faoliyatlarini to'g'ri va xavfsiz bajarish bo'yicha tasavvur hosil qilishga va o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirishga qaratiladi. Yo'llanma

darsning qismi (yelementi)dir. *Yo'llanma(instruktaj)ga* quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

Yo'llanma jarayonida ta'limning har xil metodlaridan foydalanish.

Yo'llanma mazmunini o'qituvchi asoslashi. Agar o'qituvchining o'quvchilar oldiga qo'ygan topshirig'i ularga tushunarli bo'lmasa, o'quvchilar uni bajarish shartini ko'pincha buzadilar, chunki ular bu nimaga olib borishini bilmaydilar. Shuning uchun o'qituvchining har bir talabi asoslanishi kerak.

Yo'llanmaning to'laligi va yo'llanmani yelementlarga ajratish. Mehnat topshirig'ining qiyinligi va u qaysi sinfdan bajarilayotganiga qarab yo'llanma butun yoki ishning borishiga qarab qismlarga ajratib berilishi mumkin.

Yo'llanmada shunday ko'rsatmalar bo'lishi kerakki, o'quvchi ular yordamida o'z faoliyatlarini nazorat qila olishi kerak.

Kirish, joriy va yakuniy yo'llanmalar bir-biridan farq qiladi.

Yangi operatsiyani o'rganish bo'yicha *kirish yo'llanmasi* operatsiya xarakteristikasini; mehnat usullarini meyoriy va sekinlashtirilgan sur'atlarda bajarish qoidalarini namoyish qilishni; o'z-o'zini nazorat qilish belgilarini; aniq mehnat vazifasini o'z ichiga oladi.

Joriy yo'llanma: o'quvchilar ishini to'xtatish – xatoga yo'l qo'ygan o'quvchining ishiga ye'tibor berish, undan noto'g'ri ishlanganligining sababini tushuntirib berishini talab qilish, shu asnda hamma o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish, o'qituvchining xulosasi: o'qituvchining to'g'ri usullarni ko'rsatishi, xatoga yo'l qo'ygan o'quvchining usullarini xotirada tiklashi, guruhga ishni davom yettirishga ruxsat berishdan iboratdir.

Yakuniy yo'llanma sifatli bajarilgan va noto'g'ri qilingan buyumlarni namoyish qilishni, o'quvchilar ishining umumiy xarakteristikasini, o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolar tahlilini, o'quvchilar ishini baholashni o'z ichiga oladi. Kirish instruktajlari ishlab chiqarish ta'limi dasturining mavzusi, mavzuchasi yoki bo'limini o'rganishdan oldin beriladi. Bularning vazifasi o'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish ishlarini ongli

ravishda yeng samarali usullar bilan bajarishga tayyorlash, brak va xatolarning oldini olish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishiga yerishishdir.

7.4 Fan bo'yicha mustaqil ta'lim va tarbiya berish, fanni talaba tomonidan o'zi va mustaqil o'rganishi va ularni tashkil etishi. Mustaqil tarbiya va mustaqil ishlashning o'quv-metodik ta'minoti.

Mustaqil ish qanday bo'lishidan qat'iy nazar rahbarlik rolini o'qituvchi bajaradi.

Shuning uchun o'quvchilarni mustaqil ravishda ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish, umum ta'lim maktablarining ham asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin.

O'quvchilarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

O'quvchilarning mustaqil iahi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Avvalo o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyorlash zarur. Shuning uchun har bir o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyatlari va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishlarini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi.

Fizika o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan quyidagicha mustaqil ishlar bajarilishi mumkin:

- O'quv va ma'lumotnoma adabiyotlari bilan ishlash
- Masala yechishda turli ish shakllari
- Laboratoriyadagi ishlar

- Tarqatma materiallari bilan ishlash
- Sxemalar bilan ishlash
- Asbob va ko'rgazmalar tayyorlash

Mustaqil ish qanday bo'lishidan qat'iy nazar rahbarlik rolini o'qituvchi bajaradi. U mustaqil ish hajmini va mazmunini, darsdagi o'rnini, uslubini aniqlaydi, vazifa tuzadi, o'quvchilarga yo'llanma beradi, o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatadi.

Mustaqil ishlar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tushishi, uni bajara oladigan va qiziqarli bo'lishi kerak.

O'quvchi mustaqil ishlarining shaklini va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi kerak:

- O'qish bosqichi
- Fizika fanining o'ziga hos xususiyatlari va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi
- O'quvchilarning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi {tayanch bilim}
- Fanning axborot manbalari bilan ta'minganlik darajasi
- O'quvchining axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi

O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda talabaning o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish

mumkin:

- Fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash
- Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish
- Ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlab kelish
- Xisob-kitob va grafik ishlarini bajarish
- Amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish
- Test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
- Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash
- Uy vazifalarini bajarish

Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin.

Mamlakatimizni rivojlantirishning yangi shart-sharoitlarida shaxsni xamma tomonlama rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari eng umumiy ko'rinishda yo'naltirilishi lozim bo'lgan o'qitish maqsadi asosida shaxsning xar tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish sifatida shakllanadi. Shu munosabat bilan

O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim jarayonida hayotiy o'z-o'zini belgilaydigan shahsni shakllantirish,uning o'z-o'zini namoyon qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish,jamiyat uchun barkamol avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan

Shunday ekan ta'lim maqsadlarini qo'yishning texnologik yondashuvi jamiyatda ishlab chiqiladigan axborot texnologiyalarini joriy etishni taqazo qiladi.

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga talabalarga dars berishning yangi turlari shakllanmoqda.

Dars jarayonini va mustaqil ishlarini tashkil etishda kompyuterning ahamiyati:

O'quvchllar tomonidan kuzatish qiyin bo'lgan fizikaviy jarayonlarni ko'rgazmali tushuntirish mumkin.

O'quv jarayonidagi mustaqil ishlarni faollashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Mustaqil ishlarni va o'quv materiyalini turli shakllarda uzatilishi (ovoz, matn, video, grafika, animatsiya) O'quvchIning diqqatini tortadi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda kompyuterning ahamiyati beqiyos ekanligini ko'rdik.

Ma'ruza va amaliy darslardagi mustaqil ishlarni tashkil etishda yahshi samara beradi.

Ayrim labarotoriya ishlarida ham kompyuterdan voz kecholmaymiz.

Lekin amalda bajarsa bo'ladigan tajribalarni kompyuterda bajarsa aslidagidek bo'lmaydi.

Chunki "Aytsang unutaman, ko'rsatsang esda saqlayman, o'zim bajarsam idrok qilaman" degan gap bor

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki avvalo o'quvchilarni mustaqil ishlari deganda o'qituvchi topshirig'ini maxsus ajratilgan vaqt mobaynida o'quvchilar bajarishlari tushiniladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mutaxassislik fanlar bo'yicha kurs ishlarini tashkil etisga qo'yiladigan talablar?
2. Bitiruv ishlariga qo'yiladigan tashkiliy-metodik talablar.?
3. Amaliyotlar va ularni tashkil etish: rejalashtirish hujjatlari; amaliyot yuzasidan hisobot tayyorlash haqida ma'lumot bering.?
4. Fan bo'yicha mustaqil ta'lim, o'quv-metodik ta'minoti haqida nimalarni bilasiz?

5-Mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitishda baholash mezonlari. Talabalar bilim darajasini aniqlashning amaliy tomonlari va texnologik asoslari.

Reja:

1. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'zlashtirish darajasini baholashning kredit tizimi. O'zlashtirishni hisobga olishturlari: Joriy, oraliq, yakuniy nazorat turlari.
2. Mutaxassislik fanlar bo'yicha nazorat topshiriqlarini tuzish va baholash mezonlarini ishlab chiqish metodikasi.

Tayanch so'z va iboralar: Baholash. baholashning vazifasi, funktsiyalari, turlari, funktsiyalari, baholashga qo'yiladigan pedagogik talablar, baholashning besh ballik tizimi, baholashning reyting tizimi.

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'zlashtirish darajasini baholashning kredit tizimi. O'zlashtirishni hisobga olish turlari: Joriy, oraliq, yakuniy nazorat turlari.

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim

jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida, ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblandi. Ta'lim beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturidagi materiallarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash qirralari.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq-ravshan bo'ladi.

Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan me'zonla ramosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bu ta'lim oluvchining darsga ijodiy tarzda tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z

bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlarining ijobiy tavsifi asosida ta'lim muassasasidagi va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimidagi, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onasining unga, uning ta'lim muassasasidagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga munosabatiga hech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqtov, ma'qullash, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga egadir.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta'lim rejasi, uning katta-kichik Bo'limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi natijalari muayyan standart me'yori orqali ifodalanadi. Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta'lim dasturining qism va bo'laklari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanishning shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash ta'lim oluvchichining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Baholash mohiyati

Baholashga qo'yiladigan pedagogik talablar:

- ta'lim maqsadiga yo'nalganlik;
- muntazam o'tkazib borish;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanilayotganda faoliyatning kognitiv sohasiga tegishli o'quv maqsadlariga erishilganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanilayotganda faoliyatning psixomotorik

sohasiga, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanilayotganda esa – faoliyatning affektiv sohasiga tegishli o'quv maqsadlariga erishilganlik darajalari aniqlanadi. Baholash mezonlari. Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar (“besh”, “to'rt”, “uch” va “ikki”) kabi sonlar yoki (“a'lo”, “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniarsiz”) kabi so'zlar yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, baholash mezonlari ta'lim oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

Baholash shakllari. Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash
2. Me'yorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash – baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashtan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o'quv maqsadlari bo'yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan-to'g'ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'lchanadi.

Mezonga asoslangan (yoki maqsadli) baholashning afzalliklari:

- o'quv maqsadiga muvofiq baholanadi;
- ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini ob'ektiv baholaydi;

- ta'lim oluvchi olgan bahosida yo'l qo'ygan xatolarini yaqqol ko'rsatib beradi;
- baholanuvchini ta'lim olishga yo'naltiradi;
- baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ularning o'z bilimi va malakalariga bo'lgan ishochini oshiradi;
- hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarni o'rnatadi;
- ta'lim mazmunini aniqlab beradi;
- baholanuvchilarning o'z faoliyati natijalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

Mezonga asoslangan baholashning kamchiliklari:

- mezonlarni ishlab chiqish ko'p vaqt talab qiladi;
- mezonlarning ob'ektivligi, haqqoniyligi va aniqligini aniqlashtirishga nisbatan talablar sonining ko'pligi;
- ijtimoiy fan yo'nalishlari bo'yicha mezoilar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch ksilinadi.

Me'yorga asoslangan baholash – nisbiy baholash shakli bo'lib, u baholashda so'ng baholanuvchilarning ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijadarini o'zaro taqqoslash orqali o'lchashdan iborat.

Me'yorga asoslangan baholash ham ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o'zaro taqqoslash orqali o'lchanadi. Me'-yorlangan (normaga asoslangan) baholashda baho bir necha ko'rsatkich-larga va ta'lim olish shartsharoitiga ko'ra o'zgarishi mumkin bo'la-di. Masalan, o'qituvchida xayrihohlikning paydo bo'lishi, o'qituv-chining o'ta qat'iyiligi sababli ham baho o'zgarishi mumkin.

Me'yoriy (normaga asoslangan) baholashning afzalliklari:

- o'qituvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi;
- turli shart-sharoitga oson moslashtirish mumkin;
- baho bo'yicha ko'rsatkichlar umumiy tarzda olinadi;

- muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularni o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi.
- baholash natijasida guruh ichidan ma'lum sondagilarini ajratib olish imkonini beradi (masalan, imtihonlari natijasida, boshqalarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich ko'rsatgan 25 kishini ajratib olish mumkin).

Me'yoriy (normaga asoslangan) baholashning kamchiliklari:

- baholashda bilim bilan xulqni baholash aralashtirib yuboriladi;
- ba'zan xulqni baholash bilimni baholashni belgilab qo'yadi;
- baholar o'qituvchi tomonidan sub'ektiv tarzda belgilanishi mumkin;
- ta'lim oluvchiga nisbatan simpatiya ham bahoni yuqori qo'yib yuborishga olib keladi. Bilimlarni ob'ektiv va haqqoniy tarzda baholashning pasayishiga yo'l ochib beradi.

Baholash turlari. Baholash o'tkazilish vaqtiga ko'ra uch turga ajratiladi:

- boshlang'ich baholash;
- joriy (shakllantiruvchi) baholash;
- yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash.

Bunday baholash natijalari ta'lim jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

Bunda ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta'lim jarayoni samarasini tezkor(operativ) aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkoini beradi. Yakuniy baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkazilib, u joriy baholash natijalarini jamlaydi.

Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish

lozim:

- ta'lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu uni baholashga tayyorgarlik ko'rishga olib keladi;
- baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishiga, diqqatni chalg'itadigan

yoki tasodifiy uzilishlardan o'zini chetga olishga hamda ta'lim oluvchiga o'z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi;

- baholash o'tkazish sharoitida ta'lim oluvchi o'zini erkin tutishi va **Boshlang'ich baholash** – ta'lim jarayoni boshida ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash - ta'lim jarayonida muntazam ravishda o'tkazib boriladi.

Yakukiy (umumlashtiruvchi) baholash – ta'lim oluvchining ta'lim jarayoniniig ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi.

Noxushlik his qilmasligiga imkoniyat yaratish kerak;

- baholovchi va ta'lim oluvchi baholash nima berishi, u qachon, kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga ega;
- qo'yilgan baho o'quv natijasi tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir;
- ta'lim oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim;
- rejalashtirilmagan baholashni o'gkazish maqsadga muvofiq emas.

8.2. Mutaxassislik fanlar bo'yicha nazorat topshiriqlarini tuzish va baholash mezonlarini ishlab chiqish metodikasi.

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta'lim oluvchi uing qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini bilishi kerak. Ta'lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni

tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga, uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

Ta'lim oluvchining bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari turlichadir. Ba'zan ta'lim beruvchi bilimlarni tekshirishning uzoq vaqt mobaynida bir xildagi usullarini qo'llaydi. Unda so'rash, savol berish, bahoni izohlash sohasida muayyan odat paydo bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bunday tekshirishga moslashib ketadilar, o'qituvchining qay tarzda so'rashi ularga oldindan ma'lum bo'ladi. Ular faqat ta'lim beruvchi uchun, uni qanoatlantirish uchun javob bera boshlaydilar.

Quyidagi beshta asosiy tamoyil baholash tizimi samaradordigining poydevori hisoblanadi:

- o'quv maqsadlariga asoslanganlik;
- haqiqiylik;
- haqqoniylik;
- ishonchlilik;
- qulaylik.

O'quv maqsadlariga asoslanganlik. Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakl va usullari tanlanadi. Shuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Har qanday baholash tizimini loyihalashtirishda, baholash topshiriqlarining berilgan ta'lim mazmuni doirasida bo'lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirishda, har doim quyidagi ikkita savolni e'tibordan qochirmaslik lozim:

- 1) Baholash topshiriqlari ta'lim jarayonidan ko'zlangan o'quv maqsadlarini to'la aks ettiradimi?

2) O'quv maqsadining darajasi uchun baholash shakli, usuli va mezonini to'g'ri tanlandimi?

Masalan, yo'l harakati qoidalari bo'yicha olgan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin undan mashinani boshqarish malakalarini baholashda foydalanib bo'lmaydi. Bu malakalar og'zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Haqiqiylik. O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijaning baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim. Ta'lim oluvchi erishgan natijalar to'g'risida asoslangan va ishonchli axborot berish kerak. O'lchanishi talab etiladigan narsalargina o'lchanishi kerak. Ta'lim oluvchi tomonidan egallagan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarni o'lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur. Haqqoniylik (ob'ektivlik). Bir xildagi ta'lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha har xil ta'lim beruvchilar tomonidan bir xil baho berilgan hollardagina bunday topshiriq va test haqqoniy hisoblanadi. Bu haqqoniylik har xil vaqtlarda berilgan baholar uchun ham taalluqlidir. Ushbu mezonlar ko'pincha markazlashgan holatda, o'tkaziladigan yalpi «rasmiy testlar» paytida amalga oshiriladi, xolos. Ta'lim beruvchi tomonidan tuzilgan testlar esa odatda mazkur talablarni bajarmaydi.

Baholash tizimi o'quv maqsadlariga mos bo'lishi, shuningdek, baholash shartsharoitlari va maqsadlari bilan talabalar oldindan tanishgan bo'lishlari lozim. Ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

Ishonchlilik. Natijalarni baholash mobayida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin, bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini

nazorat qilishga yo'naltirilganligi qanchalik ishonchli ekanligi nazarda tutiladi. Baholash ishonchli bo'lishi uchun ta'lim oluvchilarda bir-biriga o'xshash, ammo har xil sharoitlarda baholash o'tkazilganda, natijalari bir xil bo'lishi kerak. Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo'lishi uchun – turli ekspertlar yordamida turli vaqtlarda, baholash o'tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

Qulaylik. Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lim oluvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'lmagan qismlariga nisbatan ko'proq ball berish kerak bo'ladi.

Baholash jarayonida uchraydigan ba'zi xatoliklar. Ta'lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog'liq ravishda baholashda bir qator xatolar uchraydiki, ularni quyidagilar tashkil qiladi.

Xayrixohlik xatosi. Agar ta'lim beruvchi biror ta'lim oluvchiga nisbatan hayrixohlik bilan qarasa, bu bahoning biroz yuqoriroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Yuqori talab qo'yish xatosi. Agar ta'lim beruvchi o'ziga nisbatan yuqori talablar qo'ysa va xuddi shunday yuqori darajadagi talablarni ta'lim oluvchilarga nisbatan qo'llasa, bunday hol bahoning biroz pastroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

O'rtacha baho berish xatosi. Bu xato ta'lim oluvchilarning natijalari o'rtacha baholanishini bildiradi. Buning sabablari ta'lim beruvchining o'ta yaxshi yoki o'ta yomon baho berishdan qo'rqishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'z fikrini o'zgartirmaslik xatosi. Ta'lim beruvchi o'zining birinchi fikrini

o'zgartirishni xohlamasligi tufayli u o'z nazoratining natijalarini o'zgarishsiz qoldiradi. Bir marta sodir bo'lgan voqea tufayli ta'lim beruvchida biror ta'lim oluvchi to'g'risida qolgan ijobiy yoki salbiy taassurot, keyinchalik bu ta'lim oluvchining shaxsiyatiga oid barcha boshqa xususiyatlariga e'tibor bermasligiga olib keladi.

Yoqtirmaslik xatosi. Biror ta'lim oluvchini yoqtirmaslik yoki unga nisbatan salbiy fikrda bo'lishi tufayli ta'lim beruvchi ta'lim oluvchiga yomon baho qo'yadi. Bu xato "Hayrixohlik xatosi" ning aksidir.

Ta'lim beruvchining baholashdagi xatolari oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

Baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish va ularni to'g'ri tanlash bo'yicha:

- nazorat varag'ini ishlab chiqish;
- baholovchining bir emas, balki ikkita bo'lishi;
- baholash usullarini to'g'ri tanlash;
- samarali baholash tizimini qo'llash;
- baholash topshiriqlarini va ularga javoblarni imkoni boricha yozma ravishda o'tkazish va rasmiylashtirish.

Baholashda uchraydigan xatolarning oldini olish uchun rioya qilinishi maqsadga muvofiq bo'lgan qoidalar:

- baholashdan oldin ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda baholash mezonlarini muhokama qilib olishlari lozim;
- baholash mezonlarga muvofiq qo'yilgach, u ta'lim oluvchilarga ma'lum qilinishi lozim.

Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan birgalikda olingan baholarning natijalarini va yo'l qo'yilgan xatolarni muhokama qilishlari hamda ularning sabablarini aniqlashlari lozim. Ular xatolarning takrorlanmasligi chora-tadbirlarini belgilab olishlari lozim.

Baholash tizimlari. Hozirda Respublikamizning oliy ta'lim muassasalarida quyidagi ikkita baholash tizimi qo'llanilib kelinmoqda:

1. Baholashning “besh ballik” tizimi.

2. Baholashning reyting tizimi.

Baholashning besh ballik tizimida baholashga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

✓ tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Ta'lim oluvchilar darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak (ta'lim beruvchining doimiy ravishda nazorat qilib turishi shunga majbur etadi);

✓ bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta'lim oluvchi uning bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini tushunishi kerak. ***Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik.*** Ta'lim oluvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalari davlat o'quv dasturlarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi.

Baholashning besh ballik tizimi

Afzalligi Kamchiligi

✓ ta'lim oluvchi ragbatlantiriladi;

✓ ta'lim oluvchining faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi;

✓ ta'lim beruvchining vaqti tejaladi;

✓ ta'lim oluvchining yakuniy bilimi baholarining soniga qarab emas, sifatiga qarab baholanadi;

✓ baholash qulay boladi;

✓ rasmiylashtirish xujjatlari kam bo'ladi.

✓ baholash nisbiyligi;

✓ yozma nutqda xatolarni to'g'irlash imkoniyatining kamayishi;

✓ baholashning sub'ektivligi.

Baholashning reyting tizimi

Afzalligi Kamchiligi

✓ xaqqoniy baholanishi;

- ✓ yozma nutqning o'sishi;
- ✓ yozma nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash imkoniyatlarining mavjudligi;
- ✓ ta'lim oluvchining bilimga bo'lgan ishtiyoqining sezilarli daraja oshishi.
- ✓ ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan ishlanganda ko'p vaqt sarv qiladi;
- ✓ ballarni hisoblash ko'p vaqtni talab qiluvchi murakkab jarayonligi;
- ✓ baholash usullariga qarab ta'lim oluvchi og'zaki nutqning pasayishi;
- ✓ ajratilgan vaqtning yetarli emasligi;
- ✓ ta'lim oluvchi baholash nazoratining murakkabligi va noqulayligi

Oliy ta'lim muassasalarida talabala bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi. Talabalar bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;
- b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;
- v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;
- g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;
- d) talabalar bilimni xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

e) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish. Fanlar bo'yicha talabalar bilimni semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat (JN) — talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) — semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat (YAN) — semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash

usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «Yozma ish» shaklida o'tkaziladi.

Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi yoki o'quv-uslubiy boshqarma rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi. Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabanning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir fan bo'yicha talabanning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- ✓ yakuniy nazoratga — 30 ball;
 - ✓ joriy va oraliq nazoratlarga — 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).
- Talabanning reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi — 100 ballik tizimda baholanadi.

Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

Ball Talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim 86-100 xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

71-85 mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

55-70 mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

0-54 aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; bilmaslik.

Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha bir semestrda reytinqi quyidagicha aniqlanadi:

bu erda:

V — semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

— fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha 55 va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi. Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) yoki o'quv ishlari bo'yicha prorektorning ruxsatnomasi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi.

Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy ballining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari yig'indisi 55 balldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin (bahorgi semestr natijalari bo'yicha esa, talabalarning yozgi ta'tili hamda professor-o'qituvchilarning mehnat ta'tilidan so'ng) qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat

davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'ining tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'iga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) boshlig'ining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi. Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimining «O'quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, «Fandan olingan baho» ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga etkaziladi.

Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan

bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

Talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimi joriy etilgan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fan bo'yicha reytingi reyting qaydnomasi va ushbu tizimga qayd etiladi.

Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi.

Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Mutaxassislarining fikricha bugungi kunda talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi sohasidagi muammolar quyidagilardan iborat:

✓ semestr davomida o'qitilayotgan fanlarni talaba tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirishi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, lekin aksariyat holatlarda ayrim talabalar JN va ON nazorat turlarini o'z vaqtida topshirmaydilar;

✓ ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha semestrda fanlardan yakuniy nazoratlarni o'tkazish shakli (yozma yoki og'zaki) fakultet Kengashi tomonidan fan xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. YAN o'tkazilgach, yozma ishlarni baholash uchun 2 kun, og'zaki baholashga 1 kun

muddat berilishi ma'lum muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Jumladan, katta potoklarda dars o'tgan professor-o'qituvchilar bu muddatda talabalar o'zlashtirishini haqqoniy baholab, natijalarini ularga ma'lum qilishga va qaydnomalarni rasmiylashtirishga ulgurmaydi;

✓ o'qitilayotgan fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, yakuniy nazoratlarni o'tkazish bo'yicha talablarni professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilishi hamda tegishli kengashlarda muhokama qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi;

✓ amaliyotda professor-o'qituvchilar tomonidan reyting qaydnomalarini rasmiylashtirishda qaydnomalardagi ballarning ustidan bo'yab yozish, reyting ballarini noto'g'ri hisoblab chiqarish, ballarni butun sonlar bilan qayd qilmaslik va hokazolar kabi ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda;

✓ talabalarning nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-uslubiy boshqarmasida kompyuter xotirasiga kiritilsa-da, ammo muntazam ravishda mutasaddi xodimlar va kafedralar tomonidan tahlil qilib borish imkoniyatlari cheklangan. Bu muammo talabalar vafanlar sonining ko'pligidan kelib chiqmoqda;

✓ ayrim dekanatlar va kafedralarda talabalar bilimni fanlar bo'yicha reyting nazorati rejasi, fanlardan joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo'yicha fakultet kengashi tomonidan tasdiqlangan savollar ro'yxati, joriy va oraliq nazorat natijalari Reyting oynasida muntazam ravishda yoritib borilmayapti.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Ta'lim jarayonida baholashning ahamiyati nima?
2. Baholashni qanday shakllari va turlari mavjud?
3. Baholashga qanday mezonlar qo'yiladi?
4. Baholashning "5" ballik tizimi qanday afzallik va kamchiliklarga ega?
5. Baholashda ta'lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog'liq qanday xatolar uchraydi?
6. Baholashni reyting tizimi mohiyatini tushuntiring?

7. Reyting tizimi bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga necha ball ajratiladi?

6-Mavzu: Mutaxassislik ta'limi yo'nalishida magistrnlarni tayyorlashda ilmiy-tadqiqotchilik ishlari mazmuni

Reja:

1. Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish metodologiyasi.
2. Mutaxassislik fanlarni o'qitish sohasida ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish metodlari: kuzatish; suhbat; tajriba-sinov; matematik tadqiqot.
3. Magistrlik dissertatsiyasini bajarish metodikasi.

Tayanch iboralar: Yo'nalish, tadqiqot, metod, metodika, ilmiy-tadqiqot, ilmiy va amaliy metodlar.

Magistrlar tayyorlashga qo'yiladigan umumiy talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qarori bilan belgilanadi. Aniq mutaxassislik bo'yicha magistrnlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan magistratura mutaxassisliklari malaka talablari bilan belgilanadi.

10.1 Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish metodologiyasi.

Magistr tanlangan mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyatni mustaqil yuritishga;

kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga;

oliy ta'lim muassasasidan keyingi ta'limni magistrlik tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo'yicha katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida davom ettirishga; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olishga tayyorlanadi.

Magistr o'z mutaxassisligi, ilmiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga muvofiq kasbiy faoliyatining quyidagi turlari:

ilmiy-pedagogik;

ilmiy-ijodiy;

ilmiy-tadqiqot va tajriba;

loyiha-konstruktorlik;

loyiha-texnologik;

ishlab chiqarishda boshqaruv, shuningdek bakalavriant ta'lim yo'nalishiga muvofiq boshqa faoliyat turlari bo'yicha ham shug'ullanishi mumkin.

Magistratura talabalarining huquq va majburiyatlari

Magistratura talabalari:

ta'lim, fan, madaniyat, texnika, iqtisodiyotni, ijtimoiy va boshqa sohalarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq bilimlarni olish;

oliy ta'lim muassasasi faoliyati bilan bog'liq muhim masalalarni ko'rib chiqish va hal qilishda bevosita ishtirok etish;

oliy ta'lim muassasasi axborot-resurs markazlari xizmatlaridan, shu jumladan o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlardan, shuningdek oliy ta'lim muassasasining ustavida belgilangan tartibda boshqa turdagi xizmatlardan bepul foydalanish;

ilmiy-tadqiqot ishlarida, konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirok etish;

o'z ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy nashrlarda chop etishga taqdim etish;

oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashi tavsiyasiga muvofiq yetakchi xorijiy va respublika ta'lim (ilmiy) muassasalarida amaliyot o'tash, stajirovkada bo'lish yoki magistrlik dissertasiyasining tajriba-sinov qismlarini bajarish uchun ushbu muassasalar bilan tegishli kelishuvlar mavjud bo'lganda ularga yo'llanma olish;

oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining qarorlaridan norozi bo'lgan taqdirda tegishli idoralarga belgilangan tartibda shikoyat qilish;

talabalar uchun qonunchilikda belgilangan tartib va miqdordagi stipendiya, Davlat stipendiyasi hamda o'qishga yo'llagan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tayinlanadigan stipendiyalarni olish huquqiga ega

Magistratura talabasi qonun hujjatlarida yoki oliy ta'lim muassasasi ustavida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

Magistratura talabalarining majburiyatlari:

magistraturaning tegishli mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarida nazarda tutilgan bilimlarni egallash va o'zlashtirish;

o'quv rejada nazarda tutilgan barcha turdagi topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish, shuningdek magistrlik dissertasiyasini tayyorlash;

oliy ta'lim muassasasining ustavi talablariga va ichki tartib qoidalariga rioya etish.

Magistratura talabasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

10.2 Mutaxassislik fanlarni o'qitish sohasida ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish metodlari: kuzatish; suhbat; tajriba-sinov; matematik tadqiqot.

Magistraturada ta'lim jarayonini tashkil etish

Magistraturada ta'lim jarayoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qaroriga, shuningdek oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan aniq magistratura mutaxassisligi o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq tashkil etiladi.

O'quv jarayonining xususiyatlari va o'qitish muddatlari (3 yil) hisobga olingan holda tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ayrim magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalari va dasturlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Magistraturada ta'lim jarayonini tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi:

oliy ta'lim muassasasining magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar bilan, shu jumladan kadrlar tayyorlash ixtisosligi va yo'nalishiga mos keluvchi professorlar, dosentlar bilan ta'minlanganligi;

nazariy, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, shu jumladan magistrlik dissertasiyalariga qo'yiladigan talablarga mos holda ularni tayyorlash uchun zarur o'quv-metodik va moddiy-texnika bazaning mavjudligi;

o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq tashkilotlarda magistratura talabalarining amaliyotlari, stajirovkasi va magistrlik dissertasiyalarining tajriba-sinov qismlarini bajarishi uchun bu tashkilotlar bilan oliy ta'lim muassasasi (fakul'tet, kafedralar) o'rtasida tuzilgan shartnomalar va kelishuvlarning mavjudligi;

magistratura talabalarini tayyorlash jarayoniga O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-izlanuvchanlik va loyiha muassasalarining yetakchi olimlari, shuningdek xorijiy olimlar, yuqori malakali, tajribali mutaxassislarining soatbay asosida jalb etilganligi.

Magistratura talabasining o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, pedagogik ishlari, amaliyot, stajirovkani o'tashi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash bo'yicha faoliyati ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq magistratura talabasining kalendar' ish rejasiga binoan amalga oshiriladi.

Magistratura talabasining kalendar' ish rejasi mazmuni ilmiy rahbar bilan birgalikda ishlab chiqiladi va oliy ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha prorektori (direktor o'rinbosari) tomonidan tasdiqlanadi. Magistratura talabasi o'zining kalendar' ish rejasi bajarilishi bo'yicha har oyda kafedra yig'ilishida hisobot beradi. Har o'quv semestri yakunida tegishli fakul'tet o'quv-metodik kengashi yig'ilishida (magistratura bo'limida) kafedra mudiri magistratura talabasining kalendar' ish rejasi bajarilishi yuzasidan hisobot beradi.

Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchilarga qo'yiladigan umumiy malaka talablari

Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchi ta'lim jarayoni doirasida:

hamma turdagi o'quv mashg'ulotlarini yuqori darajada o'tadi;

o'quv, ilmiy va o'quv-metodik ishlarni rejalashtiradi, tashkil etadi va nazorat qiladi;

ilmiy-tadqiqot ishlariga va magistratura talabalarining magistrlik dissertasiyalarini tayyorlash jarayoniga rahbarlik qiladi;

kafedra ixtisosligi bo'yicha ilmiy, ilmiy-tadqiqot seminarlarini tashkil etadi va ularda ishtirok etadi;

talabalar ilmiy seminarlarini boshqaradi;
kafedra pedagoglari tomonidan barcha turdagi o'quv mashg'ulotlari sifatli o'tkazilishi ustidan nazorat qiladi;
magistraturaning tegishli mutaxassisligi bo'yicha namunaviy va ishchi o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqadi;
kafedra ilmiy tadqiqotlari yo'nalishlari doirasida tashkil etiladigan yig'ilishlar va konferensiyalarda, shu jumladan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etadi;
magistratura talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etadi va rejalashtiradi;
magistratura talabalari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va nashrga tayyorlashda ishtirok etadi;
magistratura talabasining kalendar' ish rejasi bajarilishini nazorat qiladi.

Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchilar-ga quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

fanni yuqori darajada bilish hamda uning nazariy asoslarini va muhim yutuqlarga erishish mumkin bo'lgan yo'llarni ko'ra bilish uquviga ega bo'lish;
ilmiy muammolarni ishlab chiqa olish, tadqiqotlar o'tkaza olish va ularning natijalari bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlarga ega bo'lish;
magistratura talabalarining individual xususiyatlari, shaxsiy sifatleri va dissertasiyalari maqsadlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyat yo'nalishlarini belgilash qobiliyatiga ega bo'lish;
magistratura talabalarining bilim va malakalarni egallab olishga imkoniyat beradigan innovasion pedagogik texnologiyalarni qo'llashga tayyor bo'lish;
pedagogik holatlar tahlili asosida pedagogik vazifalarni shakllantirish va ularni hal etishning maqbul yechimlarini topish uquvi;
magistratura talabalarining kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovasion kurslar ishlab chiqish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lish;
ma'lumotlarni tizimlashtirish va izlash orqali o'z bilimini takomillashtirish uchun doimiy o'rganish, ma'lumotlarni elektron qayta ishlashda axborot-kommunikasiya va multimediya texnologiyalaridan foydalanish mahoratiga ega bo'lish.

Magistraturada pedagogik faoliyat yuritishga ilmiy unvon (ilmiy daraja)ga va kamida 3 yillik uzluksiz ilmiy-pedagogik (ilmiy) ish stajiga ega bo'lgan, shuningdek xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajali shaxslar jalb qilinadi.

Magistrlik dissertasiyasi o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish jarayonida magistratura talabasi egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasi hisoblanadi.

Magistrlik dissertasiyasining mavzulari oliy ta'lim muassasalari kafedralarida kafedralarning professor-o'qituvchilari tarkibi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-tadqiqot va loyihalash muassasalari xodimlari tomonidan shakllantiriladi.

Magistrlik dissertasiyalarining mavzulari, qoidaga ko'ra, dolzarb ilmiy-tadqiqot masalalariga yoki aniq amaliy vazifalarni hal etishga bag'ishlanadi.

Magistrlik dissertasiyasiga ilmiy rahbarlik oliy ta'lim muassasalarida ishlaydigan professorlar, fan doktorlari, dosentlar, fan nomzodlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari olimlari, tashkilotlarning yuqori malakali va tajribali mutaxassislari, shuningdek belgilangan tartibda magistrlik, ilmiy darajalar yoki ilmiy unvonlarga ega bo'lgan xorijiy mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Magistratura talabasi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasida ishlamaydigan xodimlardan unga ilmiy rahbar tayinlangan taqdirda, talabaga qo'shimcha ravishda tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tarkibidan ilmiy maslahatchi tayinlanadi.

Belgilangan talablarga muvofiq magistrlik dissertasiyasini bajarish doirasida ilmiy rahbar bilan bir xil mas'uliyat ilmiy maslahatchiga ham yuklatiladi.

Magistratura talabasi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasi xodimlari tarkibidan bo'lgan ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchining magistrlik dissertasiyasini tayyorlash bo'yicha talabalar bilan ishlashi ularning oliy ta'lim muassasasida o'quv yili shaxsiy ish rejasi bilan belgilanadigan o'quv yuklamasiga kiritiladi.

Magistratura talabasi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasida ishlamaydigan xodimlardan bo'lgan ilmiy rahbar mehnatiga haq to'lash belgilangan tartibda

mehnatga soatbay haq to'lash shartlari bo'yicha bir o'quv yiliga bir magistratura talabasi uchun 50 soatdan oshmagan hajmda, tegishli oliy ta'lim muassasasi xarajatlar smetasida bu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

10.3. Magistrlik dissertasiyasini bajarish metodikasi.

Professor yoki fan doktori beshtagacha, shuningdek dosent, fan nomzodi va mutaxassis uchtagacha magistrlik dissertasiyasiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin.

Kafedralar tomonidan taqdim etilgan va oliy ta'lim muassasasi yoki fakul'tet o'quv-metodik kengashida muhokama qilingan magistratura talabalarining magistrlik dissertasiyalari mavzulari va ularning ilmiy rahbarlari (ilmiy maslahatchilari) ilmiy ishlar bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari) taqdimnomasiga asosan magistratura talabalari o'qiyotgan birinchi o'quv yilining birinchi ikki oyi ichida tegishli oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Ilmiy rahbarning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

tadqiqot mavzusi doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha tizimli ravishda yordam berish maqsadida maslahatlar jadvalini tuzish;

tadqiqot usullarini tanlashda ishtirok etish va ularni tadqiqot usulida qo'llashda magistratura talabasiga ko'maklashish;

magistratura talabasining belgilangan kalendar' ish rejasi bo'yicha ishlarning bajarilishini va magistrlik dissertasiyasi o'z vaqtida tayyorlanishini nazorat qilish; dastlabki himoyagacha magistrlik dissertasiyasiga xulosa berish.

Magistrlik dissertasiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak:

titul varaq;

ikki tilda (o'qitish tili va ingliz tilida) magistrlik dissertasiyasining qisqacha annotasiyasi;

mundarija;

kirish;

asosiy qism;

xulosa;
adabiyotlar ro'yxati;
ilovalar (mavjud bo'lsa).

Kirish quyidagilarni qisqacha o'z ichiga olishi lozim:

magistrlik dissertasiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;
tadqiqot obyekti va predmeti;
tadqiqot maqsadi va vazifalari;
ilmiy yangiligi;
tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;
tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili);
tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi;
tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;

ish tuzilmasining tavsifi.

Magistrlik dissertasiyasining asosiy qismi kamida uch bobdan iborat bo'lib, boblar hajm jihatidan o'zaro mutanosib bo'lishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:
tadqiqot mavzusiga taalluqli boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili;
tadqiqot metodikasi va ishning amaliy qismi bayoni;
tadqiqot olib borilgan masalani hal etishda magistratura talabasining shaxsiy hissasi ko'rsatilgan holda tadqiqotning asosiy natijalari bayoni.

Magistrlik dissertasiyasining xulosa qismida barcha boblarda qayd etilgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek ilmiy tadqiqot muammosini hal etish bo'yicha xulosalar yoritiladi. Xulosa qismi to'rt sahifadan oshmasligi kerak.

Magistrlik dissertasiyasiga uning mazmunini bayon etish uchun bevosita zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan materiallar ilova qilinishi mumkin. Ilova qismining hajmi magistrlik dissertasiyasi umumiy hajmining uchdan bir qismidan oshmasligi lozim.

Magistrlik dissertasiyasi ustida ishlayotgan magistratura talabasi kasb odob-axloqi qoidalariga rioya etishi (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek yolg'on sitatlar keltirishga yo'l qo'ymaslik) lozim.

Dissertasiya matni standart varaqda yozilgan bo'lib, unda quyidagi qoidalarga rioya etilgan bo'lishi lozim:

qatorlar oralig'i -1,5 sm;

yuqorigi va pastki hoshiya 2 sm, satr boshi: chap tomondan 3 sm, o'ng tomondan 2 sm;

xatboshilar orasidagi oraliq - 5 yoki 6 belgili.

Magistrlik dissertasiyasi matnini Microsoft Word matnli redaktorida Times New Roman shriftida yozish tavsiya etiladi.

Magistrlik dissertasiyasining hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari 70-80 sahifa bo'lishi tavsiya etiladi.

Magistrlik dissertasiyasi magistratura talabasi o'qigan tilda (kafedra yoki magistratura bo'limi tavsiyasiga muvofiq chet tilda) tayyorlanadi. Chet tilda tayyorlangan magistrlik dissertasiyasiga davlat tilida yozilgan annotasiya ilova etiladi. Bunday magistrlik dissertasiyalarining dastlabki va rasmiy himoyalari tarjima bilan o'tkaziladi.

Nazorat uchun savollar

1. Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda qo'yiladigan talablar?
2. Mutaxassislik fanlarni o'qitish sohasida ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish metodlari nimalarni bilasiz?
3. Kuzatish metodi haqida ma'lumot bering?
4. Suhbat metodi haqida ma'lumot bering?
5. Tajriba-sinov metodi haqida ma'lumot bering?
6. Matematik tadqiqot metodi haqida ma'lumot bering?
3. Magistrlik dissertatsiyasini bajarishga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot bering?

7-Mavzu: Tarbiya jarayonini tashkil etish mohiyati. Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish

Reja:

1. Tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va mohiyati.
2. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.
4. Tarbiya turlarining umumiy tavsifi.
5. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish.

Tayanch tushunchalar: *tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyaning umumiy vazifalari, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari, dars, tugarak, ekskursiya.*

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi.

Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi,

ma'naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi.

Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiyachiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining Tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiyajamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxdab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura Tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda Tarbiyafaqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning Tarbiyasi bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq ped.si tajribasi Tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiki tufayli Tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi. Sho'rolar ped.sida Tarbiya orqali xar kanday odamni istagan ijtimoiy kiyofaga solish mumkin degan karash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi.

Tarbiyalanuvchi shaxsining Tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek

pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida Tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash karor topdi, Bu hol Tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki Tarbiyaning asosiy ob'yekta bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib takaladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liqjarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiypartiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliylikiga alohida e'tibor karatilmogda.

Buning uchun xalq ped.si boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilayotir. Natijada, O'zbekiston ped. fani va amaliyotida oila Tarbiyasining ham, ijtimoiy Tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olinaboshlandi. Shuningdek, Tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida Tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol Tarbiyaga doyr hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkoniniberdi. Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, «Tarbiya» yoki «Tarbiyaning tarkibiy qismlari» mavzusiga oid klaster tuzishadi.

Klasterning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

Aqliy tarbiya:

bilim, ilm, malaka, ko'nikma; aql, ong, fahm;

Axloqiy tarbiya:

axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshq.;

Mehnat tarbiyasi:

faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik; aqliy ish, jismoniy mehnat, foyda, maosh;

Jismoniy tarbiya:

chiniqish, sport, o'yinlar; sog'lom tan; Estetik tarbiya: go'zallik, kiyinish, tozalik, yurish-turish, saranjom-sarishtalik; Ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, daraxtlar, qushlar, o'rmonlar; Iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik; Huquqiy tarbiya: fuqaro, tenglik, to'g'rilik, halollik, jinoyat, jazo, huquq, burch.(Har bir guruh tushunchalarni toifalab, tuzgan Klasterlarinitaqdimetadi.)Tarbiya nazariyasi nimalarni o'rganadi? degan savolga javob qidirsak. Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. U Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasigatayanadi.Pedagogika tarixidan ma'lumki, ta'lim tarbiyadan, tarbiya rivojlanishdan ajratib tekshirilmagan. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya pedagogikasida tarbiya masalalarini alohida ko'rish hollari uchraydi. «1806 yilda chiqarilgan Rossiya Akademiyasi lug'atida birinchi bor tarbiya so'zi pedagogik tushuncha sifatida alohida keltiriladi», deb ta'kidlaydi I.Tursunov.

O'tgan mavzularda tarbiyaga berilgan ta'riflarni yodga olaylik: «Tarbiya - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatidir». «Tarbiya - tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda va tizimli ta'sirko'rsatish jarayonidir». Qat'iy ishonch bilan aytish lozimki, - degan edi Prezident I.Karimov O'zbekiston teleradiokompaniyasi muxbiri bilan muloqotda, - ma'naviy boylik moddiy boylikdan ming bor ustun, shu bois biz ta'lim - tarbiya masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida yondoshmoqdamiz. Kadrlar tayyorlash haqida qonun qabul qilingan milliy dastur ham mohiyat e'tibori bilan shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan.

Tarbiya jarayoni deganda nimani tushunamiz? Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aksettiradi.Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining

shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

A) O'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi. Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim - tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi. Tarbiya jarayoni qanday xususiyatlarga ega, u ta'limdan nimalari bilan farq qiladi?

Tarbiyaning birinchi xususiyati uning ko'p qirrali jarayon ekanligi bo'lib unda maktab, oila, bolalar va o'smirlar tashkilotlari, mahalla, keng jamoatchilik, kino-teatr, televideniye, adabiyot va san'at ishtirok etadi. Tarbiyaning yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Ta'limdan farqli

ravishda u bola tug'ilganidan boshlanadi, maktab yillarida, undan keyin va butun umr bo'yi davom etadi.

Tarbiyaning samarali bo'lishi nimalarga bog'liq?

Ma'naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda otaonaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metod dan foydalanishiga bog'liq.

Tarbiya - har bir insonning hayotida, yashashi mobaynida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni. Tarbiyalanganlik - jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan hatti harakatlardan o'zini tiya bilish. Beruniy insonning kamolatga yetishishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada, nasl - nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir.

Axloqlilikning belgilari yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyjanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go'zallikka intilish kabilardir. Adolat - hayotiy masalalarni axloqiy va huquqiy normalarni rioya etgan holda hal etishdir. Adolat tushunchasi bilan bog'liq jihatlar juda keng qamrovli bo'lib, adolatli inson, adolatli jamiyat kabi tushunchalar shunday jihatlar jumlasiga kiradi. Adolatparvarlik tushunchasi esa adolat tamoyili amal qilgan holda ish olib borish, yo'l tutish, faoliyat yuritish demakdir. Prezidentimiz I.A.Karimov "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz" (1999 yil, 13 fevral) mavzusidagi "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga javoblari biz uchun dasturilamal bo'ldi.

- Vatan, millat taqdiri hal bo'ladigan qaltis vaziyatda to'g'ri yo'lni tanlash uchun avvalo tarixni yaxshi bilish, hayotning achchiq- chuchugini bilish kerak.
- Insonlar tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish lozim.

Mamlakatimizning huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida o'tmishimizning hali o'rganilmagan sahifalarini tadqiq etish, davlat va siyosiy arboblarning nomlarini xalqimizga qaytarish, huquqiy qadriyatlarimizni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. « Biz uchun mustaqillik-eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini tiklash, mu'tabar shu zaminda, tinchlik-osoyshtalikni, barqarorlikni saqlashdir». Shu nuqtai nazardan, yoshlarda ijtimoiy adolat haqidagi tushunchalarni shakllantirish ijtimoiy adolat mavzui doirasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, «adolat» keng qamrovli tushuncha sifatida ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab oladi. « Adolat, axloq va huquq kategoriyasi sifatida axloqiy-huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o'lchovdir», -deb yozadi F. Nizomov.

Har qanday jamiyat ijtimoiy adolat normalariga rioya qilishi bilan yuksalish darajasi belgilanadi. Tarixga nazar tashlasak, turli jamiyatlarda adolat nizomi yaratishda xilma-xil yondashuvlarga amal qilib kelinganligining guvohi bo'lamiz. Istiqloq sharofati bilan ko'plab ajdodlarimizning ilmiy merosi va ularda ilgari surilgan adolat to'g'risidagi g'oyalar atroflicha o'rganish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida chuqur huquqiy bilimlarga ega, sotsiomadaniy darajasi rivojlangan, amaliy ko'nikma-malakalarni egallagan, raqobatbardosh kadrlar talab qilinadi. Shu sababli yoshlarda ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchalarni kamol toptirish uchun zamin yaratish lozim.

Kelajakda mutaxassis bo'lib yetishuvchi kadrlar, bugungi kun uzluksiz ta'lim qatnashchilari huquqiy davlat muammolarini to'g'ri baholay oladigan, chuqur huquqiy bilimlarga ega, ijtimoiy hayot sohalari ichki qonuniyatlari to'g'risidagi tushunchalarni egallab borishlari zarur. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar rivojlanayotgan huquqiy demokratik davlatdagi ijtimoiy sohada islohatlar, ahloqiy-huquqiy munosabatlar kabi masalalarga alohida e'tibor berishlari lozim. Mazkur tushunchalarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida asosiy bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Hayotda adolat me'yorlariga rioya etish ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ruhiy jarayondir. Xuquqiy

tarbiya muammolari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish muammolariga bag'ishlab ilmiy izlanish olib borgan olimlar: A. Saidov, B. Karimov, I. Ergashev, A. Begmatov qarashlari qimmatli ahamiyatga molikdir.

Ma'lumki, inson jamiyatda erishishi mumkin bo'lgan narsalar-mulk, daromad, ijtimoiy maqom, hokimiyat, huquqlar insonlararo munosabatlaridagi adolatga bog'liq. Moddiy ne'matlar va xizmat turlari, ijtimoiy (obro', hurmat-ehтиrom), siyosiy ne'matlar (siyosiy erkinliklar, shaxs huquqi), sog'liqni saqlash kishilarning ijtimoiy ahvoli kabi sohalarada odamlar adolat muammolariga katta e'tibor beradilar. Mutafakkir Shahobiddin Am'aqi odil shoh g'oyasini ilgari surar ekan, ayni paytda hukmdorga adolat me'yorlariga rioya qilish lozimligini o'qtiradi. Jamiyatdagi mavjud sotsial guruhlar, sinflar, tabaqalarga nisbatan moddiy ma'naviy ne'matlarni ulashishiga «chun xurshed meboyat zist», ya'ni quyosh singari barchaga baravar, barchani birday ko'rib, adolat yuzasidan taqsimlash lozimligini ta'kidlaydi.

Tarbiya vositalari biron - bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. (Ko'rsatmali ko'nikmalar, kitoblar, radio,televideniye). Bundan tashqari o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari kinofilmlar, san'at asarlari, o'kuvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi - tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan va yangi kitoblarning muhokamasini, taqdimotini uyushtirishi lozim.

Tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning tarbiya jarayonidagi ahamiyati qanday? Tarbiya natijasi tarbiya jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulini eng maqbul usulini tanlab olishi, uning shaxsini o'zgartirishi uchun kerakli shart - sharoit yaratishlari lozim.

Tarbiya usullari har bir bolaga har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va

tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi. Bu usul vositalar nihoyatda rang - barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullari quyidagi tarzda umumlashtirilgan.

1. Tushuntirish (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).
2. Nasihat berish (o'git, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, oq yo'l tilash, yaxshiliklar haqida so'zlash, rahmat aytish, duo qilish).
3. Namuna bo'lish (maslahat so'rash, o'rnak bo'lish).
4. Jazo (ta'kidlash, ta'na - gina, tanbeh berish va h.k.)

Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtiradi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- 1) ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar,
- 2) faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish usullari,
- 3) o'z - o'zini tarbiyalash usullari,
- 4) rag'batlantirish usuli va jazolash usullari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar. Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu guruh usullarining mohiyati shundan iboratki ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi.

Darsdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari (o'quvchilarning turli to'garaklar, sport seksiyalari)ni ko'rsatish mumkin. Darsdan tashqari ishlarning xususiyatlari va xossalari. Darsdan tashqari ishlar o'qituvchining individual yoki gruppali topshiriqlari asosida darsdan keyin kursni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan majburiy tarzda amaliy ishlarni bajarishni tashkil etish shakli.

Darsdan tashqari ishlar maktabta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. O'quvchilar darsdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtiroketishadi. Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bu-gungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'ga-raklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- v) duradgorlik to'ga-raklari;

O'rta umum ta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Darsdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan

chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi.

Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Darsdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ij-timoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferentsiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayoram kechlari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarning darsdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va mohiyati?
2. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari?
3. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari?
4. Tarbiya turlarining umumiy tavsifi?
5. Darsdan tashqari ioshlarni tashkil qilish?

8-Mavzu: Aniq mavzu asosida pedagogik texnologiyani loyihalash bosqichlarini ichlab chiqish. Maxsus fanlar bo'yicha aniq mavzu asosida loyihaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash metodikasi.

Reja:

1. Aniq mavzu asosida pedagogik texnologiyani loyihalash bosqichlari.
2. Pedagogik texnologiyaning turlari.

3. Maxsus fanlar bo'yicha aniq mavzu asosida loyihaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash metodikasi.

Tayanch so'z va iboralar: *Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, mutaxassisliklar klassifikatori, o'quv reja, namunaviy va ishchi o'quv reja, o'quv dasturi, namunaviy va ishchi o'quv dastur, taqvimiy mavzular rejasi.*

Ta'lim–tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega bo'lgan keng ko'lamlı serqirra tushunchadir.

Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohalaridagi turli texnologiyalardan farqli ravishda ishlov beriladigan material o'quvchi (ta'lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatlari bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tamonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQSHda paydo bo'lib, 1940-50 yillar o'rtasigacha «Ta'lim texnologiyasi» deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o'qitishga nisbatan qo'llanilgan. 50-60 yillarda programmalashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan, 70- yillarda «pedagogik texnologiya» iborasi qo'llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan.

1979 yilda AQSHning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan Pedagogik texnologiyani kompleks, integrativ jarayon deb asoslangan va 80- yillarning boshidan esa pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan. Hozirda bu tushunchaga quyidagi turli ta'riflar berilgan:

Texnologiya – biror ishda, san’atda, mahoratda qo’llaniladigan usullar, yo’llar yig’indisi. (Izohli lug’at).

Texnologiya – ishlov berish, ahvolni o’zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyati metodlar yig’indisi. (V.M.Shepel).

Pedagogik texnologiya – Bu o’qituvchi (tarbiyachi)ning o’qitish (tarbiya) vositalari yordamida o’quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko’rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov).

Pedagogik texnologiya – o’qitishning, ta’limning shakllari, metodlari, usullari, yo’llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig’indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachev).

Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o’zaro ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo’yuvchi o’qitish va bilimlarni o’zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo’llash va aniqlashning tizimli metodi. (YUNESKO).

Pedagogik texnologiya – bu o’qitishga o’ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko’chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. (B.L.Farberman)

Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa va umumlashtirilgan ta’rifini keltirishimiz mumkin:

“Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllantirish faoliyati”.

Shu bilan birga pedagogik texnologiyaning keng ko’lamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta’riflarini keltirishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiya – axborotlarni o’zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma’no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog’liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o’rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya turlari

Pedagogik texnologiyalar uzluksiz ta'lim turlari, ta'lim sohalari hamda ayrim belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi

Uzluksiz ta'lim turlari bo'yicha maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tayanch ta'lim, maktabdan tashqari-qo'shimcha ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi pedagogik texnologiyalariga bo'linadi. Shu bilan birga, ta'lim sohalari bo'yicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san'at, sport, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta'lim pedagogik texnologiyalari mavjud.

Hozirda mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoildan foydalanmaydi. Ya'ni quyida keltiriladigan turlarigagina xos bo'lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

Bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha pedagogik texnologiyalar turlari:

- Klassik ma'ruza;
- Texnika vositalari yordamida o'qitish;
- Maslahatchilik tizimi;
- Darslik bo'yicha o'qitish;
- Kichik guruhlar tizimi;
- Kompyuter yordamida o'qitish
- Repetitorlik tizimi;
- Dasturlashtiriladigan boshqaruv.

Ta'lim oluvchiga yondashuv turi bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagicha nomlanadi:

- Avtoritar;
- Didaktik yo`naltirilgan;
- Ijtimoiy yo`naltirilgan;
- Antropologik yo`naltirilgan;
- Pedagogik yo`naltirilgan;
- Shaxsga yo`naltirilgan;
- Insonparvarlikka va shaxsga yo`naltirilgan;
- Hamkorlik texnologiyalariga yo`naltirilgan;
- Erkin tarbiyaga yo`naltirilgan;
- Ezoterik ta'lim va tarbiyaga yo`naltirilgan.

○ **Qo`laniladigan asosiy metod bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:**

- Dogmatik, reproduktiv metod ;
- Tushuntirish, ko`rgazmali;
- Rivojlantiruvchi ta'lim;
- Muammoli, izlanishli;
- Ijodiy metod;
- Dasturlashtirilgan ta'lim metodi ;
- Dialogli metod;
- O`yin metodi ;
- O`z-o`zini rivojlantiruvchi ta'lim metodi;
- Axborotli (kompyuterli) ta'lim metodi

Tashkiliy shakllariga ko`ra pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:

- Hozirgi an'anaviy ta'lim;
- Shaxsga yo`naltirilgan pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar;

- O`quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- O`quv jarayonini boshqarish va tashkil qilish samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- Materialni didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- Xususiy fanlar pedagogik texnologiyalari;
- Alternativ texnologiyalar;
- Tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar;
- Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- Mualliflik maktablari pedagogik texnologiyalari;
- Texnologiyalarni loyihalash va o`zlashtirish texnologiyalari.

Bundan tashqari shaxsning xususiyat va sifatleri tarkibiga yo`naltirilganlik bo`yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- Fanlar bo`yicha bilim, ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltirilgan –axborot texnologiyalar;
- Aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga yo`naltirilgan –operatsion texnologiyalari;
- Estetik va axloqiy munosabatlar sohasini shakllantirishga yo`naltirilgan emotsional-badiiy va emotsional axloqiy texnologiyalar;
- Shaxsning o`z-o`zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo`naltirilgan o`z-o`zini rivojlantirish texnologiyalari;
- Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan –evristik texnologiyalar;
- Amaliy faoliyat sohasini rivojlantirishga yo`naltirilgan amaliy texnologiyalar.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilariga ko`ra tasnif qilinadi:

- Qo`llash darajasiga ko`ra;
- Falsafiy asosiga ko`ra;
- Asosiy rivojlantiruvchi omiliga bo`yicha;
- O`zlashtirish konsepsiyasi bo`yicha;

- Shaxsiy belgi-sifatlariga ko`ra yo`nalganligi bo`yicha;
- Mazmun xususiyatlari bo`yicha ;
- Boshqaruv turiga bo`yicha;
- Bolaga yondashuv bo`yicha;
- Ko`p qo`llanilgan metodlari bo`yicha;
- Ta`lim oluvchilar toifalari bo`yicha.

Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farq

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi tufayli, uni xususiy metodikalar bilan deyarli tenglashtirish hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo`lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi.

Pedagogik texnologiya – o`quvchini mustaqil o`qishga, bilim olishga, fikrlashga o`rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Metodika – o`qituvchining bilimi, ko`nikmasi mahorati, shaxsiy sifatleri, temperamentiga bog`liq bo`lib, ma`lum shaxs o`qituvchi uchun qulay bo`lgan o`qitish usullari va yo`llari majmuadir. U alohida metodikalarga ajratiladi. Pedagogika fani ma`lum o`quv fanlarini o`qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab etiladi. Ular orasidagi farqlar quyidagi jadvalda keltirilgan

	Asosiy tushunchalar	Pedagogik texnologiya	Metodika
1	Ta`riflar	Pedagogik texnologiya – insonga oldindan belgilangan maqsad bo`yicha ta`limiy va tarbiyaviy ta`sir o`tkazish faoliyatidan iborat	Metodika – ma`lum o`quv fanini o`qitish hamda tarbiyaviy ishlar

			qonuniyatlarini tadqiq qiladi
2	Maqsad	Komil insonni shakllantish	Alohida o`quv fanlarini o`qitish va tarbiyaviy ishlarni sifatli bo`lishini ta`minlash
3	qo`llash miqiyosi	Barcha ta`lim-tarbiya jarayonida	Xususiy fanlarni o`qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda
4	Vositalar	Barcha ta`limiy va tarbiyaviy vositalar xususiy metodikalar	Alohida o`quv fanlarini o`qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo`llaniladigan vositalar
5	Pedagogik jarayon	Ta`lim-tarbiya texnologiyasi asosida, ta`lim menejmenti va marketing asosida, ta`lim-tarbiya sohasidagi ilg`or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi. Yetarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan	Ta`lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o`qituvchilarning ilg`or tajribalariga tayanib rivojlanadi. Xususiy tajribalar

		qo`llanganda o`zaro o`xshash natijalar olinishi ta'minlanadi.	asosida boyitib boriladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi har bir pedagogning natijasi har -xil bo`ladi.
6	Natija kafolati	Oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolati bor.	Oldindan belgilangan maqsadga har bir o`qituvchi o`z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o`qituvchilargina yaxshi natijalarga erishadilar.
7	Kelib chiqishi	Xususiy metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan.	Ta'lim tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati

			natijasida kelib chiqqan.
--	--	--	---------------------------

Ushbu farqlar yuzasidan quyidagi fikrni eslash mumkin: **”Aslida zamonaviy ta’lim metodlari muqaddas qiziquvchanlikni hozircha batamom bo’g’ib tashlamagani deyarli mo’jiza, chunki bu nozik nihol (ya’ni qiziquvchanlik) rag’batlantirish bilan bir qatorda, eng avvalo, erkinlikni talab qiladi, yo’qsa, u shaksiz, mahv bo’ladi”.** (A.Eynshteyn).

Bu yerda ta’lim metodlari qiziquvchanlikka yetarlicha erkinlik bera olmasligi nazarda tutilmoqda. Pedagogik texnologiya esa bolaning qiziquvchanligini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o’qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e’tiborni nimaga qaratilishida farqlar mavjud.

Texnologiyalarda ko’proq prosesual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo’naltiruvchi tomonlari ko’proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o’zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg’unligi, ko’plab “agar”lar (agar o’qituvchi iste’dodli, agar bolalar qobiliyatli bo’lsa, agar yaxshi ota-onalar bo’lsa....) yo’qligi bilan farq qiladi. Ya’ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo’lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo’llash mumkinligi bilan juda ham individual bo’lgan metoddan farq qiladi.

Metod – biror harakatni amalga oshirish yo’li, usuli yoki ko’rinishidan iborat. Bunda harakatni amalga oshirish yo’li deb, bajarilishi talab etilayotgan faoliyat uchun qo’llash mumkin bo’lgan bir nechta yo’ldan oldindan ko’zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo’lga aytiladi.

Harakatni amalga oshirish usuli deb, tanlangan ma'lum yo'ldan foydalangan holda oldindan ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan harakat usullariga aytiladi.

Hozircha metodlar ,metodikalar va texnologiyalar bitta tushuncha sifatida idrok qilinmoqda.Texnologiyalar va metodikalarni aralashtirilib yuborish shunday hollarga olib keladiki, ba'zan metodika texnologiyalar tarkibiga kirib qoladi, ba'zan esa aksincha

Pedagogik texnologiya o'quv jarayoni (ya'ni o'qituvchining o'quvchining faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko'p darajada bog'langan.

O'quv fani va uni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash

Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari.

Pedagogik texnologiyaning yo'nalishlari ko'p bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar:

Hozirgi an'anaviy ta'lim. XVII asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanayotgan sinfdars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar.

O'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'lim, o'yinlar, tayanch signallar konspektlari texnologiyalari va boshqalar.

O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai

nazardan yondashish, o'quvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari; ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga o'quvchining tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari **xususiy (O'quv fanlari)** pedagogik texnologiyalari, **alternativ** hamda **mualliflik** pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari ham mavjud.

Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardan iborat. Bu yo'nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik-(tajriba) sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv-(bilishga oid) atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik-(haqiqatni topish) yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan ta'lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o'quv-izlanish ta'lim metodi. Optimallashtirilgan (ko'p variantlardan eng ma'qulini, mosini, muvofiq'ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ-(ijodiy) tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inverison-(almashtirish) axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ-(yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash.

Adaptiv-(moslashtirish) axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv-(tenglik) o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qishini tashkil qilish pedagogik texnologiyasi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari hozirgi an'anaviy ta'limni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda. Turli fan o'qituvchilari tomonidan har bir o'quv fanining asosiy xususiyati, mazmunining tarkibi, amaliy, nazariy qismlarining nisbatiga muvofiq ravishda eng qulay pedagogik texnologiyalarning empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ ,adaptiv, inklyuziv va boshqa yo'nalishlarini to'g'ri tanlash jiddiy ahamiyatga ega.

Dars moduli va algoritimi

Modul- pedagogik texnologiyani o'z ichiga olgan tarkibiy bo'lak bo'lib ; o'quv materiali mazmuni hamda dars jarayoni modullaridan tashkil topadi . Pedagogik texnologiya materiallarini modullariga ajratish modullashtirish jarayoni bilan, kichik modul, modullar to'plami, birlamchi modul va modul darajasi tushunchalaridan foydalaniladi va quyidagichata'riflanadi.

kichik modul,- pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi. Amalda bunday kichik modulni tashkil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas deb hisoblanadi.

birlamchi modul— pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlashga dastlabki modul sifatida tanlangan va o`z tarkibiga bir yoki bir nechta kichik modullarni oladigan modul.

modullar to`plami,- pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig`indisi.

modul darajasi— birlamchi modullarning o`z tarkibida aslida qancha modullarga ega ekanligiga qarab quyidagi darajalarga bo`linadi:

- Bir o`quv mashg`ulotini o`tkazishga mo`ljallangan modullar;
- O`quv fanining bir mavzusini, bir bo`limini, bir qismini yoki hamma tarkibiy bo`laklarini o`qitish texnologiyasini tashkil etuvchi modullar. Ularni bloklar deb ham nomlanadi;
- Bir nechta turdosh o`quv fanlarini yoki ayrim fanlarni o`qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullari;
- DTSning tarkibiy bo`laklarini va ularni bajarish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar;
- O`quv reja va dasturlarning tarkibiy bo`laklarini va ularni bajarish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar;
- Ta`lim vositalarini tashkil qiluvchi modullar;
- Pedagogik texnologiya jarayonida qo`llaniladigan usullarni tashkil qiluvchi modullar.

Algoritm — pedagogik texnologiya bo`laklari (modullar)ning o`zaro joylashuvini hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma - ketligining avvaldan belgilangan tartibi, ya`ni qoidasidir.

Algoritmlash esa pedagogik texnologiya tarkibiy bo`laklarini amalga oshirish jarayonining ketma-ketligini belgilash bo`lib, ko`zlangan maqsadga erishish kafolatini amalga oshiradi. Odatda, pedagogik texnologiyani loyihalashda oldin uning

algoritmi ishlab chiqiladi. Shu algoritmgaga muvofiq holda modullarning o'zaro joylashuvi tartibi aniqlanadi.

Pedagogik texnologiyada algoritmlar alohida mashg'ulot yoki uning biror bo'lagi algoritmi, o'quv fanini o'qitishning umumdidaktik izchilligi algoritmi, o'quvchi faoliyatini, o'qituvchi faoliyati, o'zlashtirishni nazorat qilish jarayoni, maktabni boshqarish jarayoni algoritmi kabi turlarga bo'linadi.

Pedagogik faoliyatning eng kichik bo'laklari o'zaro joylashuvini va shu faoliyatni amalga oshirish ketma-ketligini belgilash algoritmlashning birlamchi darajasi bo'lib, ularni birlamchi algoritmlar deyiladi.

Algoritmlash orqali pedagogik texnologiyani tegishlicha tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan oldindan belgilangan maqsadlarning to'liq amalga oshirilishini kafolatlagan holda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Modullashtirish va algoritmlash madaniyati ta'lim-tarbiya jarayonida odat tusiga kirgan holdagina turli darajalardagi pedagogik texnologiyalarni yaratish va amalda qo'llash faoliyati yanada keng rivojlana boradi.

Loyihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Loyihalash (lot. rrojectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, proekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi. Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga: – fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo'ljal olish; – faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalarni ilgari surish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash; – o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to'g'rilash; – turli yechim. takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish (prognozlash); – jamoada ishlash, turli nuqtayi nazar, fikrlarning muhokamasida qatnashishga rag'batlantiradi. Loyihalash metodini qo'llab, dars o'tish jarayonida o'quvchi, talabalarning vazifasi: – iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga ega ishni bajarish, mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, iqtisodiy va boshqa muammoni belgilangan vaqt davomida yechish yoki yechish uchun takliflar ishlab chiqish. O'qituvchining vazifasi: – o'quvchi, talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatlarini unumli bo'lishi uchun sharoit yaratish.

Bu metodni iqtisodiy fanlarni o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar biznes-reja tuzishni, turli tanlovlarda qatnashish uchun loyihalar ishlab chiqishni o'rganadilar. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni qanday tashkil etishning texnologik xaritasini ishlab chiqish, ya'ni darsni qanday o'tkazishni mufassal rejasini ishlab chiqishni, umuman olganda, o'z faoliyatlarini rejalashtirishni o'rganadilar. Shu bilan birga mazkur metodning o'ziga xos xususiyatlari mavjudki, ularni, albatta, hisobga olish zarur. Birinchidan, bu metodni mavzular, alohida predmetlar bo'yicha qo'llash juda qiyin. Chunki, bir muammoning kelib chiqish sabablari nihoyatda xilma-xil. Ularni bir fan doirasida hal qilish qiyin. Ikkinchidan, barcha talabalar ham loyiha tayyorlab, qo'yilgan muammoni yecha olmaydi. Uchinchidan, bu metod o'qituvchidan chuqur bilim, tajriba, o'z ustida tinimsiz ishlash, turli loyihalarda shaxsan qatnashishini talab qiladi. Loyihalash metodini qo'llash uchun birinchi navbatda loyihalash ob'yektini aniqlaymiz.

Qanday masala, muammo mavjudki, uni yechib loyihaning natijasini qanday bo'lishini belgilaymiz.

1. Bu o'tilayotgan mavzu bo'yicha qo'yilgan savol yoki yechimini kutayotgan dolzarb masala bo'lishi mumkin. Loyiha talabalarning o'z xohishlari, qiziqishlariga ko'ra tanlagan ilmiy izlanishlari bo'lishi mumkin yoki o'qituvchi taklif qilishi mumkin. Har ikkala holda ham talabalar zarur axborotlarni to'plashlari, ularni tahlil qilishlari zarur. Tahlil asosida qaror qabul qilib, loyiha ishlab chiqishdan maqsad qo'yiladi va qanday natijaga erishilishi belgilanadi.

2. Maqsadni aniqlagach, loyihaning mazmunini belgilaymiz.

3. Reja asosida amalga oshirish uchun vazifalar belgilanadi, ya'ni faoliyat rejasi ishlab chiqiladi. Loyihaning umumiy tavsifi oy- dinlashadi. Aniq faoliyatga asos yaratiladi. Loyihani amalga oshirish uchun tuzilgan reja aniq bo'lishi, haddan tashqari murakkab bo'lmasligi kerak. Umumiy rejadan tashqari haftalik va oylik rejalar tuziladiki, uning asosida talaba bajaradigan ishlarni yanada oydinlashtiradi.

4. Loyiha qatnashchilari belgilanadi. Loyiha qatnashchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan bir- birlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchi, talabalar bo'lib, ularni loyihada qo'yilgan maqsad birlashtiradi. Ularni yoniga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo'shilishi mumkin. Lekin qatnashchilar haddan tashqari ko'payib ketishi salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq yozib qo'yiladi.

5. Loyihani amalga oshirish muddatlari belgilanadi. Agarda u bosqichlarga bo'linsa, uni harr^muddatlari bilan ko'rsatiladi.

6. Loyihalash va uni amalga oshirishning bosqichlari:

1- bosqich. Loyihani ishlab chiqish. Unda loyihani amalga oshirish shakllari va vositalari, bosqichma-bosqich natijalari ham ko'rsatiladi.

2- bosqich. Loyihada belgilangan vazifalar bajariladi. Bu bosqichda talabalar mustaqil ravishda individual va guruh bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajaradilar. Material, axborot to'playdilar. To'plangan ma'lumotlarni muhokama qiladilar. Jadvallar, grafiklar ishlab chiqadilar. Namoyish etiladigan, illyustrativ materiallar tayyorlashadi.

3- bosqich. Loyihaning barcha qatnashchilari tomonidan tayyorlangan ishlar bir butun qilib birlashtiriladi. Avval loyihaning xoniaki varianti yozib chiqiladi. So'ngra yakuniy variant tayyorlanadi. Rasmiy talablar asosida taxlanadi.

4- bosqich. Loyihaning so'nggi varianti ekspertga, taqr ga beriladi. Bunda matn aniq asoslangan bo'lib, bajarilgan ishlarning mazmuni va erishilgan natijalarni gavidalantirishi kerak. Matilda, albatta, jadvallar, grafiklar, chizma, dasturlar va boshqa shunga o'xshash materiallar bo'lishi shart.

5- bosqich. Ish taqrizga beriladi. Loyihaga ekspert xulosasi olinadi, tashqi taqriz natijasini elon qilingach, lugallangan hisoblanadi.

6- bosqich. Loyiha taqdimoti. Taqdimot loyihada bajarilishi belgilangan mezonlar asosida jyiiri yoki komissiya a'zolari tomonidan baholanadi. Jyuri a'zolari tarkibi loyiha ishlab chiqilayotganda aniqlanadi.

Tayyorlangan" loyihani ko'rib chiqib, tanlanib, so'ngra tayyorlangan hisobot ko'rib chiqiladi. Hay`at ishni baholashi uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bu mezonlar muammoni o'rganish darajasi, matnni aniq. tushunarli tarzda bayon qilinishi, o'ziga xosligi, rasmiylashtirish sifati, ko'rgazmali, namoyish materiallardan foydalanilgani, berilgan takliflar va ularni muammoni yechishga yordam berishi va boshqa jihatlarini mujassamlashtirilgan bo'lishi kerak.

Dars jarayonida kichik guruhlar tayyorlagan loyihalarni o'qituvchi boshchiligida talabalardan tuzilgan hay'at baholashi mumkin. Talabalar tomonidan tayyorlangan loyihalarni baholash mezonlari:

1- jadval № Mezonlari Eng yuqori ball 1 Tanlangan muammoning dolzarbligi
5 2 Muammoni o'rganilganlik darajasi 5 3 Maqsad va vazifalarni aniq, tushunarli
tarzda bayon qilinishi 5 4 Tanlangan muammoning qisqacha mazmunini yoritilishi 5
5 Bajariladigan ishning qisqacha mazmunining yoritilishi 5 6 Ko'rgazmali, namoyish
materiallaridan foydalanish 5 7 Loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy
resurslar, ularning manbalarini ko'rsatilishi va asoslanishi 5 8 Rasmiylashtirish sifati 5
Talabalar loyiha ustida ishlash jarayonida olgan bilimlaridan, bilish jarayonida
xizmat qiladigan amaliy maslahatlardan foydalanishsa, mustaqil tahliliy fikr
yuritishga o'rganadilar. Ularda yangi g'oyalar topish, ijodiy fikrlashga, to'g'ri
strategiya tanlash, aniq masala-muammoani yechish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bunda
o'qituvchi ularning ishini kuzatadi. maslahatlar beradi, qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa
hech qaysi metod o'qituvchi-talabalarda bu metodchalik mas'uliyatni his qilishni
shakllantirmaydi, tarbiyalamaydi. Loyihalash metodi asosida dars jarayonini tashkil
etishda o'quv guruhi ichida ishchi guruhlari tuziladi.

Ular o'zlashtirish darajalariga qarab uch ishchi guruhga bo'linadi. Bunda kuchli
ishchi guruhlari mustaqil shug'ullanganda, o'qituvchi o'zlashtirishi past bo'lgan
o'quvchi-talabalar bilan mashg'ulot o'tkazishi uchun ko'proq vaqt ajratiladi. Ishchi
guruhlari ishtirokchilarining o'zlashtirish darajasi taxminan teng bo'lganida ta'limda
yuqori natijaga erishiladi. Bunday guruhlarni ta'lim oluvchilarning o'zlari tuzgani
ma'qul, chunki ular o'zlarining qaysi guruhga mos ekanliklarini juda yaxshi bilishadi.

2-va 3-ishchi guruhidan 1-ishchi guruhiga o'tishga imkon beriladi. Kichik
guruhlarda har bir o'qituvchi yakka tartibda loyiha ishini bajargani uchun individual
amaliy usuldan ham foydalanish mumkin. Individual usulning laboratoriya usulidan
farqi, talabalar o'z faoliyati davomida olgan bilimlaridan foydalanib, amaliy vazifani
hal etishga harakat qiladi. Ushbu usul talabalar bilimini chuqurlashtiradi, mahoratini
oshiradi, shuningdek, ularning o'rganish faoliyatini yanada kuchaytiradi. Loyihalash
metodini amalga oshirish bosqichlari 2- jadval Bosqichlar Mazmuni Metodi, shakli 1-
bosqich, tayyorgarlik O'qituvchi talabalarga iqtisodiyotda qanday muammolar bor,

o'zlari uchun qiziqarii bo'lgan muammolarni tanlashlarini taklif qiladi yoki topshiriqlami o'zi tayyorlaydi.

Aqliy hujum. Mustaqil ish O'quvchi talabalarga loyihalash mazmuni, loyihalash ob'yekti, usullari, bosqichlari haqida ma'lumot beradi. Bayon qilish 2-bosqich O'qituvchi talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi. Har bir kichik guruhga o'zlarini qiziqtirgan Ixtiyoriy muammoni tanlash va uni yechish bo'yicha loyiha tayyorlashni topshiradi. 3-bosqich O'qituvchi loyihani qanday tayyorlashni tushuntiradi. Talabalar faqat loyiha tayyorlaydilar. Uni amalga oshirish talab qilinmaydi (chunki uni bir dars jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi). Bayon qilish Asosiy qism Talabalar loyiha tuzishga kirishadilar. Mustaqil Loyihalar taqdimoti kichik guruh Yakuniy qism O'qituvchi o'quvchi-talabalarni baholaydi. Xato va kamchiliklami ko'rsatadi. Darsni umumlashtiradi va yakunlaydi. Bu metodni qo'llash, kurs ishi, diplom ishi, bitiruv malakaviy ishi bajarishda yaqqol nanioyon bo'ladi. Buni har bir talaba individual tarzda bajaradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Aniq mavzu asosida pedagogik texnologiyani loyihalash bosqichlari?
2. Pedagogik texnologiyaning turlari?
3. Maxsus fanlar bo'yicha aniq mavzu asosida loyihaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash metodikasi?

9. Mavzu: Mutaxassisliklar bo'yicha Davlat ta'lim standartlarini tahlil qilish.

Reja.

1. Davlat ta'lim standartlari va ularga qo'yilgan talablar.
2. Tayyorlov yo'nalishi namunaviy va ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqish metodikasi
3. Fanlar uchun ajratilgan kreditlarni belgilash tartibi. Dars jadvallarini tuzish metodikasi.

Tayanch so'z va iboralar: Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, mutaxassisliklar klassifikatori, o'quv reja, namunaviy va ishchi o'quv reja, o'quv dasturi, namunaviy va ishchi o'quv dastur, taqvimiy mavzular rejasi.

3.1. Davlat ta'lim standartlari va ularga qo'yilgan talablar.

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga, Kadrlar tayyoplash milliy dasturi qoidalariga muvofiq respublikada idopaviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

Bakalariat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli hamda 2013 yil 10 iyuldagi 199-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan “Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar” talablariga qat'iy rioya etgan holda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqariladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim mazmunini belgilash va uning asosida ta'lim jarayonini tashkil etish davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dasturi, metodik materiallar banki, ya'ni darslik yoki o'quv qo'llanmalarda ifodalanadi.

Oliy ta'limning me'yoriy-huquqiy xujjatlari. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan DTSlarga uzluksiz ta'limni standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning “Ekspert xulosasi”, turdosh Oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari bilan kelishilganligi to'g'risidagi “Kelishuv bayonnomasi” va “Kelishuv dalolatnomasi”, Fanlar akademiyasining tarmoq ilmiy tadqiqot institutlaridan olingan taqrizlar, Muvofiqlashtiruvchi kengash qoshidagi tegishli o'quv-uslubiy birlashma bayonnomasidan ko'chirma, Davlat test markazi ekspert xulosasi ilova qilinadi. DTS va o'quv rejalar tayanch OTM rektori tomonidan imzolangan rasmiy xat bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Rivojlantirish markaziga takdim

etiladi. Xatga ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining amaldagi Klassifikatorga moslashtirilgan ro'yxati ilova qilinadi. DTS - standartlashtirish ob'ektiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilaydi hamda O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi va quyidagilarni belgilab beradi:

- ✓ kadrlar tayyovlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni;
- ✓ ta'lim oluvchilar tayyovgachligining zapuz va etaplixa dapajasini hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini;
- ✓ o'quv yuklamasining zapuz hajmini;
- ✓ ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyovlash sifatini baholash taptibi va mexanizmini belgilaydi.

DTS ta'lim japyonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni taptibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yapatish uchun asos hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlari jopiy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ✓ ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshipilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, pivojlangan demokpatik davlat bappo etish talablariga javob bepuvchi kadrlar tayyovlanishini ta'minlash;
- ✓ mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy tapanqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyovlash mazmunini taptibga solish;
- ✓ ta'limning demokpatiyalashuvi, insonpavvaplashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari dapajasini, shuningdek, ta'lim japyoni samapadopligini oshipish;
- ✓ sifatli ta'lim xizmatlari ko'psatish, ta'lim va kadrlar tayyovlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- ✓ kadrlar tayyovlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va taptibini belgilash;

✓ ta'lim japyoni va kadplar tayyoplashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning bapcha tuplari va bosqichlarida o'quv-tapbiya japyonini maqbullashtirish;

✓ mehnat va ta'lim xizmatlari bozopida paqobatbapdoshlilikni ta'minlash.

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

✓ ta'lim sifatiga va kadplar tayyoplashga, ko'psatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklatupasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

✓ ta'limga va uning pipovapd natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb-kop malakasi dapajasini vaqti-vaqti bilan baholash taptibi va taptibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazopat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yapatish;

✓ xalqning boy intellektual meposi va umuminsoniy qadpiyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tapbiyalashning samapali shakllari va usullarini jopiy etish;

✓ ta'limning bapcha tuplari mazmunini, ta'lim va tapbiyani kelishish va ularning o'zapo bog'liqligi, uzluksiz ta'lim tizimida va kadplar tayyoplashda izchillilikni ta'minlash;

✓ o'quv-tapbiya va ta'lim japyoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axbopot bilan ta'minlanishiga, ta'lim dapajasini nazopat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitipuvchilarining malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

✓ ta'lim va kadplar tayyoplash sifatiga baho bepishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkpeditatsiya qilishni jopiy etish;

✓ kadplarni maqsadli va sifatli tayyoplash uchun ta'lim, fan va ishlab chihapishning samapali integpatsiyasini ta'minlash;

✓ milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadplar tayyoplashga nisbatan xalqapo talablarga muvofiqligini ta'minlash.

DTS ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:

- ✓ umumiy o‘pta ta’lim, shu jumladan boshlang‘ich ta’lim;
- ✓ o‘pta maxsus, kasb-hunap ta’limi;
- ✓ oliy ta’lim (bakalaviat, magistratura).

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o‘quv yuqtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi. Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini bajarish yuzasidan va oliy ma’lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’limning uzluksizligi va davomiyligini ta’minlash, jahon ta’lim tizimiga qo‘shilish, shuningdek, oliy ta’limning o‘quv-metodik va me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan. DTS o‘quv jarayonini, ta’lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli me’yoriy hujjatlar (ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘quv fanlari dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi. OT DTS oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir. DTSga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlarini amalga oshirish jarayonida, shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqqan holda tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Oliy ta’lim standartlari quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari:

- Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar;

- Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

- Oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari-ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari.

Davlat ta’lim standarti (DTS) – muayyan ta’lim sohasiga (soha tarkibiga) qo‘yiladigan malaka talablari, ta’lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon daraja.

Oliy ta’lim standartlari toifalari. Muayyan ta’lim sohasining davlat ta’lim standarti quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

✓ zarvaraq (titul);

✓ mundarija;

✓ muayyan ta’lim sohasi (soha tarkibi)ning umumiy tasnifi;

✓ bitiruvchilarning soha bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar;

✓ o‘quv reja tuzilmasi;

✓ kadrlar tayyorlash sifatini baholash.

Ta’lim sohasining davlat ta’lim standarti ikkita (bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) qismdan iborat bo‘ladi.

Me‘yoriy hujjat turlari. Quyidagilar oliy ta’limning me‘yoriy hujjatlari hisoblanadi:

✓ oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o‘quv rejalarini va o‘quv fanlari dasturlari;

✓ oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim muassasalarining muayyan ish faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar.

Me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish. Oliy ta'limning ta'lim sohalari davlat ta'lim standartlari va me'yoriy hujjatlari «OT DTS. Asosiy qoidalar» va Oz DSt 1.0:1998, O'zRST 1.8-94, Oz DSt 1.9-1995. standartlariga muvofiq holda ishlab chiqiladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq o'quv jarayoni o'qitishning modul tizimiga asoslangan oliy ta'lim muassasalari bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mustaqil ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarga alohida e'tibor berish lozim:

- ✓ Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida kadrlarni ildam tayyorlash, jahon tajribalari, mamlakat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini tegashli sohalarga muvofiqlik nuqtai nazaridan imkon darajasida unifikatsiyalash;
- ✓ bakalvriat ta'lim yo'nalishi va ularning negizidagi magistratura mutaxassisliklarining DTSlari bir vaqtda ishlab chiqilishi va birgalikda ekspertizadan o'tkazilishiga amal qilish;
- ✓ DTSlarni ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilish;
- ✓ har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha malakaviy talablar mamlakatda va xorijda mavjud tajribalarni inobatga olgan holda diqqat bilan qayta ishlab chiqilishi, hamda uni tegishli sohalarda bo'yicha amaliyotchi mutaxassislar bilan muhokamadan o'tkazish;
- ✓ malakaviy talablarda keltirilgan sifatlarni shakllantiruvchi eng zarur fanlarning kiritilishi, ularning hajmlari va ketma-ketligi uzluksiz ta'lim turlari bilan uzviylikni inobatga olgan holda ilmiy asoslash;
- ✓ bakalvriat va magistratura DTSlaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi

bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish;

✓ bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar hamda tabiiy-ilmiy fanlar tarkibi va mazmunini shakllantirishda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi fanlari bilan uzviilikni ta'minlash;

✓ fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratish;

✓ o'quv rejalariga kiritilgan fanlar sonini bir semestrda 5-7 tadan ortmaslik shartini inobatga olib belgilash;

✓ ajratilgan auditoriya o'quv yuklamalarini semestr haftalariga qoldiqsiz taqsimlanishiga rioya etish;

✓ kichik hajmli fan auditoriya soatlarini bir semestr davomida mumkin qadar haftasiga kamida ikki akademik soatdan belgilash;

✓ DTSlarda belgilangan attestatsiya va nazoratlarga muvofiq bir fan yoki mavzu bo'yicha takroriy sinovlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik;

✓ malakaviy amaliyotlar soni, muddatlari va belgilanish davri ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanayotgan sohadagi ishlab chiqarish jarayoni va texnologiyalarining o'ziga xosligini inobatga olish, DTSlarda malakaviy amaliyot sifati va nufuzini oshirish hamda ishlab chiqarish va ularning mazmunini byurtmachilar talablari bilan muvofiqlashtirish;

✓ DTSlar, o'qitiladigan fanlar tarkibi va ularning mazmuniga qo'yiladigan talablar muayyan yo'nalish, mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning asosiy buyurtmachi va iste'molchisi bo'lgan vazirlik, idora, korxonalar va tashkilotlar bilan kelishish nazarda tutilgan.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori-oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlash va tasniflash yagona tizimining (KTYAT) tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» 1998 yil 5 yanvardagi 5-con qarorini bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan.

Klassifikator «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning davlat dasturi haqida» 1998 yil 10 noyabridagi PF-2107-son Farmoniga asosan tuzilgan.

Klassifikator YUNESKO tomonidan 1997 yil mart oyida qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (TXSK) prinsiplari asosida tuzilgan. Unda quyidagi bilim sohalari ko'zda tutilgan.

Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining klassifikatori Klassifikatorida ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ettita raqamli kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichlari bakalavriat yo'nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida — 5A (raqam va harf) bilan belgilangan. Masalan: bakalavrlar kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hakozi; magistrlar 5A140101, 5A211301, 5A520403 va hakozi. Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi. Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kadrlar iste'molchilari tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasalari tomonidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda tegishli qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

Yo‘nalish va mutaxassisliklar klassifikatorini o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflarga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ✓ yo‘nalish yoki mutaxassislikning ilmiy va amaliy ahamiyatini hamda mehnat bozorida mutaxassislarga bo‘lgan istiqbol ehtiyojini asoslash;
- ✓ bakalavriat yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o‘quv rejasi loyihalari va boshqa o‘ziga xos belgilari;
- ✓ yangi yo‘nalish yoki mutaxassislikning ilmiy-pedagogik va moddiytexnik ta‘minoti mavjudligini asoslash.

Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorining etalonini O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi olib boradi. Mazkur klassifikator tayyorlov yo‘nalishlarining nomlari va kodlari, oily ta‘lim muassasalarida kasblar va ixtisosliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni belgilaydi. Amaldagi Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida 182 ta ta‘lim yo‘nalishlari va 434 ta mutaxassisliklar mavjud bo‘lib, ular bilim sohalari bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan.

Oliy ta‘limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat klassifikatori respublikaning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish istiqbollari mutaxassis tayyorlashda iqtisodiyot tarmoqlarining talab va ehtiyojlarini xisobga olgan xolda qayta ko‘rib chiqildi va takomillashtirildi.

Oliy ta‘limning bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari - ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli bakalavrlar tayyorlash, o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta‘lim muassasasi muayyan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda malaka talab asosida o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

- ✓ mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;
- ✓ ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;
- ✓ o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- ✓ bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ✓ oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- ✓ oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- ✓ ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

Muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ✓ ilmiy-tadqiqot;
- ✓ tashkiliy-boshqaruv;
- ✓ loyiha – izlanish;
- ✓ ishlab chiqarish, texnologik;
- ✓ umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- ✓ turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni o'z ichiga oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'nalishi uchun malaka talablarida quyidagilar o'z aksini topgan:

- ✓ bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi;
- ✓ qo'llanish sohasi;
- ✓ ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi;
- ✓ ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari;
- ✓ ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ ta'lim yo'nalishi o'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ malakaviy amaliyotga qo'yiladigan talablar;
- ✓ ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi;
- ✓ malaka talablarining amal qilish muddati.

Magistratura mutaxassisligining malaka talablari. Oliy ta'limning malaka talablari magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash, o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda ushbu malaka talablari asosida tayyorlangan o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

- ✓ mazkur ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklari bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

- ✓ ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklarning o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;
- ✓ o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- ✓ bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ✓ oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- ✓ oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- ✓ ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklardan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar, ota-onalar va boshqa manfaatdorlar.

Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ✓ ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- ✓ ishlab chiqarish faoliyati;
- ✓ tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ✓ oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiypedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- ✓ konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

3.2. Tayyorlov yo'nalishi namunaviy va ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqish metodikasi

O'quv reja va ishchi o'quv reja. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy xujjat - o'quv rejalari hisoblanadi.

O'quv rejasi - ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fan, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv rejasi tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Bir tipdagi ta'lim muassasalari uchun o'quv rejasi yagona va majburiydir. Shu bilan birga, har bir ta'lim muassasasi o'quv rejasini belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. o'quv rejasi O'quv rejasining umumiy va majburiyligi ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejasida ta'limning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan. O'quv rejasi muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda ta'lim muassasasi talabasi, talabasi yoki tinglovchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan. O'quv rejalarini ikki turga bo'linadi: namunaviy va ishchi o'quv rejalar. **Namunaviy o'quv reja** – oliy ta'lim muassasalarining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun o'rnatilgan tartibda Davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedrasining yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan turdosh oliy ta'lim muassasalarining shu soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarini hamda kadrlarni buyurtmachilarini jalb etgan holda ishlab chiqiladigan me'yoriy huquqiy xujjatdir.

Ishchi o'quv reja - oliy ta'lim muassasasining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun namunaviy o'quv reja asosida har o'quv yili uchun ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda OTMning rektori tomonidan tasdiqlanadigan o'quv jarayonining asosiy me'yoriy hujjatidir.

O'quv rejada quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalishi (ixtisoslik) 5 kodi va uning nomlanishi, o'qish muddati, o'qishni tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.

O'quv reja - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me'yoriy xujjatdir.

2. Ta'lim shakli.

3. O'quv davrining taqsimoti (jadvali).

4. O'quv jarayonining rejasi.

5.1. O'rganiladigan o'quv predmetlari.

5.2. Har bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.

5.3. O'rganish uchun ajratilgan vaqtni – nazariy, amaliy va tajriba mashg'ulotlari, seminarlar, kurs ishlari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.

5.4. O'quv predmetini qaysi kurs, semestrlarda, haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi.

6. Davlat Attestatsiyasi.

7. Tanlov fanlarinig ro'yxati

8. Izohlar

O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborda tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxasislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma – bosqich chuqur o'rganishlari, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

O'quv rejasini ishlab chiqishdagi eng muhim masalalardan biri o'rganilishi lozim bo'lgan fanlarni aniqlashdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish mazmunini aniqlash, odatda, amaliy tajribalar asosida hal qilinadi. O'qitish mazmunini aniqlashda, asosan, oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifaga - doimo o'sib borayotgan ishlab chiqarish sharoitida faoliyat olib borishga qobil malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash vazifasiga

asoslaniladi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalariga qo'yiladigan umumiy talablar:

Bakalavriatda o'quv rejalar va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va matematik hamda tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy fanlar
- umumkasbiy fanlar;
- ixtisoslik fanlari;
- qo'shimcha fanlar.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga muvofiq ayrim oliy ta'lim muassasalari yoki ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha boshqa fanlar bloklari belgilanishi mumkin.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejalarini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

Bakalavriat o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.

Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va matematik hamda tabiiy-ilmiy fanlar bloki:

- umumiy o'рта va o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida olingan bilimlarni to'ldirishi va rivojlantirishi; milliy istiqlol g'oyasi va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida ilmiy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e'tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi;
- ta'limning tarix, falsafa, xalq an'analari, urf-odatlar bilan uzviy birligini, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'minlashi;
- insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhini rivojlantirishi;
- ta'lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligini ta'minlashi;
- umumiy o'рта va o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to'plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida oliy darajadagi tasavvurlarni shakllantirishi;
- koinotning tabiiy ob'ekt ekanligi va uning evolyusiyasi; tabiiy fanlarning o'zaro fundamental birligi; zamonaviy tabiiy hodisalarni tadqiq etish konsepsiyasi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur etkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;
- muayyan bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim.

Umumkasbiy fanlar bloki:

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;
- maxsus fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni

shakllantirishi;

- modeli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi lozim.

Ixtisoslik fanlari bloki:

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;
- talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

Qo'shimcha fanlar bloki:

- talabalarning bakalavriat ta'lim fanlari bo'yicha qo'shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi;
- ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kon'yunkturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalari va fanlar dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlashi lozim. Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko'zda tutgan holda shakllantiriladi. Magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalari va fanlar dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari va fanlar dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:
- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;

- ilmiy faoliyat.

- ilmiy faoliyat.

O'quv rejalar va fanlar dasturlari majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi lozim. Talabalarning o'quv rejalar va fanlar dasturlarini o'zlashtirishida o'quv fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

Magistratura mutaxassisliklari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.

Umummetodologik fanlar bloki:

- milliy istiqloq g'oyasi va gumanitar, texnik va tabiiy fanlarning falsafiy masalalari bo'yicha bilimlar berilishi;

- insoniyatning global muammolari, ma'naviy hayot, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, ta'limning insonparvarlik ruhi, zamonaviy sivilizatsiya va uning taraqqiyot yo'nalishlari, axborot tizimlari va bilimlarni taqdim qilish usullari to'g'risidagi tasavvurlar shakllantirishi;

- ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan ishlash ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi, tadqiq etiladigan mavzular bo'yicha muntazam ravishda mustaqil tahlil va xulosani tayyorlashi;

- ilmiy ijod metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlar asoslari, bilishning umumiy usullari, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar va qoidalar mantig'i, asoslash va inkor qilish usullariga, shuningdek nutq madaniyati asoslari bilimlariga, pedagogik texnologiyalar, mutaxassisliklar bo'yicha menejment va iqtisodiyotga doir bilimlarni ta'minlashi;

- amaliy xorijiy tilni, mutaxassislikka yo'naltirilgan axborot texnologiyalari va tizimlarini o'zlashtirishni ta'minlashi;

Mutaxassislik fanlari bloki:

- muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi;
- mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi;
- magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy uquv va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak.

Ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiytadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishlari:

- mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiytadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishi;
- talabalarga fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy-pedagogik ishlar:

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Stajirovka ilmiy tadqiqot ishlari taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Stajirovka:

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- iqtisod, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;
- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;
- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda stajirovkaga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarishi ko'zda tutiladi. Bakalavriatda barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanishi lozim.

O'qishning me'yoriy muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

- nazariy ta'lim — 63 — 70%;
- attestatsiya — 8 — 10 %;
- ta'til —12 — 16 %;
- malaka amaliyoti — 6 — 12 %;
- bitiruv malakaviy ishi — 2-3%.

Nazariy ta'lim hajmi bilim sohalariga qarab fanlar bloklari bo'yicha quyidagi jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

O'quv yilida ta'til davrining umumiy hajmi 6-10 hafta qilib belgilanadi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarining malaka amaliyotini o'tash

tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Magistratura ham haftalik barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi bakalavriatdagi kabi belgilangan.

Magistraturada o'qishning me'yoriy muddati 2 yil bo'lganda o'quv jarayoni 100 haftani tashkil etishi zarur.

O'qish davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanishi zarur:

✓ nazariy ta'lim – 25-30%;

✓ attestatsiya – 4-7%;

✓ ta'tillar – 13-16%;

✓ ilmiy faoliyat – 50-55%.

Ilmiy faoliyat magistratura talabasining yakka tartibdagi kalendar ish rejasi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarga bo'linadi:

✓ ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash – 70-75%;

✓ ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti – 25-30%.

Nazariy ta'lim hajmi magistratura mutaxassisligiga qarab quyidagi tarzda fanlar bloklari bo'yicha taqsimlanadi:

✓ umummetodologik fanlar – 30-35%;

✓ mutaxassislik fanlari – 40-50%;

✓ tanlov fanlari – 13-30%.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti(stajirovka)ni o'tash tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejalarini tuzishda fanlarni o'rganishning quyidagi uch usuli hisobga olinadi:

parallel o'rganish - barcha fanlar bir vaqtda o'rganiladi; bu usul pedagogika jihatidan hamma vaqt ham to'g'ri bo'lavermaydi, chunki fanlararo mazmunli bog'lanishlar o'rgatish imkoniyatini cheklab qo'yadi; asosan, bir yillik o'quv rejalari tuzishda qo'llaniladi;

ketma-ket o'rganish - o'zaro bog'langan fanlar ketma-ket o'rganiladi; bu usul fanlararo bog'lanish uchun eng yaxshi sharoit yaratadi; o'qitish muddati uzoq (3-4 yil) bo'lganda o'quv fanlari soni cheklangan o'quv rejalarda qo'llaniladi; *aralash o'rganish* - fanlar o'quv rejasiga ham parallel, ham ketma-ket kiritiladi; bu usul o'qitish muddati 2-3 yil bo'lgan o'quv rejalari tuzishda eng ko'p tarqalgan.

Fanlararo bog'lanishlarni ta'minlash uchun umumkasbiy va asosiy umumta'lim fanlari, odatda, o'qitishning birinchi bosqichida o'rganiladi, bu davrda ishlab chiqarish ta'limiga va maxsus fanlarni o'rganishga ajratiladigan vaqt bir oz qisqartiriladi.

3.3. Fanlar uchun ajratilgan kreditlarni belgilash tartibi. Dars jadvallarini tuzish metodikasi.

O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturi. O'quv dasturi - ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi. Har bir o'quv dasturi so'z boshi, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari

3 qismdan iborat. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisidir.

Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Namunaviy o'quv dastur - o'quv rejadagi aniq fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari tomonidan ishlab chiqiladigan, o'quv materiallarni o'zlashtirishga va o'qitish mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablarni o'z ichiga oladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan, oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun tavsiya etiladigan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Namunaviy o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tayanch etib belgilangan oliy ta'lim muassasalari kafedralarida tegishli fan sohasidagi etuk olimlar, mutaxassislar va tajribali professor-o'qituvchilardan tashkil topgan ijodiy guruh tomonidan tuziladi.

Namunaviy o'quv dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Kirish;
- ✓ asosiy qism;
- ✓ amaliy mashg'ulot mavzulari;
- ✓ seminar mavzulari;
- ✓ mustaqil ta'lim mavzulari;
- ✓ tavsiya etiladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati.

Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib, ma'lum fanlardan chizma-hisob, kurs ishlari, loyihalari va ularning mavzu va yo'nalishlari ham keltirilishi mumkin.

O'quv fani dasturi – ta'lim mazmuni, ularning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'yoriy hujjat.

Dastur fan, texnika, texnologiyaning so'nggi yutuqlari, oliy ta'lim rivojlanishining jahon tendensiyasini hisobga olish, Respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashi, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy

ta'limda uzluksiz o'qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiydan umumiylikka o'tib borish tamoyillariga amal qilishi shart. Dasturda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim izlash va uni o'zlashtirish, o'qitish jarayonini interaktiv pedagogika asosida tashkil etishga mavzularning bir xil talqinida takrorlanmasligiga e'tibor berilishi zarur. Namunaviy o'quv dasturi tayanch oliy ta'lim muassasasining tegishli kafedrası, fakultet yoki OTM uslubiy kengashida muhokama qilinadi. Ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlar bo'yicha tuzilgan namunaviy o'quv dasturlari maxsus metodologik komissiyasiga muhokama qilish uchun topshiriladi. Barcha fanlar bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari oliy ta'lim muassasalariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash ekspertizasidan o'tishi shart va uning tavsiyasi bilan vazirlik tomonidan ro'yxatga olinadi va amalga kiritiladi.

Namunaviy o'quv dasturlari vazirlikning tegishli boshqarmasi tomonidan tasdiqqa tavsiya etiladi va ro'yxatga olinadi. Bu haqda o'quv dasturning bosh varog'iga belgi qo'yiladi. Namunaviy o'quv dasturning etalon nusxasi vazirlikda saqlanadi. O'quv dasturi tasdiqlangan va ro'yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi. Namunaviy o'quv dastur davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda yoki o'zga xollarda 5 yilda bir marta qayta ishlab chiqilishi va ushbu tartibga asosan qayta ekspertiza va tasdiqdan o'tishi zarur.

Ishchi o'quv dasturi - OTMning aniq bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi talabalari uchun o'quv rejadagi aniq bir fan bo'yicha o'quv dasturiga asosan professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan, fanning mazmuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan, mavzularning o'qitish ketma-ketligiga rioya qilingan holda fanga ajratilgan soatlar aniq ko'rsatilgan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Ishchi o'quv dasturi tegishli ta'lim standartlarini konkretlashtiradi, o'quv jarayonini uslubiy, informatsion va texnik jihatidan ta'minlanishini nazarda tutadi. OTMlarda talabalarni tayyorlash va o'qitish xususiyatlarini aks ettiradi.

O'quv dasturi asosida tuzilgan ishchi o'quv dasturida aniq mavzular, ularga ajratilgan soatlar, mavzular bo'yicha qo'llaniluvchi didaktik va texnik vositalar, mavzular va bo'limlar bo'yicha bilimni nazorat qilish turlari hamda tegishli uslubiy tavsiyalar aniq ko'rsatiladi shuning uchun uning hajmi cheklanmaydi. Ishchi o'quv dasturida quyidagilar o'z aksini topishi lozim:

- ✓ DTS talablari;
- ✓ o'quv dasturlarini mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablar;
- ✓ talabalar uchun beriladigan o'quv materiallarining maksimal hajmi;
- ✓ bitiruvchilarni tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
- ✓ OTM tomonidan o'quv rejaga asosan belgilangan o'quv yuklamasining hajmi;
- ✓ ta'lim dasturlarining maqsadi va vazifalari.

Yuqorida keltirilganlar asosida ishchi o'quv dasturining tuzilishi ishlab chiqiladi va uning tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ titul varag'i;
- ✓ kirish so'zi;
- ✓ fanning maqsadi va vazifalari;
- ✓ fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar;
- ✓ talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar;
- ✓ fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi;
- ✓ fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni;
- ✓ fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar;
- ✓ fan bo'yicha soatlar taqsimoti;
- ✓ nazariy mashg'ulotlar mavzulari mazmuni;
- ✓ amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari va rejalari;
- ✓ mustaqil ta'lim mavzulari;
- ✓ foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

- Ishchi o'quv dasturlarini tuzish va tasdiqqa kiritish tartibi:
1. Ishchi o'quv dasturlari OTMLarining tegishli kafedralarining professoro'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi.
 2. Ishchi o'quv dasturlarini DTS talablari va o'quv dasturlarga mos holda ishlab chiqilishiga tegishli kafedra mudiri va professor-o'qituvchilar mas'ul hisoblanadi.
 3. Ishchi o'quv dasturining kirish qismida o'qitiladigan fanning dolzarbligi, sohaning tarixi, jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib beriladi. Shuningdek, fanni o'qitishning asosiy maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatiladi.
 4. Ishchi o'quv dasturida uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketlikligi hamda o'qitish turlari o'qitishning interaktiv uslublari va vositalari hamda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun omil bo'ladigan mexanizmlar ko'rsatiladi.
 5. Ishchi o'quv dasturlarida o'quv jarayoni uchun zarur texnik vositalar, axborot-resurs markazidagi tegishli o'quv adabiyotlari, didaktik vositalar, ashyolar va boshqa moddiy-texnik baza to'g'risida ma'lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiq.
 6. Ishchi o'quv dasturining titulida amaldagi Klassifikator bo'yicha tegishli bilim, ta'lim sohalari va ta'lim yo'nalish (mutaxassislik) larning shifri va nomlari hamda ishchi o'quv rejaga muvofiq fanning to'la nomi ko'rsatiladi.
 7. Ishchi o'quv dasturining yaratilishiga mas'ul kafedraning nomi, mualliflar va taqrizchilar to'g'risida ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni), tasdiqqa tavsiya etuvchi uslubiy Kengashlarning bayonnomasi raqami va sanasi ko'rsatiladi.
 8. Ishchi o'quv dasturining foydalaniladigan manbalar ro'yxatiga asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar kiritiladi.

9. Ishchi o'quv dasturining matni A-4 format, Times New Roman shriftida, 14-chi o'lchamda, chap tomonidan - 3 sm, pastidan - 2 sm, yuqoridan – 2 sm, o'ng tomonidan - 1,5 sm o'lchamida xoshiyalanadi. Betlarni raqamlash – pastki qismining markazida joylashtiriladi.

10. Ishchi o'quv dasturi har o'quv yili kafedra yig'ilishida ko'rib chiqib muhokama qilinadi va tegishli o'quv – uslubiy kengashida ko'rib chiqib ma'qullanadi hamda OTMning ruxsat etilgan kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

11. OTM o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi. Mutaxassislar tayyorlashga qo'yilgan talablarning hujjatli asosini tasvirlaydigan o'quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to'liq va aniq belgilanishini talab qilinadi. **To'liqlik** deganda mazmunning barcha zaruriy va qo'yilgan maqsadga erishish uchun etarli elementlari kiritish tushuniladi. **Aniqlik** deganda esa real o'quv jarayonida berilgan mazmunda joriy qilish yo'lini ko'rsatadigan elementlar va belgilar tasavvur etiladi.

O'quv dasturlarida talabalar o'quv rejasiga kiritilgan har qaysi fandan nimani va qanday izchillikda o'rganish kerakligi, shuningdek, talabalar bilib olishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi belgilab beriladi. O'quv dasturlarining mazmuni kasb tavsifnomalarning talablari asosida aniqlanadi. Dasturlarni ishlab chiqishda didaktik tamoyillarga va malakali mutaxassislar tayyorlash mazmuniga qo'yiladigan talablarga amal qilinadi. O'quv materialini tanlashda mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt va talabalarning materialni o'zlashtira olish-olmasligi hisobga olinadi. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari dasturlarida shunday o'quv materiali bo'ladiki, talabalar bu materialni o'rganib, ishlab chiqarishning hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasi asoslarini o'rganilayotgan kasbni ongli ravishda, puxta va chuqur egallash hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda o'zlashtiradilar.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari dasturlarida o'quv materiali mazmunini aniqlashda avvalo ilmiylik tamoyiliga asoslaniladi. Bu tamoyilga muvofiq,

o'rganish uchun ilmiy tadqiqotlar bilan asoslab berilgan va tajribada tekshirib ko'rilgan jarayon, hodisa va faktlar, fan hamda texnikada qabul qilingan tushuncha, atama, qoida va belgilar tanlab olinadi. Ilmiylik tamoyili o'quv materialni mantiqiy izchillik bilan bayon etishni, har bir yangi hodisa yoki narsani har tomonlama o'rganishni, mazkur ob'ektning o'ziga o'xshash boshqa ob'ektlar bilan ham, o'zidan farq qiladigan ob'ektlar bilan ham bog'lanishidagi xilmaxillikni aniqlashni talab etadi.

Umumkasbiy fanlari dasturlarida o'quv materialining mazmunini va uni o'rganish ketma-ketligini aniqlashda, asosi ochib berilayotgan fanning mazmuni, mantiqiga asoslaniladi. Masalan, elektrotexnika, gidravlika va pnevmoyuritmalar, amaliy mexanika, issiqlik texnikasi, ekologiya kabi fanlarning dasturlari mazmuni jihatidan eng barqaror dasturlardir.

Dasturlardagi o'quv materialiniig mazmunini aniqlash tamoyillaridan biri uniig talabalarga tushunarli bo'lishidir. O'quv materialining tushunarli bo'lishi deganda, uni soddalashtirish yoki engillashtirish tushunilmasligi kerak. O'quv materialining tushunarlilik deganda, uning talabalar uncha qiynalmay o'zlashtira oladigan darajada ochib berilishi tushuniladi. Shunday qilinganda talabalarning tafakkuri, xotirasi, irodasi rivojlanadi. O'quv materialini tushunadigan qilib tanlashda bilimlar hajmini va o'quv materialinint ochib berilish chuqurligini aniqlash ko'zda tutiladi.

Dasturning har bir mavzusi bo'yicha bilimlar hajmini belgilashda zarur bo'ladigan asosiy materialga, shuningdek, ko'rgazmali va ma'lumotnoma materialga asoslaniladi hamda uning hajmi bilan talabalarning fikrlash va xotirada saqlab qolish imkoniyatlariga taqqoslab ko'riladi. Bunda o'qitish davri, mavzuga ajratilgan vaqt, o'quv materialining muhimligi, talabalarning tayyorgarlik darajasi, fanlararo bog'lanishlar hisobga olinadi.

Ochib berilish chuqurligi jihatidan olganda o'quv materialini shartli ravishda uch guruhga: oson, o'rtacha va qiyin o'zlashtiriladigan materiallarga bo'lish mumkin. Ma'lumki, faktlar eng oson material; faktlar tizimi - o'zlashtirilishi qiyin

material; o'rganiladigan mashina, jihoz, mexanizm, materiallar sifati, texnologik jarayonning muhim alomatlarini aniqlash yanada qiyin. Tushunish va o'zlashtirish eng qiyin material - sabab-natijali bog'lanishlarni topish, chunki ular tarkibida ancha murakkab o'quv material bo'ladi. Sabab-natijali bog'lanishlarni aniqlash zarurati, ko'pincha, mashinalarni sozlovchilarda, dastgohda ishlovchilarda, yig'uvchi-chilangarlarda, haydovchilarda, montajchilarda va ko'pgina boshqa kasb ishchilarida paydo bo'ladi. Bunda sabab ma'lum bo'lsa, natijani topish, aksincha - natijani bilaturib, sababni topishga qaraganda oson bo'ladi.

Talabalarni sababni qidirib topishga o'rgatish ularda texnologik tafakkurning rivojlantirilishini talab qiladigan juda qiyin jarayondir. Bu muhim talab dasturlar tuzishda hisobga olinadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'quv materialining qiyinlik darajasi o'rganiladigan tushunchaning ichki bog'lanishlariga bog'liq. Bog'lanishlar qanchalik kam bo'lsa, tushunchani o'zlashtirish shunchalik oson, bog'lanishlar qanchalik ko'p bo'lsa, tushunchani o'zlashtirish shunchalik murakkab bo'ladi. Bu ham dasturlardagi o'quv materialining ochib berilish chuqurligini aniqlashda e'tiborga olinadi.

Dasturlardagi o'quv materialining ochib berilishi chuqurligi ko'p jihatdan talabalarning umumiy o'rta ta'limdan olgan tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Dasturlarda mashina va jihozlarning tuzilishi, texnologik ish jarayoni hamda hisoblashga oid nazariy materiallarni chuqur asoslab berish, tipaviy texnologiya, jarayonlar qonuniyatlarining ilmiy asoslarini anglab olish ko'zda tutiladi. Yig'ish va ta'mirlash-rostlash ishlarining puxtaligi, aniqligi va sifatini oshirish masalalariga, ularni ob'ektiv tashxislash alomatlariga ko'ra asboblarni vositasida tekshirish sinashga alohida e'tibor beriladi. Fanni o'rganish uchun talabalardan turli tip, rusum va modifikatsiyadagi juda ko'p mashinaning tuzilishini bilish talab qilingan hollarda dasturlarda shunga o'xshash mashinalarning tuzilishiga, ishlashiga oid printsiptial sxemalarni, tipaviy texnologik jarayonlarni o'rganish

hamda shu asosda eng zamonaviy va xarakterli konkret konstruktsiyalarning xususiyatlarini o'rganish ko'zda tutiladi.

Dasturlar tuzishda o'quv materialiga nisbatan qo'yiladigan talablar bo'lgan amaliylik va zamonaviylik hisobga olinadi. Bunda talabalarning oliy ta'lim muassasalarida oladigan bilimlari ishlab chiqarishda va ijtimoiy tajribada tatbiq etilgan taqdirdagina katta ahamiyatga ega bo'lishiga asoslaniladi. Shuning uchun o'quv materialini tanlashda dasturlarga ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalarining hozirgi darajasiga javob beradigan faoliyati bilan bevosita bog'langan materiallar kiritiladi. Shu nuqtai nazardan ixtisoslik fanlarining o'quv dasturlari mazmuni vaqt-vaqti bilan (3 yilda) qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi. Shu narsa an'anaga aylanib qoldiki, o'quv dasturlari faqat o'qitish mazmunini, ya'ni talabalarga nimani o'qitish kerakligini ochib beradi. O'qitish metodikasini, ya'ni qanday o'qitish kerakligini esa, odatda, o'qituvchining o'zi hal qiladi. OTMLar uchun umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bloki dasturlarini tuzishda dasturlarda o'qitish metodikasining ba'zi masalalarini ochib berishga harakat qilinadi. Chunonchi, amaliy mexanika, ekologiya, elektrotexnika, hayotiy faoliyat xavfsizligi, muhandislik va kompyuter grafikasi kabi fan dasturlarining har bir mavzusida o'qituvchi uchun qisqacha metodik tavsiyalar berilishi mumkin. Oliy ta'lim muassasalari ixtisoslik fanlar bloki fanlarining dasturlari uchun shu narsa xoski, talabalar bilimlarni ancha ongli va puxta o'zlashtirishi, ularning bilish faoliyatini faollashtirish hamda texnik tafakkurini rivojlantirish maqsadida bu dasturlarda anchagina hisoblash ishlari, texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqarish mashqlari, tajriba-amaliy ishlar, mustaqil ishlar, ma'lumotnoma adabiyotidan foydalanib mustaqil bajariladigan ishlar, shuningdek, o'quv ishining olingan bilimlarning hammasini amalda tatbiq qila bilishni talab etadigan boshqa shakllari ko'zda tutilgan. Tajriba-amaliy mashg'ulotlar, hisoblash ishlari va mashqlar ruknini aniqlashda quyidagi masalalarni hal qilish nazarda tutiladi: mashina, jihoz, agregat va qurilmalarining konstruktsiyasani o'rganish; texnologik jarayonlardagi fizikaviy va kimyoviy hodisalar mohiyatini hamda ularning

qonuniyatlarni o'rganish; nuqsonlarni tashxislash va aniqlash, mashina, jihoz va agregatlarni asboblarni vositasida tekshirish hamda rostlash usullarini o'rganish; ish rejimlarini hisoblash, texnik xizmat ko'rsatish, yig'ish, ta'mirlash, sozlashga doir texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqish ko'nikmalarini hal qilishni nazarda tutadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Bakalavr va magistr tushunchalarini izohlab bering?
2. Oliy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standartiga tushuncha bering?
3. Ta'lim yo'nalishining malaka talablari nimalarni aks ettiradi?
4. O'quv reja qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
5. O'quv reja va ishchi o'quv rejani farqini tushuntiring?
6. O'quv dasturi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
7. O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturining farqini tushuntiring?
8. Ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish va rasmiylashtirish tartibini tushuntiring?

10. Mavzu: Mutaxassisliklar bo'yicha o'quv rejalari hamda dasturlarini tahlil qilish.

Reja.

1. Davlat ta'lim standartlari va ularga qo'yilgan talablar.
2. Tayyorlov yo'nalishi namunaviy va ishchi o'quv rejalari ishlab chiqish metodikasi
3. Fanlar uchun ajratilgan kreditlarni belgilash tartibi. Dars jadvallarini tuzish metodikasi.

Tayanch so'z va iboralar: Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, mutaxassisliklar klassifikatori, o'quv reja, namunaviy va ishchi o'quv reja, o'quv dasturi, namunaviy va ishchi o'quv dastur, taqvimiy mavzular rejasi.

3.1. Davlat ta'lim standartlari va ularga qo'yilgan talablar.

“Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga, Kadrlar tayyoplash milliy dasturi qoidalariga muvofiq respublikada idopaviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar ta’lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo‘lgan davlat ta’lim standartlari (DTS) belgilanadi.

Bakalariat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Davlat ta’lim standartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli hamda 2013 yil 10 iyuldagi 199-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” talablariga qat’iy rioya etgan holda tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqariladi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim mazmunini belgilash va uning asosida ta’lim jarayonini tashkil etish davlat ta’lim standarti, o‘quv rejasi, o‘quv dasturi, metodik materiallar banki, ya’ni darslik yoki o‘quv qo‘llanmalarda ifodalanadi.

Oliy ta’limning me’yoriy-huquqiy xujjatlari. Oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan DTS larga uzluksiz ta’limni standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning “Ekspertxulosasi”, turdosh Oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari bilan kelishilganligi to‘g‘risidagi “Kelishuv bayonnomasi” va “Kelishuv dalolatnomasi”, Fanlar akademiyasining tarmoq ilmiy tadqiqot institutlaridan olingan taqrizlar, Muvofiqlashtiruvchi kengash qoshidagi tegishli o‘quv-uslubiy birlashma bayonnomasidan ko‘chirma, Davlat test markazi ekspert xulosasi ilova qilinadi. DTS va o‘quv rejalar tayanch OTM rektori tomonidan imzolangan rasmiy xat bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Rivojlantirish markaziga takdim etiladi. Xatga ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining amaldagi Klassifikator gamoslashtirilgan ro‘yxati ilova qilinadi. DTS - standartlashtirish ob’ektiga nisbatan me’yorlar vatalablarni belgilaydi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi va quyidagilarni belgilab beradi: ✓ kadrlar tayyoplash sifatiga, ta’lim mazmuniga nisbatan qo‘yiladigan talablarni; ✓ ta’lim oluvchilar tayyopgapligining zapup va etaplicha

dapajasini ham data ta'lim muassasalari bitipuvchilariga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini; ✓ o'quv yuklamosining zapuv hajmini; ✓ ta'lim muassasalari faoliyatini va kadplartayyoplash sifatini baholashtaptibi va mexanizmini belgilaydi. DTS ta'lim japayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni taptibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yapatish uchun asos hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlari jopiy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ✓ ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshipilayotgan chuqup iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, pivojlangan demokpatik davlat bappo etish talablariga javob bepuvchi kadplar tayyoplanishini ta'minlash;
- ✓ mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy tapaqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadplar tayyoplash mazmunini taptibga solish;
- ✓ ta'limning demokpatiyalashuvi, insonpapvaplashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari dapajasini, shuningdek, ta'lim japayoni samapadopligini oshipish;
- ✓ sifatli ta'lim xizmatlari ko'psatish, ta'lim va kadplar tayyoplash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- ✓ kadplar tayyoplash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va taptibini belgilash;
- ✓ ta'lim japayoni va kadplar tayyoplashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning bapcha tuplari va bosqichlarida o'quv-tapbiya japayonini maqbullashtirish;
- ✓ mehnat va ta'lim xizmatlari bozopida paqobatbapdoshlilikni ta'minlash.

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- ✓ ta'lim sifatiga va kadplar tayyoplashga, ko'psatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklatupasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- ✓ ta'limga va uning pipovapd natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb-kop malakasi dapajasini vaqti-vaqti bilan baholash taptibi va taptibotiga,

shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

✓ xalqning boy intellektual me'rosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tapbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

✓ ta'limning barcha turlari mazmunini, ta'lim va tapbiyani kelishish va ularning o'zaro bog'liqligi, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;

✓ o'quv-tapbiya va ta'lim jamiyatiga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarining malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

✓ ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baholashning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditasiya qilishni joriy etish;

✓ kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

✓ milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

DTS ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:

✓ umumiy o'qitish ta'limi, shu jumladan boshlang'ich ta'lim;

✓ o'qitish maxsus, kasb-hunar ta'limi;

✓ oliy ta'lim (bakalaviat, magistratura).

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yuqoridan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini bajarish yuzasidan va oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlash,

ta'limning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash, jahon ta'lim tizimiga qo'shilish, shuningdek, oliy ta'limning o'quv-metodik va me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan. DTS o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli me'yoriy hujjatlar (ta'lim sohalarining davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari, o'quv fanlari dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi. OT DTS oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. DTSga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlarini amalga oshirish jarayonida, shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqqan holda tuzatishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim standartlari quyidagi toifalarga bo'linadi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari:

- Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar;

- Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

- Oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari-ta'lim sohalarining davlat ta'lim standartlari.

Davlat ta'lim standarti (DTS) – muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon daraja.

Oliy ta'lim standartlari toifalari. Muayyan ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- ✓ zarvaraq (titul);
- ✓ mundarija;
- ✓ muayyan ta'lim sohasi (soha tarkibi)ning umumiy tasnifi;
- ✓ bitiruvchilarning soha bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ o'quv reja tuzilmasi;
- ✓ kadrlar tayyorlash sifatini baholash.

Ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti ikkita (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) qismdan iborat bo'ladi. Me'yoriy hujjat turlari. Quyidagilar oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari hisoblanadi:

- ✓ oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlari;
- ✓ oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim muassasalarining muayyan ish faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar.

Me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish. Oliy ta'limning ta'lim sohalari davlat ta'lim standartlari va me'yoriy hujjatlari «OT DTS. Asosiy qoidalar» va Oz DSt 1.0:1998, O'zRST 1.8-94, Oz DSt 1.9-1995. standartlariga muvofiq holda ishlab chiqiladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq o'quv jarayoni o'qitishning modul tizimiga asoslangan oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mustaqil ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarga alohida e'tibor berish lozim:

- ✓ Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida kadrlarni ildam tayyorlash, jahon tajribalari, mamlakat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini tegashli sohalarga muvofiqlik nuqtai nazaridan imkon darajasida unifikatsiyalash;
- ✓ bakalavriat ta'lim yo'nalishi va ularning negizidagi magistratura mutaxassisliklarining DTSlari bir vaqtda ishlab chiqilishi va birgalikda ekspertizadan o'tkazilishiga amal qilish;
- ✓ DTSlarni ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilish;
- ✓ har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha malakaviy talablar mamlakatda va xorijda mavjud tajribalarni inobatga olgan holda diqqat bilan qayta ishlab chiqilishi, hamda uni tegishli sohalar bo'yicha amaliyotchi mutaxassislar bilan muhokamadan o'tkazish;
- ✓ malakaviy talablarda keltirilgan sifatlarni shakllantiruvchi eng zarur fanlarning kiritilishi, ularning hajmlari va ketma-ketligi uzluksiz ta'lim turlari bilan uzviyligini inobatga olgan holda ilmiy asoslash;
- ✓ bakalavriat va magistratura DTSlaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish;
- ✓ bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar hamda tabiiy-ilmiy fanlar tarkibi va mazmunini shakllantirishda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi fanlari bilan uzviilikni ta'minlash;
- ✓ fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratish;
- ✓ o'quv rejalariga kiritilgan fanlar sonini bir semestrda 5-7 tadan ortmaslik

shartini inobatga olib belgilash;

✓ ajratilgan auditoriya o'quv yuklamalarini semestr haftalariga qoldiqsiz taqsimlanishiga rioya etish;

✓ kichik hajmli fan auditoriya soatlarini bir semestr davomida mumkin qadar haftasiga kamida ikki akademik soatdan belgilash;

✓ DTSlarda belgilangan attestatsiya va nazoratlarga muvofiq bir fan yoki mavzu bo'yicha takroriy sinovlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik;

✓ malakaviy amaliyotlar soni, muddatlari va belgilanish davri ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanayotgan sohadagi ishlab chiqarish jarayoni va texnologiyalarining o'ziga xosligini inobatga olish, DTSlarda malakaviy amaliyot sifati va nufuzini oshirish hamda ishlab chiqarish va ularning mazmunini byurtmachilar talablari bilan muvofiqlashtirish;

✓ DTSlar, o'qitiladigan fanlar tarkibi va ularning mazmuniga qo'yiladigan talablar muayyan yo'nalish, mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning asosiy buyurtmachi va iste'molchisi bo'lgan vazirlik, idora, korxon va tashkilotlar bilan kelishish nazarda tutilgan.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori-oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlash va tasniflash yagona tizimining (KTYAT) tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» 1998 yil 5 yanvardagi 5-con qarorini bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan.

Klassifikator «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash

tizimini isloh qilishning davlat dasturi haqida» 1998 yil 10 noyabridagi PF-2107-son Farmoniga asosan tuzilgan.

Klassifikator YUNESKO tomonidan 1997 yil mart oyida qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi (TXSK) prinsiplari asosida tuzilgan. Unda quyidagi bilim sohalari ko'zda tutilgan.

Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining klassifikatori Klassifikatorida ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ettita raqamli kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichlari bakalavriat yo'nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida — 5A (raqam va harf) bilan belgilangan. Masalan: bakalavrlar kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hakozi; magistrlar 5A140101, 5A211301, 5A520403 va hakozi. Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi. Yo'nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatoriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kadrlar iste'molchilari tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasalari tomonidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda tegishli qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

Yo'nalish va mutaxassisliklar klassifikatorini o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ✓ yo'nalish yoki mutaxassislikning ilmiy va amaliy ahamiyatini hamda mehnat bozorida mutaxassislarga bo'lgan istiqbol ehtiyojini asoslash;
- ✓ bakalavriat yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejasi loyihalari va boshqa o'ziga xos belgilari;
- ✓ yangi yo'nalish yoki mutaxassislikning ilmiy-pedagogik va moddiytexnik ta'minoti mavjudligini asoslash.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorining etalonini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi olib boradi.

Mazkur klassifikator tayyorlov yo'nalishlarining nomlari va kodlari, oily ta'lim muassasalarida kasblar va ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni belgilaydi. Amaldagi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida 182 ta ta'lim yo'nalishlari va 434 ta mutaxassisliklar mavjud bo'lib, ular bilim sohalari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan.

Oliy ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat klassifikatori respublikaning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish istiqbollari mutaxassis tayyorlashda iqtisodiyot tarmoqlarining talab va ehtiyojlarini xisobga olgan xolda qayta ko'rib chiqildi va takomillashtirildi.

Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari - ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash, o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasasi muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talab asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

- ✓ mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;
- ✓ ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;
- ✓ o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- ✓ bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ✓ oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- ✓ oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- ✓ ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

Muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ✓ ilmiy-tadqiqot;
- ✓ tashkiliy-boshqaruv;
- ✓ loyiha – izlanish;
- ✓ ishlab chiqarish, texnologik;
- ✓ umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- ✓ turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni o'z ichiga oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'nalishi uchun malaka talablarida quyidagilar o'z aksini topgan:

- ✓ bakalavriyat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi;
- ✓ qo'llanish sohasi;
- ✓ ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi;
- ✓ ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari;
- ✓ ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;

- ✓ ta'lim yo'nalishi o'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;
- ✓ malakaviy amaliyotga qo'yiladigan talablar;
- ✓ ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi;
- ✓ malaka talablarining amal qilish muddati.

Magistratura mutaxassisligining malaka talablari. Oliy ta'limning malaka talablari magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash, o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda ushbu malaka talablari asosida tayyorlangan o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

- ✓ mazkur ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklari bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;
- ✓ ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklarning o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;
- ✓ o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- ✓ bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ✓ oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- ✓ oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

✓ ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklardan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar, ota-onalar va boshqa manfaatdorlar.

Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ✓ ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- ✓ ishlab chiqarish faoliyati;
- ✓ tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ✓ oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiypedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- ✓ konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

3.2. Tayyorlov yo'nalishi namunaviy va ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqish metodikasi

O'quv reja va ishchi o'quv reja. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy xujjat - o'quv rejalarini hisoblanadi.

O'quv rejasi - ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fan, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'qitilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv rejasi tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Bir tipdagi ta'lim muassasalari uchun o'quv rejasi yagona va majburiydir. Shu bilan birga, har bir ta'lim muassasasi o'quv rejasini belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. o'quv rejasi O'quv rejasining umumiy va majburiyligi ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejasida ta'limning insonparvarlashuviga alohida

e'tibor berilgan. O'quv rejasi muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda ta'lim muassasasi talabasi, talabasi yoki tinglovchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan. O'quv rejaları ikki turga bo'linadi: namunaviy va ishchi o'quv rejalar. **Namunaviy o'quv reja** – oliy ta'lim muassasalarining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun o'rnatilgan tartibda Davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedrasining yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan turdosh oliy ta'lim muassasalarining shu soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarini hamda kadrlarni buyurtmachilarini jalb etgan holda ishlab chiqiladigan me'yoriy huquqiy xujjatdir.

Ishchi o'quv reja - oliy ta'lim muassasasining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun namunaviy o'quv reja asosida har o'quv yili uchun ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda OTMning rektori tomonidan tasdiqlanadigan o'quv jarayonining asosiy me'yoriy hujjatidir.

O'quv rejada quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalishi (ixtisoslik) 5 kodi va uning nomlanishi, o'qish muddati, o'qishni tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.

O'quv reja - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me'yoriy xujjatdir.

2. Ta'lim shakli.

3. O'quv davrining taqsimoti (jadvali).

4. O'quv jarayonining rejasi.

5.1. O'rganiladigan o'quv predmetlari.

5.2. Har bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.

5.3. O'rganish uchun ajratilgan vaqtni – nazariy, amaliy va tajriba mashg'ulotlari, seminarlar, kurs ishlari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.

5.4. O'quv predmetini qaysi kurs, semestrlarda, haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi.

6. Davlat Attestatsiyasi.

7. Tanlov fanlarinig ro'yxati

8. Izohlar

O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborda tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxasislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma – bosqich chuqur o'rganishlari, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

O'quv rejasini ishlab chiqishdagi eng muhim masalalardan biri o'rganilishi lozim bo'lgan fanlarni aniqlashdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish mazmunini aniqlash, odatda, amaliy tajribalar asosida hal qilinadi. O'qitish mazmunini aniqlashda, asosan, oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifaga - doimo o'sib borayotgan ishlab chiqarish sharoitida faoliyat olib borishga qobil malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash vazifasiga asoslaniladi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalariga qo'yiladigan umumiy talablar:

Bakalavriatda o'quv rejalarini va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va matematik hamda tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy fanlar
- umumkasbiy fanlar;
- ixtisoslik fanlari;

- qo‘shimcha fanlar.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga muvofiq ayrim oliy ta’lim muassasalari yoki ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha boshqa fanlar bloklari belgilanishi mumkin.

Kasb faoliyati ko‘nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o‘tilishi nazarda tutilishi shart.

O‘quv rejalar majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejalarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo‘yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uning o‘quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

Bakalavriat o‘quv fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar.

Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va matematik hamda tabiiy-ilmiy fanlar bloki:

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negizida olingan bilimlarni to‘ldirishi va rivojlantirishi; milliy istiqlol g‘oyasi va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida ilmiy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak ma’naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e’tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi;
- ta’limning tarix, falsafa, xalq an’analari, urf-odatlar bilan uzviy birligini, O‘zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ta’minlashi;
- insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhini rivojlantirishi;
- ta’lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilganligini ta’minlashi;

- umumiy o'рта va o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to'plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida oliy darajadagi tasavvurlarni shakllantirishi;
- koinotning tabiiy ob'ekt ekanligi va uning evolyusiyasi; tabiiy fanlarning o'zaro fundamental birligi; zamonaviy tabiiy hodisalarni tadqiq etish konsepsiyasi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur etkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;
- muayyan bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim.

Umumkasbiy fanlar bloki:

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;
- maxsus fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;
- modelli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi lozim.

Ixtisoslik fanlari bloki:

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;

- talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

Qo'shimcha fanlar bloki:

- talabalarning bakalavriat ta'lim fanlari bo'yicha qo'shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi;

- ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kon'yunkturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fanlar dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlashi lozim.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejaları va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko'zda tutgan holda shakllantiriladi.

Magistratura mutaxassisliklari o'quv rejaları va fanlar dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejaları va fanlar dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;

- mutaxassislik fanlari;

- ilmiy faoliyat.

- ilmiy faoliyat.

O'quv rejalar va fanlar dasturlari majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Talabalarning o'quv rejalar va fanlar dasturlarini o'zlashtirishida o'quv fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

Magistratura mutaxassisliklari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.

Umummetodologik fanlar bloki:

- milliy istiqlol g'oyasi va gumanitar, texnik va tabiiy fanlarning falsafiy masalalari bo'yicha bilimlar berilishi;
- insoniyatning global muammolari, ma'naviy hayot, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, ta'limning insonparvarlik ruhi, zamonaviy sivilizatsiya va uning taraqqiyot yo'nalishlari, axborot tizimlari va bilimlarni taqdim qilish usullari to'g'risidagi tasavvurlar shakllantirishi;
- ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan ishlash ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi, tadqiq etiladigan mavzular bo'yicha muntazam ravishda mustaqil tahlil va xulosani tayyorlashi;
- ilmiy ijod metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlar asoslari, bilishning umumiy usullari, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar va qoidalar mantig'i, asoslash va inkor qilish usullariga, shuningdek nutq madaniyati asoslari bilimlariga, pedagogik texnologiyalar, mutaxassisliklar bo'yicha menejment va iqtisodiyotga doir bilimlarni ta'minlashi;
- amaliy xorijiy tilni, mutaxassislikka yo'naltirilgan axborot texnologiyalari va tizimlarini o'zlashtirishni ta'minlashi;

Mutaxassislik fanlari bloki:

- muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi;
- mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi;
- magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish

va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy uquv va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak.

Ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiytadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishlari:

- mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiytadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishi;
- talabalarga fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy-pedagogik ishlar:

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Stajirovka ilmiy tadqiqot ishlari taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Stajirovka:

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- iqtisod, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;

- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;
- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda stajirovkaga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarishi ko'zda tutiladi. Bakalavriatda barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanishi lozim.

O'qishning me'yoriy muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

- nazariy ta'lim — 63 — 70%;
- attestatsiya — 8 — 10 %;
- ta'til —12 — 16 %;
- malaka amaliyoti — 6 — 12 %;
- bitiruv malakaviy ishi — 2-3%.

Nazariy ta'lim hajmi bilim sohalariga qarab fanlar bloklari bo'yicha quyidagi jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

O'quv yilida ta'til davrining umumiy hajmi 6-10 hafta qilib belgilanadi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Magistratura ham haftalik barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi bakalavriatdagi kabi belgilangan.

Magistraturada o'qishning me'yoriy muddati 2 yil bo'lganda o'quv jarayoni 100 haftani tashkil etishi zarur.

O'qish davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanishi zarur:

✓ nazariy ta'lim – 25-30%;

✓ attestatsiya – 4-7%;

✓ ta'tillar – 13-16%;

✓ ilmiy faoliyat – 50-55%.

Ilmiy faoliyat magistratura talabasining yakka tartibdagi kalendar ish rejasi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarga bo'linadi:

✓ ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash – 70-75%;

✓ ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti – 25-30%.

Nazariy ta'lim hajmi magistratura mutaxassisligiga qarab quyidagi tarzda fanlar bloklari bo'yicha taqsimlanadi:

✓ umummetodologik fanlar – 30-35%;

✓ mutaxassislik fanlari – 40-50%;

✓ tanlov fanlari – 13-30%.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti(stajirovka)ni o'tash tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejalarini tuzishda fanlarni o'rganishning quyidagi uch usuli hisobga olinadi:

parallel o'rganish - barcha fanlar bir vaqtda o'rganiladi; bu usul pedagogika jihatidan hamma vaqt ham to'g'ri bo'lavermaydi, chunki fanlararo mazmunli bog'lanishlar o'rgatish imkoniyatini cheklab qo'yadi; asosan, bir yillik o'quv rejalarini tuzishda qo'llaniladi;

ketma-ket o'rganish - o'zaro bog'langan fanlar ketma-ket o'rganiladi; bu usul fanlararo bog'lanish uchun eng yaxshi sharoit yaratadi; o'qitish muddati uzoq (3-4 yil) bo'lganda o'quv fanlari soni cheklangan o'quv rejalarida qo'llaniladi;

aralash o'rganish - fanlar o'quv rejasiga ham parallel, ham ketma-ket kiritiladi; bu usul o'qish muddati 2-3 yil bo'lgan o'quv rejalari tuzishda eng ko'p tarqalgan.

Fanlararo bog'lanishlarni ta'minlash uchun umumkasbiy va asosiy umumta'lim fanlari, odatda, o'qitishning birinchi bosqichida o'rganiladi, bu davrda ishlab chiqarish ta'limiga va maxsus fanlarni o'rganishga ajratiladigan vaqt bir oz qisqartiriladi.

3.3. Fanlar uchun ajratilgan kreditlarni belgilash tartibi. Dars jadvallarini tuzish metodikasi.

O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturi. O'quv dasturi - ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi. Har bir o'quv dasturi so'z boshi, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari

3 qismdan iborat. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisidir.

Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Namunaviy o'quv dastur - o'quv rejadagi aniq fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari tomonidan ishlab chiqiladigan, o'quv materiallarni o'zlashtirishga va o'qitish mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablarni o'z ichiga oladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan, oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun tavsiya etiladigan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Namunaviy o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tayanch etib belgilangan oliy ta'lim muassasalari kafedralarida tegishli fan sohasidagi etuk olimlar, mutaxassislar va tajribali professor-o'qituvchilardan tashkil topgan ijodiy guruh tomonidan tuziladi.

Namunaviy o'quv dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Kirish;
- ✓ asosiy qism;
- ✓ amaliy mashg'ulot mavzulari;
- ✓ seminar mavzulari;
- ✓ mustaqil ta'lim mavzulari;
- ✓ tavsiya etiladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati.

Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib, ma'lum fanlardan chizma-hisob, kurs ishlari, loyihalari va ularning mavzu va yo'nalishlari ham keltirilishi mumkin.

O'quv fani dasturi – ta'lim mazmuni, ularning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'yoriy hujjat.

Dastur fan, texnika, texnologiyaning so'nggi yutuqlari, oliy ta'lim rivojlanishining jahon tendensiyasini hisobga olish, Respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashi, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limda uzluksiz o'qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiydan umumiylikka o'tib borish tamoyillariga amal qilishi shart. Dasturda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim izlash va uni o'zlashtirish, o'qitish jarayonini interaktiv pedagogika asosida tashkil etishga mavzularning bir xil talqinida takrorlanmasligiga e'tibor berilishi zarur. Namunaviy o'quv dasturi tayanch oliy ta'lim muassasasining tegishli kafedراسi, fakultet yoki OTM uslubiy kengashida muhokama qilinadi. Ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlar bo'yicha tuzilgan namunaviy o'quv

dasturlari maxsus metodologik komissiyasiga muhokama qilish uchun topshiriladi. Barcha fanlar bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari oliy ta'lim muassasalariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash ekspertizasidan o'tishi shart va uning tavsiyasi bilan vazirlik tomonidan ro'yxatga olinadi va amalga kiritiladi.

Namunaviy o'quv dasturlari vazirlikning tegishli boshqarmasi tomonidan tasdiqqa tavsiya etiladi va ro'yxatga olinadi. Bu haqda o'quv dasturning bosh varog'iga belgi qo'yiladi. Namunaviy o'quv dasturning etalon nusxasi vazirlikda saqlanadi. O'quv dasturi tasdiqlangan va ro'yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi. Namunaviy o'quv dastur davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda yoki o'zga xollarda 5 yilda bir marta qayta ishlab chiqilishi va ushbu tartibga asosan qayta ekspertiza va tasdiqdan o'tishi zarur.

Ishchi o'quv dasturi - OTMning aniq bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi talabalari uchun o'quv rejadagi aniq bir fan bo'yicha o'quv dasturiga asosan professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan, fanning mazmuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan, mavzularning o'qitish ketma-ketligiga rioya qilingan holda fanga ajratilgan soatlar aniq ko'rsatilgan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Ishchi o'quv dasturi tegishli ta'lim standartlarini konkretlashtiradi, o'quv jarayonini uslubiy, informatsion va texnik jihatidan ta'minlanishini nazarda tutadi. OTMlarda talabalarni tayyorlash va o'qitish xususiyatlarini aks ettiradi. O'quv dasturi asosida tuzilgan ishchi o'quv dasturida aniq mavzular, ularga ajratilgan soatlar, mavzular bo'yicha qo'llaniluvchi didaktik va texnik vositalar, mavzular va bo'limlar bo'yicha bilimni nazorat qilish turlari hamda tegishli uslubiy tavsiyalar aniq ko'rsatiladi shuning uchun uning hajmi cheklanmaydi. Ishchi o'quv dasturida quyidagilar o'z aksini topishi lozim:

- ✓ DTS talablari;
- ✓ o'quv dasturlarini mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablar;
- ✓ talabalar uchun beriladigan o'quv materiallarining maksimal hajmi;

- ✓ bitiruvchilarni tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
- ✓ OTM tomonidan o'quv rejaga asosan belgilangan o'quv yuklamasining hajmi;
- ✓ ta'lim dasturlarining maqsadi va vazifalari.

Yuqorida keltirilganlar asosida ishchi o'quv dasturining tuzilishi ishlab chiqiladi va uning tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ titul varag'i;
- ✓ kirish so'zi;
- ✓ fanning maqsadi va vazifalari;
- ✓ fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar;
- ✓ talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar;
- ✓ fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi;
- ✓ fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni;
- ✓ fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar;
- ✓ fan bo'yicha soatlar taqsimoti;
- ✓ nazariy mashg'ulotlar mavzulari mazmuni;
- ✓ amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari va rejalari;
- ✓ mustaqil ta'lim mavzulari;
- ✓ foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

Ishchi o'quv dasturlarini tuzish va tasdiqqa kiritish tartibi:

1. Ishchi o'quv dasturlari OTMlarining tegishli kafedralarining professoro'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi.
2. Ishchi o'quv dasturlarini DTS talablari va o'quv dasturlarga mos holda ishlab chiqilishiga tegishli kafedra mudiri va professor-o'qituvchilar mas'ul hisoblanadi.
3. Ishchi o'quv dasturining kirish qismida o'qitiladigan fanning dolzarbligi, sohaning tarixi, jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib beriladi. Shuningdek, fanni

o'qitishning asosiy maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatiladi.

4. Ishchi o'quv dasturida uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketlikligi hamda o'qitish turlari o'qitishning interaktiv uslublari va vositalari hamda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun omil bo'ladigan mexanizmlar ko'rsatiladi.

5. Ishchi o'quv dasturlarida o'quv jarayoni uchun zarur texnik vositalar, axborot-resurs markazidagi tegishli o'quv adabiyotlari, didaktik vositalar, ashyolar va boshqa moddiy-texnik baza to'g'risida ma'lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiq.

6. Ishchi o'quv dasturining titulida amaldagi Klassifikator bo'yicha tegishli bilim, ta'lim sohalari va ta'lim yo'nalish (mutaxassislik) larning shifri va nomlari hamda ishchi o'quv rejaga muvofiq fanning to'la nomi ko'rsatiladi.

7. Ishchi o'quv dasturining yaratilishiga mas'ul kafedraning nomi, mualliflar va taqrizchilar to'g'risida ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni), tasdiqqa tavsiya etuvchi uslubiy Kengashlarning bayonnomasi raqami va sanasi ko'rsatiladi.

8. Ishchi o'quv dasturining foydalaniladigan manbalar ro'yxatiga asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar kiritiladi.

9. Ishchi o'quv dasturining matni A-4 format, Times New Roman shriftida, 14-chi o'lchamda, chap tomonidan - 3 sm, pastidan - 2 sm, yuqoridan – 2 sm, o'ng tomonidan - 1,5 sm o'lchamida xoshiyalanadi. Betlarni raqamlash – pastki qismining markazida joylashtiriladi.

10. Ishchi o'quv dasturi har o'quv yili kafedra yig'ilishida ko'rib chiqib muhokama qilinadi va tegishli o'quv – uslubiy kengashida ko'rib chiqib ma'qullanadi hamda OTMning ruxsat etilgan kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

11. OTM o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi. Mutaxassislar tayyorlashga qo'yilgan talablarning hujjatli asosini tasvirlaydigan o'quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to'liq va aniq

belgilanishini talab qilinadi. *To'liqlik* deganda mazmunning barcha zaruriy va qo'yilgan maqsadga erishish uchun etarli elementlari kiritish tushuniladi. *Aniqlik* deganda esa real o'quv jarayonida berilgan mazmunda joriy qilish yo'lini ko'rsatadigan elementlar va belgilar tasavvur etiladi.

O'quv dasturlarida talabalar o'quv rejasiga kiritilgan har qaysi fandan nimani va qanday izchillikda o'rganish kerakligi, shuningdek, talabalar bilib olishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi belgilab beriladi. O'quv dasturlarining mazmuni kasb tavsifnomalarning talablari asosida aniqlanadi. Dasturlarni ishlab chiqishda didaktik tamoyillarga va malakali mutaxassislar tayyorlash mazmuniga qo'yiladigan talablarga amal qilinadi. O'quv materialini tanlashda mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt va talabalarning materialni o'zlashtira olish-olmasligi hisobga olinadi. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari dasturlarida shunday o'quv materiali bo'ladiki, talabalar bu materialni o'rganib, ishlab chiqarishning hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasi asoslarini o'rganilayotgan kasbni ongli ravishda, puxta va chuqur egallash hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda o'zlashtiradilar.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari dasturlarida o'quv materiali mazmunini aniqlashda avvalo ilmiylik tamoyiliga asoslaniladi. Bu tamoyilga muvofiq, o'rganish uchun ilmiy tadqiqotlar bilan asoslab berilgan va tajribada tekshirib ko'rilgan jarayon, hodisa va faktlar, fan hamda texnikada qabul qilingan tushuncha, atama, qoida va belgilar tanlab olinadi. Ilmiylik tamoyili o'quv materialni mantiqiy izchillik bilan bayon etishni, har bir yangi hodisa yoki narsani har tomonlama o'rganishni, mazkur ob'ektning o'ziga o'xshash boshqa ob'ektlar bilan ham, o'zidan farq qiladigan ob'ektlar bilan ham bog'lanishidagi xilmaxillikni aniqlashni talab etadi.

Umumkasbiy fanlari dasturlarida o'quv materialining mazmunini va uni o'rganish ketma-ketligini aniqlashda, asosi ochib berilayotgan fanning mazmuni, mantiqiga asoslaniladi. Masalan, elektrotexnika, gidravlika va pnevmoyuritmalar,

amaliy mexanika, issiqlik texnikasi, ekologiya kabi fanlarning dasturlari mazmuni jihatidan eng barqaror dasturlardir.

Dasturlardagi o'quv materialiniig mazmunini aniqlash tamoyillaridan biri uniig talabalarga tushunarli bo'lishidir. O'quv materialining tushunarli bo'lishi deganda, uni soddalashtirish yoki engillashtirish tushunilmasligi kerak. O'quv materialining tushunarligi deganda, uning talabalar uncha qiynalmay o'zlashtira oladigan darajada ochib berilishi tushuniladi. Shunday qilinganda talabalarning tafakkuri, xotirasi, irodasi rivojlanadi. O'quv materialini tushunadigan qilib tanlashda bilimlar hajmini va o'quv materialinint ochib berilish chuqurligini aniqlash ko'zda tutiladi.

Dasturning har bir mavzusi bo'yicha bilimlar hajmini belgilashda zarur bo'ladigan asosiy materialga, shuningdek, ko'rgazmali va ma'lumotnoma materialga asoslaniladi hamda uning hajmi bilan talabalarning fikrlash va xotirada saqlab qolish imkoniyatlariga taqqoslab ko'riladi. Bunda o'qitish davri, mavzuga ajratilgan vaqt, o'quv materialining muhimligi, talabalarning tayyorgarlik darajasi, fanlararo bog'lanishlar hisobga olinadi.

Ochib berilish chuqurligi jihatidan olganda o'quv materialini shartli ravishda uch guruhga: oson, o'rtacha va qiyin o'zlashtiriladigan materiallarga bo'lish mumkin. Ma'lumki, faktlar eng oson material; faktlar tizimi - o'zlashtirilishi qiyin material; o'rganiladigan mashina, jihoz, mexanizm, materiallar sifati, texnologik jarayonning muhim alomatlarini aniqlash yanada qiyin. Tushunish va o'zlashtirish eng qiyin material - sabab-natijali bog'lanishlarni topish, chunki ular tarkibida ancha murakkab o'quv material bo'ladi. Sabab-natijali bog'lanishlarni aniqlash zarurati, ko'pincha, mashinalarni sozlovchilarda, dastgohda ishlovchilarda, yig'uvchi-chilangarlarda, haydovchilarda, montajchilarda va ko'pgina boshqa kasb ishchilarida paydo bo'ladi. Bunda sabab ma'lum bo'lsa, natijani topish, aksincha - natijani bilaturib, sababni topishga qaraganda oson bo'ladi.

Talabalarni sababni qidirib topishga o'rgatish ularda texnologik tafakkurning rivojlantirilishini talab qiladigan juda qiyin jarayondir. Bu muhim talab dasturlar tuzishda hisobga olinadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'quv materialining qiyinlik darajasi o'rganiladigan tushunchaning ichki bog'lanishlariga bog'liq. Bog'lanishlar qanchalik kam bo'lsa, tushunchani o'zlashtirish shunchalik oson, bog'lanishlar qanchalik ko'p bo'lsa, tushunchani o'zlashtirish shunchalik murakkab bo'ladi. Bu ham dasturlardagi o'quv materialining ochib berilish chuqurligini aniqlashda e'tiborga olinadi.

Dasturlardagi o'quv materialining ochib berilishi chuqurligi ko'p jihatdan talabalarning umumiy o'rta ta'limdan olgan tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Dasturlarda mashina va jihozlarning tuzilishi, texnologik ish jarayoni hamda hisoblashga oid nazariy materiallarni chuqur asoslab berish, tipaviy texnologiya, jarayonlar qonuniyatlarining ilmiy asoslarini anglab olish ko'zda tutiladi. Yig'ish va ta'mirlash-rostlash ishlarining puxtaligi, aniqligi va sifatini oshirish masalalariga, ularni ob'ektiv tashxislash alomatlariga ko'ra asboblarning vositasida tekshirish sinashga alohida e'tibor beriladi. Fanni o'rganish uchun talabalardan turli tip, rusum va modifikatsiyadagi juda ko'p mashinaning tuzilishini bilish talab qilingan hollarda dasturlarda shunga o'xshash mashinalarning tuzilishiga, ishlashiga oid printsipl sxemalarni, tipaviy texnologik jarayonlarni o'rganish hamda shu asosda eng zamonaviy va xarakterli konkret konstruksiyalarning xususiyatlarini o'rganish ko'zda tutiladi.

Dasturlar tuzishda o'quv materialiga nisbatan qo'yiladigan talablar bo'lgan amaliylik va zamonaviylik hisobga olinadi. Bunda talabalarning oliy ta'lim muassasalarida oladigan bilimlari ishlab chiqarishda va ijtimoiy tajribada tatbiq etilgan taqdirdagina katta ahamiyatga ega bo'lishiga asoslaniladi. Shuning uchun o'quv materialini tanlashda dasturlarga ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalarining hozirgi darajasiga javob beradigan faoliyati bilan bevosita bog'langan materiallar kiritiladi. Shu nuqtai nazardan ixtisoslik fanlarining o'quv

dasturlari mazmuni vaqt-vaqti bilan (3 yilda) qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi. Shu narsa an'anaga aylanib qoldiki, o'quv dasturlari faqat o'qitish mazmunini, ya'ni talabalarga nimani o'qitish kerakligini ochib beradi. O'qitish metodikasini, ya'ni qanday o'qitish kerakligini esa, odatda, o'qituvchining o'zi hal qiladi. OTMLar uchun umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bloki dasturlarini tuzishda dasturlarda o'qitish metodikasining ba'zi masalalarini ochib berishga harakat qilinadi. Chunonchi, amaliy mexanika, ekologiya, elektrotexnika, hayotiy faoliyat xavfsizligi, muhandislik va kompyuter grafikasi kabi fan dasturlarining har bir mavzusida o'qituvchi uchun qisqacha metodik tavsiyalar berilishi mumkin. Oliy ta'lim muassasalari ixtisoslik fanlar bloki fanlarining dasturlari uchun shu narsa xoski, talabalar bilimlarni ancha ongli va puxta o'zlashtirishi, ularning bilish faoliyatini faollashtirish hamda texnik tafakkurini rivojlantirish maqsadida bu dasturlarda anchagina hisoblash ishlari, texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqarish mashqlari, tajriba-amaliy ishlar, mustaqil ishlar, ma'lumotnoma adabiyotidan foydalanib mustaqil bajariladigan ishlar, shuningdek, o'quv ishining olingan bilimlarning hammasini amalda tadbiq qila bilishni talab etadigan boshqa shakllari ko'zda tutilgan. Tajriba-amaliy mashg'ulotlar, hisoblash ishlari va mashqlar ruknini aniqlashda quyidagi masalalarni hal qilish nazarda tutiladi: mashina, jihoz, agregat va qurilmalarining konstruktsiyasini o'rganish; texnologik jarayonlardagi fizikaviy va kimyoviy hodisalar mohiyatini hamda ularning qonuniyatlarni o'rganish; nuqsonlarni tashxislash va aniqlash, mashina, jihoz va agregatlarni asboblar vositasida tekshirish hamda rostlash usullarini o'rganish; ish rejimlarini hisoblash, texnik xizmat ko'rsatish, yig'ish, ta'mirlash, sozlashga doir texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqish ko'nikmalarini hal qilishni nazarda tutadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Bakalavr va magistr tushunchalarini izohlab bering?
2. Oliy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standartiga tushuncha bering?
3. Ta'lim yo'nalishining malaka talablari nimalarni aks ettiradi?

4. O'quv reja qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
5. O'quv reja va ishchi o'quv rejani farqini tushuntiring?
6. O'quv dasturi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
7. O'quv dasturi va ishchi o'quv dasturining farqini tushuntiring?
8. Ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish va rasmiylashtirish tartibini tushuntiring?

Mavzu: O'quv dasturlarining mazmuni va tuzilmasi.

Reja:

1. Namunaviy o'quv reja va dasturlarni tajriba-sinovdan o'tkazish va ekspert baholash ishlari.
2. O'quv dasturlarining mazmunini ishlab chiqishga qo'yilgan talablar. Ishchi o'quv dasturlarni ishlab chiqish metodikasi.
3. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan o'quv adabiyotlar va darsliklar. Mutaxassislik fanlar bo'yicha o'quv uslubiy majmualar tuzish metodikasi.

***Tayanch so'z va iboralar:** Nazariy ta'lim, ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlari, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya darsi, o'quv ustaxonasida o'qitish.*

4.1. Namunaviy o'quv reja va dasturlarni tajriba-sinovdan o'tkazish va ekspert baholash ishlari.

Fan-texnika taraqqiyoti ta'lim jarayoniga asosan yangicha yondashishni, ta'limning faol metodlari va texnologiyalarini qo'llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan an'anaviy ta'lim berish usuli ta'lim oluvchilarning fikr yuritish va bilish faolligining o'sishiga ham yordam beradi. Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta'lim oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko'nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi.

O'qitishning tashkiliy shakllari deganda, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi. O'qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o'qitishning har xil ko'rinishda qo'shib olib borilishi, o'qitishda ta'lim oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta'lim oluvchilarning o'qishga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi. O'qitishni tashkil etish shakllarini tanlash ta'lim-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o'quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog'liq bo'ladi.

Ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo'lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko'rinishi bo'lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o'tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi. Maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari deganda o'quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun talabalarlar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarini tuzilish tarkibi tushuniladi. Ta'limni u yoki bu shaklini tanlashda, talabalarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari, mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko'rsatkich)larini u yoki bu shakllariga bog'liq. Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish jarayonida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish usuli keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlarga ega bo'lganligi bois bu usul hozirgacha saqlanib qolgan. O'rta asrlarga kelib, ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan. Chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr hisoblangan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A.Komenskiy sinfdars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Hozirgi paytda maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari tahsil oluvchilarning soni, o'qitish joyi va o'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi.

4.2. O'quv dasturlarining mazmunini ishlab chiqishga qo'yilgan talablar. Ishchi o'quv dasturlarni ishlab chiqish metodikasi.

Ijtimoiy talablar, maxsus fanlarning maqsad va vazifalari, ta'lim oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, tamoyillari kabilarga ko'ra maxsus fanlar mashg'ulotlariga quyidagi talablar qo'yilishi lozim:

- ✓ fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib, dars tuzilmasini maqbullashtirish;
- ✓ darsda barcha didaktik tamoyillarning maqbul nisbatini ta'minlash;
- ✓ ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda yuqori samarali o'quv-bilish faoliyati uchun shart-sharoit yaratish;
- ✓ o'quv materialini mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;
- ✓ ta'lim oluvchilar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish;
- ✓ ta'lim oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan rivojlantirishga erishish;
- ✓ darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va his-tuyg'ularga asoslanish;
- ✓ didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;
- ✓ nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish;
- ✓ zarur bilim, ish-harakat, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish;
- ✓ ta'lim oluvchilarda uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish;

✓ darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashxislash.

Maxsus fanlar bo'yicha zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohadagi aniq maqsadlarni ham aniqlashtirib olishni talab etadi.

Maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

- ✓ har bir darsning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifasini aniq belgilab olish;
- ✓ ijtimoiy talab va tahsil oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini maqbullashtirish;
- ✓ o'quv-bilish faoliyatini samarali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;
- ✓ ta'limning turli shakl, metod va vositalarining uyg'unligini oqilona ta'minlash;
- ✓ dars tuzilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish;
- ✓ tahsil oluvchilarning turli o'quv-bilish faoliyatlarini uyg'unlashtirish;
- ✓ ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida tezkor-teskari aloqani ta'minlash, ta'sirchan boshqaruv mexanizmini ishlatish;
- ✓ darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi sababli maxsus fanlarni o'qitishda ham sinf-dars ta'lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb hisoblanadi.

Oliy ta'limda ham ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sinf-dars shakli

Sinf – dars shaklining quyidagi o'ziga hos xususiyatlari mavjud:

- ✓ deyarli bir hil tarkib, yoshi va tayyorgarlik darajadagi ta'lim oluvchini ishtirok etishi;
- ✓ ta'lim tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida–alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'lishi;
- ✓ har bir darsning o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'lishi;
- ✓ darslarni jadval asosida muntazam ravishda almashinib turishi;

- ✓ darslarda ta'lim beruvchining rahbarlik qilishi
- ✓ ta'lim oluvchilarni turli ko'rinishdagi o'quv-bilish jarayonida ishtirok etishidir.

Sinf – dars shaklining quyidagi ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Ijobiy tomonlari Salbiy tomonlari

- ✓ qat'iy tashkiliy tizilmaga ega ekanligi;
- ✓ bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilan faoliyat olib borganligi sababli iqtisodiy ko'rsatkichlarning nisbatan yuqoriligi;
- ✓ o'qituvchi va ta'lim oluvchini o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratilganligi.

✓ darsni sinfdagi o'rtacha ta'lim oluvchilarga mo'ljallanganligi;

✓ har bir ta'lim oluvchi bilan individual shug'ullanish imkoniyatining yo'qligi.

Har bir dars o'quv jarayonining bir qismi hamda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichi hisoblanadi.

Dars muvaffaqiyatli o'tishi uchun uni tashkil etish bo'yicha o'qituvchi faoliyatining maqsadini aniqlash lozim.

Har qanday darsning uchta maqsadlari mavjud.

Darsning maqsadlari.

Darsning ta'limiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- ✓ yangi tushunchalarni shakllantirish;
- ✓ yangi qonun, qonuniyat, xususiyat va belgilarni uzlashtirishni ta'minlash;
- ✓ yangi harakat usullarini o'rgatish;
- ✓ bilimlardagi etishmovchiliklarni bartaraf etish;
- ✓ bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish;
- ✓ malakalarni shakllantirish;
- ✓ ma'lum harakat usullarini mustahkamlash;
- ✓ tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash bo'yicha talabalarda biror narsa to'g'risida tushunchalarni shakllantirish;
- ✓ dunyoqarash g'oyalari va muammolarini aniqlash;

- ✓ talabalarda u yoki bu harakatni, voqealarni baholash bo'yicha bilimlarni shakllantirish;
- ✓ xulosa chiqarishga tayyorlash, o'zlashtirishga erishish.

Darsning tarbiyaviy maqsadlari talabalarda quyidagi muayyan shaxs sifatleri va xarakterini tarkib toptirishdan iborat:

- ✓ dunyoqarashni va kasbga qiziqishni;
- ✓ o'z-o'zini tekshirish va o'zaro yordamni;
- ✓ voqeliklar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash va tahlil qilish ko'nikmalarini;
- ✓ bir sohadan ikkinchi sohaga bilimlarni ko'chirish ko'nikmalarini;
- ✓ fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini;
- ✓ nutq madaniyatini;
- ✓ vatanparvarlikni;
- ✓ mehnatga ongli munosabatni;
- ✓ ongli intizom va yaxshi xulqni;
- ✓ ta'lim olishga ijobiy munosabatni;
- ✓ estetik qarashlarni;
- ✓ ish o'rnini tashkil etish va o'z faoliyatini tekshirishni;
- ✓ e'tiqodni.

Rivojlantirish maqsadi — dars jarayonida talabalarning psixologik sifatlarini diqqat, xotira, texnik taffakkur va bilish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish talabalarda tafakkurni, politexnikmehnat, bilish (anglash) va aqliy ko'nikmalarni, iroda va mustaqillikni rivojlantirish, ularni kelgusi darslarga tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Agar bilimlarni shakllantirish va maqsadli tarbiyalash talabalarning bilish qobiliyatini takomillashtirsa, buni rivojlantiruvchi ta'lim deb tan olinadi. Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning quyidagi turlari mavjud: **Yangi materialni bayon etish darsi.** Yangi materialni bayon etish darslari suhbat o'tkazish, hikoya qilish, tushuntirish, turli ko'rgazmali vositalardan foydalangan holda muammoli vaziyatlar yuzaga keltirish usullari bilan o'tkaziladi.

Bunday darsning asosiy maqsadi dastur materialini tushunarli ravishda bayon qilishdir. O'qituvchi darsning ayrim mavzularini tushuntirish jarayonida ta'lim oluvchilar yangi materialni qanday qabul qilayotganini tekshirib (ta'lim oluvchilarga birma-bir qisqa savol berish yo'li bilan), ta'lim oluvchilarni darsda faol ishtirok etishga jalb qiladi. Bu darslar, odatda, mavzuni bayon etish va darsdan ko'zlangan maqsadni ochib berishni, yangi materialni navbati bilan bayon etish yoki ta'lim oluvchilarning o'quv adabiyoti, texnika adabiyoti (jurnallar, byulletenlar, albomlar, chizmalar, sxemalar, texnologik jarayon kartalari va shu kabilar) yoki ma'lumotnoma adabiyot bilan mustaqil ishlashini tashkil etishni, ta'lim oluvchilarning savollariga javob qaytarishni, ta'lim oluvchilarning yangi materialni o'zlashtirish sifatini tekshirishni, qo'shimcha tushuntirishlarni, uyga vazifalar berishni o'z ichiga oladi. Bunday darslar, odatda, o'rganiladigan material tavsifiy xarakterda va o'zlashtirish uchun engil bo'lgan hollarda o'tkaziladi.

Bilimlarni mustahkamlash darsi. Bunday darslarda oldin o'rganilgan materiallar yuzasidan ta'lim oluvchilar bilan suhbatlar, tajriba-amaliy ishlar o'tkaziladi, har xil masalalar echiladi, texnologik jarayonlar ishlab chiqish mashqlari, yozma grafik ishlar, ilgari o'rganilgan materialni mustahkamlash va tizimga solish yuzasidan turli mustaqil ishlar (sxemalar tuzish va ularni o'qish, jadvallar tuzish, texnikaviy hujjatlarni tahlil qilish va shu kabilar) o'tkaziladi, kinofilmlar ko'riladi, ta'lim oluvchilar ma'ruza va referatlar bilan chiqadilar. Bu ish davomida bilimlar esga solinadi, etarli dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar ta'lim oluvchilar ongi va xotirasida mustahkamlanadi. Buning natijasida bilimlar ancha puxta bo'ladi.

Takrorlash-umumlashtirish darslari. Bu darslardan ko'zlangan maqsad – o'rganilgan material yuzasidan olingan bilimlarni esga tushirish va tizimga solish, bu esa bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirishga, mavzuning, bo'limning va butun fanning asosiy g'oyalarini, masalalarini yanada chuqur ochib berishga yordam beradi. Bu turdagi darslar dasturdagi mavzuni yoki bo'limini o'rganish so'nggida va o'quv yilining oxirida o'tkaziladi. Takrorlash-umumlashtirish darslariga

nisbatan qo'yiladigan asosiy talablardan biri ularning mundarijasiga albatta ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatiga doir yangi ma'lumotlar va metodlar kiritishdir. Takrorlash-umumlashtirish darslari ikki xil bo'ladi: o'qituvchi mavzuning, bo'lim yoki kursning o'rganilgan materiali yuzasidan umumlashtiruvchi sharhlovchi ma'ruza o'tkazadi yoki ta'lim oluvchilar bilan kengaytirilgan suhbat tashkil qiladi. Suhbat vaqtida ta'lim oluvchilar o'qituvchi rahbarligida umumlashtiruvchi mashqlar, yozma ishlar va boshqa topshiriqlarni bajaradilar.

Sinash-tekshirish darsi. Bu darslarda mavzu, bo'lim yoki butun kurs yuzasidan batafsil og'zaki savol-javob, test sinovi, yozma yoki grafik nazorat ishlari o'tkaziladi, nazorat qurilmalari, kartochka-topshiriqlar, sharhlash-takrorlash jadvallari yordamida ta'lim oluvchilar bilimi tekshiriladi, amaliy xarakterdagi topshiriqlar bajariladi. Bunday darslardan ko'zlangan asosiy maqsad har bir ta'lim oluvchining tayyorganlik darajasini asosli baholash uchun ma'lumotlar olish, bilimlarni qanchalik ongli va chuqur o'zlashtirilganligini, olingan uquv hamda malakalarning qanchalik puxta ekanligini aniqlashdan iborat. Bundan tashqari, bunday darslarni o'tkazishda o'qituvchi ta'lim oluvchilar bilimi hamda uquvidagi kamchiliklarni to'ldiradi.

Muammoli dars. Bunday darslarda ko'zlangan maqsad o'quv jarayonini yanada takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqilligini rivojlantirish, o'qitishning eng samarali shakl va metodlaridan foydalanishdir.

Muammoli vaziyatlar yaratish, ularni hal qilish yo'llarini izlash va aniqlash muammoni hal qilish jarayonining o'zi, chiqarilgan xulosalarning qanchalik to'g'ri ekanligini amalda tekshirib ko'rish o'quv jarayonining muhim elementlari bo'lib qolmoqda. Muammoli vaziyat hosil qilish ta'lim oluvchilar faol aqliy faoliyatining zarur shartidir. Ta'lim oluvchi oldiga muayn vazifa qo'yilgan, bu vazifa unda qiziqish uyg'otadi va u bu vazifani hal qilishga urinadi, ammo o'z bilimlari hamda tajribasining etarli darajada to'la va chuqur emasligini payqaydi, ya'ni muayyan qiyinchilikka duch keladi. Ta'lim oluvchida hosil bo'lgan vaziyatdan

chiqish yo'lini topishdek ichki ehtiyoj paydo bo'ladi, qiyinchilikni his etish paydo bo'lgan shroitni tahlil qilishga va qo'yilgan masalani echish yo'llarini izlashga undaydi.

Shunday qilib, bilish lozim bo'lgan va amaliy vazifalar bilan ta'lim oluvchilarning bilimlari darajasi orasida ziddiyat hosil bo'ladi, bu ziddiyat yuzaga kelgan qiyinchilikni bartaraf etishga qaratilgan intensiv fikrlash faoliyatini uyg'otadi. Muammoli vaziyatni hal etish asosida tashkil qilingan o'quv jarayoni pedagogikada **muammoli o'qitish** deb ataladi. Muammoli o'qitish vaqtida hamma vaqt masala (muammo) qo'yiladi va hal qilinadi. Bu muammo savol, topshiriq, masala tarzida beriladi.

Muammoli vaziyatlar yaratishda pedagogika fani ishlab chiqqan hamda amalda tekshirib ko'rilgan quyidagi qoidalarga amal qilishi zarur:

1. Muammoli vaziyat yaratish shunday amaliy yoki nazariy vazifani nazarda tutadiki, bu vazifani bajarishda ta'lim oluvchi o'zlashtirilishi kerak bo'lgan yangi bilimlar yoki harakatlarni "kashf etishi" lozim.
2. Masala quyidagi shakllarda berilishi mumkin: savol shaklida, bunda ma'lumotlar so'roq gapga kiritilgan bo'ladi; bunda savolning ta'rifi, uning mohiyati vazifani bajarishda ta'lim oluvchida paydo bo'ladigan real savolga mos kelishi kerak; topshirik shaklida, bunday masalada xulosa chiqarish, nimanidir tushuntirish, asoslash taklif etiladi.
3. Masala hamisha ta'lim oluvchining bilim va uquvlariga asoslanishi lozim. Ular savol yoki vazifaning mohiyatini, tub maqsadni va echish yo'llarini tushunish uchun etarli bo'lishi kerak.
4. Ta'lim oluvchiga taklif etiladigan muammoli vazifa ta'lim oluvchining intellektual imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Vazifaning qiyinlik darajasi ikkita asosiy ko'rsatkich: o'zlashtirilishi kerak bo'lgan o'quv materialining yangilik darajasi va uning umumlashtirilganlik darajasi bilan baholanadi.
5. Odatda, muammoli vazifa o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materialidan oldin berilishi darkor. Ammo ta'lim oluvchilarda muammoli vazifani hal qilish

uchun etarli darajada bilim va uquvlar bo'lmasa, ularga zarur ma'lumotlarni bayon etish yoki ularni muayyan harakatlarga o'rgatish lozim. Bunday hollarda o'qituvchi jarayonlarni xususiyatlari, aniq ma'lumotlar va shu kabilarni aytib beradi, ta'lim oluvchilar esa ana shu ma'lumotlar asosida, o'rganiladigan harakatlarning umumiy qonuniyatlarini, bajarish usullari hamda shartlarini ijodiy o'zlashtiradilar.

6. Ta'lim oluvchilarning muammoli masalalar echish yo'li bilan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga o'qituvchi doimo bevosita rahbarlik qilishi kerak. O'qituvchi muammoli vaziyat yuzaga keltiradi, masalani ta'riflaydi, shundan keyin yordamchi savollar berish, aniqliklar kiritish, ba'zi narsalarni aytib berish yo'li bilan ta'lim oluvchilarga talab etiladigan qonuniyatni mustaqil tushunish hamda ta'riflashga, qilinadigan ish usuli yoki shartini topishga, zarur xulosa chiqarishga yordam beradi.

7. Bilim va harakatlarning ma'lum darajada murakkab tizimini muammoli o'zlashtirishni ta'minlash uchun muammoli vaziyatlar yaratishda muayyan muammoga rioya qilish kerak:

- ✓ murakkab topshiriqni ancha mayda, xususiy topshiriqlarga bo'lish zarur; ba'zi hollarda asosiy masala bir necha dars yoki, hatto, butun boshli mavzu doirasida yagona bo'ladi va xususiy vazifalar sifatida echiladi;
- ✓ har bir muammoli vaziyatda bitta noma'lum elementni (xossa, nisbat, harakat qonuniyati yoki uni bajarish shartini va shu kabilarni) izlanuvchi element sifatida belgilab olish lozim;
- ✓ har xil muammoli vaziyatlar uchun xos bo'lgan didaktik funksiyalarni farq qilish kerak: mavzuni o'rganish boshida hosil qilinadigan birinchi muammoli vaziyat ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan umumiy qonuniyatni o'zlashtirish uchun ehtiyoj uyg'otishi darkor; shundan keyingi aniq muammoli vaziyatlar tizimining hammasi shu asosiy masalani ochishga xizmat qiladi;
- ✓ muammoli vaziyatlar sharoitida o'qituvchi bayon etadigan o'quv materialini va ta'lim oluvchilar mustaqil o'zlashtiradigan materialni aniqlashga

differensiallangan tarzda yondoshish kerak; bir darsning o'zida, odatda, ikkala tipdagi materialdan foydalaniladi.

Bu darslardan maqsad talabalar qo'yilgan muammolarni echa olish yoki echa olmasligini aniqlashdir. Bunday darslar talabalar maxsus fanlardan ma'lum bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lganlaridan keyin o'tkaziladi. ***Umumiy yoki aralash dars.*** Bunday darslarda har xil didaktik masalalar hal etiladi - uy vazifalarini va talabalarniig bilimlarini tekshirish, yangi materialni bayon qilish va boshqalar amalga oshiriladi. Ular maxsus fanlarni o'rganishda eng ko'p tarqalgan. Aralash dars o'quv jarayonining bir-biriga eng yaqin zvenolarini o'z ichiga oladi, bu esa talabalar bilimlarni puxta va ongli o'zlashtirishini ta'minlash uchun muhimdir.

4.3. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan o'quv adabiyotlar va darsliklar.

Mutaxassislik fanlar bo'yicha o'quv uslubiy majmualar tuzish metodikasi.

Ishlab chiqarish korxonalarida ta'lim oluvchilarni o'qitishning samaradorligini oshirish masalalari ta'limni samarali tashkil etishdagi muhim vazifalardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Korxonalarda o'qitish vaqtida ta'lim oluvchilarda ishga bo'lgan talablarni to'g'ri tushunish, uning xususiyatlari va bajarilish shartlarini hisobga olish, o'z mehnatini tashkil qilish va rajalashtira bilish, kamchiliklarning oldini olish, texnologik jarayonlarni hamda mehnat unumdorligini oshirish uchun o'z bilimlaridan to'la foydalana bilishda o'z aksini topuvchi kasbga oid mustaqillik to'liq tarkib topadi. Kasbga oid mustaqillik yosh mutaxassislarda tinimsiz tarbiyalanishi kerak bo'lgan mehnat natijalariga yuksak ma'naviy javobgarlikni his qilish, kasb sharafini his etish bilan birikib ketadi.

Ta'lim oluvchilar yuqori malakali mutaxassislar va ishlab chiqarish ilg'orlari bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularning tajribalarini o'zlashtiradilar, korxonalarining ijtimoiy va ishlab chiqarish hayoti bilan tanishadilar, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarish rejasi va korxonaning iqtisodiy

ko'rsatkichlarini bajarish va oshirib bajarishdagi kurashda faol ishtirok etadilar. Har bir ixtisoslik yoki mutaxassislik bo'yicha bevosita korxonada o'qitish hajmi, mazmuni va muddatlari tegishli o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq belgilanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Maxsus fanlarni o'qitishning qanday shakllari mavjud?
2. Darsga qanday maqsadlar qo'yiladi?
3. O'qitishning sinf-dars shakli qanday afzallik va kamchiliklarga ega?
4. Didaktik maqsadlar bo'yicha darsning qanday turlari mavjud?
5. Korxonalarda o'qitish qanday tashkil etiladi?
6. O'quv ustaxonalarida qanday mashg'ulotlar tashkil etiladi?
7. Ishlab chiqarish korxonalariga amaliy darslar qanday tashkil etiladi?

11-Mavzu: Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim metodlarini tanlash.

Reja:

1. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim metodlarini tanlash.
2. Ko'rgazmali metodlardan foydalanish.
3. "Ta'lim metodi" tushunchasining mazmunini.

Tayanch so'z va iboralar: *Ta'lim metodlari, og'zaki metodlar, ma'ruza, xikoya, bahs-munozara, amaliy metodlar, ko'rgazmali metodlar, ta'lim metodlarini tanlash, interfaol metodlar.*

Ta'lim metodlarining tasniflanishi. Ta'lim metodi deganda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyat yo'llari tushuniladi. Bularning yordamida ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy mahoratlarni egallashga erishadilar, aqliy va jismoniy kuch va ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Pedagogikada ta'lim metodlarini tasniflanishiga va belgilashga bir xil yondashuv mavjud emas. "Ta'lim metodi" tushunchasining mazmunini ochish to'g'risida munozaralar hozirgi vaqtda ham davom etib kelmoqda. Ba'zi olimlar metodni belgilashda bilish

manbalarining xususiyatlarini asosiy deb hisoblaydilar, boshqalari ta'lim oluvchilarning tafakkuridagi ijodiy faollik va mustaqillik, ba'zi olimlar esa ta'lim oluvchilar faoliyatida ta'limning turli bosqichlaridagi tavsifini muhim deb hisoblaydilar.

Ta'lim berishda uning ikki tomoni: o'qitish va o'qish tomonlari hamma vaqt aniq ajralib turadi. O'qitish – ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar tizimi berish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyati. O'qish – ta'lim oluvchilarning o'quv fani materialini o'zlashtirish borasida qiladigan tizimli va ongli mehnatidir. O'qitish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, nihoyatda xilma-xil va turli xarakterdagi omillarga bog'liq. O'qituvchi o'qitish metodlarining bitmastuganmas xazinasiga ega. O'qitish metodlarini quyidagicha tasniflanadi (5.1-rasm). 5.1-rasm. O'qitish metodlarining tasniflanishi O'qitish metodlari o'quv jarayonining amalga oshirish, ya'ni o'qitish va o'qish metodlari bo'lganligidan, har bir metodga o'qituvchi faoliyati va talabalar faoliyati nuqtai nazaridan qarash lozim.

Shuning uchun ham, ta'lim metodlarini o'quv materiallarini uzatish va idrok etish manbalari bo'yicha quyidagicha guruhlash mumkin (5.1-jadval). 5.1-jadval Ta'lim metodlarini o'quv materiallarini uzatish va idrok etish manbalari bo'yicha guruhlari

Og'zaki metodlar	Ko'rgazmali metodlar	Amaliy metodlar
• suhbat: maqsadni tushuntirish talabalarga muammoli savot berish, talabalarning javoblarini	• o'quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash; maqsadni tushuntirish: topshiriqning mazmun va talabalarning ish tartibini aniqlash, talabalar ishiga rahbarlik qilish. yakun yasash.	• ovoz yozishdan va radio, televidiniedan, multimedia resurslaridan foydalanish: maqsadni tushuntirish axborot va multimedia vositalarini boshqarish; talabalarni idrok etishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.
• ko'rgazmali o'quv adabiyotlari rasmlar va chizmalarni, videotasvirlar, multimedialar, tajribaviy mehnat usullarini namoyish qilish; maqsadni tushuntirish; topshiriqni aniqlashi	• talabalarning ob'ekt	

va jarayonning mustaqil kuzatishlari; maqsadni tushuntirish, kuzatish ob'ektlarini aniqlash; talabalarning kuzatishlariga rahbarlik qilish, yakun yasash. • tajriba va amaliy mashg'ulotlar; maqsadni tushuntirish, talabalar ishini, tartibini va mazmunini aniqlash hamda rahbarlik qilish; yakun yasash; • Mashqlar: maqsadni tushuntirish; talabalarning ishini tartibini va muzmunini tushuntirish; yakun yasash. • talabalarning ijodiy ishlari; maqsadni tushuntirish, muammo qo'yish; talabalar ishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.

Og'zaki metodlar. Agar talabalar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining o'quv mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki darslik mavzulari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki metodlar jumlasiga kiradi (tushuntirish, hikoya, suhbat va h.k.). Og'zaki metodlarga o'quv materialining o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon qilinishiga, hikoya, tushuntirish, suhbat ta'lim oluvchilarning texnik adabiyoti bilan mustaqil ishlashi yozma instruktsiya berish, ovoz yozuvchi televidenie kabilar kiradi. Talabalarga o'quv materialini bildirishning asosiy metodlaridan biri so'zlab berish, tushuntirish, ma'ruzani o'z ichiga oladigan og'zaki bayon etishdir. Bularning hammasida ta'lim berishning faqat bir vositasidan - o'qituvchi so'zidan foydalaniladi. So'zlab berish o'quv materialini hikoya tarzida bayon etishni ko'zda tutadi.

Bu metod o'quv materiali, asosan, tavsifiy xarakterda bo'lib, mantiqiy izchilligi bilan farq qiladigan hollarda qo'llaniladi. So'zlab berish yordamida, odatda, kirish mavzulari, mashina va mexanizmlarning umumiy tuzilishi, materiallarning xossalari va ishlatilishi, ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi masalalari va shu kabilar bayon etiladi. Tushuntirish o'quv materialini og'zaki bayon etishni ko'zda tutadi. Tushuntirish jarayonida o'qituvchi solishtirish, taqqoslash, deduktsiya, induktsiya, asoslash, qonuniyatlar chiqarish, masalalar echish va shu kabilardan foydalanadi. Tushuntirish, asosan, xususiy va konkret ma'lumotlarni bildirishda qo'llaniladi. O'qituvchilarning ish tajribasidan so'zlab berish va tushuntirish sof holda kamdankam uchraydi, ular ko'pincha so'zlab berish-tushuntirishdan iborat

bo'lgan kompleks metod tarzida qo'llaniladi. Ma'ruza, so'zlab berish va tushuntirishdan farqli o'laroq, ancha aniq tuzilgan bo'ladi.

Ma'ruzalar, odatda, o'quv dasturining yirik, muhim masalalari yuzasidan o'qiladi. Ma'ruzada o'quv materialini yaxlit va izchillik bilan bayon etiladi, o'zaro bog'langan tushunchalar, qonuniyatlar tizimi ochib beriladi, kursning turli mavzulari orasida ichki bog'lanishlar o'rnatiladi. Kirish ma'ruzalari, sharh ma'ruzalar, rukn ma'ruzalar va xotima ma'ruzalar bo'ladi. Ma'ruza so'zlab berishga qaraganda uzoq davom etadi (u, odatda, butun darsga mo'ljallanadi) va talabalarning yozib borishini (konspekt tuzishini) ko'zda tutadi. Ma'ruzani eshitish so'zlab berishni eshitishga qaraganda qiyinroq, chunki ko'proq diqqat-e'tiborni talab etadi. Ma'ruzalar, odatda, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida qo'llaniladi. Og'zaki metodlarni qo'llash jarayonida ko'rgazmali qurollardan ham foydalanish mumkin. Ammo ular yordamchi rol o'ynaydilar. Og'zaki metodlardan foydalanishning muvaffaqiyat ko'rsatkichlari - talabalarning yangi bilimlarni eslab qolishlari va takror aytib bera olishlaridir.

Og'zaki metodlarda talabalar o'qituvchi mulohazalari jarayonini takrorlaydilar, unga taqlid qiladilar. Talaba o'qituvchining tushuntira olish mantiqiga qanchalik yaqinlashsa, materialni shunchalik muvaffaqiyatliroq o'zlashtiradi. Og'zaki metodlardan yangi materialni o'rganish paytida foydalaniladi va bu o'rganish fanlarni egallashning boshqa usullari bilan qo'shib olib borilsagina ular ta'limda yaxshi samara beradi. Ko'rgazmali metodlar Ko'rgazmali metodlar deganda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish shakllari tushuniladi. Ta'limning ko'rgazmali vositalari bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish xarakterini belgilaydi. Masalan, tikuv mashinasi detallarining namunalari ko'rsatilganda, mexanizmlarning ishlashini virtual model orqali yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayonning videotasviri namoyish qilinishi orqali tushuntirish mumkin, Ta'limning bunday usullaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyati ko'rgazmali

vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi.

Ko'rgazmali qurollar bilimlarni bir tizimga solish va boyitishda, shuningdek, talabalarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda yordam beradi. Ta'limning ko'rgazmali usullari talabalarning bilish faoliyatida obrazli va mantiqiy, konkret va abstrakt, hissiy va aqliy jihatlarining nisbatini chuqur tushunishni talab etadi. Ko'rgazmali vositalarni namoyish qilish (ko'rsatish) yordamida talabalarda mashina va mexanizmlar tuzilishini, texnologik jarayonlarni, mehnat harakatlarini muayyan va aniq obrazi shakllanadi. Ular unga taqlid qiladilar va o'z harakatlarini qiyoslaydilar. Mazkur metodning qo'llanilishi maxsus fanlarni o'qitishda ko'rgazmalik tamoyilining yaqqol namunasi bo'lib hisoblanadi.

Maxsus fanlar darslarida ko'rsatmali qurollarning turli xil va shakllaridan foydalanish o'qituvchining tushuntirishlarini yaxshi idrok qilish hamda o'zlashtirishlarga, malakalarning mustahkam shakllanishiga yordam beradi. Slaydlar, rllakatlar, sxemalar, modellar, maketlarni namoyish qilish bilan bir qatorda harakatdagi ish quroli, asboblari, moslamalar xom-ashyolar, buyumlarning haqiqiy namunalari va hokazolarni ko'rsatish ham katta ahamiyatga ega. 5.4. Amaliy metodlar Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba-sinov ishlari asosida o'quv materialini egallash shakllari ta'limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bunday ko'nikmani shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'nikmalarni egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga bog'liq. Birinchi shart-ko'nikma nima maqsadda shakllantirilishini anglashdir. Har qanday ko'nikma-avtomatlashgan darajaga etkazilgan harakatlar tizimidir.

Agar talaba o'quv materialini o'zlashtirishda ularning ahamiyatini tushunmasa, bu harakatlarni shakllantirish qiyin bo'ladi. Masalan: tikuv mashinasi kiyimni qaysi qismlarini tikishga mo'ljallanganligini va buning uchun kiyim materialiga mos ravishda ip va ignalar tanlanishi tartibini bilmasa, shu ishlarni bajarishdagi

harakatlarni shakllantirish qiyin bo'ladi. Ikkinchi shart-mashqlarning tizimli bo'lishi. Odatda, ko'nikmalarni egallashdagi kamchiliklarga o'quv mashqlari tizimini tashkil etish va o'tkazishdagi kamchiliklar sabab bo'ladi, ya'ni mashqlarni o'tkazish uchun kerakli vositalar bilan ta'minlanmaganligi. Uchinchi shart-amaliy harakatlarni anglagan holda bajarish. Talabalar harakatlarning muayyan fikriy rejasiga asoslanishlari, ish jarayonlarining izchilligini yaxshi tushunishlari zarur. Ularni mexanik tarzda takrorlashga va yodlab olishga yo'l qo'ymaslik kerak. To'rtinchi shart-dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayyorlanish. Ular ongli ravishda reja asosida bajarilsa, ko'nikma tezroq, muvaffaqiyatliroq shakllanadi. Buning uchun talabalar nazariy bilimlarni yaxshi egallashlari kerak.

Beshinchi shart-mashqlarni mustaqil bajarish va o'zini o'zi nazorat qilish. Talaba ko'nikmani mustaqil bajara boshlaganida u o'z harakatlarini nazorat qiladi. O'qituvchi talabaga o'z-o'zini nazorat qilish usullarini o'rgatishi zarur. Masalan, talaba kiyimni bironta detaliga bezak berish jarayonini amaliy o'rgangandan keyin, uyda o'zi mustaqil ravishda bajarishga va baho berishga o'rganadi. Oltinchi shart-bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ularni baholash. O'quv ko'nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy jihatlar bo'ladi. Talabalar yo'l qo'yadigan tipik xatolar namoyon bo'ladi. Lekin o'quv xonasida yaxshi ishlarni namoyish qilish, rag'batlantirish kerak. Ijobiy namuna asosida o'qitish afzalroqdir. Agar ko'nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga olib keladi. Amaliy metodlarga mashqlar, instruktaj (yo'llanma)lar, o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, laboratoriya tajribalari, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish kiradi. Mashqlar – ta'lim jarayonini tadqiq qilish har bir yangi operatsiyani qisqa muddatli (5-15 minut) mashqlardan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Bu mashqlarni shartli ravishda ta'limiy mashqlar deyiladi. Amaliy ishlarni bajarish jarayonida talabalar har xil buyumlar tayyorlar ekan, mehnat usullari va harakatlarini bajarish bo'yicha mashq qilishni davom ettiradilar. Bunday mashqlarni

tayyorgarlik mashqlari deyiladi. Amaliy metod hisoblangan mashq talabalarning ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadida muayyan amallarni ko'p marta va ma'lum maqsadni ko'zlab bajarilishini ko'zda tutadi. Umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishga tadbiquan olganda, mashqlardan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarning bilimlarini mustahkamlash hamda takomillashtirish, ularda olingan bilimlarni har xil ishlab chiqarish masalalarini echishga tatbiq etish ko'nikmalari hosil qilishdan iborat. Mashqlar odatda, dars davomida o'tkaziladi, ular o'quv faoliyatining barcha bosqichlari uchun xos bo'lib, o'quv jarayonidagi o'rniga qarab har xil didaktik vazifalarga ega bo'ladi va muayyan pedagogik talablarga javob berishi kerak. Mashqlarga nisbatan qo'yiladigan zarur talablardan biri ularning ma'lum maqsadga qaratilganligidir. Talabalar o'zlaridan nima talab qilinishini va ular nimaga intilishlari kerakligini aniq tasavvur qilganlari taqdirdagina muvaffaqiyat qozonishlari mumkin. Maqsadga bunday intilish talabalarni faollashtiradi, topshiriqni bajarish uchun mavjud bilimlarni ijodiy tatbiq etishlariga yordam beradi.

Mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilarning ma'lum maqsadga intilishlari ularning yuqori darajada ongli bo'lishini nazarda tutadi. Ana shundagina o'zlari o'zlashtirgan qoidalarni yoki o'rgangan harakat usullarini o'z oldilariga qo'yilgan vazifani hal qilish uchun tatbiq etibgina qolmay, balki bu qoida va usullarni o'zlarining shaxsiy misollari bilan tasdiqlay oladilar, bu misollarni berilgandan farq qiladigan boshqa sharoitda bajara oladilar. Ular nima uchun boshqacha emas, ana shunday qilayotganlari sababini tushuntirib bera oladilar. Onglilik talabalarning aqliy kuchlarini faol zo'riqtirishlarini, amaliy ishlarda tashabbus ko'rsatishlarini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, mashqlar jarayonida talabalarning ongli ravishda maqsadga intilishlari to'g'risida gapirish mumkin. Mashqlardan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad, talabalarda olingan bilimlarni o'quv-ishlab chiqarish masalalarini hal qilishda tatbiq etish ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

Bu hol, tabiiyki, o'quv jarayoniga mashqlarni talabalar zarur bilimlar olganlaridan keyin kiritishni talab etadi. Bu talab barcha mashqlarga avvalo,

o'qitishning boshlang'ich bosqichlarida o'tkaziladigan mashqlarga taalluqlidir. Ammo keyinroq, talabalar etarli darajada bilim va amaliy tajribaga ega bo'lganlaridan keyingina shunday mashqlar berish mumkinki, bu mashqlarni bajarish uchun talabalarda zarur bilimlarning ba'zilar bo'lmaydi. Bunday hollarda mashqlar, mavjud bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish bilan bir qatorda, yangi bilimlarni o'zlashtirish vositasi bo'ladi. Fanni o'rganish vaqtda o'tkaziladigan mashqlar majmui yaxshilab o'ylangan, pedagogik asoslangan tizim bo'lishi kerak. Mashqlar tizimi, avvalo, ularning qat'iy izchilligini ko'zda tutadi. Har bir yangi ko'nikma, yangi malaka mustahkam asosda rivojlanib, o'quv fani tizimiga kiritilgan taqdirdagina oson hosil qilinadi. Ishning har bir yangi turiga talabalar o'zlarining bundan oldingi faoliyati bilan tayyorgarlik ko'radi. Mashqlar tizimi murakkabligi va bu mashqlarni bajarishda talabalarning mustaqillik darajasi sekin-asta ortib boradigan qilib tuzilishi lozim. Talabalarning mustaqillik darajasini sekin-asta oshirib boruvchi mashqlarni tanlashda, ularning xilma-xil bo'lishi kerakligini ham esdan chiqarmaslik zarur.

Bu hol, bir tomondan, talabalarning qiziqishini so'ndirmaslik uchun, ikkinchi tomondan, talabalarni o'z bilimlarini har xil sharoitda tatbiq etish usullariga o'rgatish uchun muhimdir. Bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirishning hamda mashqlar jarayonida uquv va malakalar hosil qilishning samaradorligi mashqlarning soniga, ularni o'kazish tizimliliigi va muntazamligiga, shuningdek, vaqt jihatidan taqsimlanishiga bog'liq. Vaqt jihatidan taqsimlanishi esa, o'z navbatida, o'rganiladigan materialning xarakteriga bog'liq. Tarkibida asosiy masalalar bo'lgan, mavzu yoki fanning asosiy qonun-qoidalarini aks ettiradigan material puxta mustahkamlanishi kerak, bu esa bilimlarni bundan keyingi o'zlashtirilishiga ishonchli asos bo'ladi. O'rganish vaqtida talabalar qiynaladigan va tipik xatolarga yo'l qo'yadigan materialga oid mashqlar tez-tez va ko'p o'tkazilishi darkor. Ammo boshqa hollarda ham, o'rganiladigan materialning muhimligi hamda murakkabligiga qaramay, mashqlar o'quv ishining majburiy elementi bo'lishi, tizimli va muntazam ravishda har qaysi darsda o'tkazilishi lozim. Bu esa talabalarning ish sohasidagi

mehnatida muayyan uslub yaratadi, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta hamda tizimli o'zlashtirishiga yordam beradi.

Bir tipdagi mashqlar o'tkazishda avval ularni teztez, keyin siyrakroq takrorlash zarur. O'rganilgan material esdan chiqib qolishining oldini olish va uni yanada mustakamlash maqsadida, bundan keyingi mashqlarga uni tadbiiq etishga oid topshiriqlar kiritib turish zarurki, bu mashqlarda yangi topshiriqlar asosiy bo'lib qoladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, fanlararo bog'lanishlarning tiplaridan biri - talabalarda hosil qilinayotgap uquvlar bo'yicha bog'lanishdir. SHunga asoslanib, mashqlar o'tkazishda talabalarda fanlararo xarakterdagi ko'nikmalar - o'z ishini rejalashtirish ko'nikmalari, umumiy xarakterdagi intellektual va amaliy ko'nikmalar, kitob bilan ishlash ko'nikmalari, tashkil etish ko'nikmalari hosil qilishga alohida e'tibor berish zarur. Bu hol talabalarning bir fanni o'rganishda orttirgan bilim va ko'nikmalarini boshqa fanlardan qilinadigan ishga ko'chirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan. Bunday metod talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar (innovatsion pedagogik texnologiyalar)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormokda. Innavatsion texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustakil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida quyidagi savollariga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin degan savolga ham javob qidirdilar.

Bu esa, pedagogika sohasi olim va amaliyotchilarini o'kuv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab-chikarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga e'tibor berilayotganining asosiy sababi qo'yidagilardir: Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki ta'lim oluvchi)dan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlatini talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim xayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga

kodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustakil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda ko'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Interfaol ("inter" - bu o'zaro, "act"- harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol metodlari -bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular fakat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orkali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:) talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;) talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi;) talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustakil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;) pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlshdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir matsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirshgan va kafolatlangan natija berishiga tsaratilgan pedagogik

jarayondir. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talabning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va talabning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talaba larning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talabalarga bog'liq. SHu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talabalarning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak.

Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi o'qitish jarayonida "Juftlikda ishlash", "Kontseptual xarita", "Hamkorlikda ishlash", "FSMU", "Blits-so'rov", "Zig-zag", "Davra suhbat", "Nilufar guli", "Kichik guruhlarda ishlash", "Sinkveyn", "Pinbord", "Bumerang", "Debatlar", "Insert", "Aqliy hujum", "Klaster", "Kubik", "Tushunchalar tahlili", "T-sxema", "Venn diagrammasi", "BBB strategiyasi", "Ikki qismli kundalik", "Esse", "Taqriz", "Keys-stadi", "Baliq skleti", "Assesment", "Zinama-zina", "Rolli o'yinlar" va shu kabi yuzlab har xil innovatsion ta'lim texnologiyalari ishlab turibdi va pedagoglar o'z dars mashg'ulotlarining mazmuniga ko'ra ulardan samarali foydalanmoqdalar. 5.6. Ta'lim metodlarini tanlash.

Ta'lim metodlarini tanlash birinchidan, darsda ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, darsning maqsadi yangi bilimlarni o'rganishdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon etadi yoki talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Birinchi holda u turli xil narsalarni ko'rsatish bilan

qo'shib olib boriladigan hikoya, tushuntirish, ma'ruza yoki suhbat usulidan foydalanishi mumkin. Agar darsda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'lsa, buning uchun mashq qilish usuli qo'llaniladi. Ikkinchidan, o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning aniq materialiga bog'liq bo'ladi. Masalan, «Tikuv buyumlari texnologiyasi» fanida o'rganish kiyimga ishlov berishda bir xil usullar, ishlab chiqarish ta'limi darslarida esa butunlay boshqa usullar qo'llaniladi. Ayrim hollarda o'rganilayotgan texnologik jarayonlarni talabalar bevosita kuzatishlari mumkin. SHuning uchun o'qituvchi bu kuzatishni tajribalarda yoki mehnat faoliyati jarayonida tashkil etadi. Agar ularni bevosita kuzatish mumkin bo'lmasa, o'qituvchi turli xil ko'rsatmali qurollarni namoyish qilishdan foydalanadi. Uchinchidan, talabalarning ilgarigi tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq.

Agar yangi material talabalarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni ko'rsatmali qurollar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib o'zi bayon qiladi. Nihoyat, to'rtinchidan, ma'lum bir o'qitish usulini tanlash asbob-uskunalar, ko'rsatmali qurollar va o'quv jarayonining normal o'tishini ta'minlaydigan boshqa shart-sharoitlarning borligiga, shuningdek, o'qituvchining tajribasi, ish uslubi va shaxsiy sifatlariga bog'liq. O'qituvchining vazifasi-bu shart-sharoitlarni yaxshilash hamda o'zining pedagogik mahoratini doimo takomillashtirib borishdan iborat. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:) zamonaviy didaktikaning etakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;) o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;) xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;) muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;) u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;) ta'lim oluvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;) ta'lim oluvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;) o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning

mavjudligi; } o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari; } o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar qabul qiladi. Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari: 8. Ta'lim metodlari deganda nimani tushunasiz? 9. O'qish va o'qitish tushunchalarini izohlab bering? 10. Ta'lim metodlari qanday tasniflanadi? 11. Og'zaki ta'lim metodlarini qanday turlari mavjud? 12. Suhbat metodini o'ziga xos xususiyatlari nimada? 13. Og'zaki bayon etishda o'qituvchi nutq texnikasi qanday bo'lishi kerak? 14. Ko'rgazmali metodlarni afzalliklarini tushuntirib bering? 15. Mashq nima? 16. Innovatsiya tushunchasiga ta'rif bering? 17. Ta'lim metodlarini tanlash qanday mezonlarga asoslanadi?

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim metodlarini tanlash?
2. Ko'rgazmali metodlardan foydalanish?
3. "Ta'lim metodi" tushunchasining mazmunini?

12-Ma'ruza: Maxsus fanlarni o'qitishda tarbiyaviy ishlar mazmunini ishlab chiqish.

Reja:

1. Tarbiya jarayoning maqsadi, vazifalari va mohiyati.
2. Tarbiya jarayoning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

4. Tarbiya turlarining umumiy tavsifi.

Tayanch tushunchalar: *tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyaning umumiy vazifalari, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatlari,*

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarish.i va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi.

Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi.

Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiyachiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat

kasb etadi. Yosh avlodning , umuman, jamiyat a'zolarining Tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiyajamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxdab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura Tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda Tarbiyafaqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning Tarbiyasi bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq ped.si tajribasi Tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiki tufayli Tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli hisobga olinmadi. Sho'rolar ped.sida Tarbiya orqali xar kanday odamni istagan ijtimoiy kiyofaga solish mumkin degan karash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi.

Tarbiyalanuvchi shaxsining Tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida Tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash karor topdi, Bu hol Tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki Tarbiyaning asosiy ob'yekta bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib takaladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liqjarayonlarga yangi

hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiypartiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e'tibor karatilmoqda.

Buning uchun xalq ped.si boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilayotir. Natijada, O'zbekiston ped. fani va amaliyotida oila Tarbiyasining ham, ijtimoiy Tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olinib boshlandi. Shuningdek, Tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida Tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol Tarbiyaga doyr hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkoniniberdi. Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, «Tarbiya» yoki «Tarbiyaning tarkibiy qismlari» mavzusiga oid klaster tuzishadi.

Klasterning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

Aqliy tarbiya:

bilim, ilm, malaka, ko'nikma; aql, ong, fahm;

Axloqiy tarbiya:

axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshq.;

Mehnat tarbiyasi:

faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik; aqliy ish, jismoniy mehnat, foyda, maosh;

Jismoniy tarbiya:

chiniqish, sport, o'yinlar; sog'lom tan; Estetik tarbiya: go'zallik, kiyinish, tozalik, yurish-turish, saranjom-sarishtalik; Ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, daraxtlar, qushlar, o'rmonlar; Iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik; Huquqiy tarbiya: fuqaro, tenglik, to'g'rilik, halollik, jinoyat, jazo, huquq, burch. (Har bir guruh tushunchalarni toifalab, tuzgan Klasterlarinistaqdimetadi.) Tarbiya nazariyasi nimalarni o'rganadi? degan savolga javob qidirsak. Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy

jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. U Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasiga tayanadi. Pedagogika tarixidan ma'lumki, ta'lim tarbiyadan, tarbiya rivojlanishdan ajratib tekshirilmagan. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya pedagogikasida tarbiya masalalarini alohida ko'rish hollari uchraydi. «1806 yilda chiqarilgan Rossiya Akademiyasi lug'atida birinchi bor tarbiya so'zi pedagogik tushuncha sifatida alohida keltiriladi», deb ta'kidlaydi I. Tursunov.

O'tgan mavzularda tarbiyaga berilgan ta'riflarni yodga olaylik: «Tarbiya - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatidir». «Tarbiya - tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda va tizimli ta'sir ko'rsatish jarayonidir». Qat'iy ishonch bilan aytish lozimki, - degan edi Prezident I. Karimov O'zbekiston teleradiokompaniyasi muxbiri bilan muloqotda, - ma'naviy boylik moddiy boylikdan ming bor ustun, shu bois biz ta'lim - tarbiya masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida yondoshmoqdamiz. Kadrlar tayyorlash haqida qonun qabul qilingan milliy dastur ham mohiyat e'tibori bilan shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan.

Tarbiya jarayoni deganda nimani tushunamiz? Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aksettiradi. Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

A) O'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi. Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim - tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi. Tarbiya jarayoni qanday xususiyatlarga ega, u ta'limdan nimalari bilan farq qiladi?

Tarbiyaning birinchi xususiyati uning ko'p qirrali jarayon ekanligi bo'lib unda maktab, oila, bolalar va o'smirlar tashkilotlari, mahalla, keng jamoatchilik, kino-teatr, televideniye, adabiyot va san'at ishtirok etadi. Tarbiyaning yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Ta'limdan farqli ravishda u bola tug'ilganidan boshlanadi, maktab yillarida, undan keyin va butun umr bo'yi davom etadi.

Tarbiyaning samarali bo'lishi nimalarga bog'liq?

Ma'naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda otaonaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metod dan foydalanishiga bog'liq.

Tarbiya - har bir insonning hayotida, yashashi mobaynida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni. Tarbiyalanganlik - jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan hatti harakatlardan o'zini tiya bilish. Beruniy insonning kamolatga yetishishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada, nasl - nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir.

Axloqlilikning belgilari yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyjanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go'zallikka intilish kabilardir. Adolat - hayotiy masalalarni axloqiy va huquqiy normalarni rioya etgan holda hal etishdir. Adolat tushunchasi bilan bog'liq jihatlar juda keng qamrovli bo'lib, adolatli inson, adolatli jamiyat kabi tushunchalar shunday jihatlar jumlasiga kiradi. Adolatparvarlik tushunchasi esa adolat tamoyili amal qilgan holda ish olib borish, yo'l tutish, faoliyat yuritish demakdir. Prezidentimiz I.A.Karimov "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz" (1999 yil, 13 fevral) mavzusidagi "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga javoblari biz uchun dasturilamal bo'ldi.

- Vatan, millat taqdiri hal bo'ladigan qaltis vaziyatda to'g'ri yo'lni tanlash uchun avvalo tarixni yaxshi bilish, hayotning achchiq- chuchugini bilish kerak.

- Insonlar tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish lozim.

Mamlakatimizning huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida o'tmishimizning hali o'rganilmagan sahifalarini tadqiq etish, davlat va siyosiy arboblarning nomlarini xalqimizga qaytarish, huquqiy qadriyatlarimizni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. « Biz uchun mustaqillik-eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini tiklash, mu'tabar shu zaminda, tinchlik- osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir». Shu nuqtai nazardan, yoshlarda ijtimoiy adolat haqidagi tushunchalarni shakllantirish

ijtimoiy adolat mavzui doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, «adolat» keng qamrovli tushuncha sifatida ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab oladi. « Adolat, axloq va huquq kategoriyasi sifatida axloqiy-huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o'lchovdir», -deb yozadi F. Nizomov.

Har qanday jamiyat ijtimoiy adolat normalariga rioya qilishi bilan yuksalish darajasi belgilanadi. Tarixga nazar tashlasak, turli jamiyatlarda adolat nizomi yaratishda xilma-xil yondashuvlarga amal qilib kelinganligining guvohi bo'lamiz. Istiqloq sharofati bilan ko'plab ajdodlarimizning ilmiy merosi va ularda ilgari surilgan adolat to'g'risidagi g'oyalar atroflicha o'rganish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida chuqur huquqiy bilimlarga ega, sotsiomadaniy darajasi rivojlangan, amaliy ko'nikma-malakalarni egallagan, raqobatbardosh kadrlar talab qilinadi. Shu sababli yoshlarda ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchalarni kamol toptirish uchun zamin yaratish lozim.

Kelajakda mutaxassis bo'lib yetishuvchi kadrlar, bugungi kun uzluksiz ta'lim qatnashchilari huquqiy davlat muammolarini to'g'ri baholay oladigan, chuqur huquqiy bilimlarga ega, ijtimoiy hayot sohalari ichki qonuniyatlari to'g'risidagi tushunchalarni egallab borishlari zarur. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar rivojlanayotgan huquqiy demokratik davlatdagi ijtimoiy sohadagi islohatlar, ahloqiy-huquqiy munosabatlar kabi masalalarga alohida e'tibor berishlari lozim. Mazkur tushunchalarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida asosiy bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Hayotda adolat me'yorlariga rioya etish ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ruhiy jarayondir. Xuquqiy tarbiya muammolari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq qilish muammolariga bag'ishlab ilmiy izlanish olib borgan olimlar: A. Saidov, B. Karimov, I. Ergashev, A. Begmatov qarashlari qimmatli ahamiyatga molikdir.

Ma'lumki, inson jamiyatda erishishi mumkin bo'lgan narsalar-mulk, daromad, ijtimoiy maqom, hokimiyat, huquqlar insonlararo munosabatlaridagi adolatga bog'liq. Moddiy ne'matlar va xizmat turlari, ijtimoiy (obro', hurmat-

ehtiromlar), siyosiy ne'matlar (siyosiy erkinliklar, shaxs huquqi), sog'liqni saqlash kishilarning ijtimoiy ahvoli kabi sohalarida odamlar adolat muammolariga katta e'tibor beradilar. Mutafakkir Shahobiddin Am'aqi odil shoh g'oyasini ilgari surar ekan, ayni paytda hukmdorga adolat me'yorlariga rioya qilish lozimligini o'qtiradi. Jamiyatdagi mavjud sotsial guruhlar, sinflar, tabaqalarga nisbatan moddiy ma'naviy ne'matlarni ulashishiga «chun xurshed meboyat zist», ya'ni quyosh singari barchaga baravar, barchani birday ko'rib, adolat yuzasidan taqsimlash lozimligini ta'kidlaydi.

Tarbiya vositalari biron - bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. (Ko'rsatmali ko'nikmalar, kitoblar, radio, televideniye). Bundan tashqari o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari kinofilmlar, san'at asarlari, o'quvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi - tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan va yangi kitoblarning muhokamasini, taqdimotini uyushtirishi lozim.

Tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning tarbiya jarayonidagi ahamiyati qanday? Tarbiya natijasi tarbiya jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulni eng maqbul usulni tanlab olishi, uning shaxsini o'zgartirishi uchun kerakli shart - sharoit yaratishlari lozim.

Tarbiya usullari har bir bolaga har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi. Bu usul vositalar nihoyatda rang - barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullari quyidagi tarzda umumlashtirilgan.

1. Tushuntirish (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).
2. Nasihat berish (o'git, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, oq yo'l tilash, yaxshiliklar haqida so'zlash, rahmat aytish, duo qilish).
3. Namuna bo'lish (maslahat so'rash, o'rnak bo'lish).
4. Jazo (ta'kidlash, ta'na - gina, tanbeh berish va h.k.)

Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtiradi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar,
- 2) faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish usullari,
- 3) o'z - o'zini tarbiyalash usullari,
- 4) rag'batlantirish usuli va jazolash usullari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar. Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu guruh usullarining mohiyati shundan iboratki ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi.

Darsdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari (o'quvchilarning turli to'garaklar, sport seksiyalari)ni ko'rsatish mumkin. Darsdan tashqari ishlarning xususiyatlari va xossalari. Darsdan tashqari ishlar o'qituvchining individual yoki gruppali topshiriqlari asosida darsdan keyin kursni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan majburiy tarzda amaliy ishlarni bajarishni tashkil etish shakli.

Darsdan tashqari ishlar maktabta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir. Sinfдан tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. O'quvchilar darsdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtiroketishadi. Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bu-gungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinfдан tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- b) fan to'ga-raklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- v) duradgorlik to'ga-raklari;

O'rta umum ta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Darsdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Sinfдан tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ihtiyoriy ravishda birlashtiradi.

Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Darsdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ij-timoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferentsiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-

ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayoram kechlari va ertalıkları, to'g'arak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarning darsdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va mohiyati?
2. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari?
3. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari?
4. Tarbiya turlarining umumiy tavsifi?
5. Darsdan tashqari ioshlarni tashkil qilish?

13-Mavzu: Maxsus fanlarni o'qitish sohasida ilmiy tadqiqotlarning rejasi va mazmunini ishlab chiqish.

Reja:

1. Ilmiy - tadqiqotlar o'tkazish maqsad va vazifalari.
2. Ilmiy-tadqiqot metodlarini n g o'ziga xos xususiyatlari.
3. Nazariy, suhbat, pedagogik so'rash metodlari.
4. Statistika ma'lumotlarni tahlil qilish usuli.

Tayanch so'z va iboralar: *Maxsus fan, soha, ilmiy tadqiqot, reja, mazmun, nazariy suhbat, statistika ma'lumotlar, pedagogik so'rash.*

Barcha turdagi ta'lim muassasalarida, shuningdek, professional ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi va uning natijalarini nazorat etib, baholovchi asosiy shaxs o'qituvchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida "Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslarga berilishi" ta'kidlangan. Bunda kasbiy tayyorgarlik tushunchasiga

alohida e'tibor berish zarur. Chunki ma'lum ma'noda barcha odamlar ta'lim-tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanishadi, biroq faqat o'qituvchilargina kasbiy pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadilar. Demak, o'qituvchilar pedagogik qonuniyatlar asosida faoliyat ko'rsatib, o'z burch va vazifalarini sifatli bajarishga javobgar shaxs hisoblanadilar. Har bir talaba, yosh avlod jamiyat va davlat taqdiri uchun javobgarlik his-tuyg'ulari o'qituvchi vazifasini tavsiflaydi. O'qituvchi mehnatining bugungi natijasi bilan jamiyatimizning ertangi istiqboli bevosita bog'liq.

Sabr-toqat va kelajakka ishonch o'qituvchining muhim kasbiy fazilatidir. Kasbiy ta'lim o'qituvchisining ishi juda murakkab ko'rinishdagi inson-inson, inson-texnika va texnologiya munosabatlariga tegishli. Chunki kasbiy pedagogik jarayon ishtirokchilari hamkorlik nuqtai nazaridan chegaralangan. Pedagogik vazifa – kasbiy bilim va ish-harakat usullarini qo'llash borasidagi faoliyatni amalga oshirishdir. Buning natijasi o'laroq talaba ta'lim oladi, tarbiyalanadi va ma'lum ma'noda rivojlanadi. O'qituvchining bosh vazifasi ta'lim-tarbiya, shakllantirish va rivojlantirish, jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini nazorat etish hamda baholash hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchi faoliyati o'qitish emas, balki suhbat – o'rganishga yo'naltirish, tarbiyalash emas, balki tarbiyalash jarayonlarini boshqarishga qaratilgan. Shuning uchun ham pedagog-murabbiyni Suqrot – “fikrlar doyasi”, deb atagan edi. O'qituvchi tayyor ma'lumotni yetkazishi emas, balki talabalar ongida tushuncha, tasavvur, xulosa hosil qilishi zarur. O'qituvchilar nima bilan shug'ullanishi va ular mehnatining o'ziga xos xususiyatlari ko'p sonli tadqiqotchilar tomonidan bayon etilgan. Ulardan biriga, o'qituvchining bosh vazifasi pedagogik boshqaruvchilik, deb biluvchilarga e'tiborimizni qaratsak. Boshqaruv vazifasini aniqlashtirish uchun “pedagogik loyiha” tushunchasidan foydalanamiz, “pedagogik loyiha” deganda, har qanday o'ylangan va oxiriga yetkazilgan o'qituvchi faoliyati tushuniladi.

Masalan, dars, mavzu yoki bilimni o'rganish, viktorina tashkil etish, ekologik ekspeditsiya uyushtirish va shu kabilar. Bu ishlarning barchasini o'qituvchi bajaradi. Bunda boshqaruv qanchalik o'ylab, sinchkovlik bilan amalga oshirilsa, shuncha

xatolarga kam yo'l qo'yiladi va natijada yuqori samaradorlikka erishiladi. Pedagogning birinchi vazifasi loyihani shakllantirish davridanoq paydo bo'ladi va u ma'lum maqsadni ko'zda tutadi. Ma'lumki, maqsad pedagogik faoliyatda muhim omil, bu jarayon ishtirokchilarini ma'lum ma'noda hamkorlikdan umumiy natijaga chorlaydi va yo'naltiradi. Boshqarish jarayonining mohiyati ishtirokchilar hatti-harakatlarini maqsadga erishish yo'lida muvofiqlashtirish minimum farqlarga yo'l qo'ygan holda maksimal natijaga erishishdan iborat.

Ta'lim - tarbiya ishida boshqarish, eng avvalo, talabalarning bilimlariga asoslanadi, ularning tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganligi, rivojlanishiga tashxislash asosida erishiladi. Talabalarning jismoniy o'ziga xos jihatlari va ruhiy rivojlanganligi ularning aqliy va axloqiy tarbiyalanganlik darajasi, yashash shart-sharoitlari kabilarni bilmasdan turib, to'g'ri maqsad qo'yib ham, unga erishish vositalarini tanlab ham bo'lmaydi. Bu muhim qoidani o'z vaqtida K.D.Ushinskiy payqab, "Pedagogika insonni barcha jihatlarda tarbiyalay olishi uchun uning barcha jihatlarini bilishi zarur", - deb ta'kidlagan edi. Demak, o'qituvchi pedagogik vaziyatlarni tashxislash va bashorat etish metodlarini mukammal bilishi kerak. U metodlar odatda ilmiy tadqiqot etish metodlarini takrorlaydi. Bundan tashxislash bilan bashorat etishning uzviy bog'liqligi kelib chiqadi. O'qituvchidan aniq shart-sharoitga asoslangan holda faoliyat natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyati talab etiladi.

O'zining faoliyati natijalarini oldindan ko'ra olmagan pedagogik tavakkaliga ish ko'radigan yo'lovchiga, ongsiz o'rgimchakka o'xshatish mumkin, xolos. O'qituvchi o'zining hamkorlari, shart-sharoitini tashxislaydi hamda istiqbolni oldindan tasavvur etib, ta'lim-tarbiya faoliyatini loyihalashga kirishadi. O'qituvchining loyihalovchilik vazifasi to'la amalga oshiriladigan faoliyatning modelini qurishdan, ushbu shart-sharoit hamda ajratilgan vaqt omillari hisobga olingan holda maqsadga eltuvchi yo'l va vositalarni tanlash, maqsadga erishtiruvchi aniq bosqichlarni ajratish, ularning har biri uchun xususiy vazifalarni belgilash, erishilgan natijani nazorat qilish va baholash ko'nikmalari hamda shakllarini aniqlash

kabilardan iborat. Haqiqiy o'qituvchi auditoriyaga rejaning mazmunini batafsil, aniq bilmasdan, o'ylamasdan kira olmaydi. Bunda rejaning hajmi emas, balki mohiyati, ya'ni uning o'qituvchi ko'z o'ngida gavdalanishi muhimdir. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, o'qituvchi faqat bitta emas, balki bir qancha reja variantlarini tuzishi zarur, chunki ko'z ilg'amas, hisobga olinmay qolgan omillar ham bo'lishi mumkin.

Tashxislash, bashorat etish, loyihalash, rivojlantirish har qanday ta'lim- tarbiya ishida o'qituvchining tayyorgarlik ko'rish bosqichidagi asosiy vazifadir. Ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning navbatdagi ikkinchi bosqichida o'qituvchi tashkilotchilik, axborotchilik, nazoratchilik, baholovchilik va o'zgartirishlar kirituvchilik vazifalarini bajaradi. O'qituvchining tashkilotchilik vazifasi ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida talabalarning diqqat-e'tiborini jalb etish, ular bilan hamkorlik faoliyatida ishtirok etishdan iborat. O'qituvchini axborotchilik vazifasining mohiyati ayni makon va zamonda o'qituvchiga asosiy axborot manbai sifatida qarash (tasavvur etish)ni ko'zda tutadi. U takomil darajada hamma narsani, ya'ni o'qitadigan predmetini, psixologiyani, fiziologiyani, pedagogika va metodikani biladi, ularga asoslanib kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshiradi, deb faraz qilinadi. Ba'zi hollarda o'qituvchilarni baholashda nazoratchilik va o'zgartirishlar kirituvchilik vazifalari yaxlit olib qaraladi. O'qituvchi bunday vazifani eng avvalo, rag'batlantirish maqsadini ko'zda tutib, ta'lim-tarbiya jarayonini harakatlantiruvchi

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ilmiy - tadqiqotlar o'tkazish maqsad va vazifalari?
2. Ilmiy-tadqiqot metodlarini n g o'ziga xos xususiyatlari?
3. Nazariy, suhbat, pedagogik so'rash metodlari?
4. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli?

14-Mavzu: Umumiy o'rta ta'lim muassasalari, professional ta'limi muassasalari sifatini boshqarish tizimining mazmuni va tuzilmasi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimining mazmuni va tuzilmasi. Malaka oshirish muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimini yaratish imkoniyatlarini o'rganish.

Reja:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari, professional ta'limi muassasalari sifatini boshqarish tizimining mazmuni va tuzilmasi.
2. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimining mazmuni va tuzilmasi.
3. Malaka oshirish muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimini yaratish imkoniyatlarini o'rganish.

Tayanch so'z va iboralar: *professional, ta'lim, muassasa, sifat, boshqarish tizimi, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, tuzulma, malaka oshirish, imkoniyat.*

Bugungi kunda ma'lumki ta'lim tashkilotlarini boshqarish bilan dolzarb muammolar yuzaga kelgan. Ta'lim sifatini oshirish uchun e'tiborni avvalo tizimga qaratish kerak. Ta'limda boshqaruvga doir muammolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri, jamiyat hamda iqtisodiyotning keskin o'zgarib borishida. Qisqa qilib aytganda zamonaviy sharoitda eskicha boshqaruv tizimi bilan qolib ketish bu eng asosiy va katta muammolardan biri. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun dastlab boshqarish sohasida malaka oshirish yoki kadrlarni qayta tayyorlashdan o'tkazish kerak.

Xususan bugungi zamon talablariga ko'ra ta'lim muassasasini boshqarish aslida murakkab jarayon hisoblanadi. Muammolarni yechimini quyidaga fikrlar bilan yechish mumkin: - Boshqaruvning tarkibiy qismlari, maqsad va vazifalarini tog'ri tanlash; - Bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish; - Kelgusida qilinadigan ishlarni rejalashtirish; - Ta'lim va tarbiya darajasini oshirishning zamonaviy usullarini tashkil qilish; - Jamiyatimizda tubdan isloh

qilingan ta'lim tizimini yaratish; Avvalo boshqaruv ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak. Insonning har qanday faoliyatining yo'nalishini, xarakterini uning ko'zlagan maqsadi belgilaydi. Maqsad esa huddi qonundek ong ostiga ta'sir qilib, harakatning sifatini va usulini belgilaydi. Demak ko'rinib turibdiki boshqarish ham inson faoliyatining o'ziga xos sohasidir. Yuqoridagi fikrlarning mohiyati shundaki, boshqarishda maqsadni to'g'ri, aniq belgilash uning natijasining samarador va yuqori bo'lishiga turtki bo'ladi. Quyidagi fikrlarga e'tiborni qaratsak: - boshqarish bo'g'inlarida aniq maqsadni belgilash umumiy tizim maqsadini aniqlashga asos bo'ladi;

Bugungi kunda ma'lumki ta'lim tashkilotlarini boshqarish bilan dolzarb muammolar yuzaga kelgan. Ta'lim sifatini oshirish uchun e'tiborni avvalo tizimga qaratish kerak. Ta'limda boshqaruvga doir muammolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri, jamiyat hamda iqtisodiyotning keskin o'zgarib borishida. Qisqa qilib aytganda zamonaviy sharoitda eskicha boshqaruv tizimi bilan qolib ketish bu eng asosiy va katta muammolardan biri. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun dastlab boshqarish sohasida malaka oshirish yoki kadrlarni qayta tayyorlashdan o'tkazish kerak.

Xususan bugungi zamon talablariga ko'ra ta'lim muassasasini boshqarish aslida murakkab jarayon hisoblanadi. Muammolarni yechimini quyidaga fikrlar bilan yechish mumkin: - Boshqaruvning tarkibiy qismlari, maqsad va vazifalarini tog'ri tanlash; - Bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish; - Kelgusida qilinadigan ishlarni rejalashtirish; - Ta'lim va tarbiya darajasini oshirishning zamonaviy usullarini tashkil qilish; - Jamiyatimizda tubdan isloh qilingan ta'lim tizimini yaratish; Avvalo boshqaruv ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak. Insonning har qanday faoliyatining yo'nalishini, xarakterini uning ko'zlagan maqsadi belgilaydi. Maqsad esa huddi qonundek ong ostiga ta'sir qilib, harakatning sifatini va usulini belgilaydi. Demak ko'rinib turibdiki boshqarish ham inson faoliyatining o'ziga xos sohasidir. Yuqoridagi fikrlarning mohiyati shundaki,

boshqarishda maqsadni to'g'ri, aniq belgilash uning natijasining samarador va yuqori bo'lishiga turtki bo'ladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yadi. Sifatli mutaxassisni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta'lim muhitida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim sifati har qanday davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanmoqda.

“Sifat” tushunchasi turlicha, ba'zan bir-biriga zid ma'noda talqin qilinadi. Pedagogika fanida u: bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgilar, xususiyatlar, o'ziga xosliklar; shuningdek u yoki bu xususiyat, qadr, yaroqlilik darajasi, ma'naviy-ahloqiy kategoriya yoki sof iqtisodiy tushuncha kabi talqin etiladi. Ba'zi olim va amaliyotchilar uni ta'lim tizimining o'zlashtirish sifatiga erishishga intilishi; boshqalar o'qitish va tarbiyalashning sifati, uchinchilar, shaxs iqtidori rivojlanish darajasining oshishi; to'rtinchilar, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sonining ko'payishi; beshinchilar oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini tushunadilar.

Ta'lim sifati va uni ta'minlovchi omillar: ta'lim mazmunining fundamentalligi, ma'lum ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibligi, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, boshqarishga kompleks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqalar orasidagi bog'liqliklarni tavsiflashga nisbatan turli qarashlar mavjud.

Ta'lim sifati – bu nafaqat ta'lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, shuningdek

har bir pedagog va rahbarning ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati hamdir.

Zamonaviy ta'lim muassasasida ta'lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirish darajasini, u kechadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to'plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Ta'lim sifatini boshqarish (ta'lim sifati menejmenti) ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta'lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan va amalda o'z samaradorligini ko'rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O'z o'rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Demak, ta'lim sifatini boshqarish ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi, ya'ni u ta'limni boshqarish yaxlit tizimining tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.

Ta'lim sifati tashqi auditini jalb qilgan holda o'quv muassasasi faoliyatini tizimli va holis baholashga tayanuvchi ta'lim sifatini ta'minlash tizimining rivojlanish mantiqi ta'lim muassasalarida ta'lim sifati menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishni taqazo qiladi.

Bundan tashqari, o'quv muassasalarida ta'lim sifati menejmenti tizimining mavjudligi kelajakda ta'lim jarayoni sifati va natijalarini baholashning tashqi nazorati tadbirlarini ichki nazorat va o'zini-o'zi baholash natijalaridan foydalanish bilan almashtirish imkoniyatini yaratadi, mazkur jarayonlarning jamoatchilik nazoratiga ochiqdigi esa ta'lim muassasasiga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi.

Sifatni boshqarish nazariyasining shiddat bilan rivojlanishi davri o'tgan asrning 40-yillari oxiri va 50-yillariga to'g'ri keldi. Ushbu davrda A.Feygenbaum (Armand V. Feigenbaum) sifatni ishlab chiqish, sifatni qo'llab quvvatlash va sifatni yaxshilash bosqichlaridan iborat Sifatning Umumiy Nazorati (Total Quality Control, qisqacha – TQC) tushunchasini kiritdi.

1. Bugungi kunga kelib TQCning bir-nechta asosiy (Yaponiya, Amerika, Yevropa) “maktab”lari mavjud. Shuning uchun, TQC asosini belgilovchi tamoyillar miqdori haqida mutaxassislar o'rtasida yagona bir fikr yo'q. Asosiylar sifatida quyidagi sakkizta tamoyil tan olingan. Tashkilotning iste'molchiga yuz tutganligi;

rahbarlikning roli;

xodimlarni jalb etish;

jarayonli yondashuv;

boshqarishga tizimli yondashuv;

muntazam takomillashtirish;

dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilish;

ta'minlovchilar bilan o'zaro manfaatli munosabat.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mahsulot, xizmat, ish va jarayonlarning yuqori sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan hukumat, firma va kompaniyalar rahbariyatining sa'y-harakatlari natijasida sifatni oshirish milliy g'oyaga aylandi.

Turli yondashuvlarning integratsiyasi natijasida Sifatning umumiy boshqaruvi (TotalQualityManagement – TQM) kontseptsiyasi shakllandi.

Zamonaviy TQMning asosini oliy darajadagi rahbarlikning tashkilot, uning xodimlari, iste'molchilari va jamiyatning manfaatlarini ko'zlab sifat sohasidagi uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish va barcha xodimlarning uni amalga oshirishdagi ishtiroki tashkil qiladi.

Ta'lim muassasasi rahbariyatining sifatni boshqarishdagi doimiy va muntazam shaxsiy ishtiroki – ta'lim muassasasining sifatni ta'minlash ishida muvaffaqiyatgarovi hisoblanadi.

Sifatning umumiy boshqaruvini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- sifat menejmentini joriy etish, raqobat sharoitida ta'lim muassasasining maqsadi, umumiy mafkurasi, rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqish to'g'risida strategik qarorni qabul qilishi;
- tashkilot maqsadlari tarkibiga sifatni ta'minlashni kiritish, uni ham ma'naviy va ham moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- tashkilot oliy boshqaruvi tarkibidan sifat uchun mas'ul vakilni tayinlash;
- jarayonlarni boshqarishning statistik usullari va sifat menejmenti sohalari bo'yicha xodimlarni (shu jumladan, yuqori pog'ona rahbarlar tarkibidan) tayyorlash;
- xodimlar bilan qayta aloqani tashkil qilish (ichki iste'molchilarning fikrlari va talablarini inobatga olish);
- ichki audit va tashkilotdagi kamchiliklar tahlilini muntazam o'tkazib turish.

TQM kontsepsiyasida sifatni boshqarishga doir avvalgi kontsepsiyalarga xos bo'lgan barcha ijobiy jihatlar o'z aksini topgan. U ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina zamonaviy menejment tizimlarining asosini tashkil qiladi.

Standartlarning ahamiyati shundaki, ular korxonalar menejmentiga tizimli va jarayonli yondashuvni joriy etish, menejmentning e'tiborini iste'molchilarga va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olishga qaratadi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti(ISO)ning 9000 raqamli standartlari sifat tizimlarini loyihalashtirish va qo'llashning yagona, butun dunyoda tan olingan yondashuvini joriy qildi.


ISO 9000 standartlari turli soha tashkilotlari uchun universaldir. Ular ishlab chiqarish, aloqa, xizmatlar, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi faoliyat sohaslarida faol

qo‘llanilmoqda va dunyoda eng mashhur standartlar sifatida Ginnes rekordlar kitobiga kiritilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim sifatini boshqarish tizimini joriy etish tajribasi sifatni boshqarishning quyidagi asosiy bosqichlarini ajratish imkoniyatini beradi:

1. Ta‘lim muassasasining ta‘lim sifatini boshqarish tizimini loyihalashtirish va ta‘lim sifatini boshqarishni rejalashtirish (Rejalashtirish) – talab qilinayotgan sifatga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyatning me‘yoriy, tashkiliy, uslubiy va vositaviy asoslarini shakllantirish.
2. Ta‘lim sifatini boshqarish (Bajarish) – ta‘lim xizmatlari buyurtmachilarining ehtiyojlarini o‘rganish bo‘yicha muntazam faoliyatlar ketma-ketligini aks ettiruvchi sifatni shakllantirish, asosiy va qo‘shimcha ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, resurslar bilan ta‘minlash jarayonlari.
3. Jarayonlar monitoringi va o‘zgarishlar kiritish (Nazorat va Harakat) – sifatning erishilgan darajasini belgilangan darajasi bilan solishtirish va baholash jarayoni, barcha manfaatdor tomonlar bilan qayta aloqani amalga oshirish, boshqarish tizimi va faoliyatiga o‘zgarishlar kiritish.

Shunday qilib, ta‘lim sifatini boshqarish bir-biri bilan bog‘langan va o‘zaro ta‘sirida bo‘luvchi elementlardan iborat uzluksiz va yopiq kechadigan jarayondir.



1-rasm. Sifatni boshqarish uchburchagi (sifat boshqarishi modeli)

Ta‘lim muassasasida ta‘lim sifatini boshqarish tizimini yaratishdan maqsad iste‘molchilar talablariga mos keluvchi sifatli ta‘lim xizmatlarini taqdim etish uchun zarur sharoitlarni ta‘minlashdir.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimi quyidagilar uchun zarur:

- davlat ta'lim standartlari talablariga erishishda ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish;
- muassasada ijodiy va ishchan muhitni rivojlantirish, xodimlarning kasbiy faolligini oshirish;
- ta'lim muassasasida boshqarish tizimini yaxshilash;
- ta'lim jarayonining moliyaviy, moddiy va kadrlar ta'minotini optimallashtirish;
- ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirish;
- ta'lim faoliyati uchun zamonaviy xavfsizlik sharoitlarni yaratish;
- ta'lim muassasasini boshqarishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash.

Ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimining vazifalari quyidagilar:

- ta'lim muassasasidagi ta'lim sifatining asosiy mezon ko'rsatkichlarini belgilash;
- ta'lim muassasasidagi ta'lim sifati to'g'risida tahliliy hisobotlar va ma'ruzalar tayyorlash;
- ta'lim sifatini ta'minlash va doimiy yaxshilash uchun ta'lim muassasasidagi innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish;
- ta'lim muassasasining rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash, pedagog xodimlar malakasini oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni qayd etamiz:

– ta'lim muassasasida ta'lim sifati menejmenti – bu loyihalashtirish, ya'ni ta'lim maqsadlarini va ularga erishish yo'llarini belgilash; ta'lim jarayonini tashkil etish va uning ishtirokchilarini sifatli mehnatga qiziqishini uyg'otish; maqsadlardan chetlanishlarni aniqlash va rivojlanishdagi o'zgarishlarni kuzatish tizimi (monitoringi); natijalarni boshqarish va tahlil qilish jarayonlaridir;

– ta'lim sifati menejmenti – bu har qanday, tasodifiy, oldingisidan ko'ra yaxshiroq, o'z-o'zidan kelib chiqadigan maqsadlarga emas, balki ta'limning oldindan

rejalashtirilgan natijalariga, ya'ni muayyan o'quvchining eng yuqori imkoniyatlarga erishishi uchun tashkil qilingan va yo'naltirilgan alohida boshqaruvdir;

– ta'lim sifati menejmenti – bu belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun boshqaruvning barcha funktsiyalarini amalga oshirish, ham tor, ham keng ma'noda kafolatlangan natijaga erishish demakdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan: birinchidan, oliy ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim olayotgan talabalar bilimni baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti; ikkinchidan, professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimni va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; uchinchidan, oliy ta'lim muassasalariga kirish test savollari abituriyentning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi iqtidorli yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda muammolar keltirib chiqarmoqda; to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda; beshinchidan, oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolmoqda; oltinchidan, respublikamizda olib borilayotgan tub

islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki yo'lga qo'yilmagan; yettinchidan, oliy ta'lim muassasalari innovatsion va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha taklif kiritish borasida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faolishtirokini ta'minlash, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning 2018/2019 o'quv yilidan boshlab: alohida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qish muddati kamida uch yil bo'lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo'lgan magistraturani joriy etish, bunda magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo'nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etish; oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul qilish kvotalaridan tashqari xorijiy fuqarolarni suhbat asosida test sinovlarisiz o'qishga qabul qilish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning viza talabnomalariga asosan o'qishga kirish istagini bildirgan xorijiy fuqarolarning kirish vizalarini o'rnatilgan tartibda konsullik va boshqa to'lovlarni undirmagan holda rasmiylashtirsin.

3. 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab tayanch (yetakchi) oliy ta‘lim muassasalari tomonidan tegishli ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv rejalari va dasturlarini kadrlar buyurtmachilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, mustaqil ravishda ishlab chiqish hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlash tartibi joriy etilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar bilan birgalikda: a) ikki oy muddatda Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin, bunda asosiy e‘tiborni: baholash tizimi va mezonlarini uzluksiz ta‘lim tizimining bosqichlariga muvofiqlashtirishga; ta‘lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan, muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etishga; semestr yakuni bo‘yicha akademik qarzdor talabaning qayta topshirishi mumkin bo‘lgan fanlar sonini belgilashga va ularni topshirish muddatini o‘zgartirishga qaratsin; b) 2018-yil 1-dekabrgacha bo‘lgan muddatda oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin; v) 2019-yil 1-martgacha bo‘lgan muddatda 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab oliy ta‘lim muassasalarida “talabaning o‘zlashtirish darajasi – professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni” tamoyilini joriy qilishning aniq mexanizmlarini belgilash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ko‘rsin. Bunda ushbu tamoyil talablariga javob bermaydigan professor-o‘qituvchilar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo‘lgan choralar ko‘rish belgilansin; g) 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining vaqtini o‘quv jarayoniga xos bo‘lmagan ishlarga sarflashning oldini olish hamda ularni talabalar bilan ko‘proq ishlashga yo‘naltirish, shu jumladan, “ustoz – shogird”

tizimini joriy etish maqsadida o‘quv yuklamalarini hisobga olgan holda professor-o‘qituvchilar “vaqt me‘yorlari”ning yangi mexanizmlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. Oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarini ularning vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan yig‘ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etish taqiqlansin. Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar mazkur talabni buzganligi uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo‘lgan shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida qat‘iy ogohlantirilsin. 6. Barcha oliy ta‘lim muassasalarida samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasalaridagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o‘qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda jamoatchilik kengashlari tashkil etilsin.

Quyidagilar jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari etib belgilansin: ta‘lim sifati, professor-o‘qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o‘rnatish; oliy ta‘lim muassasalariga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo‘yicha tavsiyalar berish; talabalarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to‘liq o‘rganish maqsadida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish; oliy ta‘lim muassasasidagi ta‘lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va muassasaning tegishli kengashi muhokamasiga kiritish. Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkiliy jihatdan ta‘minlash Yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasasidagi yetakchisi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Oliy ta‘lim muassasalari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin. 7. Belgilansinki, 2018-yil 1-sentyabrdan boshlab: oliy ta‘lim muassasalariga professor-o‘qituvchilar

tarkibiga ishga qabul qilish tegishli kafedraning kengaytirilgan ochiq majlisida pedagog kadrlar va jamoatchilik kengashining a'zolari ishtirokida sinov darsi o'tkazish natijalari bo'yicha ushbu majlisning tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi; O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'zaro kelishuvi hamda qo'shma ta'lim dasturlari asosida talabalarni o'qitishni tashkil etish va ikki tomonlama tan olinadigan diplom berish amaliyoti joriy etiladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda 2019-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda: oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlaridagi test savollarini tayyorlash uslublarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqsin hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin; ilg'or xalqaro imtihon tizimlari (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va hokazo) sertifikatlariga ega bo'lgan abituriyentlarga tegishli fanlardan belgilangan eng yuqori ball berish va ushbu fanlar test sinovidan ozod qilish tartibini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin: mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish; davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta'lim muassasalari tomonidan televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e'tiboriga yetkazilishini ta'minlash; hududlarni, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalarining keng muhokamasida oliy ta'lim muassasalarining faol ishtirokini ta'minlash; innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq

choralar ko‘rish; iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar tashkilotlari rahbarlari, yetakchi mutaxassislari, faol tadbirkorlar bilan dolzarb masalalarda seminar va davra suhbatlarini doimiy ravishda o‘tkazib borish, ularning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borish; oliy ta‘lim muassasalari rahbariyatining mamlakatni isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas‘uliyatini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar belgilash, har bir rektor va prorektor uchun ushbu yo‘nalishda alohida “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta‘minlash, ularning ijrosini nazorat qilish.

10. Belgilab qo‘yilsinki: oliy ta‘lim muassasalarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori lavozimi o‘rniga yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektori lavozimi joriy etiladi, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektorlarning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Yoshlar siyosati masalalari xizmatiga yuklanadi; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri, tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar rahbarlari – tegishli oliy ta‘lim muassasalari rektorlari va prorektorlarining, innovatsion rivojlanish vaziri – barcha oliy ta‘lim muassasalari ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorlarining faoliyati natijalarini ularning “Yo‘l xaritalari”da belgilangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan har oyda kamida bir marta tanqidiy muhokama qilib boradi; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining, tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar rahbarlarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda tegishli oliy ta‘lim muassasalarining faol ishtirokini ta‘minlash yuzasidan hisobotlari har yili Vazirlar Mahkamasining majlislarida muhokama etiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muhokama natijalariga ko‘ra oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining egallab turgan lavozimiga loyiqligi yoki noloyiqligi masalasini ko‘rib chiqadi; oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining faoliyati samaradorligiga baho berishda o‘quv jarayoniga yuqori malakali xorijiy olimlar, o‘qituvchi va mutaxassislarning keng jalb qilinganligi, shuningdek, O‘zbekiston

Respublikasida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallarini ochishda ularning tashabbuskorligi inobatga olinadi. 11. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy faoliyatga yo'naltirishga va ularda innovatsion fikrlashni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin, unda quyidagilar nazarda tutilsin: yangi g'oya va tashabbuslarni shakllantirish maqsadida har bir oliy ta'lim muassasasida "Yosh ekspertlar guruhi"ni tashkil etish; o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish; har bir oliy ta'lim muassasasida 1-kurs davomida saralab olingan eng iqtidorli talabalar uchun alohida guruhlar tashkil etish (mazkur guruhlardagi talabalar soni oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi), 2-kursdan ularni o'qitishni alohida o'quv reja va dasturlar asosida amalga oshirish, ushbu toifadagi talabalarni magistraturaga maqsadli qabul qilish va bu orqali oliy ta'lim muassasalari kafedralari uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish. 12. Yosh olim va talabalarga hamda tashabbuskor fuqarolarga mamlakatda innovatsion g'oya va texnologiyalarni rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun topshiriladigan "Innovatsion g'oyalar yetakchisi" ko'krak nishoni ta'sis etilsin. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda "Innovatsion g'oyalar yetakchisi" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida Hukumat qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin. 13. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha "Yo'l xaritasi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 14. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi bilan birgalikda bir oy

muddatda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mazmuni va mohiyatini televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida tushuntirish bo'yicha chiqishlarni tashkil etish yuzasidan har bir oliy ta'lim muassasasining yillik reja-grafigini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Moliya vazirligining: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qo'shimcha 2 ta shtat birligini ajratgan holda Axborot xizmatini tashkil etish; oliy ta'lim muassasalari tuzilmalarida ularning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qo'shimcha 1 tadan shtat birligini ajratgan holda matbuot kotibi lavozimini joriy etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda: a) oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar, davriy jurnallar bilan ta'minlash, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam ravishda yangilab borishni; ilg'or xorijiy o'quv hamda ilmiy adabiyotlar va jurnallarni xarid qilish ishlariga keng imkoniyatlar yaratish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish va o'quv jarayoniga joriy etishni nazarda tutadigan Hukumat qarorini qabul qilsin; b) Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin.

17. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda: a) bir oy muddatda quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin: oliy ta'lim muassasalariga xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanishga sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilarning ilmiy natijalarini xalqaro miqyosda keng nashr etish, respublika yetakchi ilmiy jurnallarining bosqichma-bosqich yuqori impakt-faktorga ega bo'lishini ta'minlash; oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, mavjud axborot tizimlarini integratsiyalash, tahliliy ma'lumotlar tayyorlashning

samarali tizimlarini joriy etish; b) abituriyentlar hujjatlarini elektron shaklda qabul qilish tizimini bosqichma-bosqich yaratish bo'yicha 2019 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatda chora-tadbirlar ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

18. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

birinchidan, oliy ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti;

ikkinchidan, professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

uchinchidan, oliy ta'lim muassasalariga kirish test savollari abituriyentning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi iqtidorli yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda muammolar keltirib chiqarmoqda;

to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi ushbu sohada ko'plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda;

beshinchidan, oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o'zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo'lib qolmoqda;

oltinchidan, respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki yo'lga qo'yilmagan;

yettinchidan, oliy ta'lim muassasalari innovatsion va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha taklif kiritish borasida professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar](#) strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning 2018/2019 o'quv yilidan boshlab:

alohida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qish muddati kamida uch yil bo'lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo'lgan magistraturani joriy etish, bunda magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo'nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul qilish kvotalaridan tashqari xorijiy fuqarolarni suhbat asosida test sinovlarisiz o'qishga qabul qilish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning viza talabnomalariga asosan o'qishga kirish istagini bildirgan xorijiy fuqarolarning kirish vizalarini o'rnatilgan tartibda konsullik va boshqa to'lovlarni undirmagan holda rasmiylashtirsin.

3. 2018/2019 o'quv yilidan boshlab tayanch (yetakchi) oliy ta'lim muassasalari tomonidan tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarini kadrlar buyurtmachilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, mustaqil ravishda ishlab chiqish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlash tartibi joriy etilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

a) ikki oy muddatda Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin, bunda asosiy e'tiborni:

baholash tizimi va mezonlarini uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlariga muvofiqlashtirishga;

ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimni baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio,

test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etishga;

semestr yakuni bo'yicha akademik qarzdor talabaning qayta topshirishi mumkin bo'lgan fanlar sonini belgilashga va ularni topshirish muddatini o'zgartirishga qaratsin;

b) 2018-yil 1-dekabrgacha bo'lgan muddatda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

v) 2019-yil 1-martgacha bo'lgan muddatda 2019/2020 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarida "talabaning o'zlashtirish darajasi — professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezon" tamoyilini joriy qilishning aniq mexanizmlarini belgilash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rsin. Bunda ushbu tamoyil talablariga javob bermaydigan professor-o'qituvchilar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan choralar ko'rish belgilansin;

g) 2018/2019 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining vaqtini o'quv jarayoniga xos bo'lmagan ishlarga sarflashning oldini olish hamda ularni talabalar bilan ko'proq ishlashga yo'naltirish, shu jumladan "ustoz — shogird" tizimini joriy etish maqsadida o'quv yuklamalarini hisobga olgan holda professor-o'qituvchilar "vaqt me'yorlari"ning yangi mexanizmlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etish taqiqlansin.

Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar mazkur talabni buzganligi uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan shaxsiy javobgarligi to'g'risida qat'iy ogohlantirilsin.

6. Barcha oliy ta'lim muassasalarida samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda jamoatchilik kengashlari tashkil etilsin.

Quyidagilar jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish;

oliy ta'lim muassasalariga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo'yicha tavsiyalar berish;

talabalarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va muassasaning tegishli kengashi muhokamasiga kiritish.

Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash Yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasasidagi yetakchisi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

7. Belgilansinki, 2018-yil 1-sentabrdan boshlab:

oliy ta'lim muassasalariga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish tegishli kafedraning kengaytirilgan ochiq majlisida pedagog kadrlar va jamoatchilik kengashining a'zolari ishtirokida sinov darsi o'tkazish natijalari bo'yicha ushbu majlisning tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi;

O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'zaro kelishuvi hamda qo'shma ta'lim dasturlari asosida talabalarni o'qitishni tashkil etish va ikki tomonlama tan olinadigan diplom berish amaliyoti joriy etiladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda 2019-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda:

oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlaridagi test savollarini tayyorlash uslublarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqsin hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

ilg'or xalqaro imtihon tizimlari (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va hokazo) sertifikatlariga ega bo'lgan abituriyentlarga tegishli fanlardan belgilangan eng yuqori ball berish va ushbu fanlar test sinovidan ozod qilish tartibini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish;

davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta'lim muassasalari

tomonidan televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e'tiboriga yetkazilishini ta'minlash;

hududlarni, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalarining keng muhokamasida oliy ta'lim muassasalarining faol ishtirokini ta'minlash;

innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq choralar ko'rish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar tashkilotlari rahbarlari, yetakchi mutaxassislari, faol tadbirkorlar bilan dolzarb masalalarda seminar va davra suhbatlarini doimiy ravishda o'tkazib borish, ularning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borish;

oliy ta'lim muassasalari rahbariyatining mamlakatni isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas'uliyatini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar belgilash, har bir rektor va prorektor uchun ushbu yo'nalishda alohida "yo'l xaritalari" ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlash, ularning ijrosini nazorat qilish.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar rahbarlari — tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari va prorektorlarining, innovatsion rivojlanish vaziri — barcha oliy ta'lim muassasalari ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlarining faoliyati natijalarini ularning "yo'l xaritalari"da belgilangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan har oyda kamida bir marta tanqidiy muhokama qilib boradi;

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar rahbarlarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda tegishli oliy ta'lim

muassasalarining faol ishtirokini ta'minlash yuzasidan hisobotlari har yili Vazirlar Mahkamasining majlislarida muhokama etiladi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muhokama natijalariga ko'ra oliy ta'lim muassasalari rektorlarining egallab turgan lavozimiga loyiqligi yoki noloyiqligi masalasini ko'rib chiqadi;

oliy ta'lim muassasalari rektorlarining faoliyati samaradorligiga baho berishda o'quv jarayoniga yuqori malakali xorijiy olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarning keng jalb qilinganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallarini ochishda ularning tashabbuskorligi inobatga olinadi.

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy faoliyatga yo'naltirishga va ularda innovatsion fikrlashni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin, unda quyidagilar nazarda tutilsin:

yangi g'oya va tashabbuslarni shakllantirish maqsadida har bir oliy ta'lim muassasasida "Yosh ekspertlar guruhi"ni tashkil etish;

o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish;

har bir oliy ta'lim muassasasida 1-kurs davomida saralab olingan eng iqtidorli talabalar uchun alohida guruhlar tashkil etish (mazkur guruhlardagi talabalar soni oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi), 2-kursdan ularni o'qitishni alohida o'quv reja va dasturlar asosida amalga oshirish, ushbu toifadagi talabalarni magistraturaga

maqsadli qabul qilish va bu orqali oliy ta'lim muassasalari kafedralari uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish.

12. Yosh olim va talabalarga hamda tashabbuskor fuqarolarga mamlakatda innovatsion g'oya va texnologiyalarni rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun topshiriladigan "Innovatsion g'oyalar yetakchisi" ko'krak nishoni ta'sis etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda "Innovatsion g'oyalar yetakchisi" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida Hukumat qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

13. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha "yo'l xaritasi" [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

14. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mazmuni va mohiyatini televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida tushuntirish bo'yicha chiqishlarni tashkil etish yuzasidan har bir oliy ta'lim muassasasining yillik reja-grafigini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Moliya vazirligining:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qo'shimcha 2 ta shtat birligini ajratgan holda Axborot xizmatini tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalari tuzilmalarida ularning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qo'shimcha 1 tadan shtat birligini ajratgan holda matbuot kotibi lavozimini joriy etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda:

a) oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar, davriy jurnallar bilan ta’minlash, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam ravishda yangilab borishni;

ilg‘or xorijiy o‘quv hamda ilmiy adabiyotlar va jurnallarni xarid qilish ishlariga keng imkoniyatlar yaratish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish va o‘quv jarayoniga joriy etishni nazarda tutadigan Hukumat qarorini qabul qilsin;

b) Oliy ta’lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlasin.

17. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda:

a) bir oy muddatda quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin:

oliy ta’lim muassasalariga xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalaridan foydalanishga sharoitlar yaratish, professor-o‘qituvchilarning ilmiy natijalarini xalqaro miqyosda keng nashr etish, respublika yetakchi ilmiy jurnallarining bosqichma-bosqich yuqori impakt-faktorga ega bo‘lishini ta’minlash;

oliy ta’lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, mavjud axborot tizimlarini integratsiyalash, tahliliy ma’lumotlar tayyorlashning samarali tizimlarini joriy etish;

b) abituriyentlar hujjatlarini elektron shaklda qabul qilish tizimini bosqichma-bosqich yaratish bo‘yicha 2019-yil 1-yanvargacha bo‘lgan muddatda chora-tadbirlar ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari, professional ta'limi muassasalari sifatini boshqarish tizimining mazmuni va tuzilmasi.
2. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimining mazmuni va tuzilmasi.
3. Malaka oshirish muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimini yaratish imkoniyatlarini o'rganish.

15-Mavzu: Ta'lim sifatini boshqarish tizimi holatini o'rganish va tashxis qilishga oid materiallar ishlab chiqish.

Reja:

1. Ta'lim sifatini boshqarish tizimi holatini o'rganish.
2. Ta'lim sifatini boshqarish tizimi tashxis qilishga oid materiallar ishlab chiqish.
3. Ta'lim sifatini boshqarish ilmiy bilish va amaliyot sohasi sifatida maktab menejmenti asoslari.

Tayanch so'z va iboralar: *Ta'lim sifati, Ta'lim sifatini boshqarish, tashxis qilish, materiallar ishlab chiqish, ilmiy bilish, amaliyot sohasi, maktab menejmenti*

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yadi. Sifatli mutaxassisni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta'lim muhitida amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim sifati har qanday davlatning muvafaqqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanmoqda.

“Sifat” tushunchasi turlicha, ba’zan bir-biriga zid ma’noda talqin qilinadi. Pedagogika fanida u: bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar, xususiyatlar, o‘ziga xosliklar; shuningdek u yoki bu xususiyat, qadr, yaroqlilik darajasi, ma’naviy-ahloqiy kategoriya yoki sof iqtisodiy tushuncha kabi talqin etiladi.

Ba’zi olim va amaliyotchilar uni ta’lim tizimining o‘zlashtirish sifatiga erishishga intilishi; boshqalar o‘qitish va tarbiyalashning sifati, uchinchilar, shaxs iqtidori rivojlanish darajasining oshishi; to‘rtinchilar, oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan umumiy o‘rta ta’lim va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sonining ko‘payishi; beshinchilar oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini tushunadilar.

Ta’lim sifati va uni ta’minlovchi omillar: ta’lim mazmunining fundamentalligi, ma’lum ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibligi, ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, boshqarishga kompleks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqalar orasidagi bog‘liqliklarni tavsiflashga nisbatan turli qarashlar mavjud.

Ta’lim sifati – bu nafaqat ta’lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek har bir pedagog va rahbarning ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlashdagi faoliyati hamdir.

Zamonaviy ta’lim muassasasida ta’lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirish darajasini, u kechadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to‘plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Ta’lim sifatini boshqarish (ta’lim sifati menejmenti) ta’limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta’lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan va amalda o‘z samaradorligini ko‘rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O‘z o‘rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada

o'shiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Demak, ta'lim sifatini boshqarish ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi, ya'ni u ta'limni boshqarish yaxlit tizimining tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.

Ta'lim sifati tashqi auditini jalb qilgan holda o'quv muassasasi faoliyatini tizimli va holis baholashga tayanuvchi ta'lim sifatini ta'minlash tizimining rivojlanish mantiqi ta'lim muassasalarida ta'lim sifati menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishni taqazo qiladi.

Bundan tashqari, o'quv muassasalarida ta'lim sifati menejmenti tizimining mavjudligi kelajakda ta'lim jarayoni sifati va natijalarini baholashning tashqi nazorati tadbirlarini ichki nazorat va o'zini-o'zi baholash natijalaridan foydalanish bilan almashtirish imkoniyatini yaratadi, mazkur jarayonlarning jamoatchilik nazoratiga ochiqligi esa ta'lim muassasasiga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi.

Sifatni boshqarish nazariyasining shiddat bilan rivojlanishi davri o'tgan asrning 40-yillari oxiri va 50-yillariga to'g'ri keldi. Ushbu davrda A.Feygenbaum (Armand V. Feigenbaum) sifatni ishlab chiqish, sifatni qo'llab quvvatlash va sifatni yaxshilash bosqichlaridan iborat Sifatning Umumiy Nazorati (Total Quality Control, qisqacha – TQC) tushunchasini kiritdi.

1. Bugungi kunga kelib TQCning bir-nechta asosiy (Yaponiya, Amerika, Yevropa) "maktab"lari mavjud. Shuning uchun, TQC asosini belgilovchi tamoyillar miqdori haqida mutaxassislar o'rtasida yagona bir fikr yo'q. Asosiylar sifatida quyidagi sakkizta tamoyil tan olingan [2]:

tashkilotning iste'molchiga yuz tutganligi;

rahbarlikning roli;

xodimlarni jalb etish;
jarayonli yondashuv;
boshqarishga tizimli yondashuv;
muntazam takomillashtirish;
dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilish;
ta'minlovchilar bilan o'zaro manfaatli munosabat.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mahsulot, xizmat, ish va jarayonlarning yuqori sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan hukumat, firma va kompaniyalar rahbariyatining sa'y-harakatlari natijasida sifatni oshirish milliy g'oyaga aylandi.

Turli yondashuvlarning integratsiyasi natijasida Sifatning umumiy boshqaruvi (TotalQualityManagement – TQM) kontseptsiyasi shakllandi.

Zamonaviy TQMning asosini oliy darajadagi rahbarlikning tashkilot, uning xodimlari, iste'molchilari va jamiyatning manfaatlarini ko'zlab sifat sohasidagi uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish va barcha xodimlarning uni amalga oshirishdagi ishtiroki tashkil qiladi.

Ta'lim muassasasi rahbariyatining sifatni boshqarishdagi doimiy va muntazam shaxsiy ishtiroki – ta'lim muassasasining sifatni ta'minlash ishida muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Sifatning umumiy boshqaruvini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- sifat menejmentini joriy etish, raqobat sharoitida ta'lim muassasasining maqsadi, umumiy mafkurasi, rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqish to'g'risida strategik qarorni qabul qilishi;
- tashkilot maqsadlari tarkibiga sifatni ta'minlashni kiritish, uni ham ma'naviy va ham moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- tashkilot oliy boshqaruvi tarkibidan sifat uchun mas'ul vakilni tayinlash;

- jarayonlarni boshqarishning statistik usullari va sifat menejmenti sohalari bo'yicha xodimlarni (shu jumladan, yuqori pog'ona rahbarlar tarkibidan) tayyorlash;
- xodimlar bilan qayta aloqani tashkil qilish (ichki iste'molchilarning fikrlari va talablarini inobatga olish);
- ichki audit va tashkilotdagi kamchiliklar tahlilini muntazam o'tkazib turish.

TQM kontsepsiyasida sifatni boshqarishga doir avvalgi kontsepsiyalarga xos bo'lgan barcha ijobiy jihatlar o'z aksini topgan. U ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina zamonaviy menejment tizimlarining asosini tashkil qiladi.

Standartlarning ahamiyati shundaki, ular korxonalar menejmentiga tizimli va jarayonli yondashuvni joriy etish, menejmentning e'tiborini iste'molchilarga va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olishga qaratadi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti(ISO)ning 9000 raqamli standartlari sifat tizimlarini loyihalashtirish va qo'llashning yagona, butun dunyoda tan olingan yondashuvini joriy qildi.


ISO 9000 standartlari turli soha tashkilotlari uchun universaldir. Ular ishlab chiqarish, aloqa, xizmatlar, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi faoliyat sohaslarida faol qo'llanilmoqda va dunyoda eng mashhur standartlar sifatida Ginnes rekordlar kitobiga kiritilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini boshqarish tizimini joriy etish tajribasi sifatni boshqarishning quyidagi asosiy bosqichlarini ajratish imkoniyatini beradi:

1. Ta'lim muassasasining ta'lim sifatini boshqarish tizimini loyihalashtirish va ta'lim sifatini boshqarishni rejalashtirish (Rejalashtirish) – talab qilinayotgan sifatga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyatning me'yoriy, tashkiliy, uslubiy va vositaviy asoslarini shakllantirish.
2. Ta'lim sifatini boshqarish (Bajarish) – ta'lim xizmatlari buyurtmachilarining ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha muntazam faoliyatlar ketma-ketligini aks ettiruvchi sifatni shakllantirish, asosiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, resurslar bilan ta'minlash jarayonlari.

3. Jarayonlar monitoringi va o'zgarishlar kiritish (Nazorat va Harakat) – sifatning erishilgan darajasini belgilangan darajasi bilan solishtirish va baholash jarayoni, barcha manfaatdor tomonlar bilan qayta aloqani amalga oshirish, boshqarish tizimi va faoliyatiga o'zgarishlar kiritish.

Shunday qilib, ta'lim sifatini boshqarish bir-biri bilan bog'langan va o'zaro ta'sirda bo'luvchi elementlardan iborat uzluksiz va yopiq kechadigan jarayondir.



Ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimini yaratishdan maqsad iste'molchilar talablariga mos keluvchi sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim etish uchun zarur sharoitlarni ta'minlashdir.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimi quyidagilar uchun zarur:

- davlat ta'lim standartlari talablariga erishishda ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish;
- muassasada ijodiy va ishchan muhitni rivojlantirish, xodimlarning kasbiy faolligini oshirish;
- ta'lim muassasasida boshqarish tizimini yaxshilash;
- ta'lim jarayonining moliyaviy, moddiy va kadrlar ta'minotini optimallashtirish;
- ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirish;
- ta'lim faoliyati uchun zamonaviy xavfsizlik sharoitlarni yaratish;
- ta'lim muassasasini boshqarishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash.

Ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimining vazifalari quyidagilar:

- ta'lim muassasasidagi ta'lim sifatining asosiy mezon ko'rsatkichlarini belgilash;
- ta'lim muassasasidagi ta'lim sifati to'g'risida tahliliy hisobotlar va ma'ruzalar tayyorlash;
- ta'lim sifatini ta'minlash va doimiy yaxshilash uchun ta'lim muassasasidagi innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish;
- ta'lim muassasasining rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash, pedagog xodimlar malakasini oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni qayd etamiz:

– ta'lim muassasasida ta'lim sifati menejmenti – bu loyihalashtirish, ya'ni ta'lim maqsadlarini va ularga erishish yo'llarini belgilash; ta'lim jarayonini tashkil etish va uning ishtirokchilarini sifatli mehnatga qiziqishini uyg'otish; maqsadlardan chetlanishlarni aniqlash va rivojlanishdagi o'zgarishlarni kuzatish tizimi (monitoringi); natijalarni boshqarish va tahlil qilish jarayonlaridir;

– ta'lim sifati menejmenti – bu har qanday, tasodifiy, oldingisidan ko'ra yaxshiroq, o'z-o'zidan kelib chiqadigan maqsadlarga emas, balki ta'limning oldindan rejalashtirilgan natijalariga, ya'ni muayyan o'quvchining eng yuqori imkoniyatlarga erishishi uchun tashkil qilingan va yo'naltirilgan alohida boshqaruvdir;

– ta'lim sifati menejmenti – bu belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun boshqaruvning barcha funktsiyalarini amalga oshirish, ham tor, ham keng ma'noda kafolatlangan natijaga erishish demakdir.

Ta'lim sifatini boshqarish ilmiy bilish va amaliyot sohasi sifatida maktab menejmenti asoslari.

Ta'lim jarayonini – ma'lumot mazmunini hamda unga oid faoliyat usullarini o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatining real aloqalashuvi, sababiyatli bog'lanishi, bir-biriga muvofiqlashuvi asosida ta'limning aktlar, zvenolar, sikllar shaklida makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq shirkat faoliyatidir.

Ta'lim maqsadlari .

1. Ta'limiy maqsad – o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olishdir.
2. Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon-e'tiqodlarini shakllantirishdir.
3. Rivojlantiruvchi maqsad – ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Maqsadlari:

Ta'lim sifati va sifatli ta'lim.

Sifat so'zining o'zidan o'rganilayotgan obyektning xususiyatlari tasnifini tushunish mumkin. Ta'lim sifati esa o'z o'rnida ta'limning samaradorligi, standart talablarga moslik darajasi va dolzarbligi ta'minlaydi. Shu o'rinda sifatli ta'limga o'quv dasturlariga va standartlarini takomillashtirilgan, yangicha adabiyotlar hamda zamonaviy innovatsion pedagogik tajribalarni qo'llagan holda erishish mumkin.

Ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o'z aksini topgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Quyidagi olimlarning respublikamizda ta'lim sifatini oshirish haqidagi fikrlarini ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz: o'quv mashg'ulotining asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda - asosiy e'tiborni maqsad va vazifalarni aniqlashga qaratish, pedagog va ta'lim oluvchilarning samarali hamkorligini yo'lga qo'yish, ilg'or pedagogik texnologiya va ular asosida yaratilgan interfaol usullardan foydalanish, natijalarini baholash tizimini takomillashtirish, uning barcha shakllarini yangi texnika va texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda tashkil etish va amalga oshirish, ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat hamda kasbiy mahoratlarini zamon talablari darajasida shakllantirish, o'quv mashg'ulotini noan'anaviy o'qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzluksiz aloqasini yaratish, kasbiy, iqtisodiy qiziqishlarni uyg'otish, mustaqil tarzda kerakli ma'lumotlarni yig'ish, muammoni aniqlash, yechimlarini topish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni tanqidiy tahlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo'llashga tizimli va ijodiy yondashishga qaratish lozim .

Pedagog mavzuni yoritish uchun uning muhim bo'lgan nazariya bilan asoslanganligi, fikrlarni mantiqan bog'langanligini tushuntira olsa, ma'lum maqsadga erishgan bo'ladi. Buning uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalari imkoniyatlari va usullaridan foydalanish zarur . Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi .

Ta'lim sifati, uning maqsad va vazifalarini, mazmunini, shakl, metod, texnologiya va vositalarini to'g'ri tanlash muhim. Har bir mashg'uloti ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o'quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mashg'ulot sifati

o'qilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogning mas'uliyat bilan yondashishi, uning mazmunini ta'lim oluvchilarga yetkazishga qaratilgan mahorati, mashg'ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish uslubiy faoliyati bilan belgilanadi. Bu vazifalarni amalga oshirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlashda xorij tajribalaridan samarali foydalanish, uning asosida o'quv mashg'ulotini tashkil etishga ta'lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.

Chunki, o'quv mashg'uloti jarayoni pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni bo'lib, uni tashkil qilish va boshqarishga to'g'ri, innovasion yondashuv ta'lim oluvchilarni bilim olishga, mustaqillikka, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, hamkorlikda ishlashga, kasbiy kompetensiyalarni chuqurlashtirish orqali ta'lim sifatiga e'tibor berishga jalb qiladi. Ta'lim sifatini oshirishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, bu yo'ldagi maqsad va vazifalarni aniq belgilash, buning uchun jahonda tan olingan tajribalardan foydalanish, axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, bu jarayon samaradorligini oshiradi. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan turli texnologiya va usullardan foydalanish, mazmunga e'tiborni qaratish ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

3. Ta'lim sifatini boshqarish tizimi holatini o'rganish?
4. Ta'lim sifatini boshqarish tizimi tashxis qilishga oid materiallar ishlab chiqish?
4. Ta'lim sifatini boshqarish ilmiy bilish va amaliyot sohasi sifatida maktab menejmenti asoslari?

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

SAN'ATSHUNOSLIK KAFEDRASI
OLIIY TA'LIMDA MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH METODIKASI
FANIDAN

O'QUV - USLUBIIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Magistratura mutaxassisligi:	70111301 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta'lim)

Shahrisabz - 2025

1-Mavzu.Kasb tiplarini aniqlash.

Reja:

1. Kasb-hunarga yoʻnaltirish tamoyillari.
2. Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish shakllari.
3. Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish metodlari.
4. Kasb- hunarga yoʻnaltirish maqsadida oʻquvchilarni oʻrganish metodlari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. oʻquv qoilanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qoʻshimcha adabiyotlar

1. Joʻraev R.X., Tolipov Oʻ.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida oʻquvchilarni kasb-hunar yoʻnaltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy oʻrta ta'lim maktablari kasbga yoʻnaltirish oʻquv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov Oʻ.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashgʻulotlar jarayonida oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻllash texnologiyasi. - Toshkent: oʻzPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

Mavzu. Qiziqishlar xaritasi metodikasi.

Reja:

1. Kasb-hunarga yo'naltirish ishining asosiy yo'nalishlari va ularning mazmuni.
2. Kasb-hunarga yo'naltirish ishining mazmuni:
3. kuzatish; diagnostik suhbatlar; birinchi bosqich - 1-4 sinf; ikkinchi bosqich - 5-9 sinf; uchinchi bosqich - 10-11 sinf yoki akademik litsey, kasb- hunar kolleji.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.

2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.

3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.

4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

1.www.zivonet.uz

2.www.pedagog.uz

2-Mavzu. O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash metodikasi.

Reja:

1. Qiziqishlar, mayilliklar, qobiliyatlar.
2. Salomallik va kasb. Kasbga yaroqlik.
3. Kasb tanlashda onglik va mustaqillik.
4. O'z-o'zini tarbiyalash va kasb tanlash.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

3-Mavzu. Ayzenkning shaxs so'rovnomasi.

Reja:

1. Kasb - hunarga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy asoslari.
2. Kasb - hunarga yo'naltirish ishlarining psixologik asoslari.
3. Kasb - hunarga yo'naltirish ishlarining fiziologik asoslari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.

2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.

3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.

4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

1.www.zivonet.uz

2.www.pedagog.uz

4-Mavzu. O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini diagnostika qilish metodikasi.

Reja:

1. Kasb hunarga yo'naltirish komissiyalarini tashkil qilish
2. Kasb hunarga yo'naltirishda o'qituvchilar bilan metodik ishlarni tashkil qilish.
3. Kasb hunarga yo'naltirishda o'quvchilar bilan ishlash
4. Kasb hunarga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlash

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

Mavzu. Kasbiy moyillik so'rovnomasi.

Reja:

1. Kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy reja tuzish.
2. Kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash.
3. Tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qoilanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.

2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.

3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.

4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

1.www.zivonet.uz

2.www.pedagog.uz

5-Mavzu. Shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasi.

Reja:

1. Kasb-hunarga yo'naltirish tamoyillari.
2. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish shakllari.
3. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish metodlari.
4. Kasb- hunarga yo'naltirish maqsadida o'quvchilarni o'rganish metodlari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qoilanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.

2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.

3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.

4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

Mavzu. Kasbiy ustanovkalarni aniqlash.

Reja:

1. Kasb tanlashda uchraydigan tipik xatoliklar.
2. Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik.
3. Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qoilanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.

2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.

3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.

4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

6-Mavzu. Kasbiy identifikatsiyani aniqlash.

Reja:

1. Kasb-hunarga yoʻnaltirish tamoyillari.
2. Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish shakllari.
3. Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish metodlari.
4. Kasb- hunarga yoʻnaltirish maqsadida oʻquvchilarni oʻrganish metodlari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. oʻquv qoilanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qoʻshimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.

2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.

3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabinetini faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.

4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

1.www.zivonet.uz

2.www.pedagog.uz

7-Mavzu. Shaxsning muloqotchanlik va tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash.

Reja:

1. Kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish.
2. Kasblarning tiplari.
3. Kasblarning turkumlari.
4. Kasblarning bo'limlari va gruppalari.
5. Kasb tanlash formulasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qoilanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

8-Mavzu. Kasbiy qobiliyatlarni aniqlash metodikasi. Kasbiy sifatlarni tashxis qilish metodikasi

Reja:

1. Kasbiy qobiliyatlarni aniqlash metodikasi.
2. Qobiliyatlarning turlari.
3. Kadsbioy sifatlari.
4. Kasblarning turlari.
5. Kasbiy sifatlarni tashxis qilish metodikasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz

9-Mavzu. O'smirlarning kasbiy qiziqishlari dinamikasi. Shaxsning kasb tanlashdagi ta'sir etuvchi omillar.

Reja:

1. O'smirlarning kasbiy qiziqishlari dinamikasi.
2. Kasbga qiziqtirish yo'llari.
3. Kasb tanlashda uchraydigan tipik xatoliklar.
4. Shaxsning kasb tanlashdagi ta'sir etuvchi omillar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

10-Mavzu. Shaxsning kasb tanlashdagi ta'sir etuvchi omillar. Kasbga yo'naltirish diognastikasini tashkil etishda komunikatsion texnologiyalardan (AKT)foydalanish.

Reja:

1. Shaxsning kasb tanlashdagi ta'sir etuvchi omillar.
2. Kasbga yo'naltirish diognastikasini tashkil etish.
3. Kasb tanlashda komunikatsion texnologiyalardan (AKT)foydalanish.
4. Kasbiy kasalliklarning kelib chiqish sabablari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qoilanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

11-Mavzu. Kasbga yo'naltirish diagnostikasi jarayonini loyihalashtirish.

Reja:

1. Kasbga yo'naltirish diagnostikasi.
2. Kasbga yo'naltirish diagnostikasini tashkil etish.
3. Kasbga yo'naltirish diagnostikasi jarayonini loyihalashtirish.
4. Loyihalashtirish jarayonini boshqarish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

12-Mavzu. O'qituvchining o'z-o'zini baholash metodikasi.

Reja:

1. O'qituvchining o'z-o'zini baholash metodikasi.
2. Oqituvchining kiyinish madaniyati.
3. O'qituvchining burchlari.
4. O'qituvchining kasbiy mahorati.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qoilanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.

2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.

3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.

4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

13-Mavzu. Differensial diagnostik so'rovnoma o'tkazish metodikasi.

Reja:

1. Differensial diagnostik so'rovnoma o'tkazish metodikasi.
2. Differensial diagnostik so'rovnoma qo'llash usullari.
3. Differensial diagnostik vazifalar yechimlarini taxmin qilish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

14-Mavzu. Kasbiy moyilliklarni aniqlash metodikasi.

Reja:

1. Kasbiy moyilliklarni aniqlash metodikasi.
2. Kasb tanlashda uchraydigan xatoliklar.
3. Kasblarning turlari
4. Qiziqish va majburiyatga qarab kasb tanlash.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.

2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.

3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.

4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

1.www.zivonet.uz

2.www.pedagog.uz

15-Mavzu. O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi .

Reja:

1. O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasi .
2. Kasblar klasifikatsiyasi.
3. Kasb tanlashda o'quvchilarning qiziqishini aniqlash.
4. Kasblarning turlari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yoilash. o'quv qo'lanma.-Toshkent: O'zROO'MTV, 2007, 234 bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yoilash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. - T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
4. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. - Toshkent: o'zPFITI. 2004. 32 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.zivonet.uz
- 2.www.pedagog.uz

GLOSSARIY

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi– kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishdir, ya'ni, Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan izchil ilgarilab borish; mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti, asosan xom ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustivorligini qaror toptirish, milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat uyg'otish, respublikaning jahondigi mavqei va obro'-e'tiborini mustahkamlanib borishigi erishish.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli – uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafolatlari.

Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi to'zilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, tayyorgarlik sifati va nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Bilim – amalda tekshirilgan atrof-bunyoni o'rganish natijalari, insonning miyasida uning aniq aks ettirilishidir.

Malaka - mavjud bilimlari asosida o'zgargan yoki yangi sharoitlarda shaxsning faoliyatni samarali bajarishga qobiliyati hisoblanadi. Malaka – bu bilimlar yordamida mavjud axborotlarni tushunib olish, maqsadga erishish rejasini tuzish, faoliyat jarayonini boshqarish va nazorat qilish qobiliyatidir. Oddiy malakalar yetarlicha mashq qilinganda avtomatlashtirilishi mumkin va ko'nikmalarga aylanadi.

Ko'nikmalar - bu biror-bir harakatlarni avtomatik ravishda, qismlarini nazorat qilmay turib bajarish qobiliyatidir. Shuning uchun ba'zan ko'nikma – bu avtomatlashtirilgan malaka deb aytadilar. Ko'nikma va malakalar turli xil mantiqiy asoslar bo'yicha turlarga ajratiladi.

Interfaol mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

Yo'l – (ruscha – priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Metod – grekcha so'z bo'lib, yo'l, axloq usuli ma'nolarini bildiradi. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Motiv – odamni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi.

Pedagogika – ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy masalalarini o'rganuvchi fan. u barkamol insonni voyaga yetkazish maqsadlariga xizmat qiladi.

Perseptiv qobiliyat – o'quvchining ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yo'zaga chiqariluvchi qobiliyat.

O'rganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'rgatish - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlar orqali amalga oshirish jarayoni.

Hamkorlik pedagogikasi – ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilarning o’zaro muloqotiga asoslangan shaklda ta’lim berishga yo’naltirilgan tizim.

Kasbiy – pedagogik muloqot – pedagog va ta’lim oluvchilarning o’zaro zich ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo’lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish, kommunikativ vositalar yordamida o’zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bo’lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo’lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

Bilim - bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlarning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog‘liqlikdir. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. Chunki bu zaruriy bog‘liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqadi va insonning ixtiyoridan tashqari mavjud bo’ladi. Uni o’zgartirib bo’lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma’lumot (axborot) orqali o’tadi.

Ko’nikma va malakalar. Ko’nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan ko’zatish mumkin bo’lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi. Malakalar ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yo’z beradigan harakatlardir.

Malaka- kishi egallagan bilimlari ko’nikma bosqichidan o’tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorat hosil qilishi, ma’lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Mahorat-o’zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

Kasb - muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turi. Kasb-hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus ma'lumot, amaliy ish-harakat usullarini o'zlashtirish orqali erishiladi.

Kasbiy mahorat – bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasi aks ettirishida namoyon bo'ladi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajadagi moslashuvchanligi, yangiliklarni tez o'zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o'ta olishi va faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kasbi sifatlar bilan belgilanad.

Ta'lim va tarbiya birligi Bu tamoyil unumli mehnat, ya'ni ijtimoiy foydali buyumlar yaratish asosida ishlab chiqarish ta'limi berishni ko'zda tutadi. Bunday mehnat va texnologik jihatdan yaxshi ta'minlanganligi, chuqurroq bilim ta'lab etishi, o'quvchilarning moddiy manfaatdor bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Ta'limning ilmiyligi Hozirgi zamon fanida o'zil-kesil aniqlangan qoidalarni o'zlashtirish. Faqat ayni fan-texnikada qabul qilingan atamalardan foydalanish. Fan-texnikaning turli sohalarida erishilgan eng yangi yutuqlarni o'rganish.

Ta'limda tizimlilik va izchillik Kasb ta'limi dasturida ko'rsatilgan tizimda tashkil etish. Ta'lim jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalarning mantiqiy ketma-ketligiga rioya qilish. Ta'lim jarayonini amalga oshirishda, o'quv materiallarini o'rganish va o'qituvchining ishini tashkil qilishda izchilikka amal qilish.

Nazariya va amaliyot Nazariy bilimlardan amaliyotda foydalanish va o'quvchilarning amaliy tajribalaridan nazariy mashg'ulotlarda foydalanish. Bu tamoyil o'quvchilarning o'quv materiali puxta o'zlashtirishini,

birligi	shuningdek, ular dunyoqarashning shakllanishiga xizmat qiladi.
Yosh individual xususiyatlarni hisobga olish	Ta'lim mazmuni va ta'lim metodlarining o'zaro mosligi, bunda o'quvchilarning aqliy, jismoniy va yosh xususiyatlarining e'tiborga olinishi. Bu talablarning bajarilishiga o'quv materialini qismlarga to'g'ri taqsimlash (bajarishga kuch yetarli bo'lishi, oddiydan murakkabga o'tishini ta'minlash, o'qitishning turli metodlaridan foydalanish)ning obektiv meyorlarini belgilash, ta'lim samaradorligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar individual xususiyat hamda qiziqishlarini o'rganish yo'li bilan erishiladi.
Ta'limning politexnik xususiyatga egaligi	Bu tamoyil hozirgi zamon sanoati to'g'risida umumiy ma'lumot berish, ishlab chiqarishda eng ko'p uchraydigan texnologik jarayonlarni bilishni, mashina va mexanizmlarning to'zilishi va ishlashidagi umumiylikni bilish, xilma-xil mehnat uquv va malakalariga ega bo'lishni, mehnatga aloqador masalalarni ijodiy hal qila olish va rasionalizatorlik ishlarni olib borishni, umumta'lim va maxsus fanlardan olingan bilimlarni mohirlik bilan tatbiq eta bilishni ko'zda tutadi.
Onglilik va faollik	Ta'lim o'quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligi tarbiyalaydigan tarzda olib borilishi kerak. Bu sifatlar mashg'ulotlardan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni to'g'ri ifodalab olinishi, o'quv materialining ongli o'zlashtirilishi, nazariy va ishlab chiqarish ta'limning uzviy bog'liqlikda borishi, o'qitishda samarali usullardan foydalanish natijasida vujudga keladi.
Ta'limda ko'rsat	Bu tamoyil o'qitishni o'quvchilarda tasavvur va tushunchalarning, shuningdek, uquv hamda malakalarni buyum

malilik va hodisalarni jonli mushohada etish asosida vujudga kelishini ta'minlaydigan qilib olib borish zaruratini bildiradi. Ko'rgazmalilik ekskursiyalar tashkil etish, mehnat usullarini ko'rsatib berish, plakat, jadval, buyum namunalari, jihozlarni ko'rsatish, multimedia, elektron darslik va eksponatlarni namoyish qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bilim, Bunda ongli va puxta o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida **ko'nikma va o'tilgan materialni tizimli ravishda takrorlab borishni,** yangi **malakalarni** materialni mustahkamlash choralarini ko'rish zarurligi nazarda **o'zlashtirishni** tutiladi. Bunga esa tushunarli qilib bayon etish, mashqlar **ng** o'tkazish, ilgari o'tilganlarni o'z o'rnida takrorlash, o'quv **mustahkam** materialini bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish, **va puxtaligi** o'quvchilarning bilimlarini, uquv va malakalarini tizimli ravishda hisobga olib boorish yo'li bilan erishiladi.

ГЛОССАРИЙ

Национальная программа подготовки кадров - радикальная реформа системы подготовки кадров, последовательное продвижение республики с пути построения демократического правового государства и справедливого гражданского общества; осуществление радикальных изменений в экономике страны, последовательное развитие экономики республики, в основном от сырьевой ориентации к производству конкурентоспособной продукции, установление приоритета личной выгоды и образования в государственной социальной политике, для достижения уважения к богатым национальным культурным и историческим традициям и интеллектуальному наследию нашего народа, к укреплению благосостояния и репутации страны.

Национальная модель обучения персонала - ее основными компонентами являются:

Лицо - Потребитель и их исполнитель в основном подразделении системы подготовки кадров и в области образования.

Государство и общество - гарантии обучения и переподготовки кадров, которые регулируют и контролируют систему образования и обучения.

Непрерывное образование является основой подготовки компетентного конкурентоспособного персонала, включает в себя все виды образования, государственные образовательные стандарты, структуру системы обучения персонала и окружающую среду.

Наука является разработчиком передовых педагогических и информационных технологий, которые готовят и используют высококвалифицированных специалистов

Производство - является основным клиентом, определяющим качество обучения и кадрового обеспечения, а также процесс предоставления финансово и материально-технической поддержки системе обучения персонала.

Знания - результаты экспериментального изучения окружающей среды на практике четко отражены в мозге человека.

Квалификация - способность человека эффективно осуществлять свою деятельность при изменяющихся обстоятельствах или при новых обстоятельствах. Квалификация - это способность осмысливать существующую информацию, строить план с целью, управлять и контролировать деятельность посредством этих знаний. Простые навыки могут быть автоматизированы и обеспечены достаточным количеством навыков.

Навыки - это возможность автоматически выполнять любое действие без управления разделами. Вот почему иногда навыки называются автоматическими навыками. Навыки и квалификация различаются по различным логическим основаниям.

Интерактивное обучение - семинар, в котором активно участвуют преподаватели и студенты; процесс будет сотрудничать.

Путь - (русскииу - прием) - тип деятельности, выбраннuyu для достижения цели.

Метод греческий, что означает «путь, нравственность». Знание природы и социальных событиу, методы исследования. Активность, путь, способ действия или внешниу вид, форма, внешниу вид.

Мотивация - это комбинация различных причин для попытки прочитать или сделать что-то.

Педагогика - это наука, которая изучает теоретические и практические вопросы образования и воспитания. он служит цели воспитания гармоничного человека.

Перспективная способность - это способность проявляться через восприятие психического состояния читателя.

Обучение - это способность использовать информацию и осуществлять способность выполнять разные действия независимо.

Обучение - это процесс объяснения, демонстрации и использования пользователями информации и различных форм поведения различными способами и способами.

Педагогика сотрудничества - это система обучения, основанная на взаимодействии педагогов и стажеров.

Профессионально-педагогическиу диалог - это система усиленной социально-психологическоу взаимосвязи педагогических и педагогических работников, их содержание - обмен информацией, воспитательное влияние, организация общения через общение.

Профессиональная подготовка - психологическая, психофизическая, физическая и научная, теоретическая и практическая подготовка будущего специалиста.

Профессиональная компетентность - теоретическая и практическая единица обучения, необходимая для педагогическоу деятельности.

Знание - это связь от внутренней необходимости частей всего тела. Это также называется законом. Это связано с тем, что необходимость этой связи вытекает из природы вещей и явлений и существует вне человеческого контроля. Его нельзя изменить. Знания идут от человека к человеку через информацию.

Навыки и навыки. Под навыками и навыками понимаются внешние действия и реакции, которые создают условия, позволяющие человеку преуспеть в определенных действиях.

Квалификация - это автоматические действия, которые являются частью деятельности, которая сознательно осуществляется.

Квалификация - это способность человека проходить через уровень навыка, стать постоянным движением, способностью работать эффективно и эффективно.

Мастера - все практические действия (в том числе преподавание) на основе приобретенных знаний и опыта проводятся меньше времени и усилию.

Профессионал - это тип работы, требующий определенных знаний и навыков. Получение профессиональных секретов достигается за счет развития общих и конкретных знаний, практических практик.

Под профессиональным навыком понимается, что выпускник имеет высокий уровень профессиональных навыков и навыков, которые отражают степень конкурентоспособности личности на рынке труда. Высокий профессионализм и гибкость рабочей силы, быстрое поглощение инноваций, нехватка новых производственных условий и независимый выбор сферы деятельности определяются профессиональными качествами.

Единица образования и обучения - инновационный принцип предусматривает обучение на основе продуктивной работы, то есть создание социально полезной продукции. Он характеризуется благополучием и технологическим прогрессом, более глубоким пониманием материальных интересов студентов.

Научные исследования - освоение правил, которые четко определены в современной науке. Использование тех же терминов, которые используются только в науке. Изучение последних достижений в различных областях науки и техники.

Систематизация и непрерывность образования в системе, указанной в программе профессионального обучения. Соблюдение логической последовательности знаний, навыков и навыков, которые могут быть использованы в процессе обучения. Управлять процессом обучения, изучать учебные материалы и следить за работой учителя.

Теоретическое и практическое использование теоретических знаний на практике и использование практического опыта студентов в теоретических упражнениях. Инновационный принцип поможет учащимся овладеть учебным материалом, а также сформировать мировоззрение.

Принимая во внимание возрастную индивидуальность - содержание учебного контента и совместимость методов обучения с учетом умственных, физических и возрастных особенностей учащихся. Это требование определяет объективное разделение учебного материала на части (способность выполнять, просто переход, использование разных методов обучения), обеспечивая эффективность обучения чтобы дать студентам понимание их индивидуальности и взглядов.

Политехнический характер образования - инновационный принцип обеспечивает общую информацию о современной промышленности, знание наиболее распространенных технологических процессов в производстве, общность структуры и функционирования машины и механики, разнообразие рабочих навыков и навыков творчески, решать творческие вопросы и проводить рационализацию, овладевать знаниями, полученными от общих и специальных предметов.

Позитивное и активное - образование должно проводиться таким образом, чтобы воспитывать и поощрять учащихся. Эти качества являются

результатом правильного представления целей и задач, изложенных в учебном плане, сознательного изучения учебного материала, взаимосвязи теоретического и практического образования, эффективного использования методов обучения.

Обеспечение образования - инноваций принцип требует обучения учеников воображению и концепциям, а также обучению и навыкам на основе живого разума вещей и явлений. Выставка организована путем организации экскурсий, представления методов работы, презентаций плакатов, столов, предметов, оборудования, мультимедиа, электронных учебников и экспонатов.

Сила и изощренность знаний, навыков и навыков - для обеспечения сознательного и тщательного обучения необходимо систематически повторять инноваций материал и принимать меры по укреплению нового материала. Инноваций способ ясно объяснить, осуществлять, повторять сказанное, постепенно усложнять учебный материал, систематический учет знаний, навыков и способностей учащихся .

GLOSSARY

National Program for Personnel Training - radical reform of the system of personnel training, consistent advancement of the republic from the path of building a democratic legal state and a just civil society; the implementation of radical changes in the economy of the country, consistent development of the economy of the Republic, mainly from the raw material orientation to the production of competitive products, the establishment of the priority of personal benefit and education in the state social policy, to achieve respect for the rich national cultural and historical traditions and the intellectual heritage of our people, to strengthen the country's prosperity and reputation.

National model of personnel training - its main components are:

Person - Consumer and their implementer in the main subdivision of the system of personnel training and in the field of education.

State and society - guarantees of training and retraining of personnel, which regulate and supervise the system of education and training.

Continuous education is the basis of training competent competitive personnel, includes all types of education, state education standards, the structure of the personnel training system and its environment.

Science is the developer of advanced pedagogical and information technologies that prepares and uses highly qualified professionals

Production - is a major customer, defining the quality of training and staffing, as well as the process of providing financial and logistical support to the personnel training system.

Knowledge - the results of studying the environment in practice, are clearly reflected in the human brain.

Qualification - the ability of an individual to effectively carry out the activity under changing circumstances or under new circumstances. Qualification is the ability to comprehend existing information, build a plan for the purpose, manage and control the activity through this knowledge. Simple skills can be automated and skills-enabled enough.

Skills - this is the ability to automatically perform any action without controlling partitions. That's why sometimes skills are called automated skills. Skills and qualifications are varied on a variety of logical basis.

Interactive training - a workshop with teachers and students actively involved; the process will co-operate.

The way - (Russian - priyom) - the type of activity chosen to accomplish a goal.

The method is Greek, meaning "way, morality." Knowledge of nature and social events, methods of research. Activity, path, way of action or appearance, shape, appearance.

Motivation is a combination of various reasons for trying to read or do something.

Pedagogy is a science that studies theoretical and practical issues of education and upbringing. It serves the purpose of bringing up a harmonious human being.

Perceptive ability is the ability to emerge through the perception of the mental state of the reader.

Learning is the ability to use information and to exercise the ability to perform different actions independently.

Learning is the process of explaining, demonstrating, and exercising the use of information and different behaviors by students in a variety of ways and means.

Collaboration pedagogy is a system of instruction based on the interaction of educators and trainees.

Professional - pedagogical dialogue is a system of intensified social and psychological interrelation of pedagogical and pedagogical employees, their content is the exchange of information, educational influence, organization of interaction with communicative means.

Vocational training - psychological, psychophysical, physical and scientific, theoretical and practical training of the future specialist.

Professional competence - a theoretical and practical unit of training necessary for pedagogical activity.

Knowledge is the link from the inner necessity of parts of a whole body. It is also called law. This is because the necessity of this connection is derived from the nature of things and phenomena and exists beyond human control. It can not be changed. Knowledge goes from person to person via information. Skills and Skills. Skill and skill are understood to mean external actions and reactions that create conditions that enable a person to succeed in certain activities. Qualifications are automatic actions that are part of the activity that is consciously exercised.

Qualification is the ability of a person to pass through a skill level, become a constant act of movement, ability to work effectively and efficiently.

Masters - All the practical actions (including teaching) on the basis of acquired knowledge and experience, are spent less time and effort.

Professional - a type of work that requires certain knowledge and skills. The acquisition of professional secrets is achieved through the development of general and specific knowledge, practical work practices.

Professional skill is understood to mean that a graduate has a high level of professional skills and skill that reflects the degree of competitiveness of the individual in the labor market. High professionalism and flexibility of the workforce, fast absorption of innovations, shortage of new production conditions and independent choice of field of activity are defined by professional qualities.

Ebucation and training unit - this principle envisages training on the basis of productive work, ie creation of socially useful products. It is characterized by well-being and technological advancement, a deeper appreciation of the material interests of students.

Scientific Research - Acquiring the most accurate rules in modern science. Use of the same terms used only in science. Studying the latest achievements in various fields of science and technology.

Systematization and continuity of ebucation in the system specified in the program of vocational training. Compliance with the logical sequence of knowledge, skills and skill that can be used in the learning process. Exercise the learning process, learn learning materials, and follow up on teacher's work.

Theory and practice unit - the use of theoretical knowledge in practice and the practical use of the students in the theoretical exercises. This principle will help the students to master the learning material, as well as the formation of the world outlook.

Taking into account the age-specific individuality - the content of the learning content and the compatibility of learning methods, taking into account the mental, physical and age features of the students. This requirement identifies the objective division of the training material into parts (the ability to perform, simple transition, use of different teaching methods), ensuring the effectiveness of learning in order to provide students with an understanding of their personality and attitudes.

Polytechnic nature of education - this principle provides general information about the modern industry, knowledge of the most common technological processes in production, the generality of machine and mechanics structure and functioning, diversity of work skills and skills to be creative, to solve creative issues and to carry out rationalization, to master the knowledge acquired from general and special subjects.

Positive and active - education should be conducted in a way that educates and encourages learners. These qualities are the result of the proper presentation of the goals and objectives set out in the curriculum, the conscious learning content of the learning material, the relevance of the theoretical and practical education, and the effective use of teaching methods. will come.

Providing education - this principle requires the teaching of the students to make imaginations and concepts, as well as training and skill, on the basis of live intelligence of things and phenomena. The exhibition is organized by organizing excursions, presenting work methods, presenting posters, tables, pieces, equipment, multimedia, electronic textbooks and exhibits.

Strength and sophistication of knowledge, skill and skill - in order to ensure conscious and careful learning, it is necessary to systematically repeat this material and take measures to strengthen the new material. This is a way of explaining clearly, exercising, repetition of what has been said, gradually complicating the learning material, systematic accounting of students' knowledge, skills and abilities is achieved.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.A.Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo‘ysinov. Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash: Darslik; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. -T: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. - 456 b.
2. N.A.Muslimov., R.G.Mulaxmetov. Kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. T. 2007-172b.
3. S.A. Boltaboyev U. Tolipov. Umumiy o‘rta talim maktablari kasbga yo‘naltirish o‘quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha metodik tavsiyanoma. - Toshkent 2000.
4. N.Tayloqov va boshqalar. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish texnologiyalari. Ilmiy ommabop risola. –T: ”Kamalak” nashriyoti, 2017.-160 b.
5. R.X.Jo‘rayev, O‘.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov. Uzluksiz talim tizimida o‘quvchilarni kasb-hunar yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. -T.:Fan. 2004. 120 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.: Toshkent «O‘zbekiston» NMIU, 2017.
5. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. / SH. M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. -592 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi 4947-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida” gi PF-5106– sonli Farmoni. 5 iyul 2017 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. –Toshkent: O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002. 12 b.
10. Tolipov O‘.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari Mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash texnologiyasi. Toshkent: O‘zPFITL. 2004. 31.Hasanboyev J. va boshq.
11. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
12. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
13. Gaynutdinova L., Jo‘raboyev K. “Mening kasbiy tanlovim” Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari uchun metodik qo‘llanma.–T.: -2020.

Axborot manbalari

- 1.<http://www.istedod.uz>
- 2.<http://www.pedagog.uz>
- 3.<http://www.zyonet.uz>

4.www.proforientator.ru.

5.www.proforientator-UA.

6.www.edunews.ru.

